

11.2
20
ISLOM KARIMOV

O'ZBEKISTON
MUSTAQILLIKKA
ERISHISH
OSTONASIDA

«O'ZBEKISTON»




436.2

32

K-26

ISLOM KARIMOV

**O'ZBEKISTON
MUSTAQILLIKKA
ERISHISH
OSTONASIDA**



B 15138



TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2011

УДК: 341.231(575.1) + 94(575.1)
ББК 66.3(5Ў)
К25

SO'ZBOSHI O'RNIDA

Hurmatli kitobxon!

Nashriyotimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizning o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritish arafasida va undan keyingi dastlabki oylarda olib borgan jo'shqin va serqirra siyosiy-ijtimoiy faoliyatini aks ettiradigan, «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» deb nomlangan yangi kitob tayyorlanib, e'tiboringizga havola etilmoqda.

Bu kitobdan davlatimiz rahbarining ayni shu murakkab tarixiy davrda so'zlagan ma'ruza va nutqlari, suhbat, maqola va intervyulari o'rin olgan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, bu chiqishlar kitob holida ilk marta chop etilmoqda. Ularning ijtimoiy mohiyati, ilmiy-nazariy qimmatini va ahamiyatini naqadar beqiyos ekani bugun, vaqt o'tib, Vatanimiz mustaqilligining 20 yillik sanasi nishonlanayotgan shu kunlarda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lmoqda. Hech mubolag'asiz, bu to'plamdan joy olgan har bir chiqishni muhim siyosiy voqea, yurtimizni milliy istiqlolga olib kelgan mashaqqatli va sharafli kurash tarixining o'chmas sahifasi, deb atash mumkin.

Albatta, bu kitobda ana shu davrda yuz bergan barcha voqea-hodisalarni va muallifning ularga bo'lgan munosabatini xronologik tarzda to'la va batafsil aks

ettirish maqsad qilib qo'yilmagan. Asosiy maqsad — sovet davlati hali o'zining hukmronlik kuchini yo'qotmagan, uning repressiv siyosati davom etayotgan, «paxta ishi» degan tuhmat bilan qancha-qancha odamlar nohaq qamalgan, tazyiq va ta'qiblarga uchragan, xalq o'rtasida tushkunlik, ertangi kunga ishonchsizlik kayfiyati, qo'rquv va vahima keng tarqalgan bir paytda O'zbekiston rahbari sifatida ish boshlagan Islom Karimovning mustaqillikka erishish masalasini kun tartibiga qat'iy qilib qo'yganini aniq tarixiy hujjatlar orqali ko'rsatish, bu yo'lda qanday ulkan ishlar amalga oshirilgani haqida o'quvchilarga ma'lumot yetkazishdan iborat.

Shuning uchun ham ushbu kitobda Yurtboshimizning o'sha davrdagi barcha chiqishlari to'liq berilmasdan, asosan xalqimizning asriy orzusi bo'lgan milliy istiqlol mavzusiga oid fikr va qarashlari atroflicha o'z ifodasini topgan. Boshqacha aytganda, mustaqillik g'oyasi, mustaqillik mavzusi mazkur to'plamga kiritilgan barcha nutq va ma'ruzalarda bamisoli «qizil ip» bo'lib o'tadi.

Ayni vaqtda ushbu kitobda yurtimizdagi g'oyat qaltis va nosog'lom vaziyat, ozgina uchqun chiqsa butun respublika lovillab yonib ketadigan, to'g'ri yo'lni topish o'ta murakkab va xatarli bo'lgan bir sharoitda inqirozdan chiqish, O'zbekistonning taqdiri va kelajagini hal etadigan eng muhim masalalar bo'yicha ulkan donishmandlik va jasorat bilan bayon etilgan konseptual yondashuvlar, amaliy fikr-mulohazalar, xulosa va takliflarga alohida e'tibor qaratilgan.

Ma'lumki, Islom Karimov respublikamiz rahbari sifatida ish boshlagan paytda (1989-yil 23-iyun) o'lkamizda uzoq yillar davomida hukm surgan kom-

munistik mafkura va faqat xomashyo yetkazib berishga asoslangan bir yoqlama iqtisodiy siyosat har bir sohada o'zining halokatli salbiy ta'sirini keng miqyosda ko'rsata boshlagan edi.

Bu davrning og'ir va ayanchli ijtimoiy-siyosiy manzarasiga Islom Karimov shunday baho beradi:

«Shu narsa shak-shubhasiz va ochiq-oydindirki, respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinlardan birida turibdi. Biz bu raqamlarni ilgari ham necha martalab aytganmiz, ammo bugun ularni yana bir bor idrok etmoq kerak. O'zbekiston har kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatda 12-o'rinda turibdi, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkich esa Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki hissa past.

Sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan respublika mamlakatdan 40 foiz, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa ikki barobar orqada qolmoqda. Respublikada aholi jon boshiga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish o'rtacha Ittifoq darajasining atigi 40 foizini tashkil etadi. Biz daromad darajasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan ittifoqdosh respublikalar orasida eng oxirgi o'rinlardan birida turibmiz.

O'zbekiston aholisi o'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilmoqda. Oyiga o'rta hisobda 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi mamlakatda 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, bizning respublikamizda 45 foizga boradi. Bir millionga yaqin kishi ijt-

moiy ishlab chiqarishda o'zining qo'llidan keladigan ishni topa olmayapti.

Ijtimoiy infrastruktura tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolga tushib qolgan. Maktab va kasalxonalarining 60 foizi nobop binolarda joylashtirilganini aytishning o'zi kifoya. Juda o'tkir iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Buni avvalo shundan ko'rsa bo'ladiki, insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham yetishmayapti.

Bunday ahvol vujudga kelganining boisi nimada?

Shu qadar katta boyliklarga, ishlab chiqarish va fan-texnika imkoniyatlariga, qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga ega bo'lgan respublikamiz asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatda oxirgi o'rinlardan biriga – haqli ravishda inqiroz holati, deb atalgan ahvolga tushib qolganining sababi nimada?

Respublikaning taqdiri, uning kelajagi uchun qayg'urayotgan, yosh avlod taqdiri uchun kuyunayotgan sog'lom fikrli har bir kishi hozir o'ziga o'zi shu savolni bermoqda.

Nazarimda, buning javobi shunday bo'lmog'i kerak: 30-yillarning boshlarida iqtisodiyotga rahbarlik qilishning ma'muriyatchilik, buyruqbozlik usullari g'alaba qozonib, O'zbekistonni, uning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishga yaroqsiz yondashuvlar tobora qaror topib bordi. Xo'sh, bu illatlar nimalarda namoyon bo'ldi? Avvalo shundaki, bizning respublikamiz asosan xomashyo bazasi, sanoat ministrliklari va idoralarining mo'may xomashyo manbayi deb

hisoblanar edi. O'lkaning mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ba'zan yetarlicha, ba'zan mutlaqo baho berilmadi, ba'zan esa bu xususiyatlar pisand ham qilinmadi. Iqtisodiy va ijtimoiy sohani kompleks, jadal rivojlantirishning, umumittifoq mehnat taqsimotida O'zbekiston SSR ning mavqeyi va o'rnini o'zgartirishning muqobil yo'llari e'tiborga olinmadi» (O'zbekiston Kompartiyasining 1990-yil 4-iyunda bo'lib o'tgan XXII syezdida so'zlangan nutqdan).

Albatta, necha yillar davomida hal etilmagan, xalqning sabr kosasini to'ldirgan bunday muammolar oxir-oqibatda ijtimoiy larzaga olib kelishi muqarrar edi.

Shunday bo'ldi ham.

1989-yilning may oyida Farg'ona viloyatida buzg'unchi kuchlar tomonidan tashkil etilgan ommaviy tartibsizliklar iyunning oxiriga kelib nihoyatda avj olib ketdi.

Kechagina respublikamiz rahbari etib saylangan Islom Karimov ishga kirishgan kunning ertasigayoq, ya'ni 24-iyun kuni O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetida katta majlis o'tkazdi va unda nutq so'zladi. Bu nutq mohiyat e'tiboriga ko'ra Islom Karimovning O'zbekiston rahbari sifatidagi birinchi nutqi ekani bilan ham alohida tarixiy ahamiyatga egadir. Ushbu chiqishda Islom Karimovning siyosiy yetakchiga xos barcha fazilatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zining keskin tanqidiy va amaliy ruhi bilan ajralib turadigan mazkur nutqda respublika rahbari O'zbekistonda vujudga kelgan o'ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va uning sabablarini chuqur tahlil qilib, achchiq va haqqoniy bir xulosaga keladi. **«Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi»**, deb yangi lavozim-

ga qanday ulug' maqsad va mas'uliyat bilan kirishayotgani, o'z faoliyatida islohotchilik, el-yurtning dard-u tashvishlari eng oliy mezon bo'lib qolishini ochiq bayon qiladi. «Sen – menga tegma, men – senga tegmayman» qabilida ishlashga o'rganib qolgan ko'pchilik zalda o'tirgan rasmiy shaxslar uchun bunday o'tkir so'zlar bamisoli bulutli osmonda chaqmoq chaqnagandek ta'sir etadi. Yangi rahbarning mavjud ahvolni ijobiy tomonga o'zgartirish, respublikani chuqur inqiroz holatidan olib chiqish borasidagi azm-u qarori naqadar jiddiy va qat'iy ekani ularning o'rtasida katta bezovtalik va besaranjomlikka sabab bo'ladi.

25-iyun kuni esa Islom Karimov janjal-to'polonlar alangasi ichida qolib ketgan Farg'onaga yo'l oladi. Lovillab yonayotgan uylar, tahlika va sarosimaga tushgan shahar va qishloqlar, qahr-g'azabga to'lgan odamlarning ichiga dadil kirib boradi. Ular bilan chin dildan, hech narsani yashirmasdan ochiq gaplashadi. Bu insonlarning shu vaqtga qadar hech kim eshitmagan oh-u nolalarini tinglab, o'zining yurakdan chiqqan samimiy va haqqoniy so'zlari bilan bamisoli ularning qalbidagi jarohlarga malham qo'ygandek bo'ladi, ko'ngillarda so'ngan umid uchqunlarini uyg'otadi. Tartib-intizomni tiklash, qon to'kilishining oldini olish bo'yicha butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, aniq chora-tadbirlar ko'radi.

Albatta, Islom Karimov respublika rahbari sifatida Farg'ona voqealarining sabab va oqibatlarini haqidagi ma'lumotlar bilan o'z kabinetida o'tirib ham tanishishi, kerakli qarorlarni qabul qilishi mumkin edi. Ammo o'sha paytdagi aksariyat partiya arboblari xos bo'lgan bunday xonanishinlik, kabinetdan chiqmay ish yuritish prinsipi Islom Karimov uchun mutlaqo begona edi. U

hayotning qaynoq nafasini bevosita his qilish, yaxshiyomon kunlarda xalq bilan birga bo'lish, el-yurtning dard-u quvonchiga doimo sherik bo'lishni o'zining hayotiy maslagi, oliy insoniy burch deb biladi.

Agar o'sha yillar tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, Farg'ona voqealari haqida shov-shuv ko'targanlar, shunday qonli fojia hisobidan obro' topish, o'zining g'arazli manfaatlariga erishishga, xalqimizni badnom qilishgā uringan kimsalar ko'p bo'lgan. Islom Karimov bu borada kuyib-yonib, asl haqiqatni katta dard va jasorat bilan bayon qiladi, fojia oqibatlarini bartaraf etishning amaliy yechimlarini ishlab chiqadi va izchil amalga oshiradi.

Jumladan, Yurtboshimiz Toshkentda va Moskvada bo'lib o'tgan katta anjumanlarda, shuningdek, matbuotdagi chiqishlarida bu masalada qat'iy pozitsiyada turib, quyidagi fikrlarni alohida ta'kidlaydi:

«O'zbek xalqining vijdoni pok. Farg'ona voqealari o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmadi. Bu voqealarga tuturuqsiz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab, kim qanday bo'yoq bermasin, tarix albatta, o'zining adolatli hukmini chiqaradi. Baynalmilalchilik, mehmondo'stlik, yaxshilik, qalb saxovati hamisha o'zbek xalqiga xos fazilat bo'lib keldi. Xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lmagan. Bu qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan ko'pgina misollar bilan isbot qilingan» (O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1989-yil 19-avgustdagi XVI plenumida so'zlangan nutqdan).

Bunday haqqoniy va haroratli so'zlar el-yurtimizning dardiga darmon bo'ldi, uning tuhmat va malomatlardan egilgan ruhini ko'tardi.

Ana shunday tarixiy misollar asosida aytish mumkin, Islom Karimovning barcha muammolar haqida — ular qanchalik og'ir va noxush bo'lmasin — ochiq gapirishi, hamisha haqiqatning ko'ziga tik qarashi unga nisbatan xalqimizning e'tirofi va ehtiromini uyg'otdi.

O'zidan ilgari respublika rahbari bo'lib ishlagan, siyosiy kaltabinligi va jur'atsizligi bilan el-yurt o'rtasida obro'sini yo'qotgan I. Usmonxo'jayev va R. Nishonov kabi o'tmishdoshlaridan farqli ravishda, Islom Karimov O'zbekiston yetakchisi sifatida uzoq vaqtlar davomida yechilmasdan, gazak oldirilgan kamchilik va nuqsonlar, o'tkir ijtimoiy muammolarning ildizini ochib tashlaydi, mavjud ayanchli ahvolni tuzatish bo'yicha Markaz rahbariyati oldiga qat'iy talablarni prinsipial tarzda qayta-qayta qo'yishdan cho'chimaydi. Ushbu kitobdan o'rin olgan ko'plab chiqishlarda buni yaqqol ko'rish mumkin.

Mavjud siyosiy beqarorlik, boshboshdoqlik va bedodlik sharoitida, naqadar og'ir va qaltis bo'lmasin, o'sha mash'um kunlarda sobiq Markazdagi kuchlar va ularning o'zimizdagi malaylari yurtimiz rahbariga har qadamda millatchilik yorlig'ini yopishtirish, uning shaxsiga nisbatan tuhmat va malomatlar yog'dirishga qanchalik urinmasin, qanday og'ir siyosiy va ma'naviy-ruhiy bosim ta'siri ostida ish olib borishga to'g'ri kelmasin, Islom Karimov Vatanimizning tom ma'noda mustaqillikni qo'lga kiritishiga erishishdek oliy maqsad yo'lidan hech qachon qaytmaganini ushbu kitobdan o'rin olgan hujjatlar yana bir bor isbotlab, tasdiqlab beradi.

Ta'kidlash joizki, ushbu chiqishlar xalqimiz, jamiyatimiz bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'lini aks

ettirishi bilangina emas, avvalo, bu yo'ldagi og'ir qiyinchilik va sinovlarni, g'ov-to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgani, mustaqillikka erishish jarayonlari biz uchun naqadar mashaqqatli, o'ta dramatik va hayajonli voqealarga boy bo'lganini yorqin aks ettirishi bilan ham alohida e'tiborlidir.

Yana bir o'ta muhim jihat shundaki, mamlakati-mizda huquqiy-demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida avval-boshdanoq asosiy ustuvor yo'nalishlarga aylangan masalalar — tinchlik va barqarorlikni saqlash, millatlararo hamjihatlikni asrash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, iqtisodiyotni tubdan isloh etish, milliy armiyani shakllantirish, sud-huquq tizimini yangi asosda barpo etish, inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish, aholi salomatligi, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport jabhalariga e'tibor qaratish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallash kabi ko'pdan ko'p dolzarb vazifalar mustaqilligimizning poydevori qo'yilayotgan o'sha davrda Yurtboshimizning chiqishlarida har tomonlama o'z ifodasini topa boshlagan edi.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda «taraqqiyotning o'zbek modeli» deb nom olgan rivojlanish yo'limizning asosiy prinsiplari, umummilliy shiorga aylanib ketgan **«O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat», «Mustaqillik — bu avvalo huquqdir», «Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmay», «Islohot — islohot uchun emas, avvalo inson uchun», «O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi», «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin»** kabi mashhur iboralar sokin kabinetlarda emas, aksincha, ana shunday shiddatli kurashlar, tinimsiz bahs va munozaralar,

achchiq hayotiy tajribalarda tug'ilganini anglashda ushbu kitob g'oyat muhim manba vazifasini bajaradi.

O'lkamizdagi vaziyatni chinakamiga o'nglash, yurt-doshlarimizning hayotga qarashini, bugungi va ertan-gi kunga ishonchini mustahkamlash uchun avvalo, ular-ning iqtisodiy, moddiy ahvolini yaxshilash zaruratini chuqur anglagan respublikamiz rahbari aholi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan juda katta bir masalani — odamlarga tomorqa yer berish masalasini kun tartibiga qo'yadi.

1989-yil 17-avgustda Islom Karimov boshchiligida respublika hukumatining Toshkentda bo'lib o'tgan kengaytirilgan yig'ilishida aholiga tomorqa va shaxsiy uchastkalar ajratish masalasi muhokama qilinadi va «Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta'minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida» qaror qabul qilinadi. Ushbu tarixiy hujjatda qishloqda yashovchi har bir kishiga o'rtacha 25 sotixdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan edi.

Bu boradagi amaliy ishlar natijasida 1989—1990-yillarda bir yarim milliondan ko'proq oilaga qo'shimcha yer ajratildi, 700 ming oilaga yangi tomorqa yerlari berildi.

Bugun to'la ishonch bilan aytish mumkinki, bu murakkab masalaga ana shunday oqilona yondashuv tufayli O'zbekiston bo'yicha ming-minglab odamlar uyjoyli, ishli bo'ldi, bozorlarda mahsulot ko'payib, narxnavo arzonlashdi, eng muhimi, ijtimoiy keskinlikning oldini olishga erishildi.

Bundan tashqari, yuz minglab gektar sug'oriladigan yer texnik ekinlar oborotidan chiqarildi, paxta

yetishtirish plani 700 ming tonnaga kamaytirildi. Bu — paxta yakkahokimligini bartaraf etish yo'lidagi dastlabki, ammo o'ta muhim amaliy qadam edi.

Ma'lumki, o'sha paytda O'zbekistonimiz SSSR deb atalgan dunyodagi eng qudratli imperiyaga qaram respublika edi. Uni na Birlashgan Millatlar Tashkiloti, na boshqa xalqaro tashkilotlar, na jahon hamjamiyati tanir, tan olar edi. Ya'ni, mustaqillik yo'lidagi harakatlarimizda bizni qo'llab-quvvatlaydigan, biz tayanadigan biron-bir tashqi omil, najotkor kuch yo'q edi. Shunday bir sharoitda yuqorida tilga olingan adoqsiz muammolarni hal qilish uchun respublika rahbari kimga, nimaga ishonib harakat qildi, degan savol tug'ili-shi tabiiy, albatta.

Bu savollarning javobini biz «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobiga kirgan, muallifning qalb nidosi kabi yangragan otashin nutqlardan topamiz. Uning **«faqat o'z kuchimiz, o'z salohiyatimizga tayanib ish ko'rishimiz kerak», «o'zimiz harakat qilmasak, chetdan kelib birov bizga yordam bermaydi»** degan, deyarli har bir ommaviy chiqishining ma'no-mazmuniga singib ketgan da'vatkor so'zlarini o'qir ekanmiz, Yaratgan qaysi elni to'g'ri yo'lga boshlamoqchi bo'lsa, avvalo, unga donishmand, mard va azm-u shijoatli insonni yo'lboshchi qilib qo'yadi, degan hikmatning naqadar to'g'ri ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Bugun, oradan yillar o'tib, ko'p narsalar oydinlashganidan so'ng yana bir haqiqatni alohida e'tirof etish har tomonlama o'rinli bo'ladi.

1990-yil 24-mart kuni o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining birinchi sessiyasida ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo'lib O'zbekis-

tonda respublika Prezidenti lavozimi joriy etildi. Bu o'rinda shuni aytish joizki, bundan bir necha kun oldin, ya'ni 14-mart kuni SSSR xalq deputatlarining navbatdan tashqari uchinchi syezdida SSSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish to'g'risidagi qonun qabul qilinib, M. Gorbachyov bu vazifaga saylangan edi.

Bepoyon Ittifoq hududida ikkinchi bir Prezidentning paydo bo'lishini Markaz va uning rahbariyati qanday qahr-g'azab va ichiqoralik bilan qabul qilganini tasavvur qilish qiyin emas, albatta.

Binobarin, o'lkamizda Prezidentlik institutining joriy etilishi Yurtboshimiz tomonidan O'zbekistonning davlat suvereniteti va mustaqilligiga erishish yo'lida qo'yilgan nafaqat tarixiy qadam, balki chinakam siyosiy va ma'naviy jasorat namunasi bo'lganini izohlab o'tirishga hojat bo'lmasa kerak.

Islom Karimov ana shu sessiyada so'zlagan sermazmun nutqida yurtimiz hayotidagi bunday katta o'zgarish O'zbekistonning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash, uni yangi va hayotiy mazmun bilan boyitish, respublikaning iqtisodiy mustaqilligini, o'zini o'zi idora etish, o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tishiga erishish, aholi barcha tabaqalarining farovonligini oshirish, odamlarning talab-ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, xalqni ma'naviy yuksaltirish, demokratiyani, huquqqa asoslangan davlat qurilishini rivojlantirish, milliy taraqqiyot yo'lida barcha sog'lom kuchlarni birlashtirish kabi o'ta muhim maqsadlarni amalga oshirishga qaratilganini chuqur tahlil asosida har tomonlama isbotlab beradi.

E'tiboringizga havola etilayotgan kitobdan o'rin olgan chiqishlarning ahamiyatga loyiq g'oyat muhim jihati shundaki, ularda muallif doimo o'z oldiga

yuksak maqsadlar qo'yib, marrani baland olib faoliyat yuritgani alohida ko'zga tashlanadi. Yurtimizdagi mavjud holatni shunchaki nomiga emas, aksincha, tubdan o'zgartirish, O'zbekistonni nafaqat iqtisodiy, balki tom ma'nodagi suveren va mustaqil, kelajagi buyuk davlatga aylantirish, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lib, dunyo hamjamiyatidan mustahkam o'rin egallash, xalqimiz uchun dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan hayot sharoitlari yaratishdek bugungi kunda real voqelikka aylangan ulug' maqsadlarni bu mard va jasur inson o'sha yillardayoq ko'ngliga jo etib, shu yo'lda butun borlig'i bilan intilib yashaganini ana shu chiqishlar isbotlab turibdi.

Prezident Islom Karimovning rahbarlik faoliyatiga xos bo'lgan g'oyat e'tiborli va ibratli yana bir fazilat borki, u ham bo'lsa, so'z va ish birligidir. Afsuski, xalqqa yetakchilik qilish da'vosi bilan maydonga chiqadigan aksariyat siyosiy arboblardan mana shunday noyob xususiyatdan bebahra bo'lib, ko'pincha tagi puch, yolg'on va'dalar bilan odamlarni chalg'itib, soxta obro' orttirish payida bo'lishlari ham sir emas.

Agarki, yaqin tariximizga — o'tgan asrning suronli 90-yillariga nazar soladigan bo'lsak, Islom Karimovning o'sha og'ir yillarda keskin muammolar girdobida turib, O'zbekistonning kelajagini aniq tasavvur qilgan holda ilgari surgan g'oya va dasturlari uning Vatanimizning yorug' istiqboliga qanday buyuk ishonch bilan qaraganidan yaqqol dalolat beradi.

Bu o'rinda gap bugungi kunda jahon jamoatchiligi tomonidan keng e'tirof etilgan, dunyoda o'xshashi kam bo'lgan O'zbekistonning Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqida bormoqda.

Shunisi hayratlanarliki, bu noyob dasturning mazmun-mohiyati, asosiy maqsad va vazifalari, ustuvor yo'nalishlari haqida Yurtboshimiz 1990-yilda — respublikamizda *ilm-fan va ta'lim sohasining moddiy-texnik bazasi, kadrlar tarkibi* achinarli ahvolga tushib qolgan, bu sohalar «qoldiq» prinsipi asosida moliyalashtirilayotgan, jumladan, 1700 ta maktab binosi avariya holatida bo'lgan bir vaziyatda, uzoq va davomli maqsadlarni ko'zlab katta ishonch bilan fikr bildiradi.

Shu borada e'tiboringizni kichik bir iqtibosga qaratmoqchimiz:

«... Bizga kadrlar tayyorlashning maxsus milliy dasturi kerak.

Bu dastur:

– umumiy ta'lim maktablarida dars berish sifatini oshirish (*o'qituvchilarni, metodistlarni qo'shimcha ravishda moddiy rag'batlantirish, maxsus sinfxonalar barpo etish, oliy o'quv yurtlarining maktablarni ota-liqqa olishini yo'lga qo'yish va shu kabilar*)ni;

– eng iste'dodli bolalar uchun maktablar ochishni;

– korxonalar bilan maktablar o'rtasida sifat jihati-dan yangi munosabatlarni joriy etishni;

– hunar-texnika bilim yurtlarida xo'jalik hisobini joriy etishni va shu asosda ommaviy kasb kadrlarini tayyorlash sifatini keskin oshirishni;

– oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sistemasini qayta qurishni, bu sohaga kadrlar tayyorlashning buyurtma berish usulini joriy etishni;

– respublikaning yuqori malakali milliy mutaxassislarini tayyorlash uchun Ittifoqdagi va chet ellardagi eng yaxshi markazlarga yoshlarni yuborish sistemasini o'z ichiga olishi kerak.

Darvoqe, bu sohada hozirning o'zidayoq birmuncha ish qilinmoqda. Yaqinda Farg'ona davlat dorilfununini, Buxoro meditsina institutini, Nukus pedagogika institutini va shu kabilarni tashkil etish haqida qarorlar qabul qilindi...» (KPSS XXVIII syezdining yakunlari va O'zbekiston Kompartiyasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi ma'ruzadan, 1990-yil 4-avgust).

Ana shu ezgu g'oya birinchi bor kun tartibiga qo'yilganiga, mana, bugun 21 yil to'ldi. O'tgan davr mobaynida Prezident Islom Karimovning bevosita tashabbusi va rahbarligida ishlab chiqilib, 1997-yili qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning uzviy, mantiqiy davomi bo'lgan, 2004-yili qabul qilingan Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish natijasida 1600 ga yaqin akademik litsey va kasb-hunar kolleji, qariyb 10 mingta umumta'lim maktabining, 200 ga yaqin bolalar musiqa va san'at maktabining yangitdan barpo etilgani va rekonstruksiya qilingani, 1200 tadan ziyod bolalar sport inshooti qurib foydalanishga topshirilgani va zamonaviy asosda jihozlangani, hech shubhasiz, yuqorida tilga olingan so'z va ish birligining amaldagi yorqin namoyonidir, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Bunday misollarni boshqa soha va tarmoqlardan ham ko'plab keltirish mumkin.

Yana bir diqqatga sazovor tomoni shundaki, sho'ro mafkurasi chuqur ildiz otgan o'sha siyosiy muhitda ham Yurtboshimizning har bir so'zida, har bir chiqishida o'z xalqining tarixi va madaniyatiga, o'z ona zaminiga, milliy qadriyatlariga ulkan muhabbat tuyg'usi yorqin sezilib turadi. Bu haqda gapirganda, quyidagi birgina misol bilan kifoyalanish mumkin.

«Qaysi bir kitobda g'oyat ibratli rivoyatni o'qigan edim. Emishki, Amir Temur yarim jahonni zabt etib, olis o'rmon qabilalariga borib yetibdi, xullas, ularni ham o'ziga bo'ysundiribdi. Qaysar va jangari, ozod va samimiy bu qabila boshlig'i chorasizlik tufayli Temurga qurollarini topshitar ekan, quyidagi gaplarni aytibdi: «Ey, Temur! Sen bizni qurol kuchi bilan yenga olding. Biroq senga aytadigan shartlarimiz bor. Agar sen qassob bo'lsang, bizni so'yib tashla, agar sen savdogar bo'lsang, sotib yubor, agar podsho bo'lib kelgan bo'lsang – bizga baxt ato et!»

Bu rivoyatning sinfiy, tarixiy yo'nalishi ayni chog'da bizni qiziqtirayotgani yo'q. Bu hikoyatda ajoyib bir hikmat barq urib turibdi. Ya'ni, elga peshvoman deb, o'rtaga chiqdingmi, uning ishonchini qozondingmi – bu ishonchni endi asl vijdon bilan, pokiza faoliyat bilan oqlamoq kerak bo'ladi. Bu talabni eskichasiga aytsami, yangichasigami – baribir, mohiyati bir xil bo'lib qolaveradi. Ya'ni, xalq vakili xalqning posboni, xalq rahbari bo'lib, xalqning issiq-sovug'idan xabardor bo'lg'uvchi sirdoshiga aylanishi shart» (1990-yil, 24-fevral kuni Toshkentda SSSR, O'zbekiston SSR, mahalliy sovetlarning xalq deputatlari va jamoatchilik vakillari ishtirokida o'tgan kengashda so'zlangan ma'ruzadan).

Tarixga munosabat masalasida kommunistik qarash, sinfiy yondashuv hali o'z ta'sirini yo'qotmagan bir sharoitda sovetlarning yuqori minbaridan turib Sohibqiron bobomiz nomini tilga olish, mana shunday tarixiy qiyoslashlar asosida fikr yuritish rahbar odamdan chinakam jasorat, ayni paytda ulkan tafakkur va donishmandlik fazilatlarini talab etishini anglash qiyin emas.

Ushbu kitobdagi tarixiy materiallarning kattagina qismi bevosita milliy tiklanish, milliy o'zlikni anglash, ma'naviyat masalalariga bag'ishlangan.

Xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniy merosi, urf-odat va an'analarini asrab-avaylash va rivojlantirish, mustabid tuzum davrida taqiqlab qo'yilgan Navro'z bayrami, Ramazon va Qurbon hayitlarini nishonlash, dinga hurmat bilan munosabatda bo'lishni qaror toptirish, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband va boshqa aziz-avliyolarimiz, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur singari ulug' ajdodlarimiz xotirasiga nisbatan tarixiy adolatni tiklash haqidagi fikr-mulohazalar, qaror va farmonlar shular jumlasidandir.

Ayni vaqtda ma'rifatparvar bobolarimiz – jadidchilik harakati namoyandalarining hayoti va ijodiga munosabat masalasida ko'p yillardan buyon davom etayotgan bahslarga oqilona chek qo'yib, ularning merosini xalqimizga qaytarish yo'lidagi amaliy, prinsipial fikrlar ham aynan o'sha paytlarda ilgari surilgani shu borada muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu bilan birga, «paxta ishi» bilan ayblanib, nohaq qamalgan yuzlab insonlar, jumladan, ko'p yillar respublika rahbari bo'lib ishlagan Sharof Rashidov nomining oqlangani jamoatchilik tomonidan mamnuniyat bilan kutib olindi.

Ma'lumki, dunyodagi bebaho boylik bo'lgan tinchlik va osoyishtalikni saqlash, uni ko'z qorachig'idek asrash masalasi mamlakatimiz rahbari Islom Karimovning faoliyatida doimo eng muhim, eng ustuvor yo'nalish bo'lib kelmoqda.

Buni har xil buzg'unchi kuchlar, diniy va dunyoviy niqobdagi radikal oqimlar bosh ko'targan o'sha no-

tinch davrda Islom Karimovning chuqur iztirob bilan o'rtanib, xalqqa qilgan murojaatidagi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ushbu so'zlar yaqqol tasdiqlaydi:

«Aziz do'stlar!

Nima kerak bo'lsa, ayting, hammasini qilib beramiz. Lekin, aziz onalar, opa-singillar, otaxonlar, do'stlar, ukajonlar, men Prezident bo'lsam ham sizdan tiz cho'kib so'rayman, iltimos qilaman: shu masalada yordam qiling!

Axir, Qur'oni karim ham do'stlikka, birodarlikka chaqiradi, nizo chiqarishni qoralaydi.

Janjal chiqqan yurtning xudosi ham undan yuz o'girar ekan. Shu sabab baraka ham, rizq-ro'z ham nasiya bo'lib qolarkan.

Bu yo'lida – tinchlik, totuvlik yo'lida bizni Oллоh taoloning o'zi qo'llasin, madadkor bo'lsin!» (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining to'qqizinchi sessiyasida 1992-yil 4-yanvar kuni so'zlangan ma'ruzadan).

Xalq qalbining tub-tubida yillar davomida armon bo'lib yotgan dard va iztiroblar, orzu-intilishlarning o'ziga xos ifodasi bo'lgan ushbu nutq va ma'ruzalar o'sha davrda faoliyat yuritgan aksariyat rahbarlarning chiqishlarida kuzatiladigan kommunistik ritorika va demagogiyadan, aravani quruq olib qochishlardan mutlaqo xoli ekani, otashin ruhi va samimiyati bilan keskin ajralib turadi. Aynan shu fazilatlar bilan bu chiqishlar, mana, oradan yigirma yildan ziyod vaqt o'tsa hamki, beixtiyor odamni hayratga soladi.

Islom Karimovning vaziyatga real baho berish, no-standart qarorlar qabul qilish borasidagi qobiliyati, xalqimizning azm-u shijoati, qat'iy irodasi, bag'rikeng-

ligi, bunyodkorlik kuchiga bo'lgan cheksiz ishonchi uning har bir nutq va ma'ruzasida aniq-ravshan sezilib turadi. Ular bilan tanishar ekanmiz, bir paytning o'zida chuqur tahliliy va xarizmatik qobiliyatga ega bo'lgan mana shunday shaxslargina tarix taqozo etganda butun mas'uliyat va javobgarlikning zalvorli yukini o'z zimmasiga olishga qodir bo'lishi, har tomonlama teran o'ylab, uzoqni ko'zlab ish ko'rgan holda, davlat va jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan strategik qarorlar qabul qila olishiga amin bo'lamiz.

Buning tasdig'ini o'sha tahlikali yillarda ro'y bergan Farg'ona, Guliston, Bo'ka, O'sh, Namangan voqealariga, tarixda «GKCHP» deb nom olgan, SSSR davlatining so'nggi kunlarida bir guruh imperiyaparast kuchlar tomonidan amalga oshirilgan siyosiy fitnaga nisbatan Islom Karimovning qat'iy pozitsiyasi ifodasi bo'lgan chiqishlarda ko'rish mumkin.

Xususan, 1991-yilning 18-avgustida o'zini Davlat favqulodda holat qo'mitasi – GKCHP deb atagan bir guruh siyosiy avantyuristlar davlat to'ntarishini sodir etishga urinishi munosabati bilan Islom Karimov rahbarligida O'zbekiston o'zining qat'iy pozitsiyasida turgani mamlakatimiz va xalqimizning mustaqillikka erishishida qanday hal qiluvchi o'rin tutgani mazkur kitobdan o'rin olgan hujjatlarda aniq namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, GKCHP ning asosiy maqsadi – eski, totalitar sovet tuzumini qanday qilib bo'lsa-da, aslo o'zgartirmasdan saqlab qolishdan iborat edi. SSSR vitse-prezidenti G. Yanayev, Ministrlar Sovetining raisi V. Pavlov, KGB raisi V. Kryuchkov, Mudofaa vaziri D. Yazov, Ichki ishlar vaziri B. Pugo va boshqa yuksak

lavozimdagi mas'ul partiya va davlat arboblari M. Gorbachyov boshchiligidagi qonuniy hokimiyatni ag'darib, butun Ittifoq hududida GKCHP ning farmoyish va ko'rsatmalari amal qilishi haqida qarorlar qabul etib, barcha respublikalar, viloyat va tumanlarda ularning so'zsiz ijro etilishini talab qilishdi.

Ayni shu paytda, ya'ni, 1991-yilning 17–19-avgust kunlari O'zbekiston SSR Prezidenti Islom Karimov Hindistonga rasmiy tashrif bilan borgan edi. Aytish kerakki, bu tashrif O'zbekiston Prezidentining xorijga qilgan birinchi mustaqil – tarixiy tashrifi edi.

Favqulodda davlat qo'mitasining murojaati Yurtboshimiz Hindistonda bo'lgan bir paytda – 19-avgust kuni e'lon qilindi.

Afsuski, O'zbekiston rahbarining safarda ekanidan foydalanib, GKCHP ning noqonuniy qarorlarini qo'llab-quvvatlaydigan rahbarlar yurtimizda ham topildi. Tarix buni yaxshi eslaydi. 1991-yil 19 avgust kuni O'zbekiston SSR vitse-prezidenti Sh. Mirsaidov va O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasining ikkinchi kotibi A. Yefimovning imzosi bilan O'zbekiston SSR ning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'iston ASSR ga O'zbekiston SSR hududida SSSR da Favqulodda holat davlat qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida ko'rsatma yuboriladi.

Prezident Islom Karimov GKCHP e'lon qilinganini Agrada eshitib, 19-avgust kuni zudlik bilan Toshkentga qaytadi. Toshkent aeroportida Yurtboshimizni rasmiy kishilardan tashqari, Turkiston harbiy okrugi bosh qo'mondoni hamda Markazdan kelgan 3 nafar general kutib oladi. Bu o'sha paytdagi mavjud rasmiy protokol qoidalariga mutlaqo zid bo'lib, tagdor siyosiy ma'noqa ega edi.

Islom Karimov aeroportdan to'g'ri hukumat binosiga kelib, kechqurun hukumat a'zolari bilan uchrashdi hamda O'zbekiston SSR hududida GKCHP ning qonunga zid qarorlarini bekor qilish haqida ko'rsatma berdi. Shu tariqa, GKCHP gumashtalari O'zbekiston hukumati nomidan qabul qilgan barcha hujjatlarni bekor qildi.

1991-yil 20-avgust kuni O'zbekiston SSR Oliy Kengashi rayosati, Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlis o'tkazildi. Majlisda so'zga chiqqan Prezident Islom Karimov SSSR da yuzaga kelgan vaziyatga, Favqulodda holat davlat qo'mitasi va uning rahbarlari qabul qilgan qarorlarga O'zbekiston rahbariyatining munosabatini aniq-ravshan bayon etdi.

O'sha kuniyoq O'zbekiston SSR Prezidentining respublika aholisiga murojaati e'lon qilindi. Unda, jumladan, shunday so'zlar alohida ta'kidlanadi: **«Har birimiz og'ir va vazmin bo'lishimiz kerak. Boshimizga tushgan bu sinovlar, noaniq davr va sharoitdan avvalambor aql va idrokimizni bir joyga yig'ishtirib, insof va vijdonni yo'qotmasdan, sarosimaga tushmasdan chiqishimiz kerak...»**

O'zbekiston jumhuriyati, uning rahbariyati qayta qurish davrida ham hech qachon bironing gapiga kirib ish tutgan emas. Markazdan, boshqa ba'zi bir jumhuriyatlardan qanday qarorlar chiqmasin, va'dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da'vatlar, yo'l-yo'riq ko'rsatishga harakatlar bo'lmasin, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadimizdan qaytganimiz yo'q».

1991-yil 21-avgust kuni O'zbekiston SSR Prezidenti Islom Karimov maxsus farmonga imzo chekadi.

Mazkur Farmonga binoan:

«O'zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruv idoralari, korxonalar, tashkilot hamda muassasalarining qabul qilgan barcha qarori va ularning ijrosi SSSR va O'zbekiston SSR konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston SSR Prezidentining farmonlari, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi bilan O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga so'zsiz mos kelishi kerak. SSSR da Favqulodda holat davlat komitetining SSSR konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan qonunlari hamda farmonlari haqiqiy emas, deb hisob-lansin».

1991-yil 27-avgust kuni ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston SSR Prezidentining mamlakatimizning to'la mustaqilligi yo'lida tamal toshini qo'ygan yana bir muhim farmoni e'lon qilinadi. Farmonda jumladan, shunday deyiladi:

«Mamlakatda vujudga kelgan ahvolni e'tiborga olib va respublika manfaatlarini himoya qilish maqsadida Respublika Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi komiteti O'zbekiston SSR ning qonuniy tasarrufiga olinsin. Respublika hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston SSR Prezidentiga bo'ysundirilsin.

O'zbekiston SSR Oliy Kengashi rayosatiga juda qisqa muddatda Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlash va uni O'zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etish taklif qilinsin».

Vujudga kelgan o'ta og'ir sharoit, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy qiyinchiliklarga, turli to'siqlarga qara-

masdan, xalqimiz Islom Karimov boshchiligida o'zining asriy orzusi — O'zbekistonning davlat suvereniteti va mustaqilligi sari qat'iyat bilan harakat qilishda davom etdi.

Nihoyat, orziqib kutilgan qutlug' sana — 1991-yilning 31-avgust kuni yetib keldi. O'zbekiston SSR Oliy Kengashining oltinchi sessiyasida Islom Karimov tantanali ravishda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini e'lon qildi. U o'zining tom ma'nodagi tarixiy nutqida quyidagi fikrlarni alohida ta'kidladi:

«Mamlakat katta falokat yoqasiga, jar yoqasiga kelib qolganini ko'rib turibmiz. Xalq o'zining ertangi kuniga ishonchini kundan kunga yo'qotyapti. Odamlar o'zlarining, oilasining, bola-chaqasining tinchligiga kafolat istaydi. To'kis, xotirjam hayot talab qilyapti. Bu istaklar, bu talablar safsatabozlik va va'dabozlik ostida ko'milib ketyapti.

Bizning xalqimiz sabr-bardosh, yaxshilik, osoyish-taluk, boshqa xalqlarga nisbatan xayrixohlik ruhida tarbiyalangan. Bu xalq bugun bizdan himoya talab qilyapti, tinch-totuv hayot, og'ir mehnatiga yarasha turmush sharoitlarini talab qilyapti. Bu — haqqoniy talabdir.

O'zbekiston rahbariyati hech qachon, qanday ittifoq bo'lmasin, kim bilan ittifoq bo'lmasin, qanday sharoit bo'lmasin, ikkinchi darajali rolga rozi bo'lmaydi, bunga yo'l ham qo'ymaydi».

Eng muhimi, Prezident Islom Karimov o'z nutqida **«Mustaqil O'zbekiston davlatining siyosati insoniylik va ezgulik tamoyillariga asoslanadi»** degan dasturiy g'oyani butun dunyoga bayon qildi va mana, yigirma yildirki, davlatimiz ana shu siyosiy prinsipga og'ishmasdan, qat'iy amal qilib kelmoqda.

Xalqimiz, Vatanimiz tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan o'sha unutilmas kunlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayni o'sha paytda yosh, mustaqil O'zbekiston davlati rahbari tomonidan mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab o'ta muhim hujjatlar qabul qilinganini ko'ramiz. Misol uchun, 31-avgust kuni qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi Qonun, 5-sentabrda imzolangan Toshkent shahridagi V.I. Lenin nomidagi maydonni Mustaqillik maydoni deb qayta nomlash to'g'risidagi, 6-sentabr kuni imzolangan «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish to'g'risida»gi Prezident farmonlari va boshqa siyosiy hujjatlar shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz mustaqilligining e'lon qilinishi, turgan gapki, sobiq Markazdagi imperiyaparast kuchlar va ularning yurtimizdagi tarafdorlari tomonidan ichki norozilik bilan kutib olindi. Ular O'zbekistonning istiqlol yo'lidagi qat'iy harakatlarini qanday qilib bo'lmasin yo'qqa chiqarish uchun urinar, buning uchun qulay fursat poylab yurishar edi.

Mamlakatimiz mustaqilligidan so'ng bir oy o'tar-o'tmas bu alamzada kuchlar ochiqchasiga bosh ko'tarib, o'zlarining yovuz maqsadlarini amalga oshirishga harakat qilishdi. Avvaldan puxta tayyorlanib, ayni ana shu buzg'unchi kuchlarning nomidan ish ko'rgan bir guruh deputatlar 1991-yilning 30-sentabr kuni o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Oliy Kengashining naybatdan tashqari yettinchi sessiyasida Prezident Islom Karimovga qarshi zimdan uyushtirilgan qabih fitnani amalga oshirish niyatida siyosiy janjal qo'zg'ashadi.

Agar o'sha paytda hali yangi Konstitutsiyamiz va tegishli qonunlarimiz qabul qilinmagani, mustaqil davlatimizning harbiy va fuqarolik tuzilmalari to'la shakllanib ulgurmaganini hisobga oladigan bo'lsak, bu fitnachilar Vatanimiz istiqlolining asosiy tashabbuskori, mamlakatimiz mustaqilligi va suverenitetining fidoyisi va kafolati bo'lgan insonni rahbarlikdan chetlatish, uning qanotini qayirish orqali xalqimiz endigina erishgan tinch-osuda, ozod va erkin hayotga, farzandlarimizning kelajagiga chang solishdek razil maqsadni ko'zlaganini tushunish qiyin emas, albatta.

Shu ma'noda, Prezidentimizning ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda **«O'z istiqlol va taraqqiyot yo'limiz – bu gul bilan qoplangan yo'l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo'lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo'lidir»**, deb aytgan so'zlari zamirida qanchalik chuqur hayotiy ma'no borligini yana bir bor anglaymiz.

Faqat davlatimiz rahbarining qat'iy pozitsiyasi, og'irbosiqlik bilan butun xalqimiz manfaatiga mos hayotiy dalillar, chuqur tahlillar asosida deputatlarni taqi puch da'vatlar, soxta bayonotlarga uchmaslikka, tarix bergan noyob imkoniyatni qo'ldan boy bermasdan, mustaqillik g'oyasi atrofida jiplashib, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishga ishontira olgani bu masalada hal qiluvchi rol o'ynadi.

Aytish kerakki, qaramlikka asoslangan mustabid tuzumdan yangi bir tarixiy davrga o'tish – mustaqil davlat barpo etish yo'lidagi og'ir sinovlar shu bilan yakun topgani yo'q. 1991-yilning 9-dekabrida Namangan shahrida bir guruh qo'poruvchi kuchlar viloyat ijroiya qo'mitasi binosini egallab olib, O'zbekistonni

islom davlatiga aylantirishni da'vo qilib chiqishdi va respublika rahbari bilan uchrashuv talab qilishdi. Islom Karimov ertasi kuni tongda Namanganga yetib keldi va aqidaparastlik g'oyalari bilan ongi zaharlangan, jazavaga tushib, qora kuchga aylangan johil olomon orasiga soqchi va hamrohlarsiz, bir o'zi hech bir ikkilanmasdan, shijoat va shiddat bilan kirib bordi. Bu o'ta keskin, dramatik holat video tasmasida tasodifan muhrlanib qolgan.

Shuni aytish kerakki, Islom Karimovning ana shunday qat'iyati va jasorati binoni boshiga ko'tarib baqirchaqir qilib yotgan minglab eng ashaddiy ekstremistlarni ham dovdiratib, sarosimaga solib qo'ydi. Mamlakatimiz rahbari hayajonga berilmasdan, vazminlik bilan ular talab qilayotgan yo'l qonunga mutlaqo zid ekanini va hech qachon yaxshilikka olib kelmasligini uqtirdi, o'zining salobati va irodasi bilan guvillab yotgan olomonning shashtini so'ndirishga, behuda qon to'kilishining oldini olishga muvaffaq bo'ldi.

1992-yil 16-yanvarda Toshkent shahridagi Talabalar shaharchasida alamzada, ekstremistik kuchlar tomonidan yana janjal chiqarildi. Hali ong-u tafakkuri shakllanib ulgurmagan, hayotiy tajribaga ega bo'lmagan talaba yoshlardan foydalanib, bir guruh manfaatparast, amalparast kimsalar yurtimizdagi vaziyatni izdan chiqarishga va shu tariqa dunyo hamjamiyatidan o'z o'rnini topishga intilayotgan yosh O'zbekistonning obro'siga putur yetkazishga, uni o'z tanlagan yo'lidan qaytarishga urinishdi.

Ana shu va shu kabi boshqa qaltis vaziyatlarda Prezidentimizning xalqimiz irodasiga, qonunlarimizga tayangan holda olib borgan vazmin siyosati, o'z vaqtida qat'iyat bilan ko'rgan chora-tadbirlari tufayli bunday

xavf-xatarlar bartaraf etilgani, ozodligimiz, hurriyatimiz saqlab qolingani, haqiqatan ham, istiqlol yo'lining biz uchun naqadar murakkab, og'ir va mashaqqatli bo'lganidan dalolat beradi.

Ushbu kitobdagi yana bir diqqatga molik jihat shundaki, butun Ittifoq bo'ylab yig'ilish va majlislarda rus tilida, kommunistik safsatabozlik ruhida so'zlash qoidaga aylanib qolgan bir sharoitda respublika rahbari Islom Karimovning aksariyat nutq va ma'ruzalari (Moskvada o'tkazilgan yig'ilishlardagi chiqishlaridan tashqari) asosan o'zbek tilida, xalqimizning barcha qatlamlari uchun tushunarli bo'lgan sodda va ravon, jozibali, ta'sirchan uslubda jaranglagani ona tilimizning maqomini joyiga qo'yish, el-yurtimizning ruhini ko'tarishga xizmat qilgani shubhasiz. Milliy qadriyatlarimizning asosiy ustunlaridan biri bo'lgan ona tilimizga ana shunday yuksak e'tibor tufayli 1989-yilning 21-oktabr kuni qizg'in bahs va tortishuvlardan so'ng siyosiy-ma'naviy hayotimizdagi unutilmas hodisa amalga oshirilgani — o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani istiqlol tarixining yana bir yorqin sahifasini tashkil etadi.

Bu kitobdagi barcha chiqishlarni o'zaro birlashtirib turadigan eng muhim fazilat — bu Vatanimiz istiqloliga fidoyilik, shu zamin, shu xalqning yorug' kelajagi, farovonligi, baxt-u saodati uchun har qanday sinov va mashaqqatlarga tayyor turish tuyg'usi, shu ulug' maqsadlarga borlig'ini bag'ishlagan insonning bezovta va bedor qalbi, keng tafakkuri, mustahkam iroda va e'tiqodidir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, to'plamga kiritilgan har bir chiqishni mutolaa qilish jarayonida biz yangi tariximizning o'zimiz bilmagan, anglamagan yana

ko'plab qirralarini yangitdan kashf etamiz, istiqlol mohiyatini, «**tarixiy burilish pallasida xalq dardi, millat qayg'usi buyuk shaxslarni yaratishi**»ni yanada chuqurroq anglaymiz. Ozodlik, mustaqillik, bugungi tinch-osuda hayot o'z-o'zidan kelmagani, ularning barchasi qanday tinimsiz kurashlar, qiyinchilik va yo'qotishlar, uyqusiz tunlar, munozara va muhokamalar, izlanish va yaratishlar, ba'zan o'ta iztirobli, ba'zida quvonchli intilishlar mahsuli ekanini qalbimizdan, yuragimizdan o'tkazamiz. El-yurtimiz O'zbekiston deb atalgan bu betakror va ozod diyor, mustaqil davlatni haqiqatan ham o'z mehnati, o'z aql-zakovati va salohiyati, irodasi bilan barpo etganidan ko'nglimiz tog'dek ko'tariladi.

Prezident Islom Karimovning xalqimizning siyosiy tafakkur xazinasiga bebaho hissa bo'lib qo'shiladigan «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobi istiqlol tufayli asl ildizlarimizga qaytib, o'z taqdirimizni o'zimiz belgilash huquqiga ega bo'lganimizni, avlodlarga ibrat va namuna bo'ladigan buyuk ishlarni amalga oshirganimizni yana bir bor g'urur-iftixor bilan ta'kidlashga asos beradi, deb ishonamiz.

BIZ BUNDAN BUYON ESKICHA YASHOLMAYMIZ VA BUNDAY YASHASHGA ZAMONNING O'ZI YO'L QO'YMAydi

Hurmatli o'rtoqlar!

Avvalo, meni ma'zur tutasizlar-u, lekin bugun mana shunday jiddiy masala muhokamasida ishtirok etar ekanman, beixtiyor avvalgi majlislarni eslashga to'g'ri kelmoqda. Yaxshi eslayman, bundan uch yil oldin ham mana shu zalda katta masalalarni muhokama qilgan edik. Lekin, afsuski, bugungi muhokamadagi yondashuv va usullar bu yerda o'tirgan va o'sha masalalar uchun javobgar bo'lgan odamlarning mas'uliyati o'zgarmasdan qolganini ko'rsatmoqda.

Men tabiiy ravishda shunday xulosaga kelmoqdaman. Chunki biz bugungi kunning mas'uliyati o'ta jiddiyligi, butun mamlakat o'zgarishlar bosqichida turgani, uning g'oyat og'ir ahvolga tushib qolgani haqida gapiryapmiz. Agar Farg'ona voqealaridan keyin O'zbekistonda vujudga kelgan vaziyat haqida gapiradigan bo'lsak, shuni aytishim kerakki, biz avvalo o'zimizdan, mansabda o'tirgan rahbarlardan butunlay boshqacha yondashuvlarni, eng asosiysi, boshqacha javobgarlikni kutishga haqlimiz.

Biz bugun muhokama qilayotgan barcha masalalarni o'zimizning ishga bo'lgan munosabatimizni tubdan o'zgartirmasdan turib hal qilib bo'lmaydi — gap shu haqda bormoqda.

Albatta, bu yerda o'tirganlarning barchasi meni yaxshi biladi va chamasi, o'zicha menga qandaydir baho berayotgan bo'lsa ham ajabmas. Lekin, shuni aytishim kerakki, hamonki meni Respublika rahbari etib saylashgan ekan, ishga bunday munosabatni o'zgartirish uchun qo'limdan kelgan barcha ishni qilaman. Ishga bo'lgan, o'zimizga topshirilgan vazifaga nisbatan munosabatni, dunyoqarashimizni va umuman, mas'uliyatimizni o'zgartira olsakina ishlarimiz yo'lga tushib ketadi. Aks holda, vaziyatni izdan chiqarishga intiladigan kuchlar yo meni chetga surib qo'yadi yoki juda ko'p rahbarlarni o'zgartirishga to'g'ri keladi.

Men, albatta, o'zimning birinchi chiqishimni aynan shu so'zlardan boshlamoqchi emas edim, ammo, takror aytamanki, hammamiz ishga bo'lgan munosabatimizni keskin o'zgartirishimiz kerak...

... Hozirgi kunda ko'pgina odamlar Farg'ona voqealarining sabablarini turlicha izohlashmoqda. Men ham bugun barcha sabablarni sanab o'tmoqchi yoki ularning eng asosiylarini qayd etmoqchi emasman. **Lekin shu narsa ayonki, barcha voqealarning ildizi – Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan bog'liq, desam, o'ylaymanki, ko'pchilik bu fikrga qo'shiladi.**

Shu o'rinda boshqa masala ham o'rtaga chiqadi – Farg'onada sodir bo'lgan voqealar O'zbekistonning boshqa bir joyida yuz berishi mumkinmidi? Bu savolga ham ochiq javob beraman: ha, mumkin edi. Chunki, mening tushunishimcha, odamlarning ta'minoti, daromadi, ularning yashashi uchun zarur bo'lgan kundalik mahsulotlarning eng kam miqdori, ortiqcha ishchi kuchini nima bilan band etish va bu masalani qanday yechish nuqtayi nazaridan qara-

ganda, Andijon oblastidagi hozirgi mavjud ahvol Farg'ona oblastidagidan ham yomonroqdir.

... Biz bir savolga aniq javob topishimiz zarur — Farg'onada yuz bergan fojiali voqealardan keyin bizning bu boradagi yondashuvlarimiz qanchalik o'zgardi? Afsuski, bugungi muhokamalar bizda hech narsa o'zgarmaganini ko'rsatmoqda. Men sizlar bilan ko'p yillar birga ishlagan insonman, bu zalda o'tirganlarning deyarli barchasini taniyman. Biz bir-birimizni yaxshi bilamiz.

Men sizlardan so'ramoqchiman: ana shu fojiali voqealardan keyin Farg'ona vodiysi oblastlari bugungi majlisga yuborgan rahbarlarning psixologiyasida nima o'zgardi? Men bu savolga o'zingiz javob topishingizni istayman. Bugungi majlisda Farg'ona oblast ijroiya komiteti raisining o'rinbosari Y. Kalimullin, Namangan oblast ijroiya komiteti raisining birinchi o'rinbosari A. Boguslovskiy, Andijon oblast ijroiya komiteti raisining birinchi o'rinbosari V. Babenkoning hisobotini eshitdik. Albatta, ular tajribali mutaxassislar ekanini bilamiz. Afsuski, bu odamlar ham bugungi majlisga tayyorlanmasdan kelibdi.

Men bugun nimani kutgan edim? Men har bir oblast bo'yicha aniq dasturlar haqida, ichki rezervlar hisobidan ishni to'g'ri tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruksiya qilish, qancha miqdorda, kim va qachon qo'shimcha xomashyo ajratishi evaziga ahvolni yaxshilash imkoniyatlari to'g'risida amaliy gaplar bo'ladi, deb o'ylagan edim...

Umuman, **bugun biz masalani kengroq qo'yishimiz, odamlarni qanday boqish, Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining moddiy farovonligini qanday qilib yaxshilash haqida so'z yuritishimiz zarur.**

Masalani aynan shunday qo'yish har tomonlama to'g'ri bo'lgan bo'lur edi. Biz ish o'rinlari haqida gapirganimizda, shuni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerakki, Farg'ona oblastidagi barcha yer maydonlari shu qadar ishdan chiqqan, yerning joni shunchalik so'rib olinganki, agar biz mehnatni tashkil etishning yangi usullari bo'lmish oilaviy pudrat va boshqa xo'jalik yuritish shakllarini, yerni dehqonlar ixtiyoriga beradigan ana shunday ko'plab tadbirlarni joriy etgan taqdirimizda ham u yerda yashayotgan odamlarga to'g'ri keladigan qo'shimcha daromad miqdorini o'zgartirish juda qiyin. Men buni Qashqadaryo oblasti misolida yaxshi bilaman. Aholini Qarshi cho'llariga tashkiliy ravishda ko'chirishning butun davri mobaynida u yerga 600 ta oila ko'chib borgan, xolos. Bugungi kunga qadar ulardan 40 ta oila yashab qolgan...

Shunday ekan, savol tug'iladi: Farg'ona oblastidagi ortiqcha ishchi kuchini qanday band qilish, odamlarni qanday boqish kerak?

Buning hozircha faqat bitta chorasi bor — ish o'rinlari yaratish lozim. Buning uchun ishlab chiqarish tarkibini shunday qayta qurish zarurki, odamlar o'zlari yashayotgan joydan uzoqqa ketmasdan, samarali mehnati hisobidan kerakli daromadga ega bo'lsin. Men bu yerda o'tirgan ko'pchilik rahbarlarga eslatmoqchiman, agar Xitoyni oladigan bo'lsak, u yerda sanoat mahsulotlarining 40 foizi qishloq joylarda ishlab chiqarilmoqda. Bu mamlakatda yirik korxonalar qurishmaydi, odamlar esa bir vaqtning o'zida shaxsiy xo'jalik bilan shug'ullanib, yashash joyidan uzoq bo'lmagan yerda qo'shimcha daromad manbayiga ham ega bo'ladi. Bugun buni ko'pchilik ko'rmoqda, matbuot sahifalaridan o'qib, bu haqda xabardor bo'lmoqda.

Aytish kerakki, Xitoyda aholining soni bizdagiga qaraganda bir necha barobar ko'p. Lekin Xitoy qandaydir yo'llarni topib bu muammolarni muvaffaqiyatli hal etmoqda. O'zingiz e'tibor bering, bugungi kunda Xitoy qanday sur'atlar bilan rivojlanmoqda, xalqining hayot darajasi qanchalik o'sib bormoqda. **Agar Farg'ona vodiysi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, biz hal etmoqchi bo'lgan masala bitta – qanday qilib ishchi o'rinlarini yaratish, buning uchun nima qilishimiz kerak?..**

... Ayrim tarmoqlarda, ayniqsa, yengil sanoatda bo'sh ish o'rinlari juda ko'p bo'lishiga qaramasdan, odamlarni ishga joylashtira olmasdan ovora bo'layotganimiz kishini hayron qoldiradi. Bunday jumboqni hech kim Toshkentdan turib hal qilib berolmaydi. Bu masalalar faqat joylarda hal etiladi. Bu borada ushbu tarmoqlar uchun bevosita javobgar bo'lgan, lekin bu masalalarni kimdir chetdan kelib hal qilib beradi, degan xomxayol bilan yurgan odamlarning mas'uliyatsizligi ham sezilmoqda...

... Men Farg'onada to'planib qolgan muammolarni yechish uchun Toshkentda, ayni mana shu zalda zudlik bilan malakali, ko'p narsani tushunadigan, ishning negizini biladigan odamlardan iborat bir guruh tashkil etishimiz kerak, deb hisoblayman. Bu guruh vodiya borib, belgilangan muddat mobaynida hamma shahar va qishloqlar, ayniqsa, inqiroz holati sezilayotgan barcha joylarni aylanib chiqib, har bir hudud bo'yicha amaliy taklif va xulosalar tayyorlashi lozim. Bunda joylarda tashkil etiladigan korxonalarni quradigan pudrat tashkilotlari, moliyaviy manbalar, xususan, u yerda ishlab chiqariladigan mahsulot bilan bog'liq masalalarni hal etish zarur. Bu komissiya ana shunday taklif va xulosa-

lar bilan qaytib kelganidan so'ng, biz mana shu zalda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda bu masalalarni yana atroflicha ko'rib chiqamiz...

Bu ishlarni hal qilishda har bir rahbar o'z joyida mas'uliyatni o'ziga olib, bu masalalarning yechimini topmas ekan, men xavotirdamanki, biz 1990-yilda ham hech narsaga erisha olmaymiz...

Shuning uchun yana bir bor iltimos qilaman, bugun mana shunday komissiyani tuzishimiz, uning tarkibiga birinchi navbatda Davlat plan komiteti, Davlat mehnat komiteti xodimlarini, joylarda qurilish bilan shug'ullanadigan tegishli tarmoqlar vakillari va quruvchilarni, shuningdek, Ministrlar Soveti xodimlarini kiritish zarur. Toki ular joylarga borib, Farg'ona oblasti bo'yicha belgilangan rejalar, qurilishi boshlangan, rekonstruksiya qilinayotgan obyektlarni topshirish muddatini belgilashi lozim. Bundan tashqari, butun oblast faollari, avvalo, lavozimda o'tirgan, shu ishlar uchun javobgar bo'lgan raykom sekretarlari, rayijrokom vakillarini bu ishlarga keng jalb etish kerak...

... Iyul oyining boshiga qadar Farg'ona oblasti aholisining hayot darajasini va ishga yaroqli aholining bandligini oshirish bo'yicha dasturni ishlab chiqish zarur. Mahalliy organlar rahbarlarining jon boshiga qancha daromad to'g'ri kelishi va umuman, odamlarning qanday hayot kechirayotgani, bundan keyin shunday past daromadlar bilan yashash mumkin emasligini bilmasligi, masalan, men uchun uyat hisoblanadi. Agar da biz shuni bilmasak, ijtimoiy sohadagi bundan keyingi prognozlarni qanday ishlab chiqish mumkinligini men o'zimga tasavvur qilolmayman. Bunday savollarni yana davom ettiradigan bo'lsak, qani aytinglar, oyiga bor-yo'g'i 42 so'm oladigan pensioner, kolxozchi

qanday kun kechiradi? Arzimagan pul olayotgan nogironlar, aholining boshqa guruhlarini qanday tirikchilik qilmoqda? Men bu masalalarni chuqurlashtirib o'tirmadim. Lekin o'zingiz aql-idrok bilan, vijdon va mas'uliyat bilan anglab yetasiz, deb o'ylayman. Men sizlarga murojaat qilish bilan shug'ullanmasligim zarurligini tushunaman. Lekin shunday vaqtlar bo'ldiki, mas'uliyat ancha susaydi, topshirilgan ish uchun javobgarlikni hech kim talab qilmadi. Bu qanday gapki, yuzlab hujjatlar chiqaramiz-u, lekin hech kimdan hech narsani talab qilmaymiz. Joylarda, oblastlarda va bu yerda, Toshkentda ham har kim o'zi uchun shuncha-ki, nomiga hisobot qilib qo'yadi. Shunday hisobotlar bo'yicha bizlarning barchamiz bir xilmiz, go'yoki barcha tadbirlar amalga oshirilgan, hamma ishlar joyida, hammasi qoyilmaqom, rasmiy qog'ozlar yetarli, lekin ishga kelganda, hech vaqo yo'q. Men sizlarni mavjud ahvolni tanqidiy baholashga va bundan buyon eskicha yashash mumkin emasligini anglashga chaqirmoqchiman. Haqiqatan ham, biz endi bunday yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi.

Yana bir masala. Biz turli obyektlar qurish haqida gapiramiz, ayni paytda, men o'ylaymanki, bu masala zamirida bir muammo mavjud. Gap shundaki, biz kadrlarni oldindan tayyorlab bormaymiz. Aytish kerakki, kasb-hunar va texnik ta'limda hamma ishlar, yo'nalish nuqtayi nazaridan ham, tarmoqlar bo'yicha kadrlar tayyorlash yuzasidan ham hech o'zgarmasdan qolmoqda. Qishloqda biz faqat mexanizatorlar tayyorlaymiz, yoshlarni ertaga joylarda qanday mutaxassislariga ehtiyoj paydo bo'lishini hisobga olmasdan, o'qitaveramiz.

Men bu haqda shuning uchun ham kuyunib gapir-yapmanki, bunday holatlarni aniq misollarda ko'rgan-

man. Hozirgi kunda qishloqlarda keng profildagi mexanizatorlar to'lib ketgan. Ayni vaqtda biz aholi uchun daromadlar faqat paxta tozalash sanoatidan emas, balki aqliy mehnatga, ilm-fan yutuqlariga asoslangan, kadrlarning malakasini oshirib borishni talab etadigan tarmoqlardan kelishi haqida jiddiy o'ylab ko'rmaymiz. Men sizlarga da'vat etmoqchi emasman, lekin o'zingiz dunyoga qarang, bir vaqtlar katta davlatlarning mustamlakasi bo'lgan Janubiy Koreyada, Tailandda, Gongkongda qanday o'zgarishlar bo'lmoqda? Bu o'likalarda qanday kadrlar, qanday aql-zakovat egalari yetishib chiqmoqda, ular qanday mo'jizalarni yaratmoqda?

Men bu masalaga ortiqcha to'xtalmoqchi emasman, lekin, nazarimda, kadrlar tayyorlash bilan bog'liq ayrim masalalarda bizda jiddiy kamchiliklar bor. Men buni shovinizm yoki millatchilik ko'rinishi demoqchi emasman, lekin bu masalada ham ana shu narsalarning hidi anqib turibdi, desam, xato bo'lmaydi.

Farg'ona shahar ijroiya komitetiga bugun muhokamada tilga olingan sharmandali hujjat chiqarish uchun kim ruxsat berdi va buning uchun kim javob beradi? Nima uchun odamlarni ikki sortga ajratib qo'yishibdi? Nima uchun ishga joylashishni istayotgan odamlarni qandaydir rasmiy sabablar borligi uchun ortiga qaytarib yuborishmoqda? Axir, bularning barchasi aholi o'rtasida boshqacha aks-sado beradi, shuning oqibatida hozirgi kunda Boltiqbo'yi respublikalarida sodir bo'layotgan voqealarga o'xshash holatlar kelib chiqadi...

Bugungi kunda xalqning siyosiy ongi shunchalik yuksalib ketganki, u yon-atrofdagi sodir bo'layotgan voqealarning hammasiga siyosiy baho beradi. **Aholining**

soddaligi va hech narsani tushunmasligiga umid qiladigan zamonlar o'tib ketdi. Buni qarangki, qishloqdan kelgan odamlarni shaharda ishga olmaydi, lekin respublikamizning tashqarisidan kelganlarni esa ishga oladi. Sizlar ertaga bizda ham xuddi shunday kayfiyat, ya'ni odamlarni birinchi va ikkinchi sortga bo'lish kayfiyati tug'ilishini istaysizmi?..

Oblast partiya komiteti buni nima uchun sezmadi? Buni qanday izohlash mumkin? Barchangiz qabul qilgan hujjatlaringizni bir qarab ko'ring, balki shunga o'xshash yana qandaydir noma'qul ishlar chiqib qolishi mumkin...

Nima uchun mahalliy millatga mansub kishilar o'rtasida muhandis-texnik xodimlar yo'q? Men bu savol haqqoniy savol, deb hisoblayman. Bu muammo ustida hammamiz bosh qotirishimiz kerak. Men boshqa misollar keltirib o'tirmayman, lekin shuning o'zi ham barchamizni hushyor torttirishi zarur. Biz yosh kadrlarni tarbiyalash, ularga ilg'or mehnat va tafakkur usullarini singdirish uchun nima qilmoqdamiz? Tan olish kerakki, deyarli hech ish qilayotganimiz yo'q.

Men sizlarga qandaydir ko'rsatma berish yoki xulosalar qilish niyatidan yiroqman, lekin bizning moliya ministrimiz talantli yoshlar uchun maxsus stipendiyalar belgilash, ularni mamlakatimizning yetakchi mintaqalariga respublikamiz ajratadigan ana shu stipendiya yoki yordam hisobidan bilim olishga yuborish haqida o'ylab ko'rishi kerakdir. Nazarimda, bugun ana shu ishning fursati yetdi. Agar hukumat zaxirasidan bir necha million so'mni aynan shu maqsadlarga yo'naltirsak, o'ylaymanki, bu ayni muddao bo'ladi. Bu yoshlar ikki-uch yildan so'ng yurtimizga qaytib, so'nggi texnik yangiliklar asosida barpo etilgan

eng ilg'or korxonalarni dadil boshqarishga qodir bo'ladi. Iшонaman, bu masalada bizni yoshlarimiz ham, xalqimiz ham qo'llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunda yoshlar shunchaki nodonlik tufayli shovqin ko'tarayotgani yoki qandaydir boshqa sabablarga ko'ra beboshlik qilayotgani yo'q, desam, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz. Aytishim kerakki, yoshlar va ularni ishga joylashtirish masalasidagi siyosat bizda jiddiy o'ylab ko'rilmagan...

Qaranglar, qanchadan qancha yoshlarimiz bugungi kunda o'z kuchini qayerga sarflashni bilmay yuribdi. Fursatdan foydalanib, sizlar bilan bir fikrni o'rtoqlashmoqchiman. Yaqinda, bu yerda — Toshkentda partiya plenumi bo'lgan vaqtda bizdan siz Qashqadaryo rahbari bo'lganingiz uchun ushbu vohadan kelib o'qiyotgan yoshlar bilan bir suhbat o'tkazsangiz, deb iltimos qilishdi. Qashqadaryolik studentlar qiziqqonlik qilishmoqda, deyishdi. Nimagadir Toshkentda eng qiziqqon yoshlar — bu qashqadaryolik va surxondaryolik studentlar, deb hisoblashadi.

Biz suhbat o'tkazgan zalda Qashqadaryodan kelib ta'lim olayotgan yoshlardan taxminan bir yarim ming nafari to'plandi. U yerda so'zga chiqish uchun maxsus tayyorlab qo'yilgan kishilar ham bor edi. Ular qaltis, odamni chalg'itadigan savollar berish orqali masalani boshqa tomonga burib yuborishmoqchi edi. Aytishim kerakki, suhbat paytida qarsakbozliklar ham, yer tepib shovqin ko'tarishlar ham bo'ldi. Suhbatimiz tugaganidan so'ng, men shuni tushunib yetdimki, biz bormagan joyda, jumladan, ana shunday yoshlar orasida boshqalar paydo bo'lib, o'z ishini bitirar ekan. Shu tariqa biz farzandlarimizni boshqalarning qo'liga berib qo'yayapmiz.

Biz suhbatdan so'ng bir guruh yoshlar bilan gaplashganimizda ularning aql-u hushi joyida bo'lgan bolalar ekanini, ularni Qashqadaryoning, umuman respublikamizning kelajagi, paxta yakkahokimligi bilan bog'liq masalalar qiziqtirishi, ularning barcha qatori sog'lom fikrlashga qodir ekani ayon bo'ldi.

Aslida, paxta yakkahokimligi degan narsani, uning nima uchun yakkahokim bo'lib qolganini ko'pchilik mutlaqo tushunmaydi. Bugun mana shu zaldagi imkoniyatdan foydalanib aytmoqchiman, paxta yakkahokimligi masalasida biz o'zimiz aybdormiz. Biz bu ishga berilib ketdik, bu masala zimdan amalga oshirilgan xushomadgo'ylikka aylanib qoldi va u barchamiz uchun halokatga aylandi. Agar Qashqadaryo bo'yicha yana bir misol keltiradigan bo'lsam, ertaga Islom Karimov faqat Qashqadaryoni biladi, degan gap-so'z tarqalib ketishi mumkin.

Albatta, ishga to'liq kirishib ketganimdan so'ng men boshqa oblastlardan ham misol keltiraman, lekin hozircha yana Qashqadaryoga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Bizga meva-sabzavot ekinlari uchun 235 ming gektar yer limiti belgilangan edi. Lekin biz bu ko'rsatkichdan 7 ming gektar ko'proq yerga ana shu ekinlarni ekdik. Holbuki, mutasaddi rahbarlar barcha raykom va rayon ijroiya komitetlariga do'q qilib, agar belgilanganidan sal oshiradigan bo'lsang, o'zingdan ko'r, partbiletningni topshirishingga to'g'ri keladi, deb qattiq talab qo'ygan edi. Shunga qaramasdan, baribir o'z bilganidan qolmasdan, ko'proq maydonlarga meva-sabzavot ekinlarini ekadigan brigadirlar va sovxoz direktorlari oldida raykom sekretarlari zaif bo'lib qolishdi. Men bugun aytishim kerakki, sovxoz direktorlari, brigadirlarni yuqoridan turib bir gapga

ko'ndirish oson emas, chunki ularning o'zlari nimadan qanday daromad olish, xo'jalik a'zolarini qanday boqishni yaxshi bilishadi.

Shu ma'noda, paxta yakkahokimligi haqida dalada umuman ishlab ko'rmagan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga mutlaqo aloqasi bo'lmagan odamlarning safsata sotishi meni xayron qoldiradi. Bu odamlar paxta yakkahokimligi haqida gapirib, avvalo, o'zining ishga yaroqsizligini niqoblamoqchi bo'ladi. Shuning uchun ham bu borada masalalar ko'p. Lekin ular haqida Ministrlar Soveti kelgusi yil rejalarini aniqlashtiradigan paytda alohida gaplashib olish mumkin.

O'ylaymanki, bu borada kichik bir tajriba o'tkazish, ya'ni qancha maydonga qaysi ekinni qancha miqdorda ekish masalasini kolxoz va sovxozlarning o'z ixtiyoriga qoldirish kerak. Biz ana shundan so'ng erishilgan natijalarni bir joyga to'plab, o'zaro fikrlashib olishimiz mumkin. Balki biz respublika bo'yicha hech qanday zo'rlash, majburlash holatlariga yo'l qo'ymasdan, 5 million tonna paxta xomashyosi yetishtirishga erisharmiz. **Kelinglar, shuni bir tajriba qilib ko'raylik, barcha ishni dalada ishlayotgan odamlarga ishonib topshiraylik...**

So'zinning boshida aytgan gaplarimga qaytib ta'kidlamoqchiman, agarki biz Farg'onada sodir bo'lgan voqealardan zarur saboq chiqarib olmasak, **agarki biz xalqimizga voqealar jilovini qo'lga olganimizni va biz bu masalalarni hal etishga harakat qilayotganimizni ko'rsatmasak, agarki odamlar bu borada bizga inonmasa, ishoninglar, har qanday daqiqada va har qanday joyda ijtimoiy portlash yuz berishi mumkin. Biz odamlarni tashvishga solayotgan masalalarni hal**

qilishga kirishganimizni ular amalda his qilishi lozim. Bugungi majlis shu yo'ldagi birinchi qadam bo'lib xizmat qilishi kerak.

Agar istiqbol haqida gapiradigan bo'lsak, ko'pchilik o'rtoqlar saylovchilar, xalq bilan uchrashganlarida og'ir savollarga javob berar ekan, bizda 1995-yilga qadar mo'ljallangan dastur bor va u hamma masalalarni yechib beradi, deb gapirishga o'rganib qolishgan. Go'yoki bu dastur bizni hamma balo-qazolardan xalos etadigandek. Holbuki, unday emas. Bugungi kunda bu dastur qanaqadir jonsiz narsaga aylanib qolgan. Bu dastur faqat biz uchun qandaydir marralar, qandaydir maqsadlarga erishish imkonini beradigan asosiy yo'nalishlarni, ba'zi tarkibiy o'zgarishlarni ko'rsatib beradi, xolos. Biz — butun partiya apparati bugun bu dasturdan niqob sifatida foydalanmoqdamiz. U, bugun bizda ahvol yomon, bu to'g'ri, lekin bizda dastur bor, demak, ertaga yaxshi bo'ladi, degan bahona uchun xizmat qilmoqda. Lekin bu dasturni amaliy hayotga yaqinlashtirish uchun, men bilmadim, qancha harakat qilish kerak bo'ladi.

Shuning uchun, mening nazarimda, ba'zi tarmoqlarni ustuvor rivojlantirish haqida biz jiddiy o'ylab ko'rishimiz zarur...

Albatta, respublikamizdagi mineral xomashyo, energetika, yer-suv resurslari borgan sari kamayib boradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, eski yondashuvlardan chora izlagan bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi. Bugun favqulodda g'ayrioddiy yo'llarni topib, taraqqiyotimiz istiqbolini to'g'ri belgilab olishimiz zarur. Tabiiyki, bunda eng katta mas'uliyat, avvalo, bilimdon va malakali, fidoyi kadrlar zimmasiga tushadi...

Buning uchun yangi sharoit talablari asosida o'z ishimizni jiddiy qayta tashkil etishimiz zarur. Muayyan tarmoq uchun javob beradigan odamlarning mas'uliyatini oshirish lozim.

*O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining
Farg'ona vodiysi oblastlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan Kengashida
so'zlangan nutqdan
(stenogramma materiallari asosida tayyorlandi)*

*1989-yil 24-iyun,
Toshkent shahri*

JAMIYATNI YANGILASH UCHUN KURASHAYOTGAN BARCHA SOG'LOM KUCHLARNI BIRLASHTIRISH ZARUR

Mamlakat keskin va qiyin davrni boshidan kechirmoqda. SSSR xalq deputatlarining birinchi syezdida, SSSR Oliy Sovetining majlislarida, mamlakatning turli mintaqalarida mehnatkashlarning ommaviy chiqishlarida bu, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ldi.

Hozir shunday vaziyat vujudga keldiki, u jamiyatni yangilash uchun kurashayotgan barcha kuchlarni birlashtirishni talab qilmoqda. Odamlar aslo kechiktirib bo'lmaydigan muammolar — oziq-ovqat, transport, savdo, sog'liqni saqlash, uy-joy qurilishi, mehnat rejimi va unga haq to'lash, dam olish sharoitlari kabi muammolarning hal etilishini kutmoqdalar.

Keyingi vaqtlarda iqtisodda paydo bo'lgan bir qancha salbiy tendensiyalar vaziyatni jiddiy ravishda chigallashtirmoqda. Ko'pgina xalq iste'moli mollari-ning taqchilligi sezilarli ravishda ko'paydi. Pul tobora qadrsizlanib bormoqda. Davlat budjetining kamomadi o'sib bormoqda. Ishlab chiqarish va mehnat intizomi ancha pasayib ketdi.

Ana shularning hammasi sotsial keskinlikning kuchayishiga olib kelmoqda.

Milliy masala hamon o'tkirligicha qolmoqda. Armaniston, Ozarbayjon, Gruziyada, Boltiqbo'yi hamda boshqa respublikalarda mojarolar davom etmoqda. Mana shu va boshqa ziddiyatlar, qiyinchiliklar bizning

respublikamizni ham chetlab o'tmadi. Ayni vaqtda O'zbekistondagi ishlarning ahvoli respublikaning o'zigagina xos bo'lgan bir qancha muammolarning namoyon bo'lishi bilan chigallashmoqda.

Prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan ba'zi eng jiddiy muammolarga to'xtalib o'tishimga ijozat bergaysiz.

Birinchidan, respublikada demografik vaziyatning murakkabligidir. Keyingi ro'yxat ma'lumotlariga ko'ra, **so'nggi o'n yil mobaynida aholimiz 4,5 million kishiga yoki 30 foiz ko'paydi va hozir 20 million kishini tashkil etadi. Respublikada aholining o'sish sur'atlari umumittifoq sur'atlariga qaraganda uch barobardan ziyod yuqoridir.**

Shuni ochiq e'tirof etish kerakki, aholining bunday o'sishi ko'p yillardan buyon sanoatda va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida ish joylarini ko'paytirish hamda aholining hayot ta'minoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan mustahkamlanmayapti.

Odamlar turmushi tobora behalovat bo'lib borayotganligi, ijtimoiy-foydali mehnat sohasida band bo'lmagan kishilar, oddiy qilib aytganda ishsizlar ko'payayotganligi, ijtimoiy mehnat unumdorligi va aholining daromadlari kamayib, pirovard natijada xalq farovonligi pasayib ketayotganligi mana shundandir. **Statistikaning ko'rsatishicha, hozir O'zbekistonda aholi jon boshiga hisoblaganda daromadi 75 so'mdan oshmaydigan 8 million 800 mingga yaqin kishi yashab turibdi, bu esa aholining 45 foizini tashkil etadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, kun kechirish uchun kamida hozirgi kunda 85 so'm zarurligini e'tiborga oladigan bo'lsak, ana shunda odamlar qanday qiyinchilik bilan, uchma-uch yashab kelayotganiga o'zingiz baho berishingiz mumkin.**

Ikkinchidan, respublika xalq xo'jaligi bir yoqlama, aytish mumkinki, haddan tashqari nomaqbul ixtisoslashtirilgan. Natijada shunday ahvol vujudga keldiki, qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda sanoatda ham asosan xomashyoni birlamchi qayta ishlash tarmoqlari ustunlik qilmoqda, tayyor mahsulot, birinchi navbatda xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar esa arzimas salmogga ega. Hozir qishloq xo'jaligi xomashyosining talaygina hajmi (paxta tolasi, xom ipak va boshqa ko'pgina xomashyo mahsulotlari) respublikadan olib ketilmoqda, ayni vaqtda esa aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun 8-9 milliard so'mlikka yaqin tayyor mahsulot olib kelinmoqda.

O'zbekistonda elektronika, asbobsozlik, radiotexnika, murakkab ro'zg'or texnikasi ishlab chiqarish kabi va boshqa ko'pgina ilg'or tarmoqlar mutlaqo qoniqarsiz rivojlantirildi. Agar bu tarmoqlar respublikada rivojlantirilganda edi, ular mehnat resurslari oshib-toshib yotgan aholini ish bilan ta'minlay olgan bo'lur edi. Aksincha, respublikada suv ko'p sarflanadigan va zararli ishlab chiqarishlar asossiz ravishda rivojlantirildi.

Qishloq xo'jaligi sohasida, avvalo, tarmoqlarning serdaromadligi va mehnat sarfini, yerning tabiiy imkoniyatidan samarali foydalanishni hisobga olib, uning strukturasi tubdan qayta ko'rib chiqish kerak. **Respublika paxtachiligidagi ishlarning ahvoliga: paxtaning narxi, paxta yakkahokimligini tugatish masalalariga g'oyat zudlik bilan e'tibor berish zarur, albatta. Narx-navo islohoti boshga gishloq xo'jalik ekinlari hamda chorvachilik mahsulotlariga ham tatbiq qilinishi lozim.**

Uchinchidan, ishlab chiqaruvchi kuchlar va, avvalo, sanoat obyektlari asosan stixiyali ravishda, aniqrog'i, har xil o'zboshimchalik, buyruqbozlik qarorlari asosida, ko'pincha ilm-fan vakillari, bilimli va obro'li mutaxassislarning tavsiyalari mutlaqo e'tiborga olinmay joylashtirildi. **Respublika sanoat salohiyatining 50 foizga yaqini joylashtirilgan Toshkent va Toshkent oblasti shaharlari, Farg'ona, Andijon, Qo'qon, Navoiy shaharlari hamda respublikaning boshqa bir qancha mintaqalari misolida hozir ana shunday joylashtirish, ayniqsa, salbiy ta'sir o'tkazayotganini ko'rish mumkin.**

Bunday joylashtirish respublikaning ekonomikasiga va aholi punktlarining ekologiyasiga g'oyat katta ziyon yetkazganiga hozir baho berish qiyin, eng asosiysi esa, bu hozir aholining hayot ta'minotiga, odamlarning yashashi va uyg'un kamol topishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga ta'sir o'tkazmoqda.

To'rtinchi va aytish mumkinki, eng muhim masala — respublikadagi sotsial ahvolning, odamlarning sotsial ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilishning mutlaqo qoniqarsizligidir. Qishloq aholisining atigi 5 foizi kanalizatsiya va vodoprovod bilan, salkam 50 foizi — ichimlik suv bilan, 17 foizi tabiiy gaz bilan ta'minlanganini normal ahvol, deb hisoblash mumkin emas. Shuni e'tirof etish kerakki, ko'rilayotgan barcha choralarga qaramay, aholini uy-joy, sog'liqni saqlash, madaniyat, maishiy xizmat obyektlari, maktablar, bolalar bog'chalari va hokazolar bilan ta'minlashda hozircha sezilarli siljishlarga erishilgani yo'q.

Qishloqni sotsial jibatdan qayta qurish uchun biron ish qilinmayapti, vaholanki, aholining asosiy ko'pchiligi qishloqda yashaydi.

Odamlarning turmush darajasiga, farovonligi va kayfiyatiga bevosita ta'sir o'tkazadigan ana shu barcha nihoyatda murakkab muammolarni hal etish uchun ishlab chiqilgan, ammo bir-biri bilan durust bog'lanmagan turli programmalar va tadbirlar mutlaqo qoniqarsiz ro'yobga chiqarilayotganligi bizni, ayniqsa, tashvishlantirmoqda. Respublikaning ayrim mintaqalarini sotsial-iqtisodiy rivojlantirish sohasida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish uchun amalda biron-bir ish qilinayotgani yo'q.

Sizlarga ma'lumki, biz 1991-yildan boshlab xo'jalik hisobiga o'tamiz. Biroq respublika budjeti katta kamomad bilan yakunlanayotgan va bunday kamomad kamayish o'rniga o'sib borayotgan ekan, qanday xo'jalik hisobi to'g'risida gap borishi mumkin?

Moliyaviy ahvolning murakkabligi yana shu bilan keskinlashmoqdaki, xarajatlar respublika budjetining ham, mahalliy budjetlarning ham daromad qismining zaif bazasi bilan cheklanib qolmoqda. Hamma joyda narx-navo oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Bularning barchasi odamlarning haqqoniy noroziligiga sabab bo'lib, hokimiyat organlariga nisbatan munosabatda tanqidiy kayfiyatlarning kuchayishiga olib kelmoqda.

Biz vujudga kelgan ahvoldan chiqish yo'lini nimada deb bilamiz? Hozirgi paytda odat bo'lib qolgandek, hammani va hamma narsani tanqid qilish, aybdorlarni topishga urinish kabi xatti-harakatlar barchasidan osonroq, albatta. Mening nazarimda, himoyasiz o'tmishni tanqid qilish bilan obro' orttirishga urinayotgan kishilar o'zlarini munosib tutmayaptilar. **Shu narsa mutlaqo ravshanki, qiyin ahvoldan chiqishning yo'li, eng avvalo, ishlarning ahvoriga**

xolis baho berish, respublikadagi vaziyatni sog'lomlashtirishning konkret va aniq-puxta programmasini ishlab chiqishdan iborat. Bizningcha, mazkur programmaning asosiy mazmuni va mohiyati — eng avvalo, xalqimiz turmushi va farovonligini tubdan va keskin yaxshilash maqsadida barcha sog'lom kuchlarning birlashishi va hamkorlik qilishini ko'zda tutadi. Ayni paytda mazkur vazifani hal etishni kelgusi besh yillik oxiriga yoki 2000-yilgacha qoldirmay, uning natijalarini odamlar yaqin vaqtlar ichida his etishlari kerak.

Ishni birinchi galda hayotimizning barcha sohalarida qat'iy tartib va intizom o'rnatishdan, rahbar kadrlarni joy-joyiga to'g'ri qo'yishdan, ularga nisbatan talabchanlikni oshirishdan boshlash lozim.

Kuchlarni birlashtirish to'g'risida gapirar ekanmiz, O'zbekistonning hozirgi kuni va kelajagiga befarq qaramayotgan, hozir biz boshdan kechirayotgan og'ir *ahvoldan chiqishga o'z hissasini qo'shishga intilayotgan* barcha kishilar bilan hamkorlik qilishga va muloqot olib borishga tayyor bo'lishimiz zarur. **Har bir kishi o'z joyida o'ziga topshirilgan ishni vijdonan va halol bajarib, tashabbus ko'rsatishi bugungi kunda g'oyat muhimdir. Olg'a tomon borishimizning asosiy sharti mana shundadir.**

Farg'ona oblastidagi fojiali voqealarning oqibatlarini natijasida ham respublikadagi vaziyat keskinlashmoqda. Bu narsa hozir ham sezilib turibdi, o'zining og'ir ta'sirini o'tkazmoqda. Shuni ro'yirot aytamanki, respublikada vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-psixologik vaziyat bizni juda tashvishlantirmoqda.

Farg'ona voqealari to'g'risida gapirar ekanman, shu narsani yana bir bor ta'kidlashni istardimki, ayrim

ommaviy axborot vositalari va ba'zi manfaatdor mas'ul rahbarlarning ana shu voqealarga bergan baholari ular fojining chuqur sabablarini bilmasliklaridan dalolat beradi. Go'yo respublikada siyosiy hokimiyatni qo'lga olish maqsadini o'z oldiga qo'ygan qandaydir millatchi markazlar mavjudligi to'g'risidagi asossiz da'volar bilan vaziyatni bilmasliklarini, xalqdan ajralib qolganliklarini, yetilgan muammolarni hal eta olmasliklarini va pirovard natijada o'zlarining faoliyatsizligi va muammolarni hal etishga qodir emasliklarini yashirishga urinmoqchi bo'ladilar.

Mana shu barcha urinishlar zamirida o'z lavozimini, idoraviy va guruhbozlik manfaatlarini himoya qilishga, turli millat kishilari o'rtasida atay ishonchsizlik tug'dirishga va respublikada vaziyatni izdan chiqaruvchi keskinlikning doimiy manbayini vujudga keltirishga intilish sezilib turibdi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti, O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Murojaatnomasidan quyidagi so'zlarni yana bir bor takrorlashga to'g'ri keladi: **o'zbek xalqining vijdoni pok, Farg'ona voqealari o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmadi. Bu voqealarga tuturuqsiz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab kim qanday bo'yoq bermasin, tarix albatta o'zining adolatli hukmini chiqaradi. Baynalmilalchilik, mehmondo'stlik, yaxshilik, qalb saxovati hamisha o'zbek xalqiga xos fazilatlar bo'tib keldi. Xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lmagan. Bu qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan ko'pgina misollar bilan isbotlangan.**

Ayni paytda shuni ham aytish kerakki, ana shu fojining aybdorlarini himoya qilishga urinishlar ham

asossizdir. Kim bo'lishidan, qaysi millatga mansubligidan qat'i nazar, vahshiylik va odam o'ldirishda, o't qo'yish va to's-to'polon chiqarishda aybdor bo'lgan shaxslar jazoga tortilishi zarur va jazoga tortiladilar, toki o'zbek xalqining pok nomiga dog' tushirilishiga yo'l qo'yilmasin.

Bugungi kunda xalq o'rtasida ishonchni mustahkamlash siyosiy islohot bilan chambarchas bog'langan. Bu — hayot taqozosidir...

Aholimiz ko'paymoqda. Uni boqish, kiyintirish, uy-joy bilan ta'minlash lozim. Biz esa kam quryapmiz. Qurilish sur'atlari keskin pasayib ketmoqda. Yarim yillik davomida sotsial-madaniy, maishiy obyektlarni ishga tushirish yillik plani atigi 44 foiz bajarildi. Bu ahvolda biz yillik plan bajarilishini qanday ta'minlaymiz? Bu qanday planlashtirish, buning uchun kim javob beradi?

Uy-joy programmasi qanday bajarilayotganligiga bir nazar tashlang. Har bir oblastda, har bir shaharda biz faqat aholining o'sib borayotgan qisminigina zo'r-bazo'r uy-joy bilan ta'minlashga ulguraymiz. Ahvol murakkabligicha qolmoqda, aholini uy-joy bilan ta'minlash avvalgi darajada turibdi. Uy-joylar eskirib, yaroqsiz bo'lib qolmoqda. Maktab binolari ham yaroqsiz bo'lib qolmoqda, minglab maktablar va boshqa sotsial, madaniy, maishiy obyektlar avariya holatidadir. Endi bunga toqat qilib bo'lmaydi. Kapital qurilishdagi ishlarning ahvoli har bir rayonda, shahar va oblastda konkret ko'rib chiqilishi, aybdorlar javobgarlikka tortilishi zarur.

Ijro intizomi to'g'risidagi masala bevosita shu bilan bog'liqdir. Xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi ishlarning ahvoli yaxshi emasligi, odamlar kayfiyatining keskin yomonlashayotganligi intizomning susayganligi bilan

bevosita bog'liqdir. Ko'pgina rahbarlar ishni mohirlik bilan tashkil etish o'rniga majlisbozlik va qog'ozbozlik bilan shug'ullanmoqda.

Aslida ijroni, ishni tashkil etishni, odamlarni safarbar qilishni, qiyin muammolarni hal etish yo'llarini qidirib topishni va nihoyat, qarorlarning oqibati uchun javobgarlik va ma'lum darajadagi jur'atni kimdir o'z zimmasiga olishi kerak emasmi?

Raqamlarga nazar tashlaymiz: keyingi bir yarim yil ichida respublika Ministrlar Sovetida 1484 ta farmoyish va qaror, ya'ni har kuni uch-to'rttadan hujjat qabul qilindi. Zarur kontrol yo'qligi sababli ularning ko'pi bajarilmayapti. Agar ana shu hujjatlar bajarilishini hech kim nazorat qilmas ekan, ularning nima keragi bor?

Bugungi kunda rahbar kadrlarning ishga munosabatini tubdan o'zgartirish, topshirilgan soha uchun ularning mas'uliyatini oshirish darkor.

Bizda shunday bo'lmoqdaki, biz hamma narsa uchun javob beramiz, ayni paytda esa hech kim hech narsa uchun konkret javobgar bo'lmaydi. Bu, ehtimol, hozirgi kunda bizdagi asosiy illatdir. Bunday yondashuv tufayli ishlarimiz yomon borayotganligidan ajablanmasa ham bo'ladi. Bu borada, nazarimda, g'oyat muhim jihatni qayd etish lozim: o'zini ayamadan, bor kuchini sarflab ishlayotganlar ham, nari-beri ishlayotganlar ham bir xil baholanmoqda. Eng avvalo, tashabbuskor, fikrlaydigan rahbarni ko'ra bilish, uning samarali ishlashi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish muhimdir. Uni boshqalardan ajrata bilish, ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantirish lozim. Bizda esa hamma baravarlashtiriladi. Yaxshi xodimga ham yomon xodim singari baho beriladi. Biz yomon

xodimga nisbatan talabchan bo'lishdan, yaxshi xodimni esa boshqalardan ajratib ko'rsatishdan cho'chiymiz, chunki unisida ham, bunisida ham javobgarlikni o'z zimmamizga olishimiz kerak.

Shunga aminmanki, odam birgina yaxshi so'z tufayli, majoziy qilib aytganda, tog'ni talqon qilishi mumkin. Afsuski, biz keyingi vaqtda odamlarga bunday munosabatda bo'lishni deyarli unutib qo'ydik. Chunki, odamga ishonch uni ulug'laydi, unga o'z kuchiga ishonch bag'ishlaydi. Boshqa tomondan, ishonchsizlik, xolisona munosabatda bo'lmaslik odamlarning hafsalasini pir qiladi va shu tufayli biz qanchadan qancha iste'dodli kadrlarni boy bermoddamiz.

Biz, barcha rahbarlar xalqimiz bugungi kunda tarbeh, pand-nasihati va ko'pincha o'rinsiz jazodan ko'ra yaxshi, samimiy so'zga muhtojligini tushunib yetishimiz kerak. Buning sabablari hammangizga ma'lum: uzoq vaqt bizning xalq bilan munosabatlarimizda unga vazminlik va hurmat bilan yondashuv yetishmadi.

Respublikada kadrlar ishini jiddiy qayta qurish zarur. Kadrlarni tanlash chog'ida, eng avvalo, ularning siyosiy, ishchanlik, professional, tashkilotchilik fazilatlariga, tashabbuskorligiga, mas'uliyatni o'z zimmasiga olib bilishiga asosiy e'tiborni qaratish kerak. Biz O'zbekistonda yetarli bo'lgan iste'dodli, istiqbolli kishilarni topa bilishimiz, ularni tarbiyalashimiz va ularga mas'uliyatli sohalarni ishonib topshirishimiz lozim.

Respublikadagi vaziyatni, urf-odatlarini va xalq an'analarini yaxshi biladigan yosh, istiqbolli mahalliy kadrlarni lavozimlarga ko'tarishni to'g'ri izga solish g'oyat muhimdir. Bunday kadrlarni keng ko'lamda, istiqbolni ko'zlab tayyorlash kerak. Ayni vaqtda kadr-

lar davomiyligini ta'minlash, faol rahbarlar ro'yxatidan adolatsiz ravishda o'chirilgan kishilarni va bugungi kunda aholi orasida obro'-e'tibor va hurmat qozongan kishilarni faol ishga qaytarish darkor. Mana shu ishonchning o'zi ularning ruhini ko'taradi va aminmanki, ular o'zlariga qaytarilgan ishonchni oqlash uchun yanada zo'r g'ayrat bilan, hech narsadan cho'chimay, vijdonan mehnat qiladilar.

Bularning hammasi bugun muhokama qilinayotgan Andijon, Xorazm oblastlarida qishloqda shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni va yakka tartibdagi uy-joy qurilishini rivojlantirishni ta'minlash yuzasidan olib borayotgan ishlari to'g'risidagi masalaga bevosita aloqadordir. Joylarda shu masalalarning o'rganilishi hozircha hisobotlar amaliy ishlarga qaraganda ko'p bo'layotganini ko'rsatdi.

Men oblast, rayon bo'g'inidagi barcha rahbarlarga murojaat etib, yana bir bor ta'kidlamoqchiman: hozir bu vazifa prinsipial, muhim siyosiy vazifa bo'lib, bu bilan har kuni shug'ullanish kerak, yo'lda uchragan qiyinchiliklardan qo'rqmaslik va ularni bartaraf etish lozim.

Bugungi kunda ana shu narsa oldimizda turgan muammolarni hal etishning eng oddiy, eng tez bajariladigan yo'lidir. Fikrimni tushuntirib berishga harakat qilaman. Qarang, bugungi kunda qishloqlarimizda 240 ming oilaning yeri yo'q. 1,8 milliondan ko'proq hovli esa uy-joy qurilishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun kengaytirishga juda muhtoj bo'lib turibdi. Shaharlar, rayon markazlari va shahar tipidagi posyolkalarda yer yo'qligi sababli mehnatkashlarning yakka tartibda uy-joy qurishga, kollektiv ravishda bog'dorchilik qilish va polizchilik bilan shug'ullanishga

imkoniyatlari yo'q. Faqat Toshkent shahrida 92 ming oila yer uchastkasi olish uchun navbatda turibdi.

Bizda mazkur masala yuzasidan juda ko'plab qarorlar qabul qilingan, lekin, afsuski, amalda siljish yo'q va shu boisdan bularning hammasi odamlarda adolatli ravishda norozilik tug'dirmoqda, ular siz bilan bizni — rahbarlarni qattiq tanqid qilishmoqda.

Biz yer ulushini kengaytirish orqali qanday masalalarni hal etishni xohlaymiz?

Birinchidan, Oziq-ovqat programmasini bajarmoqchimiz. **Shaxsiy xo'jalikdagi yerning bir gektari jamoat sektoridagiga nisbatan to'rt barobar ko'p samara beradi. Shaxsiy yordamchi xo'jalikning bir gektaridan olinayotgan samara 12,5 ming so'mni, ijtimoiy sektorda esa atigi salkam uch ming so'mni tashkil etadi.**

Respublikada haydaladigan yerlarning atigi 5 foizi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga berilgan, ular qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining to'rttdan bir qismini ishlab chiqarishmoqda. Yetishtirilayotgan sabzavot, poliz ekinlari, go'shtning yarmidan ko'prog'i va sutning uchdan ikki qismi ular hissasiga to'g'ri keladi. Bu boradagi mavjud muammolarni hal etsak va ehtiyoji bo'lgan barcha kishilarni yer uchastkalari bilan ta'minlasak-chi? Agar mazkur masalalarni hal etishda barcha keraksiz to'siqlarni olib tashlasak, odamlar o'zlarini qanchalik yengil his etar edilar. **Mana shuning uchun ham bu masalalarni zudlik bilan yechishga kirishishimiz, yer uchastkalarini qanday izchillik bilan, qancha va qaysi muddatlarda ajratishni ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishimiz kerak.** Biz shu maqsadda joylarda tuzilgan komissiyalar bu masalalarning hammasini xolis va tezda ko'rib chiqishlariga umid qilamiz.

Ikkinchidan, bu Uy-joy programmasini hal etishni jiddiy tarzda oldinga siljitadi. Yakka tartibda uy-joy qurish o'z salmog'iga ko'ra Uy-joy programma-sida 60 foizdan ko'proqni tashkil etadi, hozir esa ana shu ko'rsatkich 89 – 90 foiz atrofida bajarilmoqda. Yer uchastkalari, pul ssudalari va zarur qurilish materiallari ajratib berish bu yo'ldagi asosiy g'ovdir. Biz masalani hal etishni jadallashtirishimiz, odamlarga yer berishimiz, ularni ssuda, qurilish materiallari bilan ta'minlashimiz, xonadonlarga suv, kanalizatsiya, gaz tushirishimiz kerak.

Hozir esa kishilar bunga mashaqqat va aziyat chekib erishmoqdalar. Aholi byurokratik apparatning barcha to'siqlaridan o'tishga majbur. Ularning yo'lidagi qanchadan qancha amaldorlar va to'ralar uchrayapti! Bu yerda poraxo'rlik ham, qonunsizlik ham, mazkur masalaning siyosiy ahamiyatini batamom tushunmaslik ham mavjud. Partiya va sovet organlari esa shu ahvolga ko'nikib qolishgan. Markaziy Komitetga shu xususda ko'plab xatlar kelmoqda, ularda odamlarning arz-dodlari bitilgan. Odamlar yer uchastkalari ajratib berilayotganida pora berish va pora olish rasm bo'lib qolganini, joylarda esa hech kim haddidan oshib ketgan amaldorlarga zarba bermayotganini aytmoqdalar.

Bu borada batamom boshqacha yondashuv zarur. Yo'limizga g'ov bo'layotgan barcha narsalarga qarshi, biz bilan xalq o'rtasiga raxna solayotganlarga qarshi haqiqiy jang boshlash kerak. Biz ana shu faktlarning hammasini *prinsipiiallik bilan o'rganib chiqishimiz*, bularga siyosiy baho berishimiz, odamlarni byurokratik apparatning o'zboshimchaligidan ijtimoiy jihatdan muhofaza etishni ta'minlashimiz kerak. Huquqni muho-

faza qilish organlari, prokuratura, sud insonning qonuniy huquqlari, ijtimoiy adolatni himoya qilishga otlanishlari kerak. Xalq bizdan shuni talab qilmoqda.

Uchinchidan. Bu yerda ishsizlik muammosi ham hal etilmoqda. Masalan, Farg'ona oblastini olaylik, bu yerda 149 ta kolxoz va sovxoz bor. Agar har bir xo'jalikda 50—60 kishilik qurilish brigadasi tuzib, ular qurilish materiallari bilan ta'minlansa, bunday brigadalar aholi bilan shartnoma asosida uy-joy qurishlari mumkin bo'lur edi. Faqat shuning evaziga 7,5 ming kishini ish bilan ta'minlash mumkin bo'lardi. Xo'jaliklarda g'isht, duradgorlik buyumlari va boshqa narsalar tayyorlaydigan yordamchi korxonalar bunyod etishga kirishilsa-chi. Masalan, Xorazm oblastida shunday ish tutish qurilish materiallari taqchilligini bartaraf etish bilan birga uch yil mobaynida ishlab chiqarishga qo'shimcha tarzda 2,5 ming kishini jalb etish imkonini berdi. Bu odamlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishning to'g'ridan to'g'ri yo'lidir. Ularga mehnat daftarchalari berish, pensiya bilan ta'minlash mumkin bo'ladi. Buning ustiga, ular o'zlari uchun qurishlarini, tomorqa uchastkasi orqali esa o'z oilalarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ko'p jihatdan ta'minlashlarini nazarda tutsak, bu ishdan ko'riladigan naf yaqqol namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan. Biz ayollarning ish bilan bandligi muammosini ham bir qadar hal etgan bo'lamiz. Ular ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lmagan aholining anchagina qismini tashkil etadi. Ko'p bolali oilalarda ayollar bolalarni tarbiya qilmoqda, ro'zg'or yumushi bilan band bo'lib turishibdi, albatta. Umuman shuni aytishim kerakki, oilada mamlakatimizning bo'lajak grajdanini tarbiyalayotgan onalarni ishsizlar qatoriga

qo'shish to'g'risidagi masalaga men shubha bilan qarayman. Olimlarimiz, mutaxassislarimiz bu haqda o'ylab ko'rishlari kerak.

Ayollar tomorqada, avvalo, o'z oilalari manfaatini ko'zlab mehnat qilishlari mumkin bo'lur edi. Ularning xo'jalik bilan munosabatlari shartnoma bilan rasmiylashtirib qo'yilsa va shunga ko'ra ayollar qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirib davlatga topshirsalar, ular ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullangan bo'ladilar. Demak, bu o'rinda ham ularga mehnat staji hisoblash va keyinchalik pensiya tayinlash yo'llarini topish mumkin bo'ladi.

Beshinchidan. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik masalasi ham hal etilmoqda. Agar odamlar ish bilan band bo'lmasalar, ish bo'lmasa — bu ofatdir, ayniqsa, yoshlar uchun ofatdir. Bekorchilik sababli ular jamiyat uchun zararli xatti-harakatlarga yo'l qo'yadilar, jinoyatlar sodir etadilar, bezorilik qiladilar. Farg'onadagi fojiali voqealar buni yaqqol ko'rsatdi.

Biz yangi avlodni tarbiyalamoqdamiz, ularning ko'pchiligini esa kasb-hunari yo'q, mehnat qilishga o'rganishmagan. Bu kishilar bizning o'rnimizni egalashlari kerak. Ularning taqdiri qanday bo'ladi? Kim hozir bu haqda o'ylayapti?

Biz yoshlarni qishloqdagi ishlarga jalb etsak, butun Ittifoqqa jar solib bizni tanqid qilishmoqda. Bu ishda haddidan oshishlar, ba'zan esa qo'pol nuqsonlar bo'ldi va ularga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Lekin shunga ishonchim komilki, bolalarni yoshlikdan mehnat qilishga o'rgatish kerak. Yer uchastkalari ajratib beradigan bo'lsak, yoshlar mehnat qilishga rag'batlantiriladi, ular o'zlarini yer sohibi deb his etadilar. Mehnat ko'nikmalarini hosil qiladilar. **Hayron qola-**

digan yeri shundaki, qishloqlardagi har besh xonadonning birida birorta ham chorva mol, 37 foizida sigir, yarmisida qo'y boqilmayapti. Andijon, Namangan va Toshkent oblastlarida esa ahvol yana ham mushkul.

Ko'rib turibsizki, qishloq mehnatkashlariga yer berishdek jo'n tuyulgan masala hozir ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham dolzarb siyosiy ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham biz bugun ikkita oblast rahbarlarining hisobotini eshitishni zarur deb topdik. Yana bir karra shuni ta'kidlamoqchimanki, biz barchamiz ana shu muammolar butun kompleksini amalga oshirishga nihoyatda mas'uliyat bilan yondashishimiz zarur; odamlar o'zlarini hayajonga solib turgan o'tkir ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal etmaganimizni ko'rib, yana bir karra hafsalalari pir bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Biz, yoshlar muammolariga ko'proq e'tibor berishimiz kerak. Hozir respublikadagi yoshlar harakatining ahvoli, ayniqsa, tashvish tug'dirmoqda. Biz bu harakatga komsomolimiz boshchilik qilishini istar edik, ammo afsus bilan shuni qayd etishga majburiymizki, komsomol ko'p jihatdan yetakchilik pozitsiyasidan mahrum bo'lib qolmoqda. Ko'pgina komsomol xodimlari byurokratik to'siqlar orqasida qolib ketishgan, qog'ozbozlik bilan shug'ullanishmoqda, joylardagi ahvolni durust bilishmaydi. Hech qachon, hech qayerda bo'shliq bo'lmaydi. Biz bo'lmagan joyda bizning o'rnimizga yoshlar va xalq bilan boshqalar shug'ullanadi. Buni unutmazlik kerak.

Yoshlarimizni begonalarning qo'liga o'z ixtiyorimiz bilan topshirmasligimiz kerak. Yoshlar uchun, ular chin inson, o'z diyorining, o'z mamlakatining chinakam va-

tanparvarlari bo'lib o'sishlari uchun faol kurashmog'imiz lozim.

Bugungi keskin va murakkab vaziyatdan tegishli xulosalar chiqarib olish kerak. Avangard bo'la oladigan yoshlarning siyosiy tashkilotini qaytadan tiklash zarur, yoshlarning mayda-chuyda ishlariga aralashishdan do'stona hamkorlik qilishga o'tish darkor. Hammamiz yoshlar orasidagi vaziyatni o'rganishimiz va bilishimiz, ular o'rtasida chinakam yetakchilarni tayyorlashimiz, ijtimoiy muammolarni hal qilishda, chinakam vatanparvar va baynalmilalchi insonlarni tayyorlashda ularga yordam berishimiz lozim.

Paxtachilik muammolariga hamda hozirgi paytda paxta dalalaridagi ahvolga alohida to'xtalib o'tmoqchiman. Paxtaga ajratilgan maydonlarning to'rtidan bir qismida har tup g'o'zada bittadan to'rttagacha ko'sak bor, ya'ni planni bajarish uchun zarur bo'lgan hosilning yarmi to'plangan.

So'nggi kunlarda dalalarda ish juda bo'shashtirib yuborildi. G'o'za parvarishiga mas'uliyatsizlik bilan qaralayotganini ko'rsatuvchi misollar ko'p. G'o'zani chanqatib qo'yib, qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi vaqtida chora ko'rmay, hatto, to'plangan hosilni ham boy berib qo'ymoqdamiz.

Suv juda tanqis bo'lmoqda. Shunga qaramay, sug'orishni tashkil etishda katta kamchiliklar bor. Ko'pincha suv isrof qilinmoqda, ekinni bostirib sug'orish, qayta-qayta sug'orish hollari sodir bo'lyapti. Suvning yetishmasligi o'rnini ekinni qo'shimcha parvarish qilish bilan to'ldirish kerak.

Paxta hosilini mashinada terishga hamma joyda ham puxta tayyorgarlik ko'rilmayapti. Yig'im-terim texnikasini tayyorlash muddatlari cho'zilib ketmoqda. Hali

to'rt mingga yaqin paxta terish mashinasi ishga tayyor qilingan emas. G'o'za bargini to'ktirish uchun yerda ishlatiladigan apparatlar ham tayyor emas.

Bu kamchiliklarning hammasi joylarda tashkilotchilik ishlari bo'shashtirib yuborilganining natijasidir. Ko'p kishilarda xotirjamlik va loqaydlik paydo bo'layotganligi bizni, ayniqsa, tashvishga solmoqda. Ishimizdagi nuqsonlarni bahordagi sovuq bilan yashirib ketamiz, degan kishilar xato qiladilar...

Yig'im-terim mavsumiga qadar qolgan 15—20 kun ichida hammamiz zo'r berib mehnat qilishimiz, planni bajarish uchun zarur miqdorda hosil to'plashimiz lozim.

G'o'za parvarishini kuchaytirish bilan bir vaqtda dehqonchilik va chorvachilikning boshqa sohalaridagi ishlarni ham bo'shashtirmaslik lozim. Bizda dag'al xashak tayyorlash qoniqarsiz bormoqda. Xo'jaliklar o'tgan yildagidan 25—30 foiz kam pichan tayyorlashdi. Yem-xashakning sifati ham yaxshi emas. Bularning hammasi planlarning bajarilishini xavf ostida qoldiradi. Har bir xo'jalikdagi ishni tekshirib, ahvolni o'nglash kerak.

Endi shu yerda o'tirgan odamlarning hammasini ham, respublikaning barcha aholisini ham hayajonga solayotgan narsalar to'g'risida qisqacha gapirmoqchiman. Gap kelgusi yilda paxta yetishtirish hajmi to'g'risida boryapti. 1990-yilda 1988-yildagi 1710 ming tonna o'rniga 1500 ming tonna paxta tolasi xarid qilish rejalashtirilmoqda, ya'ni tola 210 ming tonna kam planlashtirilmoqda. Har bir kolxoz va sovxoz yetishtiriladigan paxta hajmini, avvalo, o'zining iqtisodiy manfaatlaridan, o'z daromadlaridan kelib chiqib, xullas, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini hisobga olib, paxta tolasi yuzasidan belgilanadigan topshiriqqa asosan o'zi belgilaydi.

Yana bir muhim masala — paxta narxi masalasidir. Biz 1990-yil plani loyihasi bilan Ittifoq organlariga ikki marta uchrashdik. Butun mas'uliyatni zimmamga olib, hozir shuni ayta olamanki, paxta narxi masalasi yaqin oylar ichida ko'rib chiqiladi. Bu muammoni hal qilishimiz uchun, hisob-kitoblarga ko'ra, kamida 1,5 milliard so'm talab qilinadi. Respublikamizning deyarli butun aholisi manfaatlari va farovonligi ana shu muammoni hal qilish bilan bog'liq.

Hozir ochig'ini aytish kerak, biz bu haqda juda ko'p gapirdik va hali ham gapiryapmiz, ammo, ming afsuski, masalani dalil-isbotlar bilan asoslab to'g'ri qo'ya olmayapmiz. Biz, rahbarlar, bu masalalarni qat'iyat bilan, bilimdonlik bilan o'rtaga qo'yishimiz, ularning hal etilishiga izchillik bilan erishishimiz, har qanday holda ham aybni birovlariga to'nkamay va birovlarining orqasiga yashirinmay, mas'uliyatni o'z zimmasimizga olishimiz kerak.

Oldinda bizni juda katta ishlar kutmoqda. Biz intizomni, yana bir karra intizomni mustahkamlash uchun hamma ishni qilishimiz, kadrlar mas'uliyatini oshirishimiz, g'ayrat bilan, tashabbuskorlik bilan harakat qilib, odamlarimizning turmushini yaxshilashga erishishimiz kerak.

*O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining
XVI plenumida so'zlangan nutqdan*

1989-yil 19-avgust

TIL ELNI BIRLASHTIRISHI LOZIM

Aziz o'rtoqlar!

Avvalo, til to'g'risidagi Qonunning kechadan buyon muhokama qilinayotgan loyihasini tayyorlash ustida beqiyos katta ish olib borgan mutaxassislarga, tilshunos olimlar, yozuvchilarga, o'z xatlari va takliflari bilan O'zbekistonda yashayotgan aholining taqdirini, kelajagini belgilaydigan, o'zbek tilining nufuzini oshiradigan mana shu oliyjanob ishga hissa qo'shgan hamda ushbu katta siyosiy hujjatni tayyorlashda ishtirok etgan boshqa hamma o'rtoqlarga minnatdorchilik bildirishga ruxsat bergaysizlar.

Xolisona aytganda, matbuotda ilk bor e'lon qilingan loyiha ko'pchilikni qoniqtirmagan edi. Shuni ochiq aytishimiz kerakki, Qonunning birinchi loyihasini bugungi sessiyamiz muhokamasiga qo'yadigan bo'lsak, ko'pchilik xalqimizning talabini oyoqosti qilgandek bo'lardik.

Shuni e'tiborga olib, bugun muhokamaga qo'yilgan yangi loyihani tayyorlashga qaror qildik. Ikkinchi loyihani tayyorlashda millionlar qatnashdi, desak ham bo'ladi. Aholining ko'pchiligi ikkinchi loyihani ma'qul topdi. Bunday xulosa hammamizga bugun ayon. *Haqiqatan ham, u hammaning talabiga javob beradi, qolaversa, barcha xalqlar manfaatiga ham to'g'ri keladi.*

Ochig'i, ushbu ikkinchi loyihadan ham norozi bo'lganlar topildi. Buni tushunish mumkin, albatta. Hamma jihatdan mukammal bitta loyihani tuzib, hammaga bab-baravar manzur qilish qiyin, bu hech kutilmagan favqulodda bir hol hisoblanadi.

Shu o'rinda bir masalaga aniqlik kiritib ketishimiz kerak. Bu ham bo'lsa, o'zbek tilini qaror toptirish va rivojlantirish haqidagi shiorlar ostiga yashiringan holda mahalliy aholini rus tilida gapiradigan aholiga nisbatan qarshi qo'yayotgan, shuni o'zlariga maqsad qilib olgan kimsalarning harakatlari to'g'risida gaplashib olishdan iboratdir. Bunday harakatlarga, eng avvalo, siyosiy kaltabin, aytishim kerakki, ochiqdan ochiq xudbinlik yo'lga o'tib olgan kishilar qo'l urmoqdalar. Ular xalqlar o'rtasiga nifoq solib, o'zlarining nopok niyatlariga erishmoqchi bo'lyaptilar.

Xullas, ular har bir xalqda hozir eng taranglashib turgan dil torlarini, ya'ni osongina qo'zg'atish mumkin bo'lgan torlarni chertishga harakat qilyaptilar. Buni ochiqdan ochiq aytish kerak. Bu torlar hammaga ma'lum: milliy g'urur tushunchasi, or-nomus tushunchasi, qaysi bir millatga mansubligidan qat'i nazar, har bir insonning qadr-qimmatini tushunchalaridan iborat.

Agar ishlarimiz shu tarzda davom etaversa, bunaqa ahmoqchilik, bunaqa zo'ravonlik ertaga nimaga olib kelishini shu zalda o'tirganlar, bizning faollarimiz aniq tasavvur etishlari va hozirgi ahvolning keskinlashishi qanday oqibatlarga olib kelishini ochiqdan ochiq aytishlari lozim. Keyingi yillarda, busiz ham o'zbek xalqining boshiga, hammangizga ma'lumki, ne musibatlar, ne tuhmatlar yog'ilmadi, deysiz. Bizlarni poraxo'r ham deyishdi, o'g'ri ham deyishdi, bizlar zo'ra-

von degan nom ham oldik. Endi ertaga hammamiz millatchi deb ham atalishimiz kerakmi?

Mening fikrimcha, bu gaplarning ildizini qirqish kerak. Bularni tashkil qiladigan, uyushtiradigan odamlarni topish kerak. Hozirgi ahvolning keskinlashishida maydonlarga chiqib namoyish o'tkazadigan yoshlarimizning aybi yo'q. Bunga, avvalo, bu bolalarni, bu yigitlarimizni tarbiyasiga, ularning ahvoliga e'tibor bermaganimiz, ularni ko'p vaqtlarda aldab yurganimiz, ko'p joyda ularning ongiga ba'zi nopok odamlar ta'sir etayotganining salbiy oqibatlarini sezmaganimiz sababchidir.

Ayrim kishilar bu xildagi nojo'ya xatti-harakatlar-da «Birlik» uyushmasining qo'li bor, degan fikrda bo'lishdi. Ushbu sessiyamizda «Birlik» vakillari ham ishtirok etishyapti. Shu masala bo'yicha men yana takroran quyidagi gaplarni aytishni lozim deb topaman. Ularning orasida xalqimizning taqdiriga befarq qaramaydigan, kelajagimiz uchun kurashadigan, jonkuyar, aqlli yigitlarimiz, yoshlarimiz ko'p. Shu yigitlar bilan hamkorlikka, birgalashib ishlashga hammamiz tayyormiz. Lekin bu harakat bayrog'i ostiga ba'zi bir nopok, tuban niyatli kimsalar ham yig'ilganki, yosh yigitlarni maydonga chiqarish, «ularni ur» degan shiorlar bilan boshqalarga qarshi ko'tarayotgan bunday odamlarga nisbatan biz qanday munosabatda bo'lishimiz kerak? Bunaqa harakat nimaga olib keladi? Ochig'ini aytganda, bu bizga, O'zbekistonda yashayotgan xalqlarga to'g'ri kelmaydigan narsa emasmi?

O'zbek xalqining yaxshi hikmatlari borki, qaysi oilada bir kun janjal bo'lsa, qirq kun barakasi qochadi, deyiladi. To'g'ri emasmi? Mana, qarang, menimcha, keyingi yillarda bizdan baraka qocha boshladiki, bu barakani endi qachon oilalarimizga kiritamiz?

Demoqchimanki, oldimizda ikkita yo'l turibdi. Agar ba'zi nopok niyatda yurgan odamlarning gapiga kirib janjal ko'tarib, ko'chalarga chiqib namoyish uyush-tirsak, ishni o'zibo'larchilikka tashlab qo'ysak — bu ham bitta yo'l. Agar biron-bir o'rtoq shu yo'lga chaqiradigan bo'lsa, shunga intiladigan bo'lsa, u ta-momila adashadi.

Biz ikkinchi yo'ldan boramiz. Shunga ko'ra o'z aqli-mizga ish buyurib, kamchiliklarimizni to'g'ri tushunib, ishlarimizni xolisona tahlil qilib, bo'lajak saylovlarda xalq taqdirini o'ylaydigan, xalq bilan birga qadam tashlaydigan, unga hamdard va hamnafas bo'ladigan o'rtoqlarni saylab olaylik. Imonim komilki, ular ishonchimizni oqlaydi, ko'zlagan marra sari yo'limiz-da muvaffaqiyat qozonishimiz osonroq bo'ladi. Mana shu yo'l bilan borsak, men o'ylaymanki, tarix oldida yuzimiz shuvut bo'lmaydi.

Til haqidagi ba'zi mulohazalar bilan o'rtoqlashmoq-chiman. Birinchi navbatda shuni aytmoqchimanki, o'zbek tiliga davlat maqomining berilishi hech kimda hech qanday shubha tug'dirmasa kerak. Bu allaqachon yuz berishi lozim bo'lgan hodisa ediki, aholimiz ko'pchiligining qonuniy talabi ham shunday edi.

Binobarin, o'z ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam, kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi, deb juda to'g'ri aytishadi.

Lekin ona tilimizni bilish yo'lidagi intilishlarimizni, harakatlarimizni rus tiliga qarama-qarshi qo'yish, rusiyzabon birodarlarimiz bilan aloqani buzish mutlaqo noto'g'ri bo'lur edi. Bir-birimiz bilan ahil va do'st bo'lib yashayotgan bir paytda xalqlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, ular orasiga nifoq solishga urinishlar

yaxshilikka olib kelmaydi. **Har qaysi millat, katta yo kichikligidan qat'i nazar, o'z ona tilini hurmat qiladi.** O'zbeklar o'zbek tilini hurmat qilsa, tojiklar tojik tilini, qozoqlar qozoq tilini, aytaylik, boshqa millat vakili, katta yo kichik bo'lishiga qaramay, o'z tilini hurmat qiladi. Lekin ana shu xalqlarning hammasini birlashtirish uchun, ularning bir oila a'zolari kabi inoq va hamjihat bo'lishlarida rus tili muhim vosita hisoblanadi. Bu til boshqa biror millat tilining nufuzini kamsitmagan, o'sha millat g'ururiga tegmagan holda yagona oilaga birlashgan xalqlar taraqqiyotiga, turli millatlarga mansub kishilar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishga, qo'yilgan maqsadlarga erishishga bebaho yordam berishi mumkin. **Umuman, o'rtoqlar, agar rus millatiga mansub kishi o'zbek tilini bilsa, o'zbek esa rus tilini bilsa, buning ustiga hozirgi yoshlarimiz yana uchinchi tilni ham bilsalar, nur ustiga a'lo nur bo'lmasmidi?**

Til to'g'risida gapirarkanman, yana bitta narsaga e'tiboringizni jalb qilishni istardim. Agar, iqtisodiyotimiz baquvvat bo'lsa, yaxshi rivoj topsa, bundan madaniyatimiz ham madad oladi, rivoj topadi. Agar ertangi kunimizni o'ylab ish qilmoqchi bo'lsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib, uning hayoti haqida qayg'uradigan bo'lsak, avvalo, mahalliy yoshlarni tarbiyalash ishiga munosabatimizni mutlaqo o'zgartirishimiz kerak. Mumkin qadar ko'proq iqtidorli yoshlarimizni Ittifoqning eng ilg'or korxonalariga, shu jumladan, hatto, xorijiy mamlakatlarga, kerak bo'lsa, yangi texnologiya, yangicha ish tashkil qilishni o'rganish uchun Yaponiya, Amerikaga hamda boshqa joylarga yuborib, ularning o'qishiga, tajriba orttirishiga imkoniyat yaratish lozim. Iqtisodiyotimizni, hayotimizni o'zgartirish

ana shularga bog'liq bo'ladi. Agar shuni qilmasak, bu yurishda katta yo'lga chiqishimiz qiyin bo'ladi.

Aytish kerakki, kadrlarni puxta qilib tayyorlamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonmasdan va qo'llab-quvvatlamasdan, o'ylaymanki, biron-bir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o'zgartirib bo'lmaydi.

Kadrlarimizning aksariyati yuksak talablar darajasida ishlayapti. Ular o'zbek xalqi boshidan kechirgan og'ir sinovlardan pokligi va halol mehnati bilan o'z sha'niga gard yuqtirmay chiqdilar. Bunday kishilarga ishonch katta. Ular bundan keyin ham ana shunday ishlashadi, deb umid bildirmoqchiman. Ishonamanki, hozir muhokama qilinayotgan masala bo'yicha ham hurmatli deputatlarimiz to'g'ri, oqilona qarorga keladi, albatta...

*O'zbekiston SSR Oliy Sovetining
o'n birinchi sessiyasida
so'zlangan nutqdan*

1989-yil 25-oktabr

ILM-FAN IMKONIYATLARIDAN TO'LAROQ FOYDALANAYLIK

Hurmatli o'rtoqlar!

Bizning uchrashuvimiz mamlakatdagi va respublikadagi tub islohotlar, dunyodagi istiqbolli, yalpi o'zgarishlar sharoitida o'tmoqda. Bu esa ro'y berayotgan jarayonlar va hodisalarning ruhi, mohiyati va kelajagini ilmiy idrok etish juda zarurligini ta'kidlaydi.

Respublikamiz ekonomikasidagi, ijtimoiy va ma'naviy sohalaridagi ishlarning mushkul ahvoli munosabati bilan buni biz juda yaxshi his etib turibmiz. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining yaqinda bo'lib o'tgan XVIII plenumida, O'zbekiston SSR Oliy Soveti sessiyasida bu sohada yig'ilib qolgan va tubdan hal etilishi lozim bo'lgan muammolar haqida bafurja gaplashib olindi. Shu jihatdan bugungi uchrashuvimizni respublika taqdiri uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan bu hayotiy muhim muammolar ilmiy muhokamasining bevosita davomi va chuqurlashuvi deb bilmoq kerak.

Kelinglar, bugun respublika oldida turgan eng muhim bosh muammolarni juda umumlashma holda, lo'nda tarzda ko'rib chiqaylik, bu muammolarni hal etishda ilm-fanning rolini belgilab olaylik.

Bu sohadagi eng muhim omillar nimalardan iborat, ham davlat va xo'jalik idoralari, ham ilm-fan ahli o'z kuch-g'ayratlarini asosan nimalarga qaratishlari kerak?

Birinchidan, mehnatga layoqatli aholini ish bilan oqilona ta'minlash va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarni oshirish muammolari. Men sizlarga hech bir yangilikni ochmoqchi emasman. Ammo, kelinglar, yana bir bor fikrlashib ko'raylik, asosiy masalalarni ajratib olaylik. Hozir respublikada ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalanilmayotgan mehnatga layoqatli 1 million kishi va oyiga 75 so'mgacha daromad qilayotgan salkam 9 million kishi bor. Bu mablag' hayotiy ehtiyojlarni, albatta, qondira olmaydi.

Bu borada ahvolni birmuncha yengillashtirish, keskinlikni yumshatish uchun yangicha, dadil chora-tadbirlar ko'ri-la boshlagani sizlarga ma'lum. Tomorqa uchastkalarini ko'paytirish bir necha muammoni bir-biri bilan bog'lab hal etish: anchagina odamlarni mehnat bilan band qilish, oilalarning o'zini o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaxshilash, kolxoz bozorlarini to'ldirish, ayollarning ijtimoiy mavqeyini yaxshilash imkonini beradi, deb o'ylaymiz. Bu esa respublikadagi vaziyatni barqarorlashtirishning muhim omiliga aylandi.

Biroq bu chora yuqorida aytib o'tilgan hamma muammolarni, ayniqsa uzoq istiqbolda hal eta oladimi? Menimcha, hal eta olmaydi, desam, fikrimga qo'shilsizlar. Aholi tez ko'payib borayotganligi va yer-suv resurslarining cheklanganligi bizga ilm-fan asosida ishlaydigan va ko'p mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirishdan, tub millat yoshlari hisobiga sanoatdagi ishchilar sinfini va injener-texnik xodimlar safini jadal kengaytirishdan boshqa yo'l qoldirmayapti. Sanoatni rivojlantirmay turib, milliy va ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Bu masalalarda ilm-fan aniq tavsiyalar berishi kerak.

Ikkinchidan. Keyingi vaqtlarda yer va suvni xususiy foydalanish uchun to'la-to'kis taqsimlab berish to'g'risidagi takliflar aytilmoqda. Binobarin, SSSR Oliy Sovetida mulkchilik, yer, ijara to'g'risidagi va boshqa qonunlar qabul etilmoqda.

Kelinglar, bu sohadagi vaziyatni ham xolisona tahlil etaylik. Ma'lumki, hozir respublikada qishloq xo'jaligida band bo'lgan bir kishiga normativdagi 5—6 gektar o'rniga o'rta hisobda 1,3 gektar sug'oriladigan yer, Farg'ona vodiysi oblastlarida esa bundan ham kamroq yer to'g'ri keladi. Ayniqsa, qishloq joylarda aholi tez ko'paymoqda, yangi yerlarni o'zlashtirish esa keskin qisqartirilganligi ma'lum. Mana shunday sharoitda yerlarni taqsimlab berish to'g'risida qanday qilib gapirib bo'ladi?

Demak, biz respublikada yerdan xususiy tarzda foydalanishga, dehqon xo'jaliklariga, ijara va shu kabilariga qaysi shakllarda va qay darajada yo'l qo'yish mumkinligini ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqishimiz kerak.

Shu munosabat bilan yana bir masala ko'ndalang bo'lib turibdi. Respublika bundan buyon yerlarni o'zlashtirmasdan, suv imkoniyatlarini to'ldirmasdan kun ko'ra oladimi? Axir, 2000-yilga borib respublika aholisi 25 million kishidan oshib ketishi kutilmoqda. Shu sababli suv tejash texnologiyalarini joriy qilish hisobiga nimalarni tejay olishimizni va boshqa territorialardan qancha suv olishimiz zarurligini ilmiy negizda hisoblab chiqish va atroflicha asoslab berish benihoya muhimdir. Biz bu masalani yopib qo'ya olmaymiz, uni tubdan hal etmay turib, respublika rivojlanish istiqboli u yoqda tursin, hatto ko'payib borayotgan aholining hayotini bundan buyon ta'minlash imkoniyatiga ham ega bo'lmay qoladi.

Uchinchidan. Paxta yakkahokimligiga qat'iy chek qo'yish kerakligi shubhasiz. Bu yo'lda aniq-ravshan katta tadbirlar ko'rilayotganligi ma'lum. Paxta tolasi yetishtirishni 1,5 million tonna bilan cheklanganligi natijasida agrotexnik jihatdan ilmiy asoslangan almashlab ekishga kelgusi yildanoq o'tish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Biroq paxta yetishtirishni bundan buyon ham keskin kamaytirish to'g'risidagi talabga qo'shilib bo'ladimi? Hozircha iqtisodiyotimizning, odamlarni ish haqi bilan ta'minlashning negizi bo'lgan paxtachilikning o'rmini bosa oladigan iqtisodiy jihatdan asoslangan boshqa bironta yo'l bormi? Yo'q. Hozir ham paxta xo'jaliklar daromadlarining va qishloq mehnatchilari ish haqining asosiy qismini berib turibdi. Paxtaga va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlariga belgilangan narxlarni unga sarflangan mehnat bilan muvofiqlashtirishga, sug'oriladigan har gektar yerning samaradorligini oshirishga intilish esa boshqa gap...

Dalalarimizdan paxtani quvib chiqarmay, balki chigit ekiladigan yerlarni agrotexnika normalariga muvofiqlashtirib borish, to'qimachilik, tikuvchilik va boshqa sanoat tarmoqlarida uni qayta ishlaydigan sanoat infrastrukturasi jadal rivojlantirish orqali aholimizni ish bilan ham, maosh bilan ham ta'minlash, respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga ham erishish mumkin.

To'rtinchidan. O'zbekiston ixtiyorida foydalanilmayotgan juda katta imkoniyatlar, behisob mineral xomashyo resurslari, qishloq xo'jalik xomashyolari, eng avvalo, paxtadek bebaho boylik bor, paxtaning asosiy qismi (90 foizga yaqini) xomashyo tariqasida respublikadan tashqariga jo'natilmoqda. To'g'ri, hozir shunday bo'lmoqda va biz bu haqda ishlab chiqarish kuchlarini kompleks rivojlantirishda yo'l qo'yilgan qo'pol

xatolarning biri sifatida, respublika iqtisodiyotining tinka-madori quriganligi va aholi turmush darajasi pastligining asosiy sabablaridan biri sifatida gapirmoqdamiz.

Respublika boyliklarini ko'tarasiga va chakanasiga sotib yuboraverish ahvoldan chiqishning yo'li emas, men hammamiz ana shu g'oyani, ana shu fikrni uqib olishimizni istar edim. Bu o'rinda asosiy vazifa — ishlab chiqarilayotgan va qazib olinayotgan xomashyoni kompleks qayta ishlashda, aytish mumkinki, chiqindisiz qayta ishlashda, respublikaning o'zida uni tayyor mahsulotga aylantirishdadir. Boshqacha aytganda, respublikada zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlangan qudratli qayta ishlash sanoatini bunyod etish va shunday qilib, uzluksiz o'sib borayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash, respublika milliy daromadining yuqori sur'atlarda o'sishiga erishish hamda mamlakatimizdagi har jihatdan uyg'un rivojlangan respublikalar darajasiga yetib olishdir. Agar respublikalararo yalpi tovar ayirboshlashda respublikamizga tovarlar, umuman sanoat mahsuloti olib kelish shunday tovarlarni chiqarishdan qariyb 4 milliard so'm ko'pligini nazarda tutadigan bo'lsak, bu muammoni butunlay va iloji boricha tezroq hal etishimiz kerak.

Ana shu va boshqa xuddi shu singari barcha dolzarb muammolarni hal etishda ilm-fan o'zining salmoqli hissasini qo'shishi kerak. Hozir respublika har qachongidan ham ko'ra ilgarilab ketishi, o'sishi, yangi sifat bosqichiga ko'tarilishi juda zarur. Buning uchun, avvalo, ilm-fanda ham, texnikada ham, texnologiyada ham, ishlab chiqarishni tashkil etishda ham shitob bilan ishlash, shunga yarasha odamlar ongida, dunyoqarashida ham o'zgarishlar bo'lishi kerak.

Bu borada ixtiyorimizda qanday imkoniyatlar bor va qanday samaraga umid bog'lashimiz mumkin?

O'zbekiston fani salmoqli kuch-quvvatga ega. Hozir respublikamizda 185 ta ilmiy tadqiqot muassasasi, konstruktorlik byurolari va ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari bor. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining o'zidagina 500 dan ko'proq zavod konstruktorlik byurolari, laboratoriyalar, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish bo'limlari va shu kabilar ishlamoqda.

Ilm-fan sohasida, jumladan, oliy o'quv yurtlarida 17 mingdan ko'proq fan doktorlari va fan nomzodlari xizmat qilishmoqda.

Shu katta imkoniyatdan to'g'ri foydalanish, kuchlarni samarali tarzda joy-joyiga qo'yish, fundamental tadqiqotlar bilan amaliy tadqiqotlar o'rtasida eng maqbul mutanosiblikni topish uchun nimalar qilish kerak? Bu eng avvalo respublika ilm-fanining qarorgohi — akademiyamizga bog'liqdir.

Bunga akademiyaning qurbi yetadi. Hozir akademiya institutlari Ittifoq akademiyasi o'tkazayotgan 16 ta fundamental tadqiqotlar programmasini bajarishda qatnashmoqda, ushbu programmalar zamonaviy fanning eng muhim yo'nalishlarini qamrab olgan. Ular 27 ta umumittifoq va 15 ta respublika ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy programmalarini bajarmoqda. Akademiya olimlari mamlakatda bir qancha nufuzli yo'nalishlar bo'yicha yetakchilik qilmoqdalar.

Olimlarimiz an'anaviy yo'nalishlar bilan bir qatorda so'nggi davrda radiatsiya va geliomaterialshunosligi, fizika va kvant elektronikasi, lazer texnikasi, nurlanish kasalligiga yo'liqqanlarni davolashda qo'llaniladigan dori-darmonlarni yaratish, inshootlarning zilzilabar-

doshligi, o'simlik moddalari ximiyasi sohalari va boshqa sohalarda katta obro' qozondilar.

Matematika sohasidagi va fanning boshqa tarmoqlaridagi tadqiqotlar va yechimlar hammaga ma'lum.

Bioximiya instituti kollektivi tadqiqotlarni omilkorlik bilan tashkil etish, ishga ijodiy yondashuvning namunasi bo'la oladi. Institutda so'nggi yillarda erishilgan natijalar butun jahonda tan olindi. Bu yerda nufuzli yo'nalishlar tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda, institutda ishlab chiqilgan preparatlar esa mamlakatimizda ham, chet ellarda ham sotilmoqda. Kollektivda yuzaga kelgan sog'lom muhit kadrlarning ijodiy o'sishiga yordam beryapti.

O'simliklar eksperimental biologiyasi instituti kollektivi fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashning o'zini oqlagan shakllaridan unumli foydalanmoqda. Shu institutda g'o'zaning yetishtirilgan yangi navlari 700 ming gektardan ko'proq maydonda rayonlashtirildi va faqat tola sifati oshganligi evazigagina 200 million so'mlikdan ko'proq iqtisodiy samara olindi.

O'simlik moddalari ximiyasi instituti olimlari 29 ta dori-darmon yaratdilar, shulardan bir qanchasi, masalan, alapinin xuddi shunday ta'sir etadigan jahondagi eng yaxshi dori-darmonlardan qolishmasligi ma'lum.

O'zbekistonning geologiya va energetika fani, boshqa ilmiy yo'nalishlar o'z mavqelarini mustahkamlamoqda.

Olimlarimiz ijodkorlik bilan, aniq maqsadni ko'zlab ishlayotganliklariga oid boshqa misollarni ham aytib o'tish mumkin bo'lar edi, albatta. Ammo bugungi real voqelik xotirjam bo'lib qolish uchun asos bermaydi.

Xo'sh, bugun biz ilm-fandan nimalarni kutyapmiz, bizning fikrimizcha, uning kuch-g'ayratlarini qavsi yo'nalishlarda jamlash kerak bo'ladi?

Ro'yirost aytadigan bo'lsak, respublikaning fundamental fani hali fan-texnika taraqqiyotining qudratli dvigateliga aylanishiga ancha bor, bu fan ishlab chiqarishda inqilobiy o'zgarishlar yasaydigan yechimlarni amalga oshirgani yo'q.

Shuni ta'kidlash kifoyaki, joriy etilgan yechimlarning yarmi qo'llanmalar va tavsiyalarni, faqat uchdan bir qismi esa yangi texnologiyalarni tashkil qiladi. Shuning oqibatida, fan-texnika taraqqiyotiga ketadigan xarajatlar hamisha o'sib borayotganiga qaramay, xalq xo'jaligida jiddiy texnologik siljishlarga erishilayotganini yo'q. Respublikada sanoat mahsuloti tayyorlashda ilm-fan yutuqlaridan foydalanish o'rtacha umumittifoq darajasidan ancha orqada qolmoqda. Ayni vaqtda mahsulot tayyorlash uchun material va energiya sarfi salbiy holat sifatida ko'payib bormoqda. Mahsulot sifatining pastligi ham, narxining balandligi ham, xodimlar malakasi va ular ish haqining bunga yaraschaligi ham shundan kelib chiqadi.

Respublika hayotining barcha sohalarida ilm-fan mavqeyini prinsip e'tibori bilan yangi sifat darajasiga ko'tarish respublika Fanlar akademiyasining asosiy vazifasidir, deb o'ylaymiz. Ilm-fan ahliga buyruq berish, quruq ma'muriyatchilik, olimlarga apparat xodimlari kabinetlarida paydo bo'lgan «Ijtimoiy buyurtma»ni ro'baro' qilish davri o'tib ketdi. Bunday ish tutish samarasiz ekanligi, ayni vaqtda «lisenkochilik»ni tiklashda muayyan shart-sharoit yaratishi va uning oqibatlari bizga ma'lum.

Ilm-fan xodimlari ham o'z mas'uliyatlarini to'la tushunib olishlari kerak. Olimlar ishlamay rohatda yashaydigan, faqat ma'muriy-buyruqbozlik sistemasi tayyorlagan qarorlarga nazariy pardo beradigan vaqtlar o'tib ketdi.

Endilikda ilm-fan yangi yo'llar ochishi, sifat jihatidan yangi texnologiyalarni jadallik bilan yaratishi, jamiyatning yangi holatga o'tishini ta'minlashi lozim. Ilmiy tadqiqotlarning yo'nalishlarini faqatgina respublika ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishga bog'liq bo'lgan muammolar doirasi bilan cheklab qo'ymay, Fanlar akademiyasining ilmiy tadqiqot muassasalari ilmiy izlanishlari respublika hal etayotgan muammolarni bir qadar aks ettirishi lozimligini ta'kidlab o'tishni xohlardim. Ijodiy izlanishlarning natijalarini qamrab olgan Fanlar akademiyasi olimlarining asarlari va tavsiyalari respublika taraqqiyotining istiqbolini belgilaydigan kelajakdagi hisob-kitoblar va siyosatning poydevori bo'lishi darkor. Mening fikrimcha, bunga yetarlicha baho bermaslik juda qimmatga tushadi va ba'zan katta talafotlarga olib keladiki, buni ko'pchilik akademiklarimiz yaxshi biladilar va yaxshi eslaydilar.

Ilm-fan ahli ish yuritishi uchun shunday tartib yaratish kerakki, agar hozir fanda juda urf bo'lib ketgan atamani tilga oladigan bo'lsak, fan ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir etadigan, bizga, ya'ni amaliyot xodimlariga ishimiz mazmuni va xarakterini belgilab beradigan, o'zini o'zi sozlab turadigan va o'zini o'zi boshqaradigan sistemaga aylanishi kerak.

Hozircha bu g'oyat dolzarb vazifa qoniqarsiz hal qilinmoqda. So'nggi uch yil ichida sanoat uchun jahon darajasidagidan zo'rroq va Vatanimizdagi eng yaxshi ishlanmalarga teng keladigan ishlanmalarning ulushi umumiy bajarilgan ishlar miqdorining bir foizidan oshmaydi. Har yili mashina va uskunalarning 50 xil yangi namunalari yaratilmoqda, afsuski, ularning 42-43 tasi kechagi kun texnikasidir. Fanning ishlab chiqarish bilan aloqalarining ilmiy-ishlab chiqarish

birlashmasi kabi ilg'or shakli respublikada keng ommalashmayotganligi alohida tashvish uyg'otmoqda. Bizda paxta terish mashinalari bo'yicha tuzilgan tarmoqlararo ilmiy-texnikaviy markazlar, «O'zgelio-texnika», «Defoliant», «Motor» injenerlik markazi hozircha sezilarli natija bermayapti.

G'o'zaning yuqori samara beradigan navlarini joriy etish va paxta terish mashinalarining yangi turlarini yaratish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, ekologiya jihatidan sof defoliantlar va pestitsidlarning yangi turlarini ishlab chiqish kabi respublikamiz uchun juda muhim hisoblangan muammolar, regional xo'jalik hisobi va mehnat resurslaridan foydalanish, ishchilar sinfi milliy otryadini barpo etish muammolari nihoyat hal etilishi kerak. Ana shu va boshqa muammolarni hal qilmay turib, respublikani tanglikka yaqinlashib qolgan holatdan qutqarib bo'lmaydi.

Fan samaradorligini sifat jihatidan oshirishga quruq da'vatlar bilangina erishish mumkin emas. Ilmiy kadrlarga munosabatni ham tubdan o'zgartirish, ularning ijtimoiy maqomini qat'iy oshirish, chuqur struktura o'zgarishlari qilish zarur.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi fan uchun hech narsani ayamayotgan mamlakat gullab-yashnayotganligini va bunday davlat hamma yaxshi narsalarni — odamlarning kuch-g'ayratlarini ham, moddiy-texnika resurslarini ham o'zida jamlayotganligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Fanni malakali kadrlar bilan ta'minlash, xodimlarning professional bilimdonligi darajasini oshirish, ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoitlarni yaratish ilmiy jarayonni jadallash-tirishning asosiy omilidir.

Akademiyaning oyoqqa turib olishi va rivojlanishiga bebaho hissa qo'shgan va hali ham hissa qo'shayotgan fan veteranlarining qadr-qimmatiga zarracha ham putur yetkazmagan holda shuni aytish kerakki, ilmiy kadrlar korpusining keksayish tendensiyasi tashvish uyg'otmoqda.

Respublikada oliy malakali mutaxassislar — fan doktorlari juda-juda yetishmayotganligi sezilmoqda. Chunonchi, akademiyaning muassasalarida fan doktorlari 7,3 foizni, oliy o'quv yurtlarida esa boryo'g'i 2,6 foizni tashkil etadi. Akademiya­dagi fan doktorlari ishlashi lozim bo'lgan 458 lavozimdan atigi 217 tasida doktorlar ishlamoqda. Oliy o'quv yurtlarida asosiy kafedralar mudirlarining atigi 22 foizi fan doktorlaridir.

Markaziy Komitet fan doktorlari tayyorlashning tarkib topgan praktikasi institutlarni oliy malakali kadrlar bilan ta'minlashga, fan-texnika taraqqiyotidagi qoloqlikni tugatishga qodir emas, deb hisoblaydi. Shu sababli qisqa muddat ichida istiqbolli yosh ilmiy xodimlarni aniqlash, ularni mamlakatimiz va chet ellarning yetakchi ilmiy markazlariga stajirovkaga yuborish choralarini ko'rish zarur.

Yana shuni ham aytish kerakki, fan sohasida respublika hozir o'zini o'zi ta'minlay olmaydi va bunday bo'lishi mumkin ham emas. Faqat boshqa mintaqalarning, boshqa mamlakatlarning olimlari bilan o'zaro naf keltiradigan xilma-xil aloqalar hozirgi talablar darajasida bo'lishga imkon beradi.

Fan sohasidagi kadrlarni jadal ko'paytirish va yoshartirish uchun, O'zbekiston intellektual imkoniyatlarini keskin darajada oshirish uchun respublika rahbariyati hozir zarur mablag'larni, jumladan, valuta

mablag'larini ajratishga, tegishli tashkiliy masalalarni hal qilishga tayyor.

Xususan, respublika rahbariyati kelgusi yildan boshlab mamlakat va chet ellardagi katta ilmiy markazlar doktoranturalaridan va stajirovka o'tash uchun yosh olimlarimizga yuzta o'rin ajratish masalasini SSSR Fan va texnika davlat komiteti oldiga qo'ydi. O'zbekistondan ittifoqdosh respublikalarning eng yaxshi oliy o'quv yurtlariga jo'natiladigan aspirantlar va oliy o'quv yurtlarini bitirganlar sonini ko'paytirish masalasi ham ijobiy hal qilinmoqda. Bu o'rinda gap biotexnologiya, molekular genetika, robototexnika sistemasi, mashinasozlik texnologiyalari, nufus (demografiya) iqtisodiyoti kabi sohalarda, fan-texnika taraqqiyotining boshqa asosiy yo'nalishlarida ilmiy kadrlar tayyorlash ko'lamlarini kengaytirish to'g'risida bormoqda.

Fanga iste'dodli yoshlarning kirib kelishini ta'minlash uchun kompleks tadbirlar turkumini amalga oshirish zarur. Bu borada oliy maktabning, hatto, umumiy ta'lim maktablarining faoliyatini tubdan qayta qurish kerak. Respublikada xalq ta'limi sistemasini qayta qurish bilan bog'liq masalalarni tez orada Markaziy Komitet Byurosida ko'rib chiqish ko'zda tutilmoqda...

Fan mustahkam bazis negizidagina samarali rivojlanishi mumkin. Shu munosabat bilan sizlarning e'tiboringizni xalq ta'limi butun sistemasini, eng avvalo, oliy maktabni isloh qilish zarurligiga qaratmoqchiman. Oliy o'quv yurtlari akademiyaning doimiy vasiyligiga muhtoj. Gap, avvalo, akademiya va oliy o'quv yurti fanini real, chinakam birlashtirishni ta'minlash, oliy maktabda mavjud bo'lgan kadrlar va moddiy-texnikaning katta imkoniyatlaridan to'la-to'kis foydalanish to'g'risida bormoqda. O'zaro aloqalarning

yangi shakllari, kuch-g'ayratlarni birlashtirish to'g'risida ham o'ylab ko'rishimiz kerak. Taraqqiy topgan mamlakatlarda fan, asosan, universitetlar va institutlarda rivojlanishini eslash o'rinlidir. Bundan tashqari, katta olimlar o'tmishda ham, hozirda ham ajoyib pedagoglar bo'lishgan, ular o'z bilimlarini yoshlarga o'rgatadi, studentlar orasidan o'z izdoshlarini aniqlab, o'z maktabini vujudga keltiradi. Holbuki, bizda o'tgan o'quv yilida akademiyaning olti akademigi va muxbir a'zosigina oliy o'quv yurtlarida soatbay asosda ishlashni rasmiylashtirdi, xolos.

Ilmiy muassasalarda yoshlar orasida qo'nimsizlikning kuchaygani ham chuqur tashvish uyg'otmoqda. So'nggi yillarda akademiya yuborilgan yosh mutaxassislarning yarmidan ko'prog'i, shu jumladan, mamlakat markaziy o'quv yurtlarini bitirgan yoshlarning ancha qismi akademiya muassasalaridan ketib qoldi. Buning sababi moddiy rag'batlantirishning mavjud sistemasi hamda mehnat va turmush sharoitlarining yomonligidadir. So'nggi yillarda yoshlar orasida olimning nufuzi pasayib ketganligini ham ko'rmaslik mumkin emas.

Kompartiya Markaziy Komiteti yaqin vaqt ichida yosh olimlar guruhi bilan uchrashib, ana shu muammolar xususida ular bilan maslahatlashib, zarur yechimni topishga urinib ko'rishni mo'ljallamoqda. Iste'dodli va iqtidorli yoshlarni izlab topish, qo'llab-quvvatlash hamda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishning respublika sistemasini ishlab chiqish kerak. Ana shu sistemaning aniq jihatlari va bosqichlari xususida sizlar bilan birgalikda o'ylab ko'rishimiz zarur. Maxsus respublika fondini tashkil etish hamda iqtidorli bolalar uchun

maktablar va internatlar tarmog'ini vujudga keltirish, yosh olimlar uchun turli mukofotlar ta'sis etish ana shu sistemaga kiradigan masalalardir.

Fanning moddiy-texnika bazasini tubdan mustahkamlash uni amalda intensivlashning navbatdagi ustun yo'nalishidir. Har bir ilmiy xodimning fond bilan ta'minlanishi 30 ming so'mdan kam ekanligini bilamiz, akademiya boshqa ittifoqdosh respublikalarning akademiylaridan ancha orqada qolmoqda, akademiya institutlarida zamonaviy eksperimental va texnologiya asbob-uskunalari, apparatlar juda kam, ularni yangilash sur'atlari ham sust.

Shu bilan bir vaqtda, ajablanarli joyi shundaki, akademiya va oliy o'quv yurtlari ilmiy bo'linmalaridagi mavjud uskunalardan oqilona foydalanilmayapti. Masalan, Toshkent politexnika institutida 400 ming so'mlik ilmiy ishlar uchun zarur asbob-uskunalardan foydalanilmayapti, ular bekor turibdi, shu asbob-uskunalar orasida chet eldan keltirilganlari ham oz emas. Fanlar akademiyasi sistemasidagi institutlarda 1,3 million so'mdan ham ko'proq turadigan uskunalar o'rnatilmagan.

Eng zamonaviy, eng yuksak jahon standartlariga mos keladigan asbob-uskunalar bilan jihozlangan respublika markazini barpo etishni bu vaziyatdan qutulishning yo'li deb bilamiz. Ana shu texnologiya markazi respublikaning butun faniga xo'jalik hisobi asosida xizmat qilishi lozim.

Fanni mablag' bilan ta'minlash muammolari ham puxta ishlab chiqishni talab qiladi. Yangi institutlar tashkil etish, mavjud institutlarni o'zgartirish to'g'risida Markaziy Komitetga va Ministrlar Sovetiga juda ko'p takliflar tushmoqda. Ilmiy kompleksning struk-

turasi o'zgarmas, qotib qolgan bo'lishi mumkin emas, albatta. U ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning realliklariga, hayot talablariga muvofiq ravishda yangilanib va mukammallashib borishi kerak. Chamasi biz mashinasozlik instituti, suv muammolari va atrof-muhitni muhofaza qilish instituti va boshqa bir qancha institutlarni tuzishimiz zarur. Lekin gap mavjud institutlarni shunchaki qayta tashkil etish va yangi bo'g'inlarni yaratishda emas.

Menimcha, istiqbol – respublika tadqiqot programmalarini O'zbekiston fanini rivojlantirish yagona fondidan aniq maqsadlarni ko'zlab moliyaviy ta'minlashga o'tishdadir. Boshqacha aytganda, mablag'ni u yoki bu institutga emas, balki muammoni hal qilishga ajratish kerak. Ayni vaqtda fan sohasidagi yakkahokimlikni tugatish, uni konkurs asosida rivojlantirish, turli maktablar va konsepsiyalar uchun yangilikni izlashda baravar imkoniyatlar yarata borib, ularni rag'batlantirish kerak. Hozir muvoziy tuzilmalar paydo bo'lishidan qo'rqmasdan ilmiy izlanishning qudratli omillarini vujudga keltirish, bellashuv, ilmiy g'oyalarning, turli yondashuvlarning kurashini tashkil etish va ana shu kurashda olimlarning yangi avlodini chiniqtirish lozimligi hammaga ravshan.

Respublikada kami bilan 2010-yilgacha ilmiy siyosat konsepsiyasini hamda O'zbekistonda fan va texnikani rivojlantirishning tegishli programmasini ishlab chiqish juda zarur.

Ba'zi birovlar fanni mablag' bilan ta'minlashda faqat xo'jalik hisobi asoslarini rivojlantirish lozim, deb aytmoqdalar. Bizningcha, bu noto'g'ridir. Izlanish ishlarini mablag' bilan ta'minlash uchun tavakkal qilib sarflanadigan sarmoyani vujudga keltirish to'g'risida

o'ylab ko'rish lozim. Ilmiy tadqiqot institutlarini kategoriyalarga ajratish praktikasi ham eskirib qoldi — ish haqi, avvalo, natijaning ahamiyati darajasiga, uning yangiligi va amaliy jihatdan qanchalik qimmatli ekanligiga bog'liq bo'lishi kerak. Respublikamizning o'z konstruktorlik va tajriba ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish masalasiga ham jiddiy e'tibor berish darkor.

Konversiya tufayli beriladigan imkoniyatlardan to'la huquq va tezkorlik bilan foydalanish akademiya va tarmoq fanining rezervlaridan biri ekanligini ta'kidlash lozim. Konversiyalash lozim bo'lgan muassasalar va tarmoqlarni qayta qurishning ilmiy jihatdan asoslangan konkret programmasi zarur.

Zamonaviy tendensiyalarga asoslanib, respublika ichkarisida ham, markaz bilan o'zaro munosabatlarida ham respublika akademiyasining maqomi va vakolatlarini oshirishga qat'iy kirishishimiz, u o'z muammolarini hal qilishda ko'proq mustaqil va boshqalarga bo'ysunmaydigan bo'lishi, ustuvor yo'nalishlarni respublika ehtiyojlariga muvofiq ravishda o'zi belgilashi lozim.

Mamlakat institutlari o'rtasida taqsimlanadigan valuta mablag'larini taqsimlash ishida, xalqaro aloqalar o'rnatishda ham tartib bo'lishi, akademiya iltimos qiladigan mavqeda turmasligi kerak. Markaziy Komitet sizlardan bu xususda amaliy takliflarni kutadi. Akademiya rahbarlari, uning faollari masalalarni dadillik bilan o'rtaga qo'yishlari kerak, biz esa bu masalalarni birgalashib hal qilamiz.

Gumanitar fanlarni ilg'or marralarga olib chiqish ham juda muhim yo'nalishlardandir. Yaqin vaqtlargacha ijtimoiy fanlar aslida siyosat manfaatlariga

xizmat qilar edi. Bu esa ilmiy tadqiqotlar mavzuyini belgilashga, bu tadqiqotlarning doirasi, xarakteri va yo'nalishlariga, jamiyatshunos olimlarning dunyoqarashi va metodologiya yo'l-yo'riqlariga o'z tamg'asini bosdi. Bugungi kunda vaziyat tubdan o'zgarib bormoqda.

Hozir oldimizda har qachongidan ham ko'p muammolar turibdi. Bundan buyong'i taraqqiyotimizning bir qancha muhim masalalari unchalik aniq va ravshan emas. Yuz berayotgan jarayonlarni chuqur, muqobil negizda tahlil etishda, prinsipial masalalar yuzasidan harakat dasturini ishlab chiqish va uni har tomonlama asoslab berishda bizga ijtimoiy fanlar yordam bermasa, kim yordam beradi?

Bugungi kunda jamiyatimizda muammolarimiz va qiyinchiliklarimizga tanqidiy baho berishni amaliy takliflar va amaliy harakatlarning yangilovchi kuch-qudratiga aylantirishga imkon beradigan o'zlikni anglash omilini shakllantirish va uning muqim amal qilishi g'oyat zarurligi sezilib turibdi.

Hozir har bir olim, ayniqsa, jamiyatshunos olim o'z ilmiy faoliyatini respublika muammolariga, o'z xalqi va butun mamlakatimiz taqdiriga muvofiqlashtirishi lozim. Ravshanki, bunday intilish jamiyatshunos olimlar ilmiy va ijtimoiy faoliyatining birligi xarakterini, ularning respublika ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtirokini belgilab berishi kerak.

Jamiyatshunoslarimizga yordam berish, ular o'z fikrlarini erkin, mas'uliyat bilan ifoda etishlari uchun sharoit yaratish, ularning ijodiy va ijtimoiy faolligini rag'batlantirish lozimligini tushunamiz. Jumladan, jamiyatshunoslik tadqiqotlarini bajarish uchun davlat buyurtmalarining konkurs sistemasini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Shuningdek, turli loyihalar va yechimlarning jamiyatshunoslik sohasida ilmiy ekspertizalar o'tkazish, qayta qurish jarayonlarini o'rganish va chuqurlashtirishga jamiyatshunoslarni keng jalb qilish, mavjud tajribalarni umumlashtirish va ommalashtirish muhimdir.

Bizning ko'p millatli respublikamizda millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish muammosi eng dolzarb va o'tkir muammolardan biridir...

Hozir gap ana shu sohaga taalluqli keng doiradagi masalalarni o'z ichiga oladigan ilmiy tadqiqotlarning uzoq muddatga mo'ljallangan programmasini ishlab chiqish va amalga oshirish to'g'risida bormoqda. Shu munosabat bilan sizlarning e'tiboringizni quyidagilarga qaratmoqchiman.

Biz xalqning milliy o'zligini anglash jarayoni nihoyatda jo'shqin ravishda kuchayib borayotganligining guvohimiz. Umuman bu, shubhasiz, ijobiy jarayondir, lekin ana shu jarayon bilan bir vaqtda salbiy hodisalar ham yuz bermoqda. Biz buni ham ko'rib turibmiz. Milliy o'zlikni anglashda buzilishlarga olib kelayotgan sabablarni, omillarni aniqlab olishimiz, ana shu jarayonlarga ijobiy ta'sir o'tkazish yo'llarini belgilashimiz, milliylik va baynalmilallik uyg'un bo'lishiga erishishimiz kerak.

Jumladan, biz tarixiy xalq an'analari, urf-odatlari va marosimlari asosida odamlar ongini shakllantirish omillarini kuchaytirishimiz zarur. Yashirishga hojat yo'q, biz shubhali shiorlarga berilib, ma'naviy madaniyatimizni oziqlantirib turgan ildizlarni qirqib tashlashga o'nlab yillarni sarfladik. Hozir buning oqibatlarini sezib turibmiz. Madaniyat manbalariga qaytish g'oyat qiyin kechmoqda, odamlarning bu jarayonga munosabati o'tkir bo'lmoqda.

Respublikada turli millatga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ko'zga tashlanayotgan muayyan keskinlik sababi, bizningcha, millatlararo munosabatlarning ma'naviy-axloqiy ta'minlanish darajasi yetarli darajada yuqori emasligidadir...

Millatlararo munosabatlarni rivojlantirish jarayonlarini tadqiq etish dogmatik qarash va eski qoliplardan xoli etilishi kerak, biz yangi g'oyalarni, qarashlar va yondashuvlarni kutmoqdamiz. Bizga tarix to'g'risida, millatlararo sohadagi munosabatlarni rivojlantirishning real jarayonlari haqida, hozirgi vaqtda ko'zga tashlanayotgan qarama-qarshi manfaatlarining to'qnashuvi vujudga kelishiga nimalar sabab bo'lganligi to'g'risida achchiq bo'lsa ham, xolis va to'la haqiqat kerak.

Jamiyatshunoslar O'zbekiston tarixining ko'pgina sahifalarini qayta bitishlari, chunonchi, chorizm yillarida O'rta Osiyo xalqlarining milliy ozodlik harakati, 1920—1930-yillardagi adabiy-g'oyaviy jarayonlar, kollektivlashtirish va boshqa hodisalarga hujjatlar asosida nazar solishlari kerak. Behbudiy, Usmon Nosir, Cho'lpon, Fitrat va boshqalarning ijodi va dunyoqarashini ham teran va xolis tadqiq etish zarur bo'ladi. O'zbekiston Kompartiyasining tarixi ham o'z tadqiqotchilariga muntazir bo'lib turibdi.

Bahslar va shubhalardan cho'chimaslik kerak. Haqiqatni kollektiv bo'lib ro'yobga chiqarish, buning uchun ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, «davra suhbatlari» o'tkazish kerak. Markaziy Komitet bu tadbirlarni uyushtirishda faol yordam beradi.

Respublika Oliy Sovetining sessiyasida O'zbekiston SSRning Davlat tili to'g'risidagi qonunining qabul qilinishi respublika hayotida muhim tarixiy voqeadir. Sira mubolag'asiz shuni aytish mumkinki, tilshunos

olimlar, adabiyotshunos va huquqshunoslar, iqtisodchilarning faol va amaliy ishtirokisiz mazkur qonunning asosiy qoidalarini amalga oshirish juda mushkul bo'lur edi. Shu munosabat bilan sizlardan qanday yordam kutmoqdamiz?

Avvalo, o'zbek tilining sofligi va so'z boyligi masalasi bor. Bu o'rinda gap o'zbek tilining bundan buyonggi taraqqiyotiga oid ilmiy yechimlar haqida bormoqda. Bundan tashqari, ayniqsa, texnika bilan bog'liq ixtisoslar bo'yicha atama lug'atlari va zamonaviy darsliklar, o'quv qo'llanmalarining yo'qligi xalq xo'jaligi uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashga muayyan darajada xalal bermoqda.

Biz o'zbek tilini o'qitishning eng yangi, samarali metodikasini tayyorlash, davlat tilini jadal o'rganishning kurslarini ishlab chiqishda tilshunos olimlarning madadiga ehtiyoj sezib turibmiz. Xalqning ko'p asrlik madaniyatini o'rganish uchun dastur bo'ladigan eski o'zbek yozuvini o'rganish muammosi ham kun tartibida turibdi.

Shu bilan bir qatorda bu jarayon rus tili va respublikamizda yashayotgan boshqa xalqlarning tillarini har tomonlama rivojlantirish bilan uzviy qo'shib olib borilishi kerak. Rus tili obyektiv sabablarga ko'ra xalqlarni birlashtiruvchi til, ishlab chiqarish integratsiyasi avj olib ketgan sharoitda shu xalqlarning birgalikdagi faoliyatini ta'minlovchi til, jahon madaniyati fanidan millatlar bahra olishi uchun vositachi til bo'lib qolganligini bugungi majlis ahliga batafsil aytishga hojat bo'lmasa kerak, deb o'ylaymiz. Bu ochiq-oydin va ro'yirost haqiqatdir. Tegishli institutlar bu borada o'z vazifalarini aniq-ravshan belgilab olishlari lozim.

Yana shuni ham aytish kerakki, zamonaviy fan taraqqiyotining asosiy yo'nalishi jahon miqyosiga chiqqan tillarni, ayniqsa, ilg'or texnikaviy tafakkur ifodalanayotgan tillarni bilishni taqozo etadi. Biz ingliz, fransuz, nemis, ispan tillarini va boshqa tillarni o'rganishni butun choralar bilan rag'batlantirishimiz lozim.

Oshkoralik, fikrlar xilma-xilligi va demokratiya chuqurlashib borayotgan sharoitda ommaning siyosiy faolligi o'sdi, tashabbuskor harakatlar rivojlanmoqda, ko'plab norasmiy harakatlar vujudga keldi. Bu harakatlarga, ayniqsa, yoshlar keng jalb etilmoqda. Bu demokratiya taraqqiyotidagi qonuniy obyektiv jarayondir, jamiyatimiz siyosiy maydonga chiqayotganining mezonidir.

Shu bilan bir qatorda ana shu jarayonlar partiya komitetlarida ham, respublika jamoatchiligi o'rtasida ham ko'pgina bahslarga, turlicha baholarga va fikr-mulohazalarga sabab bo'ldi. Biz norasmiy harakatlarga munosabatda anchagina xatolarga yo'l qo'ydik, bu harakatlarni batamom tan olmaslikdan ular bilan amaliy muloqot qilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdik. Hoynahoy, xatolarimiz va ikkilanishlarimizning sabablaridan biri shu bo'lsa kerakki, biz respublika mehnatkashlarining tashabbuskor harakatiga ilmiy negizda nazar solmadik va bu harakatning qay taxlitda o'sishini tahlil etmadik. Hayot va ijtimoiy praktikaning o'zi jamiyatshunoslar oldiga shu muammolarni qo'ymoqda. Buning ustiga, grajdanlarning siyosiy jarayonda va davlat qarorlarini qabul qilishdagi ishtiroki, demokratik saylov sistemasi sharoitida ommaning siyosiy madaniyati va saviyasini oshirish masalalari birinchi o'ringa chiqmoqda. Ammo respublikadagi

birorta ilmiy muassasa ham biz uchun fanning yangi sohasi bo'lgan siyosatshunoslik muammolarini muntazam o'rganish bilan, afsuski, shug'ullanmaydi.

Iqtisodiyot va ekologiya, ijtimoiy va siyosiy sohalarda mavjud bo'lgan ko'pgina ziddiyatlar — mansabdor shaxslar, mehnatkashlarning huquqiy madaniyati va huquqiy ongi juda past darajada ekanligi oqibatidir. Jinoyatchilikning, ayniqsa, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning o'sib borayotganligi tashvish tug'dirmoqda. Agar shaxsga sig'inish yillaridagi huquqiy beboshlik ommaviy qonunsizliklarga olib kelgan bo'lsa, hozir esa huquqiy liberalizm oqibatida odamlar bezorilardan, ekstremist kayfiyatidagi kimsalardan ozor chekmoqda — achchiq bo'lsa-da, shunday xulosa chiqarishga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini huquqiy jihatdan aniqlavshan tartibga solish, bir qancha huquqshunoslik muammolari kompleksini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan hal etish kerak.

Olimlarni, avvalo, fan peshqadamlarini respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida keng ko'lamda ishtirok etishga, yoshlar bilan ishlashga jalb etish eng muhim vazifadir. Xalq bilan bevosita va oshkora muloqot qilish lozim bo'lib qolgan o'tkir mojaroli vaziyatlarda vatanparvar olimning so'zi salmoqli bo'lishi kerak. Eng murakkab vaziyatlarda biz yordam va maslahat so'rab sizga murojaat qilamiz, aziz do'stlar. Sizning imkoniyatlaringizdan to'la foydalanmayotgan ekanmiz, bunda, afsuski, bizning ham aybimiz bor...

Men anchagina masalalar va muammolar xususida gapirdim. Bizning nazarimizda, bularning hal etilishi O'zbekiston fanining yangi marralarga chiqib olishiga, yaqin o'n yilliklarda respublika uchun belgilana-

yotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarda tayanch bo'lishiga imkon beradi. Bugungi uchrashuv, aytilgan fikr-mulohaza va takliflar bizga hayotimizning barcha jabhalarida fanning samaradorligini oshirish, xalq farovonligini yaxshilash uchun tadbirlar belgilab olishda yordam beradi, deb umid qilaman.

*O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasida bo'lib
o'tgan uchrashuvda so'zlangan nutqdan*

1989-yil 28-noyabr

TOSHKENTNI YUKSAK TARAQQIYOT VA MADANIYAT SHAHRIGA AYLANTIRISHIMIZ KERAK

O'rtoqlar!

Faollarning bugungi yig'ilishida Toshkentning bugungi kuni, kelajagi qanday bo'lishi kerakligi, uning istiqbolda qanday rivojlanishi lozimligi haqida talabchanlik, chinakamiga qattiqqo'llik bilan juda tanqidiy gaplar aytildi, desam, hammaning fikrini ifodalagan bo'laman, deb o'ylayman. Quruq gap-so'zlar bo'lmaganligi hamda o'tkir masalalar va shaharning muammolari chetlab o'tilmaganligi juda soz. Doklad-da ham, nutqlarda ham biz Toshkentning shuhratini oshirishimiz, har bir xonadon va har bir mahallada, har bir korxonada va tashkilotda, katta va kichik har bir ko'chada tartib o'rnatishimiz mumkin va lozim, degan fikr sezilib turdi. Xullas, Toshkentni yuksak madaniyat shahriga aylantirishimiz kerak, zamondoshlarimizgina emas, farzandlarimiz va nabiralarimiz ham u bilan haqli ravishda faxrlanadigan bo'lsinlar. Hozir ham biz ko'hna Toshkent bilan, uning tarixi, madaniyati bilan, uning ajoyib o'tmishi bilan faxrlanamiz.

O'tmishsiz kelajak ham bo'lmasligi azaldan ma'lum. Toshkentning haqiqatan ham ajoyib o'tmishi bor. U — Yer yuzidagi eng qadimiy shaharlardan biri. Uning tarixi — jahon tarixining bir qismi. Bu tarix o'zbek xalqininggina emas, O'rta Osiyodagi boshqa xalqlarning ham ko'p asrlilik moddiy va ma'naviy madaniyatini

o'ziga singdirib olgan. Buyuk ipak yo'li Toshkent orqali o'tgan. O'shanda, qadim zamonlarda ham shahar yirik hunarmandchilik, savdo va madaniyat markazi, Sharq bilan G'arbni bog'laydigan bamisoli bir ko'priklarni bo'lgan.

Toshkent o'zining 12 ta darvozasi bilan Sharqda juda mashhur bo'lgan. Qo'ymas, Qashqar, Qo'qon, Kamolon, Chig'atoy kabi darvozalar qayerda bo'lganini poytaxtda yashovchi hozirgi kishilarning ko'plari bilishmaydi. Shayxontohur ansambli, Baroqxon, Qaffol Shoshiy, Ko'kaldosh madrasalari va boshqa obidalar Toshkentning ko'rki va iftixori bo'lib kelgan. Ular Toshkent tarixining jonli guvohlarigina emas, bebaho madaniy va me'moriy yodgorliklar hamdir.

O'zbek xalqining atoqli namoyandalari Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Mannon Uyg'ur, Yunus Rajabiy, Karim Zokirovlar Toshkentda yashab, ijod etganlar. Mana shu va boshqa nomlar mamlakatda, hatto butun dunyoda ham mashhur...

Ilm-fan va san'at shahri, mehnatkash shahar, jangovar va mehnat an'analari shahri, baynalmilalchi shahar, xalqaro konferensiya va kengashlar, turli-tuman anjuman va simpoziumlar o'tkazilib turadigan shahar — bugungi Toshkent turli avlodlarga mansub million-million kishilarning mehnati bilan bunyodga kelgan.

Modomiki, shunday ekan, siz bilan biz, Toshkentda yashab ishlashga musharraf bo'lgan kishilar uni yanada ravnaq toptirish, uning tashqi qiyofasini, arxitekturasini, obodonchiligini, aholining turmush faoliyatini ta'minlashni yaxshilash uchun imkoni bo'lgan hamma ishni qilishimiz ham qarz, ham farz.

Biz Toshkentning avvalgi ulug'vorligini shunchaki qayta tiklab qolmay, uni yanada oshirishimiz kerak.

Bu — bizning eng zarur iqtisodiy, ijtimoiy vazifamizgina emas, shu bilan birga, umummilliy vazifamiz, o'zbek xalqi oldidagi, uning shonli o'tmishi va aminmanki, yorug' kelajagi oldidagi vatanparvarlik burchimizdir.

Tariximiz uchun ham, hozirgi kun uchun ham o'zbek ishchilarining, o'zbek dehqonlarining, o'zbek ziyolilarining uyalishlariga hech bir asos yo'q. Aksincha, ular juda og'ir sinovlarga, ba'zan esa nohaq sinovlarga qaramay, o'zlarining mashaqqatli ishlarini munosib ravishda ado etib kelmoqdalar, bu bilan ular haqli ravishda faxrlanishlari mumkin. Ular mamlakatga oltin va gaz, metall va mashinalar, murakkab texnika va ko'pgina butlovchi qismlar, turli-tuman materiallar yetkazib berishmoqda. Paxta ishlari haqida gapiradigan bo'lsak, O'zbekiston jamiyat oldidagi o'z burchini sharaf bilan bajarib keldi va bajarmoqda. U haqiqatan ham butun mamlakatni kiyintirmoqda, Ittifoq xalqini o'zining lazzatli mevalari va sabzavoti bilan ta'minlashga katta hissa qo'shmoqda, buning uchun munosib haq olishi kerak. Avvalo, munosib moddiy haq olishi lozim, paxta va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxlari to'g'risidagi masala mamlakat hukumati oldiga prinsipial qilib qo'yildi va to'la-to'kis hal etilmaguncha kun tartibidan olinmaydi. Biz o'z vatanparvarligimizni, mamlakatga, o'z o'lkamizga, o'zimiz yashab turgan diyorumizga hurmatimizni respublikamiz poytaxti bo'lgan shaharning hozirgi va kelajakdagi qiyofasida yaqqol tarzda ifodalashimiz kerak.

Shu boisdan ham hozir keng miqyosda bo'lsa ham, shaharni shunchaki ta'mirlash haqida emas, balki Toshkentni rivojlantirish xilma-xil muammolarining chigal tugunini butunlay yechishga prinsip jihatidan yangicha

yo'llarni izlash haqida gap bormoqda. Bu yechimlar, birinchidan, odamlar turmushining asosiy sohalariga o'zining tez ta'sirini o'tkazadigan bo'lsin. Necha o'n yillar davomida yig'ilib qolgan muammolarni birvarakayiga hal qilib bo'lmaydi, albatta. Ammo hozirning o'zidayoq amaliy siljishlarga erishmoq kerak. Ikkinchidan, shaharni olis istiqbolda rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlarini to'g'ri belgilab olish zarur. Chunki mana shunday umumiy strategik plansiz juz'iy masalalarni muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Benihoya murakkab va bahaybat shahar xo'jaligida yo'l qo'yilgan xatolar esa unda yashovchi aholining butun-butun avlodlariga juda qimmatga tushayotganini tajriba ko'rsatib turibdi.

Shunday qilib, gap shaharning kelajagi uchun, undagi aholining kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan uzoq muddatli, xilma-xil va ayni vaqtda bir-biri bilan bog'liq tadbirlarning butun bir majmuyi haqida bormoqda. Bu masalada odamlar hozir munosib yashashi uchun imkoni boricha hamma ishlarini qilish, ayni vaqtda kelgusi o'n va yuz yillarni o'ylab ish tutish lozim.

Xo'sh, shahrimizning hozirgi ahvoli qanday, uning aholisiga nimalar yoqmayapti, qaysi muammolarni zudlik bilan hal qilish va qaysi masalalarni istiqbolni ko'zlab reja tuzish, eng muhim yo'nalishlarni tanlab olish kerak?

Bugungi Toshkent — nafaqat respublikamizning, balki mamlakat butun janubining ham juda yirik sanoat, industrial, ilmiy va madaniy markazidir. Bu qonuniy holdir. Shonli mehnat an'anasiga ega bo'lgan, eng malakali ishchilar va injener-texnik kadrlar yetishib chiqqan, xalqimiz ziyolilarining guli to'plangan bu

shahar fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirishda, ko'p mehnat va ilm-fan yutuqlaridan foydalanish talab qilinadigan zamonaviy yangi ishlab chiqarishlarni o'zlashtirishda tashabbuskor bo'lishi, respublikamizning kelajak yo'lini ochib borishi lozim.

Biroq muammo shundan iboratki, o'tmishdagi ko'pgina rahbarlarning o'zbilarmonligi, puxta o'ylab ish tutmasligi, mas'uliyatsizligi, ularning odamlar taqdiriga va o'z xalqining kelajagiga befarqligi oqibatida shaharning ishlab chiqarish strukturasi shakllantirishda qo'pol xatolarga yo'l qo'yildiki, bu xatolar tobora ko'payib boraverdi. **Respublika, oblast va shaharning partiya, sovet, xo'jalik organlari ishlab chiqarish quvvatlarini zo'r berib ko'paytirish, yangi texnikaviy jihatdan tobora murakkab ishlab chiqarishlarni o'zlashtirish bilan bir vaqtda tub aholi va avvalo mahalliy millat orasidan ishlab chiqarish va injener-texnik kadrlarini jadal tayyorlashga e'tibor bermadilar.** Natijada o'z mehnat resurslarimiz ortiqchaligi salkam 200 ming kishiga yetishiga qaramay, yangi ishlab chiqarishlarning mehnat kollektivlarini shakllantirish uchun respublikadan tashqari joylardan 125 mingga yaqin ishchi va mutaxassis jalb etildi.

Ko'pgina yirik korxonalar va komplekslar demografiya va ekologiya vaziyatini hisobga olmay qurildi – ko'p mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishlar emas, balki ko'p fond talab qiladigan ishlab chiqarishlar, zararli chiqtlari va oqindilari salmog'i katta bo'lgan ishlab chiqarishlar barpo etildi. Poytaxt aholisining tabiiy-iqtisodiy sharoitlariga va ijtimoiy-ekologik manfaatlariga xilof ravishda shaharda o'nlab ishlab chiqarish obyektlari barpo qilindi. Hozir Toshkentda shahar aholisiga biron-bir narsa berish bir

yoqda tursin, unga katta ziyon yetkazayotgan 70 tadan ko'proq korxonona, ombor, bazalar joylashtirilgan.

Eng achinarlisi shuki, biz shaharning ijtimoiy infrastrukturasi barpo etishda «qoldiq» prinsipiga shu paytgacha ham barham berganimiz yo'q. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, Toshkent shahrini ijtimoiy jihatdan obodonlashtirish uchun har bir xodim hisobiga uning oilasi va sotsial, madaniy-maishiy to'la ta'minlanishini e'tiborga olganda (uy-joy, kasalxonona va poliklinika, bolalar bog'chasi va maktablar, shahar transporti, savdo va madaniy-maishiy xizmat va hokazolar uchun) 20 ming so'm sarflanishi kerak. Demak, ministrlilik yoki idora bo'lg'usi korxononaning qurilish maydonchasiga birinchi qoziqni qoqishdan avval shu maqsadlar uchun qilinadigan hamma chiqimlarni qoplaydigan miqdordagi pulni shahar ijrokomi hisobiga o'tkazib qo'yishi kerak. Ammo tegishli ittifoq idoralari shu maqsadlar uchun qilinadigan chiqimlarning ko'p qismini qoplaganlari yo'q, buning uchun ulardan hech kim tuzukroq talab ham qilgani yo'q.

Buning ustiga, keyingi besh yilliklar mobaynida ijtimoiy sohaning zarariga ishlab chiqarish qurilishi uchun kapital mablag'lar ulushini ko'paytirishdek nomaqbul tendensiya sezilmoqda...

Bu – hammamizga alam qiladigan kulfatdir. Bu sobiq va hozirgi rahbarlarning toshkentliklar oldidagi, butun xalq oldidagi bevosita aybidir. Poytaxtda qanchadan qancha ministrlar, deputatlar, Markaziy Komitetning a'zolari bor, shu zalning o'zida qanchadan qancha mansabdor shaxslar o'tirishibdi. Modomiki, shunday ekan, odamlar bizdan, xo'sh, ilgari qayerda edingiz, bunday rasvogarchilikka nega yo'l qo'ydingiz?

Nega Toshkentning qiyofasini xatarli ravishda buzishgacha, uni beo'xshov va hatto odamlarning yashashi uchun noqulay holga keltirib qo'yishga yo'l qo'ydingiz, deb so'rashga haqlidirilar. Biz haqiqiy turmushning o'zidan kelib chiqqan mana shu qiyin savollarga to'ppa-to'g'ri va halol javob qaytarishimiz kerak. Eng muhimi esa, xalq manfaatlariga zid bo'lgan mana shunday illatni juda qat'iyat bilan, juda shafqatsizlik bilan, butun kuchni sarflab, zo'r berib tugatishimiz lozim.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining «Toshkent shahri aholisining hayot ta'minotini tubdan yaxshilash va shaharning tarixiy rayonlarini ta'mirlashni jadallashtirish yuzasidan 1991 – 1995-yillarga mo'ljallangan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ayni shu maqsadga qaratilgan. Ilgari odamlarning hayotiy manfaatlariga daxldor muhim masalalar hammadan pinhon tutilib tayyorlanar va qabul qilinar edi, jamoatchilik fikri esa hisobga olinishi bir yoqda tursin, hatto butunlay pisand qilinmas edi. O'sha yaroqsiz odatdan farqli o'laroq, bu hujjat mutaxassislar, olimlar, mahallalarning faollari bilan birgalikda, matbuotda batafsil muhokama qilindi. Shu sababli uning mazmunini gapirib o'tirishimga hojat yo'q. Faqat ba'zi bir prinsipial masalalarga to'xtalib o'taman.

Birinchidan, Toshkentda ishlab chiqarish qurilishini keskin qisqartirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Faqat iste'mol mollari ishlab chiqaradigan yoki aholiga xizmat ko'rsatadigan korxonalar va tashkilotlar uchungina istisno qilinishi ko'zda tutilgan. Ammo bunday hollarda ham O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Prezidiumining maxsus qarori talab qilinadi. Shu paytgacha barpo etilgan va ishlab turgan obyektlarni ham surishtirib

ko'rishimiz, ularda tartib o'rnatishimiz kerak. Shaharga kerak bo'lmagan, unga ziyon yetkazayotgan korxonalar, tashkilotlar, bazalar va omborlarni yopish, sohasini o'zgartirish va Toshkent, ehtimolki oblast tashqarisiga ko'chirish ko'zda tutilmoqda. Aholining mexanik tarzda ko'payishini to'xtatish uchun shaharda propiska qilish cheklanadi. Zarur holatlarda unga Toshkent shahar ijroiya komitetining farmoyishi bilangina yo'l qo'yiladi. Faollar yig'ilishining qatnashchilari, shaharning keng jamoatchiligi noilojlikdan ko'rilyotgan, ammo mana shu zarur choralarga qo'shilishlariga aminman.

Ikkinchidan, uy-joy qurilishi sur'atlarini kamaytirmay, balki jadal oshirib, yangi uy-joy mavzellarida ham, shuningdek, shaharning Eski shahar qismida ham ularning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, butun ijtimoiy infrastrukturani kompleks rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi lozim. Zamonaviy shaharda, ayniqsa, Toshkent kabi azim shaharda yashash shunchaki istiqomat qilishni bildirmaydi. Har bir oila uchun alohida kvartira yoki shaxsiy uy bo'lishi zarur. Yaqin o'n yil ichida bu vazifani to'la-to'kis hal etishga sabot bilan intilaveramiz. Ammo shu bilan birga uy yaqinida hovuzi bo'lgan ko'kalamzorlashtirilgan mo'jaz bolalar bog'cha va yasilari, maktab hamda keng sinfxonalari va jihozlangan kabinetlari bo'lgan hunar-texnika bilim yurti, transport yo'llari va chorrahalar yonida qulay joylashgan magazin va savdo markazlari, bozorlar, maishiy xizmat korxonalar, tipovoy poliklinika va kasalxonalar, madaniyat muassasalari, kinoteatrlar, kutubxonalar, ommaviy istirohat joylari ham bo'lishi zarur.

Yaqin ikki-uch yil ichida shaharda qurishga ulgurilmay qolgan sotsial-madaniy-maishiy obyektlarni bar-

po etish, kelgusida esa masalaga nokompleks yondashuv tushunchasining o'zini istisno etish kerak. Shu yo'l bilangina biz yig'ilib qolgan muammolarni hal eta olamiz, bu muammolar ulg'ayib ketmasligiga, yangi muammolar paydo bo'lmasligiga erishamiz. Buning uchun planlashtiruvchi, ta'minotchi idoralar, loyiha va qurilish tashkilotlari, xalq deputatlari, rayon va shahar sovetlari shaxsan javobgardirlar. Chunki odamlarning hayot ta'minoti masalalari — ijtimoiy va iqtisodiy masalalar bo'lib qolmay, avvalo siyosiy masalalardir.

Shaharning me'moriy qiyofasini, an'anaviy turmush tarzini va mahallalararo aloqalarni saqlab qolib, uning tarixan tarkib topgan qismini tubdan ta'mirlash va obodonlashtirish — juda muhim vazifadir. Biz tub toshkentliklar oldida qarzdormiz, ularning ota-bobolari shahrimizni bunyod etganlar, qurganlar va obodonlashtirganlar, ularning o'g'il-qizlari esa hayot ta'minotining eng oddiy sharoitlaridan ham mahrum qilib qo'yildi. Oktyabr, Sobir Rahimov, Kirov rayonlaridagi istalgan o'zbek xonadoniga kiring, bu rayonlarda 600 ming kishi yashab turibdi, xonadonlar urushdan avval qurilgan bo'lib, shu qadar puturdan ketib qolganki, ularni remont qilib ham bo'lmaydi (bizda 2 million kvadrat metrga yaqin mana shunday uylar bor). Bu xonadonlarda markaziy isitish sistemasi, vodoprovod, gaz va kanalizatsiya yo'q, ikki-uch xonada bir necha oila yashab turibdi, kishi boshiga 2—3 kvadrat metr turarjoy to'g'ri keladi. Agar Toshkentda o'rta hisobda kishi boshiga 14,2 kvadrat metr turarjoy to'g'ri kelsa, eski shahar qismida bundan ikki barobar kam. Qariyb 7 ming oila shunday yashamoqdaki, har bir oila a'zosi-ga salkam 5 metrdan kamroq sahn to'g'ri keladi. Bu — eng oddiy hayot ta'minoti shartlariga ham yaqin-

lashmaydi. Bu odamlarning chidamliligi, saxovati va mardligiga, shu qiyinchiliklarning hammasiga bardosh berayotganligiga faqat tahsin o'qimoq kerak.

Ahvolni juda zudlik bilan, juda shoshilinch tarzda tuzatib olish kerak. Qarorda bunday oilalar uy-joy bilan navbatdan tashqari va kechi bilan 1992-yilgacha ta'minlanishi kerakligi ko'zda tutilgan edi. Ulug' Vatan urushining nogironlari va qatnashchilariga hamda ularga tenglashtirilgan imtiyozli shaxslarga, qahramon onalarga ham shunday yondashish lozim. Ularning uy-joy sharoitlarini birinchi galda yaxshilash haqida rayon ijroiya komitetlari, Toshkent shahar ijroiya komiteti doimiy g'amxo'rlik qilishlari kerak. Shahar, oblast partiya komitetlari va Markaziy Komitet mana shu juda o'tkir ijtimoiy-siyosiy muammoning hal etilishini qattiq nazorat qilib turishlari zarur.

Shaharning tarixan tarkib topgan eski qismi haqida batafsilroq gapiriladigan bo'lsa, biz tub toshkentliklardan bo'lgan qarzimizni to'lashimiz, ularga nisbatan ijtimoiy adolatni tiklashimiz kerakligini to'g'ridan to'g'ri aytmoq kerak.

Avvalo, shu rayonlarning aholisiga zamonaviy sharoitlarga monand normal uy-joy, maishiy xizmat, ijtimoiy sohani yaratib berishimiz zarur. Bu muammolarni jo'n va yuzaki hal etib bo'lmaydi.

Shahar aholisi eski rayonlarni buzib tashlab, shu joylarda bir-biriga o'xshash tipovoy mikrorayonlar qurilayotganiga qarshi haqqoniy e'tiroz bildirmoqda. Bunday mikrorayonlarni arzonroq va tezroq qurish mumkin, albatta, ammo bunday arzonlik va tezlik shahar va xalq uchun haddan tashqari qimmatga tushmoqda. Azim shahrimizning tarixan tarkib topgan va betakror qiyofasi yo'qolib bormoqda, mahallalarning

asriy aloqalari va an'analari barbod bo'lmoqda. Biz bunday qila olmaymiz va bunday qilishga haqqimiz yo'q. Aksincha, Eski shahar aholisining, mahalla jamoatchiligining xalq me'morchiligini, yaxshi qo'shni-chilik, o'zaro yordam, obodonchilik muammolarini birgalikda hal etishdek ajoyib asriy an'analarini saqlab qolish va ko'paytirish muddaosini har tomonlama qo'llab-quvvatlash kerak. Biz o'z territoriyasini o'z kuchi bilan obod qilib, ko'kalamzorlashtirayotgan, keksalar-ning dam olishi uchun mahalla markazlari va choyxonalar, bolalar uchun maydonchalar barpo etayotgan mahallalarning aholisidan astoydil minnat-dormiz.

O'tmishning tarixiy va me'morchilik yodgorliklarini shahar muassasalari emas, balki aholi o'z tashabbusi bilan saqlab qolayotganligi mahalliy ma'murlar uchun, hammamiz uchun katta ta'nadir. **Masalan, Chig'atoy aholisi me'morchilikning tarixiy va arxitektura yodgorligi bo'lgan eski machitni qayta tiklab, bu sohada ibrat ko'rsatdi. Juda to'g'ri ish qilindi. Agar shunday vatanparvar va jonkuyarlar bo'lmaganida, biz o'tmishni allaqachon unutib yuborgan bo'lar edik, holbuki, ayrim kimsalar zo'r berib bizni o'tmishni unutishga da'vat etmoqdalar.** Yaqinda o'zining 2000 yilligini nishonlagan Toshkent aholisi shahar o'z tarixini qayerdan boshlaganini bilmasligi, uning shonli ko'p asrlik taraqqiyoti shohidlari bo'lmish arxitektura davrlari qayerda saqlanib qolganini bila olmaganliklari kabi g'aroyib fakt hammamizga juda katta ta'nadir. *Hamma narsani pul bilan o'lchaydigan amaliyotchilar poytaxtimizning yubileyi sharafiga yodgorlik toshi qo'ymoqchi bo'lganliklari bizni oz bo'lmasa uyaltirib qo'yay dedi.*

Holbuki, hamma narsa ham bir lahzalik amaliy manfaat bilan o'lganmaydi. Shahar programmasini amalga oshirish chog'ida o'tmish yodgorliklarini saqlab qolish va ta'mirlashga juda ehtiyotkorlik va mehru-muhabbat bilan qarash kerak.

Hozir shaharda respublika va mahalliy ahamiyatga molik ikki yuztadan ko'proq me'morchilik yodgorligi bor. Mabodo biz ulardan loqal bittasini qo'ldan bersak, avlodlar bizni kechirmaydi. Shu munosabat bilan Ulug'bek davriga mansub yodgorlik — Zangiota maqbarasining qismatini eslatib o'tmoqchiman. Butun dunyo ahli 1994-yilda Ulug'bekning 500 yillik yubileyini nishonlaydi. Bir necha yil muqaddam ta'mirlash loyihasiga ko'ra uning ravoqidagi toshlar bittalab ko'chirib olindi, koshinlari to'dalab uyib qo'yildi va asta-sekin tashib ketila boshlandi, yodgorlik esa tiklanmay qolib ketdi. Bunday vahshiylikka toqat qilib bo'lmaydi. Shaharni rivojlantirish doirasida «Madaniy va me'morchilik yodgorliklari» degan programmani ishlab chiqish, huning uchun maxsus jamoat fondini vujudga keltirish kerak.

Eski shaharni ijtimoiy jihatdan qayta qurishda an'analarni saqlab qolish bilan birga qurilish va obodonchilikning butunlay yangicha sifat darajasini ta'minlash yo'li tanlab olinganligi juda to'g'ri bo'lgan. Shaharning tarixan tarkib topgan rayonlarida normal uy-joy sohasini zamonaviy fan-texnika darajasida shakllantirish vazifasi qo'yilgan. Bu esa ta'mirlanadigan har bir rayon aholisining ko'pchilik qismini shu rayondagi yangi quriladigan joylarga ko'chirib joylashtirish, tarkib topgan ijtimoiy-demografik strukturani, mahalliy uy-joy tuzilmalarini, ko'p ukladli oilalarni bitta hovli tegrasida joylashtirish prinsiplarini saqlab qolish imkonini beradi.

Shu rayonlarda yashab turgan kishilarning intilishlarini tushunmoq kerak, ular necha o'n yillardan beri shu yerda yashaydilar va istiqomat joyini o'zgartirgilarini kelmaydi. Ular ko'pincha yangi kvartiralar ajratishni emas, mavjud uy-joyini saqlab qolishni, yashash uchun eng oddiy qulayliklarni yaratib berishni iltimos qiladilar. Oilaning kam qavatli uy-joy binolarida, asrlar davomida sinalgan qulay mahalla markazlari tevaragida yashash tarzi aholiga ma'qul. Biz jamoatchilik fikri bilan hisoblashishga, xalq an'analarini ehtiyot qilib asrashga burchlimiz.

O'rtaga qo'yilgan vazifa zudlik bilan hal qilinishi kerak. Toshkent shahar ijroiya komiteti yangi tashkil etilgan «Toshkent – tiklanish» davlat-kooperativ qurilish birlashmasini tezroq malakali kadrlar bilan mustahkamlashi, zarur texnika va moddiy resurslar bilan ta'minlashi, shu tariqa shaharning tarixan tarkib topgan rayonlarini ta'mirlash va qurish, tajriba uchun «Shahriston» mahallasini barpo etish yuzasidan o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani bajarishga tezroq kirishishiga imkon berishi zarur.

Oldimizda katta vazifalar turibdi, qilinadigan ishlar ko'p. Shahar xo'jaligining va qurilish konveyerining hamma bo'g'inlarida juda qattiq va qat'iy intizom – plan, ijro, mehnat intizomi yo'lga qo'yilgan taqdir-dagina bu vazifalarni uddalash mumkin. Buning uchun rahbarlardan qattiq javobgarlik talab qilinadi. Eng muhim ish – uy-joy qurilishidagi uzilishlar bizda shunday intizom yetishmayotganini ko'rsatib turibdi. Hozirgi besh yillik boshlanganidan buyon biron yilda ham shaharda uy-joy qurilishining belgilangan hajmlari bajarilgani yo'q. Uy-joy programmasining topshiriqlarigina emas, uy-joylarni foydalanish uchun top-

shirish yillik planlari ham bajarilmayapti. To'rt yil mobaynida 514 ming kvadrat metrdan ko'proq uy-joy binosi qurib bitkazilmadi. Respublika Oliy Soveti tasdiqlab bergan uy-joy programmasiga nisbatan esa 1,5 million kvadrat metr uy-joy berilmadi.

Bundagi asosiy sabablar – respublika Gossnabi moddiy-texnika ta'minoti masalalarini qoniqarsiz hal etganligidan, Toshkent oblast ijroiya komiteti yer ajratib berish masalasini o'z vaqtida hal etmaganligidan, «O'zbekenergo» ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan issiqlik ta'minoti manbalarini rivojlantirishda orqada qolganligidan, O'zbekiston SSR Gosplani kapital mablag'larni va moddiy resurslarni planlashtirishda kommunal tarmoq obyektlari qurilishiga hali ham qolgan-qutgan mablag'larni berish prinsipidan voz kechmayotganligidan, «Glavtashkentstroy» o'zining ishlab chiqarish bazasini rivojlantirishda oqsoq bo'lib qolayotganligidan iborat.

Ammo bu sabablar qurilish programmasining bajarilishi ustidan nazoratsizlikka yo'l qo'ygan Toshkent shahar partiya komitetini, shahar ijroiya komitetini, rayon partiya va ijroiya komitetlarini mutlaqo oqlay olmaydi.

Vazifa nihoyatda qattiq va aniq-ravshan qilib belgilanmoqda: yo'l qo'yilgan qoloqlik o'rni to'ldirilsin, 1990-yilda ilgari bitmay qolgan turarjoy binolari va sotsial-madaniy-maishiy obyektlar foydalanishga topshirilsin hamda uy-joy programmasiga muvofiq yangi marralarga – yiliga 1,3–1,5 million kvadrat metr uy-joy qurishdan iborat marralarga erishilsin. Bunga aloqador barcha kadrlar odamlarni yashash sharoiti bilan ta'minlash uchun shaxsan mas'uliyatni his etishlari va ular mazkur vazifani yo hal etishlari, yoki

bu ishdan ketishlari kerak, degan oddiy haqiqatni tushunishlari lozim.

Biz qanday operativ va istiqbol planlarini ishlab chiqmaylik, ana shu maqsadlar uchun qanday qo'shimcha vositalar va resurslar ajratmaylik, agar uy-joylarni hisobga olish va taqsimlashda qattiq, so'zsiz amal qilinadigan tartib o'rnatmasak, bu muammoni hal eta olmaymiz. Biz mazkur masalalarda ijtimoiy adolat biror marta ham buzilishiga yo'l qo'ya olmaymiz va bunga haqqimiz ham yo'q.

Tekshiruv shuni ko'rsatdiki, Toshkentda 1990-yil boshida tekshirib chiqilgan yetti mingdan ortiq uy-joylarning deyarli uchdan bir qismida qonun-qoidani turli xilda buzish hollari aniqlangan. 1700 dan ortiq kvartira bo'shagani, salkam 160 kvartira o'zboshimchalik bilan egallab olingani aniqlandi. Ayrim kvartiralar uzoq vaqt bo'sh turgan.

Ana shu va boshqa faktlar muhtojlarni uy-joy bilan ta'minlashdagi keskinlikning yumshatilishi uchun rezervlar mavjud ekanidan dalolat beradi. Gap eng avvalo kvartira egalarining aksariyat qismi ortiqcha turarjoy maydoniga ega ekanligi to'g'risida bormoqda. Bugungi kunda shahar ijroiya komitetida ortiqcha uy-joy maydonlari to'g'risidagi aniq hisob-kitob yo'qligini dangal aytish kerak. Qo'shimcha kvartira haqining miqdori — yiliga qariyb 700 ming so'm — chinakam holatni aks ettirmaydi. Bu shahardagi butun turarjoy fondini puxta hujjatlashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Mazkur jarayon tegishli xizmatlar tomonidan deputatlarning va keng jamoatchilikning faol ishtirokida amalga oshirilishi kerak.

Meni to'g'ri tushunishingizni so'rayman: biz hech kimning manfaatlarini, agar ular qonun asosida qon-

dirilayotgan bo'lsa, kamsitmoqchi emasmiz. Lekin shahar ma'murlari davr ruhiga amal qilib, murosaga kelish imkoniyatlarini qidirib topishlari kerak. Aytaylik, har bir rayonning eng obod joylarida kattaroq uy-joy maydoniga almashtirish uchun bir va ikki xonali yaxshilab pardoziqlangan va loyihalashtirilgan kvartiralar bo'lgan kam qavatli g'isht uylarni qurish bilan murosaga kelish mumkin. Bu, asosan, kekxa kishilarga taalluqli bo'lganligi tufayli mazkur uylarda oziq-ovqat magazinlarini ham, chog'roq parhez taomlar oshxonasini ham, Sog'liqni saqlash ministriligining sotsialta'minot bo'limi bilan birgalikda meditsina punkti va sotsial yordam xizmatini ham joylashtirish maqsadga muvofiq bo'lur edi. O'ylaymanki, o'shanda kam xonali kvartiralarga almashish jarayoni mushkulliklarsiz o'tgan, shahar esa qo'shimcha ravishda minglab kvadrat metr uy-joyga ega bo'lgan bo'lur edi.

Ortiqcha turarjoy maydoniga imtiyozlarning qonuniyligi muammosi ham ana shu masala bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi kunda shaharda 175 ming kishi ana shunday imtiyozlardan foydalanmoqda. Bunda ham biz hech kimning qonuniy huquqlarini kamsitmoqchi emasmiz. Xalq deputatlari syezdining imtiyozlar komissiyasi mezonlariga amal qilib, bunday imtiyozlarni puxta ko'rib chiqish lozim: bunda suiiste'molliklar va buzilishlar yo'qmikan. Shubhasiz, mazkur masalalar jamoat fikrini hisobga olib, shaharning vakolatli organlari tomonidan ko'rib chiqilishi darkor.

Va nihoyat, hujjatlashtirish shuning uchun ham kerakki, uy-joylarga tabaqalashtirilgan tarzda haq to'lashni — uning qayerda joylashganiga, qurilish tipiga, qulayliklari darajasiga qarab haq to'lashning joriy etilishi to'g'risidagi asosli takliflarni ishlab chiqish lozim.

Shaharning markazida g'isht uyda turuvchilar Yunusobod yoki Sergelida panel uylarda turuvchilarga qaraganda uy haqini qimmatroq to'lasalar adolatli bo'lar-di, deb o'ylayman. Mazkur masalalarni shaharning nufuzli idoralari uzil-kesil hal etishlari kerak. Lekin bu masalalar shahar partiya komiteti va shahar ijroiya komiteti tomonidan o'rganilib, shu xususda takliflar ishlab chiqilishi lozim.

Shahar xo'jaligi budjetini to'ldirishning yana bir manbasi haqida. Gap egallab turilgan davlat kvartiralarini sotib olish huquqi to'g'risida bormoqda. Hozircha bu tajriba shaharda juda jur'atsizlik bilan joriy etilmoqda. Yil boshigacha jami 546 ming so'mlik 102 ta kvartira sotilgan. Ana shu mablag'lar yangi uy-joylarni qurishga sarflanadi. Kvartirani xususiy mulk qilib sotib olishni istovchilar ancha ko'p. Dastlabki tajribani o'rganish, uning asosida nayrangbozlik va sui-iste'mollarga barham beruvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda shahar budjetining ana shu qo'shimcha manbayidan keng foydalanish zarur.

Toshkent ma'muriy markazining me'moriy shakllantirilishi yangicha yondashuvlarni taqozo etadi. Bunda yaxshi g'oyalar, ajoyib ijodiy yechimlar oz emas, o'tmishdagi ortiqchaliklarga qarshi kurash avj oldirilib yuborilgan paytda biz bulardan uyala boshladik. Holbuki, masalan, g'aroyib saroyi, benihoya keng maydoni bo'lgan «Xalqlar do'stligi» kompleksi singari ajoyib arxitektura ansambllari bizning umum-milliy boyligimiz-ku. Bunday yodgorliklar shaharda oz emas.

Shu bilan birga, shaharning Abay, Furqat, Navoiy, O'zbekiston deb atalgan markaziy ko'cha va prospektlari besh yildan ortiq vaqtdan buyon tugallanmagan,

yarim xaroba holda turishiga toqat qilib bo'lmaydi. Tevarak-atrofdagi vayrona kulbalar hali ko'p bo'lgan bir paytda LKSM Markaziy Komiteti, O'zbekiston Kasaba-soyuzlari respublika kengashi, kollektiv foydalanishdagi Hisoblash markazi, Gorkiy nomidagi teatr binolarining va boshqa inshootlarning qimmatga tushadigan dabdabali loyihalari kerakmi, deb bahslashish mumkin. Umuman, tabiiy iqlim sharoitini, zilzilabardoshlikni, turmush va uy-ro'zg'or yuritishning an'anaviy tarzini hisobga olib, shaharda osmono'par qurilishlar va bunday qurilishlarning hajmi maqsadga muvofiqligini o'rganish zarur. Bu mutaxassislarining ishi. Biroq binolarga va markazlar qurilishiga necha o'n million so'm sarflab, ularning qurilishini to'xtatib qo'yib, vayron bo'lishga mahkum etish — bu borib turgan xo'jasizlik, xalq pulini shamolga sovurishdir, deb qat'iy aytish mumkin.

Loyiha yechimlari tanqidiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqilgach, bu boradagi ishlar yana yo'lga qo'yilishi kerak. Modomiki, gap zamonaviy arxitektura yutuqlari asosida, necha asrlarga yetadigan qilib qurilayotgan va o'zbek xalqining shaharsozlikdagi ajoyib asriy an'anasini davom ettirib, rivojlantirishga qaratilgan binolar to'g'risida borayotgan ekan, biz buni ana shu mas'uliyatli ishni amalga oshiradigan quruvchilar, me'morlar, haykaltaroshlarning iste'dodi va ijodiy yondashuvi bilan bog'laymiz.

Bunda ana shu muammolarni hal etish va iste'dodli kuchlarni jipslashtirish, nomi eng yaxshi me'morchilik va shaharsozlik yechimlari loyihalari bilan bog'liq bo'lgan, O'zbekiston poytaxtining bugungi kuni va kelajagi to'g'risida sidqidildan qayg'urayotgan kishilarning barchasini faol mehnatga qaytarish, ayniqsa, muhimdir.

Shu haqda gapirar ekanmiz, hozirgi kunda ham o'zining beparvoligi, ishni tashkil eta bilmasligini turg'unlik yillariga taqab, o'zini oqlashga urinayotgan rahbarlar ham borligini ta'kidlash kerak. Keyingi vaqtda rahbarlik lavozimiga ko'tarilgan ba'zi bировlar 10–15 yillik faktlarni kavlashtirib, o'z o'tmishdoshlarining nomini bulg'ab (bu o'tmishdoshlar ko'pincha bu kishilarga javob berolmaydilar yoki o'zlarini himoya qila olmaydilar), albatta qoralashga intilib, o'zlarini qahramon qilib ko'rsatishga, shu tariqa ishga sadoqatlarini namoyish qilishga urinmoqdalar. O'ylaymanki, bunday odamlar uzoqqa borolmaydi. Rahbarlik huquqini har kuni amaliy ish bilan isbotlash kerak.

Toshkent – studentlar shahri. Shuning uchun ham bu yerda birorta ham muammoni yoshlarning manfaatlarini hisobga olmay, ularga o'qish, barkamollik hamda bo'sh vaqtlarini o'tkazishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib bermasdan hal etib bo'lmaydi. Bular millat kelajagi, xalqimiz kelajagidir. Respublikamizning bugungi va ertangi taqdiri yosh avlodning kasb mahorati, intellektual darajasi, ma'naviy taraqqiyoti, jismoniy sog'lomligiga bog'liq. Ana shu maqsad yo'lida biz tejashga na ma'naviy, istasangiz, na otalik haqqimiz yo'q. Bu haqda birinchi marta gapirilayotgani yo'q, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash uchun mablag'ni, shu jumladan, valutani ham ayamashlik kerak. Iste'dodli yigit va qizlar mamlakatimizning yirik ilmiy markazlarida va chet ellarda ta'lim olib, malaka oshirish imkoniga ega bo'lsinlar.

Ammo, eng avvalo, bolalar bog'chasidan boshlab oliy maktablarimiz, texnikumlar, hunar-texnika bilim yurtlarimizda, maktablarimizda barcha zarur sharoitni yaratmoq kerak.

Keyingi vaqtlarda respublika poytaxtidagi o'quv yurtlari va studentlar yotoqxonalarida yetishmovchiliklar hamda muhtojliklar to'g'risida ko'p gaplar aytildi va yozildi. Takrorlab o'tirmayman. Mazkur masalalarda «qoldiq» prinsipi, ayniqsa, zararli ekanini ta'kidlamochiman. Chunki bu prinsip har bir xalq uchun eng qimmatli narsaga — kelajakka bolta uradi. Xalq ta'limi ministrligining rahbarlari, oliy maktablarning rektorlari har bir o'quv korpusida, har bir yotoqxonada o'qish va dam olish sharoitlari uchun shaxsan javobgardir.

Bu borada aniq chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqib, amalga oshirila boshlandi. 49 ta studentlar yotoqxonasida qariyb 4 million so'm sarflab kapital remont qilindi. Bu esa 1988-yildagiga nisbatan to'rt barobar ko'pdir. Qator oliy maktablarda imtiyozli ovqatlanish joriy etildi. Yotoqxonalar yetishmasligi tufayli xususiy kvartiralarda yashashga majbur bo'layotgan studentlarga yanvar oyidan xarajatlarni qoplash uchun pul to'лана boshlandi.

Ammo bularning hammasi dastlabki qadamlar bo'lib, asosiy muammolarni hal etmaydi. Xalq ta'limi butun sistemasini va uning moddiy bazasini tubdan qayta qurish talab qilinadi. Respublika hukumati Toshkent shahar ijroiya komiteti, Xalq ta'limi ministrligi yoshlarni o'qish, dam olish, madaniyat va sport bilan shug'ullanish uchun zarur sharoitlar bilan ta'minlaydigan tarmoq programmasini ishlab chiqsinlar. Kompartiya Markaziy Komiteti bu muammoni alohida nazorat ostiga oladi.

Katta shahar hayoti — bu faqat uy-joy va sotsial, madaniy-maishiy obyektlar, degan ma'noni bildirmaydi. Bu murakkab, ko'p planli shahar xo'jaligidir, odamlarning yaxshi kayfiyati va salomatligi uning aniq-puxta va bir maromda ishlashiga bog'liq.

Shaharning kommunal infrastrukturasi ko'p yillar mobaynida «qoldiq» prinsipi asosida shakllandi. Yangi qudratli korxonalar, yangi uy-joy kvartiraları, ishlab turgan injenerlik kommunikatsiyalari, energiya, issiqlik, suv, gaz ta'minoti manbalari, mavjud kanalizatsiya va transport tarmoqlarini kengaytirmay turib qurilaverdi. Shahar ma'murlarining beparvoligidan har bir kishi shahar xo'jaligiga kamroq hissa qo'shib, o'zining mahkamachilik manfaatları yo'lida ko'proq «yulib qolishga» intiladi.

Bunday talon-torojlik natijasida shaharning asosiy hayotiy muhim manbalari energiya inqirozi yoqasiga kelib qoldi. Uzilishlarga yo'l qo'ymaslik uchun favqu-lodda chora-tadbirlar ko'rish lozim. Shuning uchun ham Ministrlar Soveti, Davlat plan komiteti, tegishli ministriik va idoralar qabul qilingan qarorni shahar xo'jaligini tubdan ta'mirlashga qaratilgan katta tadbirlar bilan shoshilinch tartibda to'ldirishlari, har qanday tasodiflarga barham berish maqsadida mustahkam asoslarni va manhalarni yaratishlari zarur.

Respublika Davlat plan komiteti va Moliya ministrligi tomonidan Toshkent shahrini o'z vaqtida materiallar va mablag' bilan ta'minlash hamda remont-qurilish tashkilotlarini mashina va mexanizmlar bilan jihozlash masalasiga doimiy e'tibor qaratilishi lozim.

Transport xizmati va yo'l qurilishi eng tang joylardan biridir. Yog'ib o'tgan qorlar shuni ko'rsatdiki, bizdagi transport oqimi tomirda qon quyulib qolgani-dek, uning normal ishlashini ta'minlamayapti. Transport xizmatlari va yo'l qurilishi tubdan ta'mirlanib, yangilanishi kerak. Ammo tirnoqni etdan ajratib bo'lmaydi. Bu, ayniqsa, poytaxtimizning Eski shahar qismiga taalluqlidir. Bu yerda tarkib topgan uylar

joylashishini va asosiy ko'chalar yo'nalishini saqlab qolish zarur. Ana shu va boshqa masalalarda birorta ham qaror mahalla komitetlarining fikri va roziligini inobatga olmasdan turib qabul qilinmasligi kerak.

Keskin tus olgan ekologiya muammosini hal etishda jamoatchilikning roli yanada oshib bormoqda. U shahar normal ichimlik suvi va sof havodan mahrum bo'lishi mumkin, deb to'g'ri bong urmoqda.

Chirchiqda juda katta ximiya kompleksi qurilishi to'g'risida xato qaror qabul qilinishi o'nglab bo'lmas zarar keltirmoqda. Bu bilan shahar havosini o'zimiz bulg'amoqdamiz.

Bu masalalarni hal etish, hal etganda ham tubdan hal etish zarur. Bu yerda chala-chulpa tadbirlar yaramaydi. Suv va havo havzalarini bulg'ovchi asosiy inshootlarni shaharning turarjoy zonalaridan tashqariga olib chiqib ketish to'g'risida qarorda belgilangan chora-tadbirlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlash zarur. Charm-mo'yna zavodi, SSSR Rangli metallurgiya ministrligining metallga dastlabki ishlov beradigan va ikkilamchi aluminiy eritadigan sexi, ayrim avtomobil korxonalari va bazalar shular jumlasidandir. Tabiatni muhofaza qiluvchi sanitariya xizmatlari shahardagi barcha korxonalarni ekologiya jihatidan hujjatlashtirish, tozalash inshootlariga, chiqitsiz texnologiyalarga doir mukammal chora-tadbirlarni aniqlash, tegishli protokollar muddatini belgilash va imzolash ishlarini yanada kengroq olib borishlari lozim. Qabul qilingan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda bunday korxonalar so'zsiz to'xtatilib, yopib qo'yiladi va boshqa ixtisosga o'tkaziladi. Aviatsiya birlashmasining zararli oqovalari metroga tushib, «Chkalov» stansiyasini ikki oycha ishdan chiqargani kabi hollarga

mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Biz odamlar salomatligini, bolalarimizning kelajagini xavf ostiga qoldirishga haqqimiz yo'q. Shaharda turmush sharoiti sog'lom va xavfsiz bo'lishi kerak. Mazkur masalalarda jamoatchilikning faolligini har jihatdan ma'qullash zarur. Jamoatchilikning sog'lom, xolis va talabchan grajdanlik pozitsiyasigina ko'pgina o'zboshimcha ma'murlarni hozirgi va kelajak avlodga qimmatga tushayotgan qarorlarni o'ylamasdan qabul qilishdan to'xtatib qolishi mumkin.

Katta shaharning normal turmushini aniq-puxta oziq-ovqat ta'minotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Magazinlar va bozorlardagi ahvol mehnatkashlarning, butun Toshkent ahlining haqli ravishda noroziligini tug'dirmoqda. Agar aholini sut-go'sht mahsulotlari bilan ta'minlashdagi uzilishlarni bir amallab tushuntirib berish mumkin bo'lsa, janubdagi shahrimiz bozorlarida meva va sabzavotlarning narxi Sibir hamda Uzoq Sharq darajasida ekanligini mutlaqo oqlab bo'lmaydi. O'tgan davr mobaynida shahar ahli aholini meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlash va ularning narxi borasidagi keskinlik bir qadar yumshaganligini ta'kidlamoqda, lekin bu sira-sira qoniqarli emas.

Masalani bir qadar yengillashtirish uchun respublika matlubot kooperatsiyasi Toshkent shahrining barcha rayonlarida meva-sabzavot bozorlari uyushtirdi, bunday bozorlarda 30 ming tonnadan ko'proq qishloq xo'jalik mahsuloti sotildi. Bundan tashqari, «O'zbek-birlashuv», shahardagi tegishli idoralarning kuch-g'ayrati bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarini kelishilgan narxlarda sotadigan 53 ta do'kon qisqa muddatda qurilib, foydalanishga topshirildi. Meva va sabzavotni saqlash va qayta ishlash bazasini mustahkamlash uchun

katta tadbirlar ko'rilmoqda. Xitoy Xalq Respublikasidan qo'shimcha tarzda kartoshka sotib olindi.

Kuni kecha respublika hukumati shaharni oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida maxsus qaror qabul qildi. Vaziyatni tubdan o'zgartirish uchun keng miqyosli tadbirlar belgilandi. Respublika poytaxti aholisi uchun mahsulot yetkazib berishga to'la ixtisoslashgan xo'jaliklar ikki barobar ko'payadi. Bu Toshkent oblastidagina emas, boshqa bir qancha oblastlarga ham taalluqlidir. Ammo, Toshkent va poytaxt oblasti o'rtasidagi mustahkam o'zaro hamkorlik asosiy omil bo'lib qolaveradi. Bu faqat oziq-ovqat ta'minoti, yer ajratib berishgagina emas, barcha sohalarga ham taalluqlidir. Biz hammamiz shahar oblastsiz, oblast esa shaharsiz yashay olmaydi, degan oddiy haqiqatni tushunib olishimiz kerak. Manfaatlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish emas, balki kelishib olingan o'zaro foydali hamjihatlik oblastning ham, shaharning ham manfaatlariga xizmat qiladi. Kengroq ma'noda gapiradigan bo'lsak, bu respublikaninggina emas, umuman butun mamlakatning barcha oblastlari va mintaqalariga daxldordir.

Shaharliklarga bog'dorchilik-uzumchilik uchun ajratib berilayotgan uchastkalarining ko'payib borayotgani oziq-ovqat ta'minotini ancha yaxshilashga va kishilarning bo'sh vaqtini foydali ishlarga sarflashga, odamlarning salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi, uchastka olish uchun berilgan arizalarning hammasi shu yil qondirilishi kerak.

Toshkent bo'yicha qabul qilingan qarorda belgilangan tadbirlar har jihatidan to'la-to'kis va keng ko'lamli bo'lishi bilan birga, ular moliyaviy va moddiy-texnik ta'minot jihatidan ham prinsipial yangi

yondashuvlar bilan farq qiladi. Ilgari avval besh yillik va yillik planlar tasdiqlanar, keyinchalik esa kinga nima qolgan bo'lsa o'shani oladi, degan qoldiq prinsipiga ko'ra, mintaqalar va programmalarga o'sha planlarda belgilangan resurslar taqsimlanar edi. Biz bunday usuldan voz kechdik.

Mazkur holda biz boshqacharoq pozitsiyalardan yondashdik. Mutaxassislar va jamoatchilikni jalb etib, «faryod ko'tarayotgan» shaharlarning muammolari va ehtiyojlarini o'rganib tahlil etdik. Darhaqiqat, bu muammolarni hal etishni nari surib qo'yish mumkin emas va bu muammolarni chalakam-chatti, yamoqni yamagandek emas, balki o'n yilliklar, asrlarni mo'ljallab tubdan, asosli tarzda hal etish kerak. Poytaxtimizning kelajagi oldidagi burch va mas'uliyatimiz bizni shunga undaydi. Butun respublika ahli shunday yondashuvni qo'llab-quvvatlashiga va belgilangan programmani amalga oshirishda juda faol qatnashishiga aminman. O'zbekistonning har bir grajdani Toshkentni o'ylab yuragi achishsa, o'z poytaxti haqida g'amxo'rlik qilsa, ona shahrimiz bilan faxrlansa, poytaxtimizni butun xalqimiz, butun respublikamizning go'zalligi va aql-zakovatining ramziga aylantirishni chin ko'ngildan istasa — ana shundagina bu ish muvaffaqiyatli yakunlanadi.

Bu hukumat, Davlat plan komiteti, Moddiy-texnika ta'minoti davlat komiteti, barcha ministrliklar va idoralar zimmasiga, oblast va shahar partiya va sovet organlari zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Ular shaharni tubdan qayta qurishni ta'minlash uchun barcha moliyaviy va moddiy-texnika resurslarini qidirib topishlari shart...

Qayta qurishni boshlaganimizda, biz olgan ishonch yorlig'ining muddati tugab qoldi. Hadeb o'tmishni tan-

katta tadbirlar ko'rilmoqda. Xitoy Xalq Respublikasidan qo'shimcha tarzda kartoshka sotib olindi.

Kuni kecha respublika hukumati shaharni oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida maxsus qaror qabul qildi. *Vaziyatni tubdan o'zgartirish uchun* keng miqyosli tadbirlar belgilandi. Respublika poytaxti aholisi uchun mahsulot yetkazib berishga to'la ixtisoslashgan xo'jaliklar ikki barobar ko'payadi. Bu Toshkent oblastidagina emas, boshqa bir qancha oblastlarga ham taalluqlidir. Ammo, Toshkent va poytaxt oblasti o'rtasidagi mustahkam o'zaro hamkorlik asosiy omil bo'lib qolaveradi. Bu faqat oziq-ovqat ta'minoti, yer ajratib berishgagina emas, barcha sohalarga ham taalluqlidir. Biz hammamiz shahar oblastsiz, oblast esa shaharsiz yashay olmaydi, degan oddiy haqiqatni tushunib olishimiz kerak. Manfaatlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish emas, balki kelishib olingan o'zaro foydali hamjihatlik oblastning ham, shaharning ham manfaatlariga xizmat qiladi. Kengroq ma'noda gapiradigan bo'lsak, bu respublikaninggina emas, umuman butun mamlakatning barcha oblastlari va mintaqalariga daxldordir.

Shaharliklarga bog'dorchilik-uzumchilik uchun ajratib berilayotgan uchastkalarining ko'payib borayotgani oziq-ovqat ta'minotini ancha yaxshilashga va kishilarning bo'sh vaqtini foydali ishlarga sarflashga, odamlarning salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi, uchastka olish uchun berilgan arizalarning hammasi shu yil qondirilishi kerak.

Toshkent bo'yicha qabul qilingan qarorda belgilangan tadbirlar har jihatidan to'la-to'kis va keng ko'lamlil bo'lishi bilan birga, ular moliyaviy va moddiy-texnik ta'minot jihatidan ham prinsipial yangi

yondashuvlar bilan farq qiladi. Ilgari avval besh yillik va yillik planlar tasdiqlanar, keyinchalik esa kimga nima qolgan bo'lsa o'shani oladi, degan qoldiq prinsipiga ko'ra, mintaqalar va programmalarga o'sha planlarda belgilangan resurslar taqsimlanar edi. Biz bunday usuldan voz kechdik.

Mazkur holda biz boshqacharoq pozitsiyalardan yondashdik. Mutaxassislar va jamoatchilikni jalb etib, «faryod ko'tarayotgan» shaharlarning muammolari va ehtiyojlarini o'rganib tahlil etdik. Darhaqiqat, bu muammolarni hal etishni nari surib qo'yish mumkin emas va bu muammolarni chalakam-chatti, yamoqni yamagandek emas, balki o'n yilliklar, asrlarni mo'ljallab tubdan, asosli tarzda hal etish kerak. Poytaxtimizning kelajagi oldidagi burch va mas'uliyatimiz bizni shunga undaydi. Butun respublika ahli shunday yondashuvni qo'llab-quvvatlashiga va belgilangan programmani amalga oshirishda juda faol qatnashishiga aminman. O'zbekistonning har bir grajdani Toshkentni o'ylab yuragi achishsa, o'z poytaxti haqida g'amxo'rlik qilsa, ona shahrimiz bilan faxrlansa, poytaxtimizni butun xalqimiz, butun respublikamizning go'zalligi va aql-zakovatining ramziga aylantirishni chin ko'ngildan istasa — ana shundagina bu ish muvaffaqiyatli yakunlanadi.

Bu hukumat, Davlat plan komiteti, Moddiy-texnika ta'minoti davlat komiteti, barcha ministrlklar va idoralar zimmasiga, oblast va shahar partiya va sovet organlari zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Ular shaharni tubdan qayta qurishni ta'minlash uchun barcha moliyaviy va moddiy-texnika resurslarini qidirib topishlari shart...

Qayta qurishni boshlaganimizda, biz olgan ishonch yorlig'ining muddati tugab qoldi. Hadeb o'tmishni tan-

qid qilaverish davri, umumiy va'dalar berish davri o'tib ketmoqda. Amaliy ishlar kerak, har bir kishi o'z oilasi, qarindosh-urug'lari timsolida hayoti yengillashayotganini his etishi uchun birinchi qadamlar, kichikroq bo'lsa ham, ammo konkret natijalar zarur...

Biz xalq bilan maslahatlashmasdan kabinetlarda to'qib chiqarilgan respublika xalq xo'jaligi territorial va tarmoq boshqaruvi sxemalarini qat'iyon rad etamiz, bu sxemalar amalga oshirilib, taraqqiyotimizga g'ov bo'ldi. Bu boradagi ko'p ishlar, jumladan, «Glavtashkentstroy»ga daxldor ishlar hozirgacha bajarilgan, buni siz yaxshi bilasiz. Faollar yig'ilishi qatnashchilariga, respublika jamoatchiligiga shuni ma'lum qilib qo'ymoqchimanki, yaqinda O'zbekiston Markaziy Komitetida respublika komissiyasining xulosalari va takliflari ko'rib chiqildi hamda Jizzax va Sirdaryo oblastlarini ilgari chegaralarida tiklash maqsadga muvofiq deb topildi.

Biz yaqinda bo'lajak Navro'z bayramini an'anaviy bayram sifatida nishonlash to'g'risidagi masalani muhokama qildik. Har jihatdan diqqat-e'tibor bilan muhokama qildik, «qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarilgan», o'zboshimchalik bilan zararli, xalqqa begona qarorlar qabul qilingan, an'analarimiz, urf-odatlarimizning asriy negizlari oyoqosti qilingan o'tmish davr saboqlarini hisobga oldik.

Avvalo, odamlarning, butun xalqimizning ko'pdan ko'p istak va talablarini hisobga olib, biz bu yil Navro'zni yangichasiga, katta umumxalq bayrami sifatida tantana bilan o'tkazish haqida qaror qabul qildik.

1. 21-mart ishlanmaydigan kun, deb e'lon qilindi.

2. Komissiyalar hozirning o'zidayoq ish boshlab yubordi, mazkur komissiyalar ishiga xalq uchun juda

aziz va sevimli bo'lgan bu milliy bayramning rangorang, jo'shqin o'tishi va unga asrlar davomida orttirilgan fayz-tarovatni baxshida etishga qodir bo'lgan juda hurmatli, jonkuyar kishilar jalb etiladi.

Siz bu masala xususidagi tashabbusimizni qo'llab-quvvatlaysiz, bu kunni ko'p millatli respublikamizning poytaxti bo'lgan Toshkent ahli bir yoqadan bosh chiqarib bayram qiladi va uni inoq baynalmilal vaziyatda, chin dildan, samimiyat va ochiq ko'ngillilik bilan o'tkazadi, deb o'ylayman. Bu bizga kuchlarni yanada jipslashtirish uchun xizmat qiladi, kuchlarni jipslashtirish esa hozir bizga har qachongidan ko'ra zarurdir. Bu — bugungi davrning qat'iy da'vatidir.

Yaxshi qo'shniçilik, izzat-ikrom, o'zaro yordam xalqimizning juda muqaddas an'analaridan biridir. Muqaddas so'zini tilga olib turganimiz ma'qul. Biz hozir mahalla hayotida, mahalla jamoatchiligining, garchi ba'zan ko'zga chalinmasa-da, ammo qunt bilan qilayotgan juda zarur va muhim faoliyatida to'la mujassam bo'layotgan xalq an'analarini asrashimiz va ko'paytirishimiz kerak.

Mahalla ahli o'z dahalari va rayonlarini obod qilib, mushtarak ehtiyojlar uchun odamlarni jipslashtirib, shodlik kunlarida ham, g'am-g'ussada ham bir-biriga madad berishdek an'analarni qo'llab-quvvatlab, oiladagi janjallar va boshqa mojarolarni bartaraf etib, yoshlarni kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ruhida tarbiyalab, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ma'naviy, ruhiy jihatdan asrab-avaylashdek juda muhim ishni ko'z-ko'z qilmay, ammo kun sayin qunt va chidam bilan amalga oshirmoqda. Barcha oqsoqollarimizga, mahallalarning faollariga katta rahmat, himmatlari uchun ta'zim bajo etamiz. Ular ona shahrimizni yana obod

va ko'rkam qilishdek ishda faol qatnashishlariga aminmiz.

Poytaxtimiz ishchilari, ziyolilari, yoshlari, Toshkentdagi barcha millatlarga mansub kishilar ona shahrimizni obod qilishdek bunyodkorlik ishida sobitqadamlik va ahillik bilan mehnat qilish namunasini ko'rsatadilar, Toshkentda va respublikamizda yashayotgan har bir kishining bugungi kuni va kelajagi manfaatlarini o'ylab, qo'yilgan maqsadlarga erishishda g'ayrat-shijoat ko'rsatadilar, deb ishonch bildirishga ijozat bergaysiz. Faollarga va shaharning barcha mehnatkashlariga ana shu oliyjanob, insonparvarlik ishida muvaffaqiyatlar tilayman.

*Toshkent shahar faollari yig'ilishida
so'zlangan nutqdan*

1990-yil 20-yanvar

ODAMLAR BIZDAN AMALIY ISHLAR, ANIQ NATIJALARNI KUTMOQDA

Hurmatli o'rtoqlar!

Sizlar bilan biz tashvishli, keskin va nihoyatda mas'uliyatli bir paytda, hayotimizda burilish qilinayotgan belgilovchi marrada yig'ildik. O'tgan yakshanbada O'zbekiston SSR xalq deputatlari va respublika xalq deputatlarining mahalliy Sovetlariga saylov bo'lib o'tdi. Ilgari hech qachon saylovlar mana shunday murakab, qizg'in vaziyatda o'tmagan edi, desak xato bo'lmaydi. Odamlar ham ilgari hech qachon o'zlarining shu qadar ko'p tashvish va umidlarini, talab va orzularini saylov bilan bog'lashmagan edi.

18-fevral — saylov kuni respublikada saylovchilarning 90 foizdan ko'prog'i qatnashdi. Ayrim okruglarda qonunga muvofiq takroriy ovoz berish va takroriy saylov o'tkazilishiga qaramay, barcha idoralar — O'zbekiston SSR Oliy Sovetidan tortib qishloq Sovetlarigacha, asosan, tuzildi. Yaqin kunlar ichida ular butun hokimiyatni o'z qo'llariga olib, yuksak va nihoyatda mas'uliyatli vazifalarni bajarishga kirishishlari kerak.

Ushbu majlisning maqsadi va mohiyati shundan iboratki, saylov yakunlari bo'yicha darhol hammamiz — turli pog'onalaridagi Sovetlarning deputatlari Toshkentda va oblastdagina emas, shu bilan birga, butun respublikada, butun mamlakatda odamlarni qiziqtirib, tashvishga solayotgan, sira ham kechiktirib bo'lmay-

digan g'oyat muhim, eng dolzarb masalalar xususida yana bir marta maslahatlashib olishimiz kerak. Bugun men iltimos qilardimki, kim qaysi lavozimda, vazifada bo'lishidan qat'i nazar, ularga qanday talablar, tanqidlar, noroziliklar bo'lsa, hammasini ochiq aytish kerak. Bugungi hokimiyat, rahbariyat olib borayotgan siyosat to'g'risida kimda qanday fikr bor: u yoqadimi bizga, yo'qmi, aytishni iltimos qilardim.

Deputatlikka har bir nomzodga saylovchilar bilan o'tkazilgan bir qancha uchrashuv va suhbatlarda ko'pdan ko'p nakazlar berildi, g'oyat xilma-xil iltimoslar, istaklar, boringki, talablar aytili. Deputatlikka har bir nomzod ham ana shu nakazlarni bajarish, o'z okrugidagi, mazkur joydagi biron-bir yetilgan masalani hal etish uchun qo'limdan kelgan hamma ishni qilaman, deb va'dalar berdi, zimmasiga majburiyatlar oldi. Uy-joy yoki yo'l, maktab yoki kasalxon, bolalar bog'chasi yoki magazin qurilishi bo'lmasin, odamlar bizga topshirgan aniq-ravshan muammolarning hammasi hal bo'lishini ta'minlash — o'z saylovchilarimiz oldidagi, butun xalq oldidagi burchimiz, muqaddas vazifamiz, g'oyat yuksak darajadagi mas'uliyatimizdir.

Ammo bugun, biz har birimizga saylovchilar nima ni aniq qilib aytganini yana bir marta eslatib qo'yish uchun yig'ilganimiz yo'q. Takror aytamanki, buni har bir deputat o'zining amaliy faoliyatida hal qiladi.

Gap shu haqda boryaptiki, birgalikda yig'ilishib, saylovchilarimizni, butun xalqni hammadan ko'proq nima hayajonga solayotgani, nimalar tashvishlantirayotganini hamjihatlik bilan aniqlab, uni har bir kishining ongiga yetkazish kerak. Markazda ham, joylarda ham har bir deputatga va butun hokimiyatga xalq

bergan asosiy nakazning siyosiy mazmuni haqida, uning axloqiy, umuminsoniy mohiyati to'g'risida gap boryapti.

O'rtoqlar!

Qaysi bir kitobda g'oyat ibratli rivoyatni o'qigan edim. Emishki, Amir Temur yarim jahonni zabt etib, olis o'rmon qabilalariga borib yetibdi, xullas, ularni ham o'ziga bo'ysundiribdi. Qaysar va jangari, ozod va samimiy bu qabila boshlig'i chorasizlik tufayli Temurga qurollarini topshirar ekan, quyidagi gaplarni aytibdi: «Ey, Amir! Sen bizni qurol kuchi bilan yenga olding. Biroq senga aytadigan shartlarimiz bor. Agar sen qassob bo'lsang, bizni so'yib tashla, agar sen savdogar bo'lsang, sotib yubor, agar podsho bo'lib kelgan bo'lsang — bizga baxt ato et!»

Bu rivoyatning sinfiy, tarixiy yo'nalishi ayni chog'da bizni qiziqtirayotgani yo'q. Bu hikoyatda ajoyib bir hikmat barq urib turibdi. **Ya'ni, elga peshvoman, deb o'rtaga chiqdingmi**, uning ishonchini qozondingmi — bu ishonchni endi asl vijdon bilan, pokiza faoliyat bilan oqlamoq kerak bo'ladi. Bu talabni eskichasiga aytsami, yangichasigami — baribir, mohiyati bir xil bo'lib qolaveradi. **Ya'ni, xalq vakili xalqning posboni, xalq rahbari bo'lib, xalqning issiq-sovug'idan xabardor bo'lg'uvchi sirdoshiga aylanishi shart.**

Hozirgi vaziyatda bunday talab, ayniqsa, muhim bo'lib, kishini hayajonga soladi. Voqealar tezlik bilan o'zgarayotgani, deyarli har narsada keskinlik kuchayib borayotgani, turli millatlarning vakillari o'rtasida o'zaro munosabatlar o'tkirlashib ketayotganini hammamiz sezib turibmiz. Har xil ijtimoiy guruhlarining o'zaro shubha-gumoni va bir-birini asossiz ravishda ayblashlari ortib borayotgani, odamlar toshbag'ir bo'lib qolayotganini ham ko'rib turibmiz. Oldin odamlar **«yashash**

qiyin bo'lib qoldi» desa, hozirgi hayotda «yashash dahshatli bo'lib qoldi» degan ibora paydo bo'lganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Shu boisdan bugungi maqsad odamlarni tashvishlantirayotgan eng asosiy masalalar haqida ayni mana shunday nufuzli anjumanda ro'yirost gaplashib olish: **nimalar sodir bo'lyapti, biz qayoqqa qarab ketyapmiz, degan hayajonlantiruvchi savollarga javob qaytarishimiz nihoyatda zarurdir. Vaziyatni yumshatish va barqarorlashtirish, xavotirlik va keskinlikka barham berish, har bir kishida o'z oilasining bugungi kuni va kelajagiga ishonch uyg'otish uchun biz – oliy vakolatlar berib qo'yilgan va yuksak mas'uliyatli xalq deputatlari nimalar qilishimiz kerakligini belgilab olishimiz zarur.**

Eng avvalo, o'zimizga shunday savol berishimiz kerak: har bir fuqaro, har bir inson, oila boshlig'i hokimiyatdan nimani kutyapti?

Barcha zamonlarga va xalqlarga xos bo'lgan eng asosiy, eng muhim, eng umumiy maqsadni aniqlaydigan bo'lsak, shuni to'la asos bilan aytish mumkinki, davlat paydo bo'lgandan buyon, inson o'zining xavfsizligini himoya qilishni, shaxsiy huquqlari va erkinliklari ta'minlanishini davlatdan kutadi, hokimiyatdan najot izlaydi. Hokimiyat shu tabiiy talablarga javob berolmasa, ochig'ini aytganda, bunaqa hokimiyat hech kimga kerak bo'lmaydi.

Shuning uchun, bugun har bir deputat, o'zining yuksak va mas'uliyatli vakolatlarini bajarishga kirishar ekan, o'ziga shunday savol berishi kerak: biz, hokimiyat namoyandalari va idoralari mana shu xavfsizlikni, erkinlikni, ana shu kafolatlarni ta'minlayapmizmi yoki yo'qmi? Agarda bu savolga har qanday asossiz

sabablarni niqob qilmasdan, halol javob qaytaradigan bo'lsak, u holda, vijdonan aytish kerakki, hokimiyat insonga ana shu asossiz huquqlar va shart-sharoitlarni ta'minlab bera olishga kun sayin tobora zaiflik qilyapti.

Bizning saylovchilarimiz, oddiy kishilar shunday bir haqqoniy savol bermoqda: mitingbozlikdan iborat safsataboqliklar va ommaviy tartibsizliklar, iqtisodiy va ijtimoiy ag'dar-to'ntarlar, millatlararo janjallar va ijtimoiy mojarolar, insonlarning qurbon bo'lishi va ur-yiqitlar **nahotki qayta qurishning muqarrar yo'ldoshlari-yu kamchiliklari bo'lsa? Jamiyatimizni inqilobiy tarzda yangilashdan iborat partiya e'lon qilgan siyosatdan xalq shuni kutganmidi, axir! Yo'q, buni kutmagan edi, albatta.**

Biroq Kavkazortida, Farg'onada, Dushanbeda, boshqa bir qancha mintaqalarda, kuni kecha Bo'ka rayonida ro'y bergan tartibsizliklar hayotimizda sodir bo'lyapti-ku. Modomiki, shunday ekan, agar biz — xalq vakillari shunday fojialarning oldini ololmas ekanmiz, xalq qayta qurishni boshlay turib, hokimiyatga bildirgan ishonch tezlik bilan tugab boraveradi. **Qayta qurish odamlar orzu qilgan narsalarni, qayta qurishdan iborat o'zgartishlar yo'lida ularga va'da qilingan narsalarni berishiga tobora kamroq kishilar ishonmoqdalar. Odamlarning ishonchi va e'tiboridan mahrum bo'lish esa, har qanday hokimiyat uchun halokatdir. Hamisha shunday bo'lgan, hayot qonuni shunday!**

Odamlar biron-bir talab-ehtiyojini — xoh go'sht yoki qand-shakar, spirtli ichimlik yoki sovun bo'lsin, shu narsalar bilan ta'minlashdagi qiyinchiliklarni ma'lum bir vaqtgacha tushunishlari, bunga qanoat qilib turishlari mumkin. Ammo ular o'zlarining xavfsizligi-

dan mahrum bo'lganligini tushuna olmaydi, bunga toqat qila olmaydi. Oilaning, farzandlarning, yaqin kishilarining hayoti va sog'lig'i, uy-joyning daxlsizligi va saqlanishiga, necha o'n yillar mobaynidagi mehnat tufayli orttirilgan bisotning bus-butun qolishiga hech narsa kafolat bermasa, bezori, ekstremist guruhlarining tazyiqi ostida vayron bo'lsa, ma'murlar inson shaxsi va hayotining daxlsizligini ta'minlashmasa, buni birona ham sofdil, vijdonli kishi qabul qilmaydi va qabul qilishi ham mumkin emas.

Hozir asabi zaif ba'zi kimsalar ig'vogarlikdan iborat mish-mishlarga berilib, vahimaga tushib, haddidan oshishga borib yetmoqda, qandaydir favqulodda holat e'lon qilishni, Toshkentga, oblast shaharlari va rayonlariga soldatlar kiritishni taklif etmoqda. Shunday vahimali kayfiyatdagi kishilar ham borki, ular har bir uy va kvartira oldida qo'lga avtomat tutgan harbiy xizmatchi navbatchilik qilib turishini istaydi.

Bu xususda nima deyish mumkin? **Har qanday hokimiyat qonunni, tartibni, insonlarcha yashash normalarini hurmat qilib, ularga bo'ysunishga har bir g'alamisni majbur etish uchun kuchga ega bo'lgan taqdirdagina uni hokimiyat desa bo'ladi, albatta. Siz, aziz o'rtoqlarni ishontirib aytishim mumkinki, tartibsizliklar va ur-yiqitlarga yo'l qo'ymaslik uchun yetarli kuchimiz bor.**

Ammo sog'lom fikrlovchi har bir kishiga, ayniqsa, odamlarning ishonchiga sazovor bo'lgan va katta vakolatlar berib qo'yilgan deputatlarga shu narsa ravshan bo'lishi kerakki, o'z xalqini soldatlar panohida, avtomatlar o'qtalib turib boshqarish mumkin emas. **Bunday qilish g'irt nodonlikdir. Biz o'z faoliyatimizda shuni yaxshi tushunishimiz kerak — ko'chalarda, qishloq-**

larda, shaharlarda tartibbuzarlar ham o'zimizdan chiqqan shaxslar, odamlar bo'ladi. Biz ular bilan birga yashashimiz, yetilgan barcha muammolarni ular bilan birga hal qilishimiz kerak. Demak, biz tashabbusni o'z qo'limizga olishimiz, ommaning g'ayrat-shijoatini bunyodkorlik yo'liga burib yuborishimiz, odamlarni huquqqa zid xatti-harakatlardan to'xtatib qolishimiz lozim. Bu bizning eng birinchi va juda mas'uliyatli burchimizdir, chunki xalq hokimiyatni bizga ishonib topshirdi, bizni deputat qilib sayladi.

Ana shu vazifalar va muammolarni bir yerga jamlab, bugun ishimizni to'g'ri tashkil etish, faoliyatimizning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish uchun avvalambor qanday ishlarga e'tibor berishimiz zarur?

Birinchidan. Xalq hokimiyati organlari, xalq saylab qo'ygan va to'la huquqli vakil bo'lmish har bir deputat doimo, har kuni va har soatda mehnatkashlarning ehtiyojlari, tashvish va manfaatlari bilan yashagan, o'zlarining barcha ish va rejalarida xalq bilan, har bir shahar va rayonda, qishloqda, korxonada va xo'jalikda, mehnat kollektivi va har bir mahallada aholining barcha qatlamlari bilan bir jon, bir tan bo'lib chambarchas bog'langan taqdirdagina o'zlarining mas'uliyatli burchini muvaffaqiyatli bajarib, o'z oldidagi katta vazifalarni uddalay oladi.

Gap kuchlarni jipslashtirish to'g'risida, davlat idoralarining aholi bilan, barcha jamoat tashkilotlari va fuqarolarning uyushmalari bilan, takror aytamanki, qonunni buzmayotgan, muammolarni hal etishga, odamlarning turmushini yaxshilashga, vaziyatni barqarorlashtirishga astoydil ko'maklashishni istayotganlarning hammasi bilan bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish kerakligi to'g'risida boryapti. O'zaro

dushmanlikka, yovuzlik va zo'ravonlikka, har qanday belgilarga qarab inson huquqlari kamsitilishiga qarshi kurashayotganlarning hammasi bilan bir safda turib ish ko'rish kerakligi to'g'risida gap boryapti. Bu yerda biz hammamiz mehnat kollektivlarining vakillari bilan, kasaba uyushmalari va yoshlar jamoatchiligi bilan hamkorlik qilishning yangi shakllarini topishimiz kerak.

Darhaqiqat, bundan buyon hamkorlik, insonparvarlik, mehr-shafqat o'rmini qarama-qarshilik, dushmanlik, o'zaro qahr-g'azab egallashiga yo'l qo'yishga haqqimiz yo'q. Bizning bundan buyongi hayotimiz qanday tarkib topishidan qat'i nazar, avvalambor, intizom va qattiq tartib bo'lishi kerak, shundan keyingina uning asosida boshqa hamma narsalarga erishish mumkin.

Agar biz, xalq shunday vakolatlar va huquqlar berib qo'ygan kishilar, tartib o'rnatmas ekanmiz, xalqimiz o'zi tartib o'rnatishga kirishishidan boshqa iloj qolmaydi. Juda ko'p joylarda, asosan, ko'p rahbarlar xalqimiz to'g'risida gapirganda, xalqimiz juda og'ir, juda yuvosh, qo'yday muloyim, deb ko'p fikr yuritadi. Shularga qarata aytish kerakki, agar xalqimiz g'azablansa, u o'zining juda ham yuvosh emasligini bildiradi, albatta. Ulug' shoirimiz Abdulhamid Cho'lpon bejiz yozmagan edi:

Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir.

Xalq isyondir, xalq olovdur, xalq o'chdir...

Xalq qo'zg'alsa, kuch yo'qdir, kim to'xtatsin,

Quvvat yo'q, kim xalq istagin yo'q etsin.

Ikkinchidan. Respublikada odamlarning hayot ta'minoti muammolari yig'ilib qoldi va ular nihoyatda o'tkir tus oldi.

Fuqaro hokimiyatdan kutayotgan ikkinchi bir narsa bor, u ham bo'lsa, ishlab chiqarish va taqsimot shunday tashkil etilishi kerakki, har bir odam ishga, uy-joyiga ega bo'lsin, oziq-ovqat, kiyim-kechak, normal turmush va dam olish, farzandlarni tarbiyalash uchun mablag' ishlab topa oladigan bo'lsin, agar barcha nakazlarning ikkinchi turkumini umumlashtiradigan bo'lsak, ular ayni mana shunga kelib taqaladi: nihoyat, magazinlarda insonlarning yashashi uchun zarur narsalar turishi, halol mehnat bilan ishlab topilgan pulga eng oddiy narsalarni haqoratsiz, navbatlarda uzoq turib qolmay, sotib olish mumkin bo'lishi uchun bozorlarda chayqov narxlari emas, balki normal narxlar amal qilishi kerak.

Shuni yodda tutish juda muhim: insonparvarlik, insoniy sotsial adolat prinsiplari o'zini barcha zarur narsalar bilan doimo ta'minlashga qodir bo'lmagan kishilar davlatdan, jamiyatdan, mehnat kollektivlari va jamoat tashkilotlaridan yordam olib turishini talab qiladi.

Serfarzand kambag'al oilalar, ko'p bolali onalar, hali o'zini o'nglab olmagan yoshlar, pensionerlar, nogironlar, yolg'iz keksa kishilar shular jumlasidandir. Bunda bizning juda ko'p o'tkir, nosog'lom muammolarimiz bor. Men bu boradagi raqamlarni necha martalab aytib o'tganman, bugun esa faqat bitta raqamni takrorlamoqchiman — 9 million kishi yoki respublika aholisining 45 foizi jon boshiga hisoblaganda oyiga 75 so'mdan kamroq daromadga ega, bu esa kun kechirish uchun zarur bo'lgan eng past darajani ham ta'minlamaydi.

Xalq saylab qo'ygan kishilar sifatida, hokimiyatning muxtor vakillari sifatida, biz mana shu masala-

larni hal qilish uchun chinakamiga kirishishimiz kerak. Biz turg'unlik yillarini, avvalgi rahbarlarning xatolarini ro'kach qilib, shu masalalardan bo'yin tovlay olmaymiz, ulardan yashirina olmaymiz, bunday qilishga haqqimiz yo'q. Endilikda kishilar bizdan, yangi saylangan xalq deputatlaridan mana shuni kutmoqda. Ular biz safsatabozlik va gap-so'zlar, majlisbozlik bilan emas, balki aniq-ravshan natija beradigan ish bilan shug'ullanishimizga ishonmoqda va shunga umid qilmoqda. Agar shunday qilmasak, xalq bizga ishonmay qo'yadi.

Bugun ba'zi bir siljishlarni, ishlab chiqarishning o'sishini ta'riflovchi ayrim raqamlarni, ba'zi ko'rsatkichlarni keltirish mumkin edi. Ammo hozirgi paytda bunday yalpi yondashish to'g'ri kelmaydi. Qandaydir muhim protsentlar emas, balki odamlarning turmushi amalda yaxshilanishi kerak...

Respublikaning moliyaviy ahvoli va uning iqtisodiy mustaqilligi kuchayib borishiga qarab ana shu maqsadlar uchun mablag'lar ham ko'proq ajratila beradi. Ammo mazkur muammolarni hal etishda davlat budjetining o'zigagina ko'z tikib turish noto'g'ri bo'lur edi. Korxonalar, tashkilotlar va xo'jaliklarning mablag'lari ham foydalanish lozim bo'lgan g'oyat katta rezervdir. Davlat korxonasi to'g'risidagi qonunga muvofiq xo'jalik mustaqilligi sharoitida ishlayotgan mehnat kollektivlari endilikda o'zlarining muhtoj a'zolariga yordam berish uchun, onalarga, veteran pensionerlar va boshqalarga qo'shimcha haq belgilash uchun hamma imkoniyatlarga ega.

Hozirgi paytda 800 dan ko'proq kolxoz, 50 ta sovxoz va 85 ta sanoat korxonasi o'z mablag'lari hisobidan onalarga, veteran pensionerlarga qo'shimcha haq

belgilab qo'ygan. Bizga ma'lumki, «Krasnoxolmsk-geologiya» birlashmasida, «Teploproyekt» institutining O'rta Osiyo birlashmasida, «Chirchiqximmash», «Uzelektroterm» zavodlarida, Toshkent rayonidagi K. Marks nomli kolxozda va boshqa ko'pgina joylarda anchagina qo'shimcha haqlar joriy etilgan.

Hammangizga ma'lum bo'lgan «Sovplastital» birlashmasini olib ko'ring. Bu yerda o'tgan yilning o'zidayoq korxonada 5 yildan 10 yilgacha ishlagan odamlarga pensiyaga chiqish paytida har oyiga 30 so'm, 10 yildan 15 yilgacha ishlaganlarga 50 so'm, 15 yildan 20 yilgacha ishlaganlarga 75 so'm qo'shimcha haq to'lashga qaror qilingan.

Mana buni ishning ko'zini bilib, insonparvarlik bilan yondashish desa bo'ladi, buni deputatlar, barcha rahbarlar, mehnat kollektivlari kengashlarining a'zolari, keng jamoatchilik har jihatdan qo'llab-quvvatlashi lozim bo'lgan **savobli ishlarga namuna desa bo'ladi.**

Mana shu namuna muammolarni mitinglardagi minbarlarda turib, quruq safsatabozlik bilan emas, balki aniq-ravshan, sabotli, samarali, intizomli va foyda keltiradigan ish bilan hal qilish kerakligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Bu o'rinda bir narsaga e'tiboringizni jalb qilmoqchiman.

Xalqimiz taqdirini hal qiladigan mana shunday muammolarni yechish ishiga O'zbekistondagi hamma sog'lom kuchlarni da'vat etamiz.

Hammamizga ma'lumki, bunaqa ko'p yillar davomida to'planib turgan jumboqlarni hal qilish oson emas.

Shuning uchun hayotimizga yengil ko'z bilan qarayotgan, ba'zi bir safsata gaplarni tarqatayotganlar, shu jumladan, «Birlik» uyushmasining ayrim rahbarlarining gaplarini eshitib, hayratda qolasan kishi.

Go'yoki, paxta yakkahokimligini tugatish va uning narxini oshirish to'g'risida ular birinchi bo'lib gap ko'targan emish. Shunga bag'ishlab mitinglar o'tkazilgandan keyin va SSSR Ministrlar Sovetining raisi N.I. Rijkov bilan uchrashilgandan keyin bu masala o'z **yo'li bilan hal bo'lib qolgan emish**. Nima sababdan bu masalaning orqasida qancha ming mutaxassislar ter to'kkani, qishloq xo'jalik xodimlari va rahbarlari shu masalani yechish uchun qanchadan qancha ishlarni bajargani hisobga olinmas ekan? Axir, bu kulgili gaplar emasmi? Agar mitinglar orqali xalqimizning hamma jumboqlari va muammolari yechiladigan bo'lsa, hayoti osoyishta va farovon bo'lsa, men o'zim birinchi bo'lib miting va namoyishlarning qatnashchisi bo'lur edim va boshqalarni ham shunga chaqirardim.

Paxtani terib topshirganlik uchun qo'shimcha haq joriy etilgani qishloq mehnatkashlarining ish haqiga, demakki, ularning kayfiyatiga ham yaxshigina ta'sir qildi. Hisob-kitoblar va tanlab o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, terimchi ayollarning ish haqi mavsum mobaynida 700—800 so'mdan 2,5—3 ming so'mgacha yetgan. Hammangizga ma'lum bo'lsa kerak, 1990-yil mavsumida paxta narxi har tonna uchun yana 100—110 so'mga ko'paytiriladi. Biz bu qo'shimcha haqni paxtaning haqiqiy xarajatlarini qoplovchi yangi narxlar belgilanishi yo'lida qo'yilgan muhim, ammo faqat birinchi qadam, deb bilamiz. Bu masala mamlakat hukumati oldiga qo'yilgan bo'lib, u batamom va eng maqbul tarzda hal etilmaguncha olib tashlanmaydi. O'zlaringiz bilasiz, yaqinda keng jamoatchilikning ishtiroki bilan shahar faollari yig'ilishida shahar xo'jaligini va respublika poytaxti Toshkent-

ning tarixan tarkib topgan qismini qayta tiklash va ta'mirlash dasturi muhokama etilib, qabul qilindi.

Xalqimizning milliy-madaniy talab-ehiyotlarini to'la-to'kis qondirish uchun ko'p ish qilinmoqda. Respublika Oliy Soveti O'zbekiston SSR territoriyasida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish to'g'risida Qonun qabul qildi. Jamoatchilik kuchlariga tayanib, mehnatkashlar tomonidan ma'qullangan yana bir qancha qarorlar, shu jumladan, an'anaviy xalq bayramlari, urf-odat va marosimlarni qayta tiklash to'g'risidagi qarorlar qabul qilindi.

Yaqinda dam olish kuni deb e'lon qilingan 21-martda Sharqdagi eng quvonchli bayramlardan biri Navro'zni butun xalq bilan birga bayram qilamiz.

Ko'rilayotgan choralar respublikada yig'ilib qolgan barcha muammolarni hal qilib qo'yadi, deb hisoblayotganimiz yo'q. Aksincha, bironta xayrli ishni bajargandan keyin xotirjam bo'lib, beparvolik qilish mumkin, deb o'ylayotgan kishilar katta xato qiladilar. Bu nihoyatda xatarli va zararli odat bo'lib, bunga yo'l qo'yishga bizning haqqimiz yo'q. Har kun va har soatda odamlar g'amini yeyish, ularning turmush sharoitlarini yaxshilashga erishish, to'planib qolgan muammolarni hal etish yo'llarini qadam-baqadam qidirib topish kerak.

Ammo buni hamma tushunib yetmaganligini amaliy ishlar ko'rsatib turibdi. **Ba'zi rahbarlarni dehqonlarga yer uchastkalari ajratib berishga tom ma'noda zo'rlik bilan majbur qilishga, qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishini ta'minlash uchun joylarga komissiyalar yuborishga to'g'ri keldi.** Bu masalalarda ayni poytaxt Toshkent oblasti eng ko'p qoloqlikka yo'l qo'yayotganligi bizni, ayniqsa, tashvishlantirmoqda.

Hozir bizning qo'limizda tahlil ma'lumotlari bor: ko'pgina rahbarlar bahor eshik qoqayotganini ko'rishni va shu yilning o'zidayoq tomorqalardan samara oladigan bo'lishlari uchun odamlarni ko'chat, urug'lik, navnihollar bilan ta'minlash kerakligini sira ham tushunishni istamayptilar.

Yakka tartibdagi qurilishga ssudalar ajratib berish, odamlarni qurilish materiallari bilan ta'minlash masalalariga deputatlar bilan keng jamoatchilik alohida e'tibor berib, nazorat qilib turishlari zarur.

Aynan shu va birinchi navbatda yosh avlod tarbiyasi, odamlarni ish bilan ta'minlash, tabiiy va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar deputatlardan doimiy e'tibor va amaliy yechimlar talab qiladi.

Bugungi kunda respublikamizda 1700 ta maktab vayron holda ekaniga chidab bo'ladimi? Qurilayotgan maktablar soni esa aholining ko'payish sur'atini arang qondirayapti. Sog'liqni saqlash ishlari bo'yicha mamlakatda eng oxirgi pog'onalardan birida ekanligimiz-chi?

Odamlarga oddiy ichimlik suvi yetkazib bera olmayotganimiz-chi? Amudaryo va Sirdaryo quyi oqimlarida yashayotgan 4 millionga yaqin aholining nihoyatda mushkul ahvoli-chi? Orol muammosidan butun O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari bezovta, besaranjom. Kasalliklar, bolalar o'limi, odamlarning tushkun ruhiyati, ertangi kun tashvishlari, xullas, juda ko'p boshqa muammolar-chi? Xalqimiz boshiga tushgan bu tashvishlarni chuqur his qilish, ularni bartaraf etish naqadar murakkab va zarur ekanini anglamoq uchun ko'p narsa kerak emas — bezovta yurak kerak, ochiq ko'z kerak.

O'rtoqlar!

Bu borada hech nima qilinmayotgan ekan-da, deyish albatta noto'g'ri bo'ladi. Harakat qilinyapti, rejalar ham katta. Lekin bu rejalar zaminida amaliy ishlar bo'lmog'i kerak. Odamlarning, ayniqsa, deputatlarning tashabbusiga ko'p narsa bog'liq. Bu vazifalarga butun xalqni safarbar etish zarur. Bu muammolarni keltirib chiqargan aybdorlarni qidirish uncha qiyin ish emas. Qiyini — ana shu og'ir ahvoldan qutulish uchun bor kuchdan samarali foydalanishdir.

Bu jarayonda bir narsaga e'tibor qilishimiz kerak: kimdir baqir-chaqir qilib ish ko'rsatganday bo'ladi, soxta obro' orttiradi. Busiz ham og'ir vaziyatni yanada keskinlashtiradi, kimdir esa sabot bilan bor aql-idrokini ishga solib, mehnat qiladi, mavjud kamchiliklarni tugatish yo'llarini qidirib-qidirib, oxiri topadi. **Demak, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratadigan payt keldi.**

Uchinchidan. Bu o'rinda shunday savol tug'iladi: o'lkamizdagi murakkab siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitni ko'rib-bilib turib, odamlarni gij-gijlab, har xil tartibbuzarlikka, miting va ish tashlashlarga chorlayotgan kimsalarning asl maqsadi nima? Bularni qanday tushunsa bo'ladi? Bo'ka rayonida yoshlarni yo'ldan urib, ularni g'ayriqonuniy ishlarga majbur etayotgan, millatlararo nizolarni kuchaytirayotgan, xalqlarning taqdiri bilan o'ynashayotgan kimsalarning tegirmoniga suv quyish degan narsa bu.

O'zingiz ko'rib turibsiz, qayerda rahbarlar o'z burchi va javobgarligiga loqayd bo'lsa, vaziyatni yaxshi bilmasa, o'sha joylarda to'polon bo'lyapti. Axir, Farg'onadagi, Kavkazdagi, Dushanbedagi voqealarda qanchadan qancha begunoh odamlar halok bo'ldi,

qancha yoshlarning hayoti, taqdiri chilparchin bo'ldi, qanchasi qamoqqa olindi. Ularning xonadonlari, oilalari-chi? Biz doim mana shu haqda o'ylashimiz kerak.

Yana bir marta takrorlab aytamanki, siyosiy, ma'naviy burchimizdan tashqari, eng avvalo, otalik burchimizni o'ylasak, farzandlarimizning taqdirini o'z manfaatlarini yo'lida qurbon qilayotganlarga befarq qarab turishimiz kerakmi?

To'rtinchidan. Respublikaning kelajagini o'ylagan har bir kishi, eng avvalo, ertangi kunda shu hayotni boshqaradigan yoshlarimiz taqdiri haqida qayg'urishi kerak. Shuning uchun har bir deputat, har bir rahbar, bugun jamoatning oldiga tushaman deb turgan har bir kishining qilayotgan ishi, bosayotgan qadami ana shu maqsadga qanchalik mosligi bilan baholanadi.

To'g'risini aytish kerak, so'nggi yillarda biz bu muhim vazifani unutib qo'ydik. Yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq ishlar — o'quv jarayoni bo'lsin, madaniyat va san'at bo'lsin, jismoniy tarbiya bo'lsin — hammasiga qolgan-qutgan mablag'lar sarflandi. Bu arzimas mablag'lar ham xalq xo'jaligining boshqa sohalari bilan solishtirganimizda doim eng oxirida ajratildi. Kimda-kim bugungi yoshlarimiz falon bo'lib ketdi, piston bo'lib ketdi deydi bo'lsa, eng avvalo o'zidan xafa bo'lishi, o'zini ayblashi kerak. **Ekkaningni olasan, deb bejiz aytmaydi xalqimiz.**

Shu bilan bir qatorda, juda muhim bir gapni ham aytmoqchiman. Ming rahmat o'z farzandlarini xalq va jamiyat manfaati yo'lida, asl insoniylik yo'lida tarbiya qilayotgan ota-onalarga, veteranlarga! Ularning mehnati bilan yurtimiz yoshlari xalqimizning qadimiy urf-odatlarini, odob-axloqini, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik, birovning og'irini yengil qilish

kabi ajoyib xislatlarini davom ettiryapti. Bu mening shaxsiy fikrim, boshqa joylarga solishtirmaylig-u, lekin bizning yoshlarimiz, ko'z tegmasin, yaxshi. Mana shu bebaho boyligimizni saqlab qolish, yoshlarimiz tarbiyasi uchun, ularning baxtli, to'kin, mazmunli hayoti uchun hech narsani ayamasligimiz kerak.

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda ziyolilarimizning o'rni alohida ekanligini e'tiborga olish kerak. **Qaysi rahbar, qaysi amaldor o'z obro'sini to'kmoqchi bo'lsa, u ziyolilar bilan orasini buzadi. Tarixda ham, hozirgi kunlarda ham bunga misol ko'p. Katta-kichik barcha amaldorlar ko'zlarini kattaroq ochib, ziyoli zotiga e'tibor bilan qarashni o'ziga sharaf deb bilmog'i kerak.** Hammaga ayon: ba'zan bir og'iz shirin so'z, qo'llab-quvvatlash ijodkorni juda katta ishlarga ilhomlantirishi mumkin.

Yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilmfanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishga sharoit tug'dirmay turib, biz respublikamiz xalq xo'jaligini, sanoat ishlab chiqarish sohalarini tubdan o'zgartira olmaymiz. Buni ham doim yodda tutish kerak. Chunki ishsizlik, maosh kamligi, mutaxassislar yetishmasligi va boshqa ko'p yetishmovchiliklar ana shundan, deb o'ylayman. Bu ketishda biz uchun yurtimizni sotsial-iqtisodiy va milliy rivojlantirishdek muhim vazifani tezroq amalga oshirish juda qiyin bo'ladi. Demak, xalq saylab qo'ygan deputatlarning birinchi gal-dagi vazifalaridan biri — yoshlarimiz tarbiyasi milliy siyosatini, harakat dasturini ishlab chiqish masalasidir. Bunga xalq maorifi sistemasini tubdan o'zgartirish, bolalar bog'chalari, maktablar, hunar-texnika bilim yurtlari, texnikumlar, oliy o'quv maskanlarining mod-

diy-texnik bazasini mustahkamlash, maxsus maktab-internatlarni ko'paytirish kabi ko'pgina murakkab vazifalar kiradi. Yoshlar tarbiyasi bilan bevosita mashg'ul bo'lgan, o'z umrini shu muqaddas ishga bag'ishlagan o'qituvchilarimizga e'tibor haqida esa gapirib o'tirmasa ham bo'ladi, deb o'ylayman. Biz hali ularga chinakam g'amxo'rlik ko'rsatayotganimiz yo'q. Bu masalani ham chuqur o'ylash kerak.

Yana bir narsani biz hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim: iste'dodli yoshlarga sharoit yaratish. Yaqinda biz mamlakatimizning eng yaxshi bilim markazlariga doktoranturaga o'qishga yuborilayotgan yoshlarning birinchi guruhi bilan uchrashuv o'tkazdik. Bu ish uchun har qanday mablag', hatto valuta ham ayamassligimizni aytdik.

Yana bir og'iz so'z yoshlarimizning harbiy xizmatni o'tashi haqida. Respublikamiz oblastlari ijroiya komitetlari ko'pgina harbiy okruglar bilan shartnomalar tuzib, o'sha joylarda xizmat qilayotgan farzandlarimizning hayotidan xabardor bo'lib turish, ularga yetarli sharoitlar yaratish chora-tadbirlarini ko'rmoqda.

Bu sohadagi eng dolzarb masalalardan yana biri — qurilish batalyonlarida xizmat qilayotgan yoshlarimizning og'irini yengil qilishdir. U yerlarda intizom, siyosiy-tarbiyaviy ishlar nihoyatda past darajada ekanligini bilamiz. Bizning muhokama uchun taklifimiz shunday: agar qurilish batalyonlarida xizmat qilish kerak bo'lsa, o'zimizda, juda bo'lmasa, O'rta Osiyo miqyosida ham qurilish ko'p. Bolalarimiz shu yerda xizmat qilishsin.

Bunday qaror ko'pchilik ota-onalarning talabiga javob beradi, deb o'ylayman.

Beshinchidan. Bugungi davrning murakkab imtihonlari nafaqat har bir kishining, balki butun-butun

xalqlarning siyosiy-ma'naviy xislatlarini, ularning butligini ham sinovdan o'tkazmoqda.

O'zbek xalqini qadimdan mehmondo'st, ochiq ko'ngil, jon qo'shni, pok niyatli xalq sifatida bilishadi.

Millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda biz o'z xalqiga hurmat bilan bir qatorda boshqa millat va xalqlarga nisbatan ham chuqur hurmat-e'tibor, yaxshi qo'shnichilik va ularning ham milliy g'ururlari borligini hisobga olib, harakat qilishimiz kerak. Milliy an'analar xalqning eng nozik, eng hurmattalab fazilatlaridir.

Afsuski, chetdan kelgan ba'zi bir odamlar ana shu narsa bilan hisoblashmagan paytlar bo'ldi. **Hatto o'zimizdan chiqqan ayrim rahbarlar Navro'z bayramiga, milliy kiyim-kechakka qarshi chiqdi. Shu darajaga borib yetdikki, qarindoshini ko'mish marosimida qatnashishga ham eskilik sarqiti, deb qaraldi, bunday odamlarga, ayniqsa, rahbarlarga nisbatan tazyiq o'tkazildi.** Dindorlar bilan muloqotda bo'lish, ular bilan bamaslahat ish yuritish masalalarini qo'yavering. Xullas, bo'lganicha bo'ldi. **Shuning uchun bugun bu ishlarni qattiq qoralashimizni, xalq an'analariga, uning merosiga, odamlarning diniy e'tiqodlariga qat'iy hurmat va e'tibor bilan qarash kerakligini yana bir bor uqtirib o'tmoqchiman.**

Oltinchidan. Jamiyatimizning g'oyaviy, ma'naviy yangilanishida ijodkorlarimizning o'rni beqiyos. Ularning qalb qo'ri bilan aytadigan so'zlari, yaratgan obrazlari har bir kishiga yurakdan ta'sir qiladi, yaxshilikka undaydi.

Xalq hokimiyatining muxtor vakili bo'lgan muhtaram deputatlar, kelinglar, shu ijodkor ziyolilar bilan aloqani mustahkamlaylik, hamnafas, hamjihat bo'laylik,

ular bilan birgalikda yaxshilik, mehr-oqibat, ilm-ma'rifat nurlarini har bir insonga yetkazaylik. Bu borada ham bir talay muammolar mavjud. Ularni hal qilish uchun birgalashib ishlashimiz kerak. Birinchi navbatdagi vazifa – o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi Qonunni hayotga to'la tatbiq qilish masalasi. Bu ish hanuzgacha juda sust boryapti. Ko'p tadbirlar hali amalga oshmayapti.

Oddiy misol: ko'chalarimiz, har xil idoralar, savdo tarmoqlari, xullas, hamma joyda ko'zga tashlanib turadigan yozuvlarimizni olaylik. Yuz foiz mahalliy aholi yashayotgan joylarda hali ham bu yozuvlar ruscha ekanligiga nima deyish mumkin? Yoki bunga ham yuqoridan buyruq berib majbur qilyaptimi? Axir, bu kulgili hol-ku! Lekin bu kulgining tagi zil. Chunki bu mahalliy aholining milliy g'ururi bilan hisoblashmaslik demakdir. Natijada xalqda norozilik tug'ilishi tabiiy.

Til haqidagi Qonunni izchillik va zudlik bilan amalga oshirish ham deputatlarning muhim ishlaridan biridir. Xullas, o'rtoqlar, hammamiz milliy-madaniy masalalarni hal etishga ko'proq e'tibor berishimiz lozim.

Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi yaqinlashib qoldi. Bu muborak ayyomni xalqimiz tarixining eng mo'tabar sanalari sifatida katta tantana bilan esda qoladigan qilib nishonlashimiz kerak.

Yettinchidan. Yana bir masalaga e'tiboringizni jalb qilmoqchiman: **aynan mana shu minbardan turib ne-ne rahbarlar ne-ne va'dalarni bermagan. Afsuski, bu va'dalar bajarilmay qolgan.**

Xalq saylagan deputat uchun shu xalqning topshiriqlarini, o'zining xalqqa bergan va'dalarini bajarishdek yuksak insoniy va ijtimoiy burch bo'lmasa kerak. Xalqdan ajralib qolgan har bir deputat o'ziga yuklan-

gan vazifani boshqalarga oshirishi yoki «otangga bor, onangga bor» qabilida ish tutishi sira mumkin emas. Agar ular shunday ish tutsa, tezda xalqning nazaridan qoladi, demak, u o'z joyini bo'shatib qo'yishi kerak, toki bu vazifalarda qo'lidan ish keladigan odamlar ishlasin.

Imonim komilki, ba'zi deputatlarga ham oson bo'lmaydi. Lekin **eng muhimi, xalqqa vijdon bilan, halol xizmat qilishni asosiy mezon deb bilish lozim. Ana shunda bunday deputatning ishi o'ngidan keladi, barakali bo'ladi.**

Bugun biz hal etuvchi pallada turibmiz. Odamlarga osoyishtalik, har bir xonadonda tinchlik-xotirjamlik, o'zaro totuvlik va to'kin dasturxon bo'lishi kerak.

Shu oddiy insoniy umidlarni tezkorlik bilan ro'yobga chiqarishdan muqaddasroq burch yo'q, deb o'ylayman. Bu yo'lda biz barcha imkoniyatlardan oqilona foydalanishimiz zarur.

Mana shu ulug' ishda sizlarga sihat-salomatlik, qat'iyat va sabot-matonat, baxt-saodat tilayman.

*Toshkentda SSSR, O'zbekiston SSR,
mahalliy sovetlarning xalq deputatlari
va jamoatchilik vakillari ishtirokida
bo'lib o'tgan kengashda
so'zlangan ma'ruzadan*

1990-yil 24-fevral

O'ZBEKISTONDA PREZIDENT INSTITUTINING JORIY ETILISHI TO'G'RISIDA

... Bugun yuzaga kelgan vaziyatda O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu yerda men Prezident to'g'risidagi va shu munosabat bilan boshqaruvning ba'zi davlat tuzilmalarini qayta qurish to'g'risidagi masala shunchaki SSR Ittifoqi qarorlariga taqlid qilish emasligini alohida aytib o'tmoqchi edim. Respublikada yakka boshliq lavozimining joriy etilishi Ittifoq miqyosida bo'lganidek, qonunlar va davlatning boshqa qarorlarini ijro etish omillarini mustahkamlashga, demak, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa sohalarda qayta qurish jarayonlarini tezlashtirishga ko'maklashishi, shubhasizdir.

Binobarin, eng muhimi shundan iboratki, Prezident institutining joriy etilishi — respublikamiz uchun suverenitet va davlatchilikda prinsip jihatdan yangi bosqichga o'tilishini bildiradi. Chunki shunchaki emas, balki haqiqiy davlatchilik hokimiyatning bunday tuzilmasini qo'lga kiritish imkoniyatiga ega. Respublika Prezidenti Ittifoq shartnomasi va mamlakat federativ qurilishining yangi asoslarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynashi O'zbekiston SSR ning Ittifoq federatsiya kengashida munosib o'rin egallashini ta'minlashi shubhasizdir. Shu munosabat bilan O'zbekiston milliy

mahdudlikka intilayapti, deb kimlardir avj oldirayotgan shubhalarga hech qanday asos yo'q, albatta.

Bugun tartib va intizomni, eng avvalo, boshqaruvning barcha darajalari va jabhalarida ijrochilik intizomini mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy qurilishni hamda xo'jalik yuritish mexanizmini qayta qurishni tezlashtirish vazifalarini o'z vaqtida hal etish masalasi, grajdanlarning huquqlarini himoya qiluvchi barcha davlat muassasalarini nazorat etish ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Kelinglar, ushbu masalani yangi tarkibdagi Oliy Sovetning birinchi sessiyasida qonun loyihalarini taklif qilishni boshlash nuqtayi nazaridan muhokama qilaylik...

KPSS Markaziy Komitetining 1990-yil fevral va mart plenumlarining yakunlari hamda KPSS XXVIII syezdiga va O'zbekiston Kompartiyasi XXII syezdiga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan respublika partiya tashkilotlarining vazifalari to'g'risidagi ma'ruzadan

*«Sovet O'zbekistoni» gazetasi,
1990-yil 24-mart*

XALQ IRODASI BILAN TANLANGAN YO'L

Hurmatli deputat o'rtoqlar!

Qadrli yurtdoshlar!

Hozirgina respublika Oliy Soveti sessiyasining qarori bilan O'zbekiston tarixida birinchi marta O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimi ta'sis etildi va bu yuksak mas'uliyatli vazifa menga topshirildi.

Bu katta ishonch uchun o'zinning samimiy minnatdorchiligimni bildiraman. Men buni eng avvalo o'zbek xalqi, O'zbekiston SSRning barcha mehnatkashlari, ishchilar sinfi, dehqonlar, ziyolilar, respublikamizda yashovchi hamma millat va elatlar taqdiri uchun o'z zimmamga tushgan ulkan burch va javobgarlik deb qabul qilaman. Har bir grajdanning konstitutsion huquqi va erkinliklarini, respublikamizning milliy va ijtimoiy jihatdan tobora taraqqiy topishini ta'minlash yo'lidagi katta mas'uliyat deb tushunaman.

Xabaringiz bor, bir necha kun oldin SSSR xalq deputatlarining navbatdan tashqari uchinchi syezdida SSSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish to'g'risidagi Qonun qabul qilindi. Bu lavozimga Mixail Sergeyevich Gorbachyov saylandi...

Prezident boshqaruvini hayotning o'zi, qayta qurishning mantig'i, mohiyati, uning murakkab va ziddiyatli jarayonlari taqozo etayapti.

Respublikamiz butun mamlakat singari bugun og'ir, burilish davrini boshidan kechiryapti.

Uzoq yillar davomida yig'ilib qolgan milliy-siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy rivojlanish muammolari nihoyatda murakkab va keskin tus oldi. Respublikaning kelajagi, xalq taqdiri har bir odamning, uning oilasi turmushining, O'zbekiston grajdanlari kelajak avlodlari hayotining to'kisligi, tinchlik-oso-yishtaligi bu muammolarning izchillik bilan hal etilishiga bog'liqdir. Respublikamiz oldida turgan mana shu va boshqa bir qator dolzarb masalalarni tubdan hal etishda Prezident lavozimining ta'asis etilishi yangi imkoniyatlar ochadi.

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Prezidenti sifatida o'zinning asosiy vazifalarimni nimalardan iborat deb bilaman?

1. O'zbekiston SSR ning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash va yanada takomillashtirish, uni yangi va hayotiy mazmun bilan boyitish.

Xalq milliy ongining o'sishi, mamlakatimizning milliy davlat, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishining hozirgi zamon darajasi va istiqboli sovet federatsiyasining yangilanishi, respublika bilan SSR Ittifoqi o'rtasidagi aloqa hamda vakolatlarning yanada aniqroq belgilanishini talab qilyapti.

Bugungi kunda boshqa ittifoqdosh respublikalar qatori O'zbekiston SSR ham mustaqil davlat sifatida o'z territoriyasida to'la-to'kis davlat hokimiyatiga ega bo'lmog'i kerakligi ochiq-oydin bo'lib turibdi.

SSSR davlat hokimiyatining oliy organlari ixtiyoriga o'z xohishi va tegishli o'zaro kelishuv bo'yicha berilgan vakolatlar, albatta, bundan istisnodir.

Prezident sifatida men respublikamiz o'ziga tegishli masalalarning barchasini o'zi mustaqil hal qilishi kerak, deb o'ylayman.

Bular — mehnat resurslaridan, tabiiy va mineral xomashyo boyliklaridan mustaqil va oqilona foydalanish, o'z territoriyasida iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni kompleks ravishda rivojlantirish, SSR Ittifoqi qaramog'idagi korxonalar, muassasa va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, mehnat xavfsizligini, atrof-muhit muhofazasini, aholining ehtiyojlarini ta'minlash masalalaridir...

O'zbekiston SSR mustaqil va teng huquqli respublika sifatida boshqa respublikalar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarni o'zaro erkin hal qiladi. Bu aloqalarni do'stlik va hamkorlik, o'zaro hurmat va totuv qo'shnichilik munosabatlari asosida yanada mustahkamlab boraveradi.

O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari o'rtasidagi asriy birodarlik, do'stona munosabatlarni alohida ta'kidlab o'tmoqchiman.

Tariximizning, taqdirimizning birligi, tilimiz, madaniy-ma'naviy an'analarimiz o'xshashligi, yaqin qo'shnichilik va qarindoshlik aloqalari respublikalarimiz hamkorligini yanada kengaytirish imkoniyatini beradi.

Milliy davlat qurilishi sohasidagi millatlararo aloqalarni yaxshilash, grajdanlarning qaysi millat vakili ekanligidan, tili va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilining davlat tili ekanligi haqidagi qonunni izchil amalga oshirish bilan birga, O'zbekistonda yashovchi barcha millat vakillariga o'z tillarida bema-

lol gaplashish, ularning milliy-madaniy ehtiyojlarini qondirish va butun aholiga millatlararo muloqot tili bo'lgan rus tilidan erkin foydalanish imkoniyatlarini ham ta'minlash zarur.

Bu masalalar Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasiga ham to'la taalluqlidir. Mintaqamizda yagona bo'lgan avtonom respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish, uning milliy davlat va huquqiy maqomini barqaror qilish shunga bog'liqdir.

Eng muhimi — respublikada yashovchi barcha millat va xalqlar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat va do'stona munosabatlarni saqlab qolish va kuchaytirishdir.

Bu — respublikada tinchlik va osoyishtalikni, odamlarning taqdiri, butun mamlakatimizning buguni va kelajagi barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi vazifadir.

O'tgan yili Farg'ona viloyatida, yaqinda Toshkent viloyatining ayrim rayonlarida bo'lib o'tgan fojiali voqealar millatlararo munosabatlarning buzilishi, keskinlashuvi nimalarga olib kelishini ro'yirot ko'rsatdi.

Bu holni faqat vaboday yuqumli kasallik bilan qiyoslash mumkin. Begunoh odamlar qurbon bo'lmasligi, hamma yoqqa o't ketmasligi uchun buning oldini olish zarur.

Shuning uchun SSSR va O'zbekiston SSR Konstitutsiyalariga, o'zbek xalqining oliyjanob insoniy fazilatlariga tayanib, har bir odamning qadr-qimmatini, haq-huquqini himoya qiluvchi, milliy adovat va zo'rvonlikni man etadigan qonunlarga qat'iy rioya qilishni o'zimning muqaddas burchim deb bilaman.

Bu qonunlarga rioya qilmaslik har bir kishi uchun insoniyat oldida, eng avvalo, o'z xalqi oldida og'ir jinoyat deb hisoblayman.

Bu — odamlarning insoniy haq-huquqlariga tajovuz, mamlakat va dunyo jamoatchiligi ko'z o'ngida xalqimizning obro'sini to'kish demakdir.

Bunga yo'l qo'yishga, aziz o'rtoqlar, siz bilan bizing mutlaqo haqqimiz yo'q.

O'zbek xalqi asrlar davomida barcha xalqlar bilan inoq yashagan, do'stona hamkorlikda bo'lgan, insonparvarligi, mehnatsevarligi, mehmondo'stligi, mehr-oqibati, xolis yordam uchun doim tayyorligi bilan boshqa qardosh xalqlarning hurmat-e'tiborini qozongan, tahsinga sazovor bo'lgan. Uning mana shunday oliyanob sha'niga hech kimning dog' tushirishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak.

2. Prezident boshqaruvining muhim vazifalaridan biri respublikaning iqtisodiy mustaqilligini, o'zini o'zi idora qilishga va o'zini o'zi pul bilan ta'minlashga o'tishini ta'minlashdir.

Mazkur sessiyada xalq deputatlari O'zbekiston SSR iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari belgilangan hukumat programmasini muhokama qilib tasdiqlashlari kerak.

Respublikamizning so'zda emas, amalda iqtisodiy mustaqilligini belgilovchi ayrim eng ahamiyatli masalalarga to'xtab o'tmoqchiman. Ular partiya va Sovet hokimiyatining asosiy maqsadi bo'lgan xalq farovonligini oshirish yo'lidagi murakkab, chigal muammolarning hal qilinishi bilan bog'liqdir.

Ulardan birinchisi xalq xo'jaligi kompleksini tubdan qayta qurishdir. Xomashyo yetishtirishdan xalq uchun zarur bo'lgan tayyor tovarlar ishlab chiqarishga o'tish. Bu bilan respublikada yaratilayotgan yalpi mahsulot va milliy daromadni ildam sur'atlarda o'stirishni ta'minlash.

O'zbekiston tabiiy va xomashyo resurslariga boy. Bularning hammasi — yer, suv, o'rmon va yer osti boyliklari — respublikaning ajralmas mulki bo'lishi kerak. Lekin ana shu tabiiy boyliklardan o'ylamay-netmay foydalanib, tez o'sib borayotgan aholining ehtiyojlarini qondirish mumkin degan o'rtoqlar xato qiladi.

Har qanday tabiiy boylikning chegarasi bor. U bir kun emas bir kun tamom bo'ladi. Uni qayta tiklab bo'lmaydi. U bizga ota-bobolarimizdan qolgan merosgina emas, balki biz avaylab-asrab, yanada oshirib, kelajak avlodlarga yetkazib berishimiz kerak bo'lgan omonat hamdir.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, bironta mamlakat yo xalq o'z farovonligini faqat xomashyo sotib ta'minlay olmaydi. Gaz yoki metall, paxta yoki pilla sotib ma'lum vaqtgagina boylik orttirish mumkin. Lekin bunaqa iqtisodning istiqboli yo'q.

Haqiqiy obodonchilikka, farovonlikka faqat tabiat in'omlaridan oqilona foydalanib, ularning qiymatini yanada oshiradigan yuqori unumli, malakali mehnat bilan erishish mumkin.

Shuning uchun biz tanlagan bosh yo'l — respublikaning barcha tabiiy boyliklarini — paxta, metallar, pilla, gaz, meva-sabzavot va boshqa mahsulotlarni qayta ishlashni ko'paytirish.

Bu vazifani fan-texnika yutuqlariga asoslangan sermehnat ishlab chiqarishni, malakali mutaxassislarining, mehnatkashlarning barcha tabaqa vakillari saviyasining o'sishini ta'minlamasdan bajarib bo'lmaydi.

Shu bilan bir qatorda, ekonomikamiz boshqaruv va xo'jalik yuritishning, mulkchilik va tovar-bozor munosabatlarining turli xil yangi usullariga o'tishi muhim ahamiyatga molik.

Xalq xo'jaligi strukturasi tubdan o'zgartirish katta siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy muammo — aholini mun-tazam ravishda ish joylari va yetarli ish haqi bilan ta'minlash masalasiga bog'liqdir.

Bu vazifa shu qadar keskin turibdiki, biz uni hal qilish uchun bir emas, bir necha yo'llardan, bir-ikki imkoniyat emas, bor imkoniyatlarning barchasidan foydalanishimiz zarur.

Xalq hayotining o'ziga xos tarixiy, milliy xususi-yatlaridan kelib chiqib an'anaviy ishlab chiqarishni, xalq amaliy san'ati va hunarmandchilik korxonalarini ko'paytirish lozim.

Rayon markazlarida, qishloqlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini, filial va sexlar-ni qurish, ularda mehnatni turlicha tashkil qilish — qisqartirilgan ish kuni va haftasi, uyda ishlash kabi usullardan keng foydalanish kerak. Va nihoyat, ilmiy-texnik taraqqiyotning bugungi darajasiga javob beradi-gan ishlab chiqarishni rivojlantirish. Busiz aholining ish bilan bandligini ham, umuman olganda esa milliy va ijtimoiy taraqqiyotni ham ta'minlab bo'lmaydi.

Aytib o'tilgan va bo'lak ishlarni mamlakatning boshqa respublikalari va iqtisodiy rayonlari, chet ellar bilan o'zaro foydali iqtisodiy, ilmiy-texnik va mada-niy aloqalarsiz hal etish qiyin.

Iqtisodiy mustaqillik — o'z yog'ida qovurilish, o'z qobig'ida qolib ketish emas. Bu — umuminsoniyat taj-ribasiga zid hodisa.

Iqtisodiy mustaqillik — respublikamizning tabiiy, iq-tisodiy, demografik (aholining ko'pligi) kabi va boshqa imkoniyatlaridan xalq hayotining ravnaqi uchun teng huquqlilik asosida o'zaro foydali hamkorlikni rivojlan-tirish uchun iloji boricha kengroq foydalanishdir.

3. Mehnatkashlarning, aholining hamma tabaqalari farovonligini oshirish, odamlarning talab-ehhtiyojlarini qondirish, ijtimoiy sohani tez sur'atlar bilan rivojlantirish – respublikaning davlat hokimiyati va boshqaruv organlaridan, shaxsan mendan, O'zbekiston SSR Prezidentidan doimiy e'tibor talab qiladigan vazifadir.

Respublikamiz jon boshiga daromad, oziq-ovqat va har kunlik ehtiyoj mollari iste'mol qilish, uy-joy, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, savdo, sotsial-maishiy va madaniyat tarmoqlari bo'yicha Ittifoqda oxirgi o'rinlarda turibdi.

Qulay iqlim sharoitlariga va noyob tabiiy boyliklarga ega, SSSRda eng yirik respublikalardan biri shu darajada bo'lishiga chek qo'yimoq kerak.

Orol muammosi Qoraqalpog'iston ASSR, umuman O'zbekiston, butun O'rta Osiyo regionini fojiasiga aylandi. Tabiat muhofazasini va sanitariya ahvolini yaxshilash borasida keskin choralar ko'rishimiz kerak.

Birinchi navbatda inson, uning ehtiyoj va talablari, jismoniy va ma'naviy yuksalishi respublikada bo'lajak milliy davlat va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning markazida bo'lishi shart.

Xabaringiz bor, bu borada birinchi jiddiy qadamlar qo'yildi. Qishloq aholisiga shaxsiy xo'jaliklarni kengaytirish va uy-joy qurish uchun qo'shimcha yer va mablag' ajratilmoqda, qurilish materiallari bilan yordam berilmoqda. O'tgan yildan boshlab paxta terimiga qo'shimcha haq to'lanyapti va bundan buyon bu mablag'lar ikki barobardan ko'proq oshadi.

Paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxini oshirish to'g'risidagi masala mamlakatimiz hukumati oldiga qo'yildi va oxirigacha hal etildi. Respublikamiz poytaxti Toshkent, bir qator viloyat markazla-

ri va shaharlarning xo'jaligini yaxshilash va qayta qurish, qishloqlarning sotsial ahvolini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan va belgilangan tadbirlar amalga oshirilayapti.

Boshlang'ich sinflardagi o'quvchilarga bepul ovqat, homilador bemor ayollarni qo'shimcha, yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash joriy etildi.

Veteranlarning nafaqasini oshirish, nogiron va yolg'iz qolgan qariyalar uy-internatlarining sharoitlarini yaxshilash uchun qo'shimcha mablag' sarf etilyapti. Yotoqxonalarda joy tanqisligidan shaxsiy uylarda ijarada yashayotgan talabalarga moddiy yordam berilmoqda.

Hali insonlarning hayotini yaxshilash borasidagi katta rejalar, umidbaxsh tadbirlar ko'p. Ular O'zbekiston Kompartiyasining saylovoldi harakat dasturida bayon etilgan.

O'zbekiston SSR Prezidenti sifatida respublikamizda odamlar hayotining to'kisligi uchun barcha sharoitlarni yaratish bo'yicha qabul qilinayotgan ijtimoiy programmalarini bekam-u ko'st amalga oshirishni o'zinning asosiy vazifam deb bilaman.

Buning uchun aholining barcha tabaqalariga oziq-ovqat mahsuloti va tovar ta'minotini yaxshilash, qashshoq oilalarning daromadini ko'tarish lozim. Shuningdek, yoshlarimiz va keksalarimiz, ayollarimiz to'g'risida g'amxo'rlik qilishimiz kerak.

Barcha aholi punktlarini sifatli ichimlik suv va gaz bilan ta'minlash, atrof-muhitni sog'lomlashtirish va ijtimoiy vaziyatni yaxshilashimiz zarur. Mening fikrimcha, respublika xalq deputatlari Oliy va mahalliy Sovetlarining, hamma sovet, davlat, xo'jalik idora-

larining, jamoat tashkilotlarining, mehnat kollektivlarining faoliyati, eng avvalo, ana shu maqsadlarga qaratilmog'i nihoyatda muhimdir.

Turmush sharoitlari nochor bo'lib turgan bir paytda noinsoflik, davlat va xalq mulkiga xiyonat, chayqovchilik, jinoyatchilik va boshqa illatlarga qarshi shafqatsiz kurash — bugungi kunning dolzarb talabidir.

Odamlarning hayotiga, peshona teri bilan topgan mol-mulkiga changal solayotgan imonsiz kimsalarga qarshi men Prezident sifatida xalqning irodasiga tayanib, ayovsiz choralar ko'raman. Qonunchilik barqaror bo'lishi uchun menga berilgan hokimiyatning barcha imkoniyatlarini ishga solaman.

4. Prezident faoliyatining, respublika partiya, sovet, davlat tashkilotlarining muhim vazifalaridan biri — xalqni ma'naviy yuksaltirish, insonning axloqiy va jismoniy takomilidir.

Bu masalalar alohida qunt va sabotni, kishilarga nisbatan alohida e'tibor va g'amxo'rlikni talab qiladi.

Inson hayotining bu nozik va murakkab tomonlari bilan, xazinalarga to'la milliy-tarixiy an'analar bilan, umuminsoniy ma'naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik jamiyatimizga qanchadan qancha zarar keltirdi. Binobarin, bu kamchiliklarni tuzatish uchun juda katta mehnat qilishimiz kerak. Asosiy ishlarimiz nimalardan iborat bo'lishi kerak?

Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish lozim. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damda madad bo'lgan.

Bizning vazifamiz — shu xazinani ko'z qorachig'i-dek asrash va yanada boyitish.

So'zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e'tiqodining erkinligini ta'minlashimiz kerak. Men Prezident sifatida odamlarning ma'naviy tarbiyasi, tinchlik va xayrli ishlar maqsadida harakat qilayotgan har bir kishini qo'llab-quvvatlayman, u bilan hamkorlik qilaman.

Masalaning boshqa tomoni – ma'rifat va madaniyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash. Insonning to'laqonli hayoti uchun nihoyatda zarur bo'lgan maktablar, kutubxonalar, teatr va boshqa madaniyat o'choqlarini ko'paytirish, ularning sharoitlarini yaxshilash.

Biz ko'p yillar davomida ma'rifat-madaniyatga noto'g'ri munosabatda bo'ldik. Unga sarflanayotgan mablag'lar doim boshqa sohalardan kam bo'ldi. Natijada biz bu masalada kechirib bo'lmas darajada orqada qolib ketdik.

Barcha planlarimiz madaniyat, ma'rifat, jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan o'rin olishi lozim.

Va nihoyat, shu sohalarda ishlayotgan kadrlar masalasi. O'qituvchilar va shifokorlar, madaniy-oqartuv muassasalaridagi va boshqa sohalardagi ko'plab mutaxassislar – chinakam ziyolilardir.

Ayniqsa, olimlar va ijodkor xodimlarimizga e'tiborni kuchaytirish kerak. Ma'naviy boyliklarni ular yaratadi. Ularga g'amxo'rlik qilish, samarali faoliyatlari uchun barcha zarur moddiy-ma'naviy sharoitlarni yaratib berish davlat hokimiyati va xo'jalik tashkilotlari rahbarlarining burchi va mas'uliyatli vazifasidir.

O'rtoqlar, yana bir dolzarb vazifa o'sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta

javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Axir yoshlar xalq ma'naviyatining ham mahsuli, ham kelajagi.

Shuning uchun har bir o'g'il-qizimiz dastlabki qadamlaridan boshlab madaniy boyliklarimizdan bahramand bo'lishi kerak.

Iste'dodli yoshlarimizning, yigit-qizlarimizning o'z qiziqqan sohalarida yetuk insonlar bo'lib yetishishlari uchun tegishli shart-sharoitlar hali to'la yaratilgani yo'q.

O'zimizning ma'naviy burchimizni oqlashni istasak, ularga otalarcha g'amxo'rlik qilishimiz kerak. Ana shu maqsadda biz ularning mamlakatimiz va chet ellardagi eng nufuzli ilmiy markazlarda ta'lim olishlari uchun mablag'lar ajratdik.

Bu ishlar uchun hech narsani, shu jumladan, valutani ham ayamaymiz. Ishonchim komil, bu tadbirlarni siz deputatlarimiz ham, xalqimiz ham qo'llab-quvvatlaysizlar.

Shu o'rinda yana bir mulohaza bor, o'rtoqlar. Yoshlarimizni, ayniqsa, qariyalarimizni ularning izzat-nafsiga tegadigan ayrim noma'qul hollardan asrashimiz kerak.

San'atda oshkoralikni pesh qilib televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo'lmag'ur lavhalarni aks ettirish, bema'nilik va hayosizlikni, ba'zan esa, hatto axloqiy buzuqlikni targ'ib qilishlar ko'payib qoldi.

Deputatlarning va Prezidentning vakolatlari jamiyatimizning insoniylik va axloqiy aqidalarini poymol qiluvchi ana shu tajovuzkorlikka qattiq qarshi turishga imkoniyat beradi, deb o'ylayman. Bu tadbir xalqqa ham ma'qul bo'ladi, deb ishonaman.

5. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni faqat demokratiyani, huquqqa asoslangan davlat qurilishini ri-

vojlantirib, tartib va intizomni mustahkamlab va nihoyat, respublikaning milliy-ijtimoiy taraqqiyotl yo'lida barcha sog'lom kuchlarni birlashtiribgina hal qilish mumkin...

O'zbekiston SSR Oliy Soveti komissiyalari va butun deputatlar korpusi hamkorligiga tayanib mamlakatimizda, respublikamizda huquqiy davlat shakllanishi, qonun hurmat qilinishi va unga rioya etilishi uchun men qat'iyat bilan ish olib boraman. Shaxsga sig'inish yillarida ham, yaqin o'tmishda ham yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklardan, zo'ravonliklardan ko'p aziyat chekkan respublikamiz, xalqimiz uchun bu juda ham muhimdir.

Respublikamiz har bir grajdanining huquqi va qadri-qimmatini har qanday tajovuzdan, u qayerda va kim tomonidan qilinishidan qat'i nazar, qattiq turib himoya qilishga so'z beraman.

Demokratiyani yanada rivojlantirishni Prezident boshqaruvining asosiy vazifalaridan biri deb bilaman. *Shu bilan bir qatorda, demokratiya — beboshlik, oshkoralik esa — og'ziga kelganini gapirish emasligini ham ochiq aytib qo'ymoqchiman.*

Jinoyatchilikning ko'payib borayotgani, jamiyatga qarshi kuchlarning vaziyatni keskinlashtirishga urinishidan, milliy adovatni kuchaytirib, ommaviy tartibsizliklar keltirib chiqarayotganidan xalqimiz qanchalik tashvishda ekanligini hammangiz yaxshi bilasiz.

Buning oqibatida, qanday fojialar yuz berayotgani, xalq qanchadan qancha moddiy va ma'naviy zarar ko'rayotganidan ham xabardorsiz. Shuning uchun xalqimizning, barcha millat vakillarining xohishiga, irodasiga amal qilib, davlatimizning, jamiyatimizning siyosiy-ma'naviy asoslariga qarshi bo'lgan har qanday

urinishlarga chek qo'yish, grajdanfarning or-nomusini va qadr-qimmatini himoya qilish, tartib va intizomni mustahkamlash uchun sizlar bilan birgalikda qat'iy harakat qilaman.

Bugungi murakkab, hal etuvchi bir vaqtda barcha sog'lom kuchlarimiz har qachongidan ham jipsroq, hamjihat, bir tan, bir jon bo'lishi zarur...

Yana bir marta sizlarni O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini o'zimning xalq oldidagi, respublika oldidagi burchim, mas'uliyatim deb hisoblashimga va jonajon O'zbekistonimizning, buyuk xalqimizning yanada farovon hayoti uchun bor kuchimni sarflayman, deb ishontirishga ruxsat bergaysizlar.

*O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR
Oliy Sovetining birinchi sessiyasida
so'zlangan nutqdan*

1990-yil 24-mart

O'TMISHDAN SABOQ CHIQARIB, KELAJAKKA ISHONCH BILAN

Hurmatli o'rtoqlar!

O'zbekiston Kompartiyasining XXII syezdi o'z ishini murakkab, keskin, aytish mumkinki, inqirozli vaziyatda boshlamoqda. Uning muhokamasiga shunday masalalar qo'yilmoqdaki, respublikaning, respublika partiya tashkilotining hozirgi ahvoli va kelajagi, qolaversa, butun mamlakatning hozirgi ahvoli va kelajagi ham shu masalalarning hal etilishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Respublika mehnatkashlari bugungi kunda hammani bezovta qilib turgan juda o'tkir muammolarga javob kutmoqda.

Ijtimoiy-siyosiy sohada ro'y berayotgan jarayonlar hammani tashvishga solmoqda. Qayta qurish tufayli yuzaga kelgan demokratiya va oshkoralik anarxiya va safsatabozlikdan yetarlicha himoya qilingan emas...

Intizom va tartib ko'ngildagidek emas, jinoyatchilik ko'paymoqda, odamlarning shaxsiy xavfsizligi, huquqlari va qadr-qimmatlari kafolatlari buzilmoqda.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarning ahvoli yomonlashib bormoqda. Mehnat unumdorligi, milliy daromad pasaymoqda. Ehtiyoj buyumlari va kerakli xizmatlar bilan ta'minlanmagan ish haqining o'sishi pulning qadrsizlanishini kuchaytirmoqda. Chayqovchilik, poraxo'rlik, xufiyona iqtisodiyot keng yoyilmoqda. Mana shularning hammasi odamlarning, ayniqsa,

kam daromadli aholi tabaqalarining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatyapti.

Madaniy-ma'naviy turmushda qadrsizlanish ro'y bermoqda: omma siyosatga ko'proq qiziqib, uning faolligi oshib borishi bilan birga, jamiyatning g'oyaviy va axloqiy negizlarini buzishga, umuminsoniy qoidalar va milliy qadriyatlarni mensimaslikka urinish hollari kam emas.

Ijtimoiy va millatlararo mojarolar qaltis tus oldi. Boltiqbo'yidagi, Kavkazortidagi vaziyat buni ochiq-oydin ko'rsatib turibdi. Bu joylardagi voqealar grajdanlar urushi holatiga xatarli ravishda yaqinlashib qoldi...

Mamlakatning barcha joylarida bo'lgani kabi respublikamiz mehnatkashlari ham mana shu **buzg'unchilik jarayonlaridan tashvishga tushmoqdalar**: xo'sh, jamiyatimiz qayoqqa qarab borayapti? Bu salbiy hodisalar nahotki qayta qurishning muqarrar natijasi, yo'ldoshi bo'lsa? Yoki bu narsa siyosiy rahbarlikdagi xatolar, islohotlarning aniq rejasi yo'qligi oqibatlarini payqash va ularning oldini olish mumkinligidan gumonsirash sababli emasmikan? Bu salbiy jarayonlar nahotki xatarli tomonga qarab boraversa?..

Biz **O'zbekiston SSR ning haqiqiy siyosiy suvereniteti, iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga** qaratilgan yo'llarini va amaliy harakatlarni belgilab olishimiz kerak...

I. O'tmishning asosiy saboqlari

Biz o'z tariximizni yo'qqa chiqara olmaymiz. Bu tariximizda ham qahramonona, ham fojiali sahifalar ko'p bo'ldi. Axir, keksa avlodlarning, ota-bobolari-

mizning kurashi va mehnatini inkor etib bo'ladimi? Ular yarim feodal holdagi qoloq mamlakatni ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy jihatdan taraqqiy etgan zamona-viy darajaga ko'tardilar. Bu aniq-ravshan dalilni hech kim rad qila olmaydi.

Ayni vaqtda sotsialistik qurilishning ko'pgina bosqichlarida qo'pol xatolar va buzilishlarga yo'l qo'yilganini ham hech kim, hech narsa shubha ostiga qo'ya olmaydi.

Bu xato va jinoyatlarning ildizlari o'tmishga borib taqaladi. Shaxsga sig'inish yillarida, turg'unlik yillarida noto'g'ri yo'l-yo'riqlar, maqsadlar va ularga erishish yo'llari butunlay buzib, soxtalashtirib yuborildi. Asossiz ravishda qilingan ommaviy qatag'onlarni, kollektivlashtirish va sanoatlashtirish davrida turmushning asosiy negizlari shafqatsizlik bilan barbod qilingani, xalqlarning ma'naviy qadriyat va an'analari qalbakilashtirilgani, ayrim kishilar pulga sotilib, aynib ketganligi, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozga uchragan odamlar xalqning eng zarur ehtiyojlari va hayotiy talablarini pisand qilmay qo'yganliklarini ko'rsatuvchi tobora yangi-yangi dahshatli misollar hozir ma'lum bo'lib qolmoqda.

Bunday salbiy hodisalar barcha muzofotlarda, hamma respublikalarda sodir bo'lgan, bundan barcha xalqlar azob tortgan edi. Salbiy hodisalar qayerda ko'proq, qayerda kamroq sodir bo'lganini hisoblash — odamlarning qayg'u va alamiga tuz sepish demakdir. Bu xunuk siyosiy o'yindir.

Biz o'tmishdagi hamma buzilishlar, xato va jinoyatlarni qat'iy qoralaymiz va ulardan keskin voz kechamiz. Biz o'tmishimizni va hozirgi kunimizni haqqoniy, xolisona tanqidiy tahlil etishning qat'iy ta-

rafdorimiz. Biz bosmachilik harakati haqida bo'lsin, kollektivlashtirish, repressiyalar, turg'unlik davriga oid buzilishlar haqida bo'lsin — «oq dog'»larning butunlay tugatilishi tarafdorimiz. Ammo, albatta har bir voqeani, aniq tarixiy sharoitni hisobga olib, bizning tariximiz, undagi har bir qadam keksa avlodlarning peshona teri bilan va qoni bilan sug'orilganini nazarda tutib shunday qilishimiz kerak. O'tmishimizni boshdan oyoq qoralash ota-bobolarimiz xotirasi oldida, farzandlarimiz va nabiralalarimizning ma'naviy tarbiyasi oldida kechirilmas xato bo'lur edi.

Eng muhim vazifa — respublikaning hozirgi hayotiga xalaqit berayotgan xato va buzilishlarni aniqlab olishdan iborat. Ahvolni tuzatish yo'lida amaliy harakat dasturini ishlab chiqishdan iborat. Milliy davlat, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotning barcha eng o'tkir muammolarini hal etishdan iborat.

II. Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

Shu narsa shak-shubhasiz va ochiq-oydindirki, respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinlardan birida turibdi. Biz bu raqamlarni ilgari ham necha martalab aytganmiz, ammo bugun ularni yana bir bor idrok etmoq kerak. O'zbekiston kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatda 12-o'rinda turibdi, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkich esa Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki hissa past.

Sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan respublika mamlakatdan 40 foiz, qishloq xo'jaligidagi meh-

nat unumdorligi jihatidan esa ikki barobar orqada qolmoqda. Respublikada aholi jon boshiga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish o'rtacha Ittifoq darajasining atigi 40 foizini tashkil etadi. Biz daromad darajasi jihatidan, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan ittifoqdosh respublikalar orasida eng oxirgi o'rinlardan birida turibmiz.

O'zbekiston aholisi o'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilmoqda. Oyiga o'rta hisobda 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi mamlakatda 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, bizning respublikamizda 45 foizga boradi. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zining qo'lidan keladigan ishni topa olmayapti.

Ijtimoiy infrastruktura tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolga tushib qolgan. Maktab va kasalxonalarning 60 foizi nobop binolarda joylashtirilganini aytishning o'zi kifoya. Juda o'tkir iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Buni avvalo shundan ko'rsa bo'ladiki, insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi bir yoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham yetishmayapti.

Bunday ahvol vujudga kelganining boisi nimada?

Shu qadar katta boyliklarga, ishlab chiqarish va fan-texnika imkoniyatlariga, qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga ega bo'lgan respublikamiz, asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatda oxirgi o'rinlardan biriga — haqli ravishda tang holat, deb atalgan ahvolga tushib qolganining sababi nimada?

Respublikaning taqdiri, uning kelajagi uchun qayg'urayotgan, yosh avlod taqdiri uchun kuyunayotgan sog'lom fikrli har bir kishi hozir o'ziga o'zi shu savolni bermoqda.

Nazarimda, buning javobi shunday bo'lmog'i kerak: 30-yillarning boshlarida iqtisodiyotga rahbarlik qilishning ma'muriyatchilik, buyruqbozlik usullari g'alaba qozonib, O'zbekistonni, uning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishga yaroqsiz yondashuvlar tobora qaror topib bordi. Xo'sh, bu illatlar nimalarda namoyon bo'ldi? Avvalo shundaki, bizning respublikamiz, asosan, xomashyo bazasi, sanoat ministrliklari va idoralarining mo'may xomashyo manbayi deb hisoblanar edi. O'lkaning mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ba'zan yetarlicha, ba'zan mutlaqo baho berilmadi, ba'zan esa bu xususiyatlar pisand ham qilinmadi. Iqtisodiy va ijtimoiy sohani kompleks, jadal rivojlantirishning, umumittifoq mehnat taqsimotida O'zbekiston SSR ning mavqeyi va o'rnini o'zgartirishning muqobil yo'llari e'tiborga olinmadi.

Kelinglar, respublikamiz umumittifoq mehnat taqsimotida qanday o'rinda turganini, qaysi ko'rsatkichlar bo'yicha oldingi marralarga siljiganini bir ko'zdan kechiraylik. Biz respublikamizda 1500 yirik ishlab chiqarish birlashmasi va korxonasi ishlab turgani haqida, revolutsiyadan avval bir yil davomida hosil qilingan miqdordagi elektr energiya hozir to'rt kunda ishlab chiqarilayotgani haqida hamisha faxrlanib gapirar edik. Biz gaz qazib olish sohasida mamlakatda to'rtinchi o'rinda turibmiz. Qishloq xo'jaligimiz mamlakatdagi paxtaning uchdan ikki qismini, qorako'l terining uchdan bir qismidan ko'prog'ini, pillaning 60

foizidan ziyodini, ko'p miqdordagi kanop, meva, uzum, sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirib bermoqda.

Ming kishi hisobiga to'g'ri keladigan talabalar soni jihatidan O'zbekiston ko'pgina rivojlangan mamlakatlardan oldinda turibdi.

Bu xulosalar mo'tabar minbarlardan turib, dissertatsiyalarday raportlarda va ma'lumotnomalarda ko'p takrorlangan. Xo'sh, bu gaplarning zaminida qanday ma'no bor? **Iqtisodiyotimiz bir yoqlama tarzda, faqat xomashyo yetishtiradigan holga tushib qolganini va kompleks rivojlanish yo'liga, aholi ehtiyojlarini qondirishga o'tkazilmaganini qayd etishga to'g'ri keladi. Sanoatda tayyor mahsulotning ulushi bor-yo'g'i 50 foizni tashkil etadi, qishloq xo'jaligi mahsulotining 80 foizdan ko'prog'i mutlaqo qayta ishlanmasdan respublika tashqarisiga chiqarilmoqda. Respublikadan olib ketilayotgan mahsulotning uchdan ikki qismi xomashyo, materiallar va chala tayyor mahsulotlar ekanligining o'zi ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilishidagi chuqur nomutanosibliklardan darak beradi.**

Respublikaga keltirilayotgan tovarlarning 60 foizi esa mashinalar, asbob-uskunalar, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati mahsulotlaridir.

G'alati bir vaziyat vujudga kelmoqda. Respublika juda qimmatli xomashyo — paxta, nitron, kaprolaktam ishlab chiqarayotgan bir paytda ularni qayta ishlashdagi sayozlik, texnologiya zanjiri nihoyasiga yetkazilmaganligi oqibatida ayni shu xomashyodan ishlab chiqariladigan gazlama, sun'iy tola va tayyor mahsulotlarni chetdan keltirishga majbur bo'lmoqda.

Hisob-kitoblarga qaraganda, ko'p mablag' sarflamasdan, korxonalarni birmuncha o'zgartirib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin

bo'lur edi. Ana shunda material va tovar ta'minoti moliyaviy imkoniyatlarini qidirib topish masalalari bu qadar keskinlashmagan bo'lur edi.

Keyingi o'n yilliklar mobaynida iqtisodiyotni rivojlantirishda xomashyo va chala tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan va chetga yuboradigan, mehnatni nisbatan kamroq talab qiladigan xomashyo tarmoqlari ustun deb hisoblandi. Natijada ishlab chiqarishning umumiy hajmida yengil sanoatning ulushi keyingi 50 yil ichida 54 foizdan 37 foizga, oziq-ovqat sanoatining ulushi 30 foizdan 14 foizga tushib qoldi. Buning o'rniga yoqilg'i sanoati, ximiya va neft ximiyasi, qora va rangli metallurgiya, ya'ni xomashyo tarmoqlarining ulushi ancha ko'paydi. Ayni vaqtda mashinasozlikning ulushi shu yillarda atigi 7 ko'rsatkichga ko'paydi va hozirgi vaqtda atigi 16 foizni tashkil etadi.

Bu tarmoqlarning jadal rivojlanishi esa mehnatga layoqatli aholini ishlab chiqarishga jalb etish vazifasini hal qilmadi, hal eta olmas ham edi. Chunki 1 million so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondlariga yoqilg'i sanoati va elektr energetikada 9 kishi, ximiya sanoatida 16, neft ximiyasida 18, qora metallurgiyada 34, rangli metallurgiyada 24 kishi jalb etilmoqda. Yengil sanoatda esa 1 million so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondlariga 168 kishi, yog'ochsozlik sanoatida 143, mashinasozlikda 112, oziq-ovqat sanoatida 90 kishi ish bilan ta'minlanadi. Shu tarmoqlarning ayrim sohalari-da esa mehnattalablik ko'lami 300 — 400 kishiga yetadi. Ammo bu xususiyatlar hisobga olinmadi.

Butun faoliyati paxtachilik, paxtachilik uchun mashinalar ishlab chiqarish bilangina cheklangan mashinasozlikni kompleks rivojlangan soha deb bo'ladimi, axir. Respublikada murakkab uy-ro'zg'or texnikasi, yo'l

qurish mashinalari, plastmassa buyumlari, oziq-ovqat sanoati jihozlari, savdo-sotiq va maishiy xizmat sohasi uchun kerakli asbob-uskunalar va shu kabilar deyarli ishlab chiqarilmayapti.

Nega bunday bo'ldi? Xalqimiz — iste'dodli xalq, u zamonaviy ishlab chiqarishni, elektronikani, uskunasozlikni, ilm-fan va mehnat sarfi ko'plab talab qilindigan boshqa sanoat tarmoqlarini o'zlashtirib olishga qodir.

Hozir kimyo rivojlanishidagi «muvaffaqiyatlar»ga ham achinib qayta baho berishga to'g'ri keladi. Bu sohada katta-katta korxonalariga afzallik berib kelindi, ular respublikadagi ekologiya vaziyatini juda yomonlashtirib yubordi... Buning ustiga, mana shunday azim korxonalar ham aslida dastlabki qayta ishlangan mahsulotlarni — nitron, asetat, kaprolaktamni ishlab chiqarmoqdaki, ular ham O'zbekistondan tashqariga yuborishga mo'ljallangandir.

Respublika yalpi paxta hosilini g'arazli maqsadlarda ko'paytiradi, degan da'vo'lar ham bo'ldi. Bu afsonaga chek qo'yish payti keldi. Paxtaning yakkahokimligi O'zbekiston qishloq xo'jaligining tub maqsadlariga xilof ravishda yuqoridan zo'rlab o'tkazib kelindi.

So'ngra, 30-yillardan boshlaboq, O'zbekiston SSR oldiga qanday qilib bo'lmasin mamlakatning paxta sohasidagi mustaqilligini ta'minlash vazifasi qo'yilgan edi. Biz, qancha mashaqqat bilan bo'lmasin, bu vazifani hal qildik.

O'zbekistonni paxta yetishtirishga mana shunday ixtisoslashtirish oqibatida respublikada go'sht va sut yetishtirish imkoniyatlari kamayib ketdi, biroq biz shunga muvofiq ravishda o'rnini to'ldiradigan hech narsa olmadik.

Ayni bir paytda respublikaning ko'pgina hayotiy muhim manfaatlariga ziyon yetdi, **paxta yakkahokimligi, ilmiy asoslangan almashlab ekishlar buzilganligi, yerning tinka-madori qurib ketganligi, suv manbalarining imkoniyatlari tobora kamayib borganligi qishloq xo'jaligiga halokatli ta'sir ko'rsatdi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish cheklab qo'yildi va aholini shu mahsulotlar bilan ta'minlash muammolari keskinlashdi. Orol dengizining falokati Qoraqalpog'iston janubi uchun borib turgan ekologik kulfat bo'ldi, endi Orolni qutqarib qolish uchun zudlik bilan favqulodda chora-tadbirlar ko'rilishi kerak.**

Shunday qilib, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishdagi xatolar va yaroqsiz yondashuvlar, xalq xo'jaligining tuzilishida, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishda yo'l qo'yilgan katta-katta xatolar va nomutanosibliklar og'ir oqibatlariga olib keldi. Xalq xo'jaligi sohasida bir qancha mashaqqatli muammolarni vujudga keltirdi. Respublikada ijtimoiy, iqtisodiy keskinlik kuchayib, tanglik holati yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Boshqa barcha muammolar — aholining ish bilan ta'minlanishi, milliy daromadning shakllanishi kabi sohalarga ham bu ahvol o'z ta'sirini o'tkazdi, bu esa budjetning kamomadiga, har bir oilaning moddiy ta'minoti darajasi pasayishiga olib keldi.

Maktab va maktabgacha ta'limni rivojlantirish, yoshlarni axloqiy tarbiyalash masalalarini olib ko'raylik. Faqat eng ilg'or ishlab chiqarishgina, oqilona yo'lga qo'yilgan infrastruktura va avvalo, ijtimoiy infrastrukturagina yosh avlodni uyg'un kamol toptirish uchun, uni bolalik chog'ida zamonaviy ishlab

chiqarishga, fan-texnika taraqqiyotiga qiziqtirish uchun sharoit yaratadi.

Bugun biz butun mas'uliyat bilan shunday deyishimiz kerak: mintaqamiz taraqqiyotining tarixiy, oqilona mantiqni e'tiborga olmay, buyruqbozlik-ma'muriyatchilik usullari tazyiqi ostida shakllangan qarashlarning hammasiga barham berilishi kerak. Mintaqamiz taraqqiyotining istiqbollari, avvalo respublika aholisining, mana shu qadimiy va go'zal diyorda yashovchi barchaning, har bir kishining manfaati nuqtayi nazaridan qaramoq kerak.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishini, struktura va investitsiya siyosatini qaytadan ko'rib chiqish, barpo etilgan ishlab chiqarish quvvatidan, ijtimoiy va ma'naviy imkoniyatlaridan foydalanish sohasida o'tkaziladigan va hozirning o'zidayoq o'tkazilayotgan strategiyaga mana shunday yondashuv asos qilib olinishi kerak.

Yig'ilib qolgan muammolarimiz O'rta Osiyodagi barcha respublikalarga va Qozog'istonga ham taalluqli ekanligi ravshan. Chunki iqtisodiyotda, madaniyat va tarixda ularning mushtarak belgilari ko'p. Biroq, bu sohada ham tuzukroq o'zaro aloqalar yo'lga qo'yilmagan. Bizning chuqur ishonchimizga ko'ra, agar munosabatlar yanada mustahkam, o'zaro manfaatli hamkorlik, to'g'ri mehnat taqsimoti asosiga qurilsa, har bir respublika bundan manfaatdor bo'ladi...

III. Ma'naviy-siyosiy vaziyat va uni barqaror qilish choralari

... Hozir shuni e'tirof etish kerakki, O'zbekiston SSRning siyosiy hayoti kadrlar bilan ishlashdagi jiddiy xatolarni bartaraf etishga, qonunchilikni qo'pol tarzda

buzishga chek qo'yishga va odamlarni o'zboshimchalikdan muhofaza etishga qaratilgandir.

O'zbekistonning boshiga tushgan kulfatni uning aybi deyishga urinishdi. «O'zbek ishi», «Paxta ishi», deb atalmish gaplar bunga misol bo'la oladi. Respublika, uning mehnatkashlari paxtaning yalpi hosili ketidan quvishning azob-uqubatidan, partiya, davlat normalari va qonunlari, ijtimoiy adolat tuzumlarining aynib ketishi va buzilishidan hali nafaslarini rostlab olmay turib, xuddi o'sha paxta bilan bog'liq qonunsizlik va xo'rlashning tegirmon toshi ularning boshida yana aylana boshladi...

Mamlakat markaziy idoralarida ham muayyan kuchlar o'zlarining g'arazgo'ylik maqsadlarida bundan foydalandilar.

Ommaviy axborot vositalarida xalqni dalil-isbotsiz tahqir etish, ayrim halol mehnatkashlarni ma'naviy ezish, qo'shib yozishlarni tashkil etgan shaxslar bilan bir qatorda minglab oddiy ijrochilarga qarshi yalpi jazolashlarning avj oldirilishi xalqning dardi ustiga chipqon bo'ldi.

Bo'sh-bayov, siyosiy irodadan mahrum, o'z xalqining or-nomusi va qadr-qimmatini himoya qilishga qodir bo'lmagan kishilarning O'zbekiston Kompartiyasi va respublika rahbariyatiga kelib qolishi, avvalo, shunga yordam berdi. Ularning aksariyati o'zlarining omon qolishlarini o'ylab, huquq muhofazasi organlari, jumladan, Gdlyan va Ivanov guruhi yo'l qo'ygan qonunsizlik va qonun buzilishlarini payqamaslikka obdan urindilar.

So'nggi vaqtda O'zbekistondagi sog'lom kuchlar xalqni ana shu adolatsizlikdan himoya qilish uchun ancha ish qildilar, ammo bundan buyon yanada ko'proq ish qilinishi kerak.

Bugun biz respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida jiddiy siljishlar bo'ldi, deb ayta olmaymiz. Aksincha, respublika xom o'ylangan tajribalarning o'ziga xos sinov maydoniga aylandi.

Mamlakatning boshqa mintaqalarida bo'lganidek, goho ichkilikbozlikka qarshi boshlangan kampaniya, goho davlat qabuli, goho xo'jalik islohoti, ba'zida esa davlat korxonasi to'g'risidagi, kooperatsiya to'g'risidagi puxta o'ylanmagan qonunlarning joriy etilishi, ana shu unumsiz tajribalar jumlasidandir.

Bugun shuni aytish kerakki, respublika rahbariyati ana shu barcha tadbirlarni amalga oshirishda markazga ma'qul tushsin deb birinchi o'rinda bo'lishga harakat qildi, ayni vaqtda bu xalq uchun qanday oqibatlariga olib kelishini o'ylab o'tirmadi.

«Respublika xalq xo'jaligi kompleksini boshqarishning bosh sxemasi» deb atalmish zo'rma-zo'raki sxema O'zbekistonning xususiyatlari va respublika ahli manfaatlarini inkor etishning yaqqol misolidir. Bu o'rinda gap qaror topgan strukturalar va tarkib topgan aloqalarni beo'xshovlik bilan, sira asoslanmagan bir tarzda qaytadan «bichib-tikish» dagina emas, balki yaroqsiz yondashuv metodikasining xuddi o'zginasidadir.

Aslida barcha aholining hayotiy manfaatlariga daxldor bo'lgan, amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan o'zgarishlar jamoatchilikdan yashirincha tayyorlandi. Aniq-ravshanlik kiritishga, o'zgacha takliflarni asoslab berishga har qanday urinishlar rad etilibgina qolmay, tahqirleydigan yorliqlar va siyosiy ayblar yordamida bo'g'ib tashlanaverdi.

Buni qarangki, go'yo konservatizm, mahalliychilik yangilikka qarshi chiqqan emish. Oqibatda, xalq xo'ja-

ligiga necha yuz million so'mlik zarar yetkazildi. **Odamlarning ehtiyojlari va manfaatlari oyoqosti qilingani natijasida yetkazilgan ma'naviy ziyonning mezon bormi, ahvolni darhol o'nglab olish uchun qilingan harakatlar-chi?**

Endi bir savol paydo bo'ladi: xo'sh, bundan kim naf ko'rdi, ana shu soxta qayta qurish qarorlarini kim aytib turib yozdirgan edi va kim shu yo'sinda amal pillapoyasidan ko'tarilmoqchi bo'lgan edi? O'zining lavozimiga ko'ra, respublika manfaatlarini himoya qilishi va ana shu qimmatga tushgan tajribalarning yo'lini to'sishi lozim bo'lgan rahbarlar qayerda edi?

Ilgarigi Markaziy Komitet byurosi hay'ati faoliyatida aniq-ravshan pozitsiya, iroda birligi bo'lmagani, shu faoliyatning bo'shligi respublikaga, uning partiya tashkilotiga qimmatga tushdi. Birinchi rahbarlarning yo'l qo'yib berishi sababli bu yerda o'ziga xos «pinhoni kabinet» tarkib topdi, ushbu «kabinet» kuch ishlatib tazyiq ko'rsatish va orqavoratdan tuhmat qilish yo'li bilan respublikaning chinakam manfaatlariga mutlaqo aloqasi bo'lmagan avantyuristik qarorlarni tiqishtiraverdi.

Mahalliy kadrlar va boshqa mintaqalardan jo'natilgan kadrlarning sun'iy tarzda kuchaytirilgan qarama-qarshiligi o'nglash qiyin bo'lgan siyosiy va ma'naviy zarar yetkazdi.

Boshqa mintaqalardan jo'natilgan kadrlarning ba'zilar respublika ehtiyojlari va kulfatlariga hamdard bo'lish u yoqda tursin, balki partiya, sovet va huquqni muhofaza etish organlari va boshqa organlarda o'zlarining rahbar lavozimlariga tayinlanishlarini o'zboshimchalik qilish uchun berilgan yorliq deb bildilar.

Xalqning juda boy tarixi va madaniyatini, o'lkaning o'ziga xos noyob xususiyatlarini bilmagan va bilishni ham istamagan bu odamlar respublika hayotini bosib-yanchib, qing'ir o'zanga solishga kirishdilar.

Xalqning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatları va ma'naviy qadriyatlarini mensimaslik elni juda ranjitdi.

Ayrim mahalliy rahbarlar ham amal pillapoyasidan ko'tarilishga harakat qilib, o'zlarini ajdodlarini unutgan manqurtlar deb shosha-pisha e'lon qildilar. **Xalqning urf-odatları, an'analari, madaniyati obdan oyoqosti qilindi, ona tilining qo'llanish sohasi sun'iy tarzda cheklab qo'yildi. Hatto, shundoq ham milliy an'analardan ancha olisda bo'lgan ayrim san'at turlari ham kimlargadir maqbul bo'lmay qoldi va ularni yangilashga urindilar. Hatto milliy libos ham qoralandi. Kezi kelganda odamlar milliy an'analar bo'yicha to'y qilish, qarindosh-urug'larni dafn etishga ham cho'chib qolgan edilar.**

Buni baynalmilalchilik shiorlari bilan niqoblashga beo'xshov urinishlarning chinakam baynalmilalchilikka mutlaqo aloqasi yo'q edi. **Respublika hududida o'zbek tilining davlat tili sifatida e'tirof etilishi to'g'risidagi qonun, dastavval qay yo'sinda tayyorlanganini eslab o'tish kifoya. Xuddi shu yo'sinda ikki tillik haqidagi qonun loyihasini o'tkazish uchun ancha harakatlar qilindi.**

Odamlar, hatto bir umr qishloqda yashab, ona tilida so'zlab kelgan, til boisidan sira qiyinchilikka uchraramagan kishilar ham bu loyihani qabul qilmadi.

Takror aytamanki, bu ishlarning hammasi amalga intilgan, «ob-havo»ga qarab ish yuritgan kishilarning qilmishi edi. Ammo qilg'iliqni qilib qo'ygan ana shu

arboblar eng asosiy narsani — xalqni unutib qo'yishdi. Xalq esa hech qachon milliy o'ziga xoslik yo'qolib ketishiga rozi bo'lmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, demografiya vaziyati va ishsizlikning ko'payib borishi, ekologiya tangligi, xalqning ma'naviy jihatdan haqoratlanishi juda qaltis ahvolni vujudga keltirdi. Ekstremist kuchlar esa vaziyatni keskinlashtirish, odamlarni ommaviy tartibsizliklarga va huquqqa xilof xatti-harakatlarga tortish, ijtimoiy va millatlararo nifoqlar va to'qnashuvlarni chiqarish uchun shu holatdan foydalandilar.

O'tgan yili Farg'ona viloyatida bo'lgan fojiali voqealar, yaqindagina Toshkent viloyatining Bo'ka va Parkent rayonlarida, Andijon shahrida bo'lgan tartibsizliklar xuddi ana shu sharoitda yuzaga keldi. Bu voqealarga oblast, shahar va rayon partiya komitetlari darajasida ham, Markaziy Komitet darajasida ham keskinlik bilan baho berildi. Bu baholarni qaytarib o'tirishga ehtiyoj bo'lmasa kerak. Ammo o'sha voqealardan hali yana necha bor saboq chiqarib olishimizga to'g'ri keladi.

Xo'sh, bu saboqlarning mohiyati nimada? Avvalo shundaki, mahalliy partiya, sovet organlari, jamoat tashkilotlari xalqdan, uning dardi va ehtiyojlaridan ajralib, vaziyatni nazorat qilish, voqealarni oldindan bilish va ularni boshqarish qobiliyatidan mahrum bo'lib qolgan edilar.

Eshikni mahkam yopib olib, o'z xonalarida odamlar taqdirini hal etayotgan ko'pgina mansabdorlar qaltis vaqtda kishilar huzuriga chiqishga qo'rqdilar. Ularning xalqqa aytadigan gapi yo'q edi, ular xalqni tushunmas, xalq ham ularni tushunmas edi. Buning ustiga, ularning ko'pi xalqning tilini ham bilmas edi.

Boz ustiga, keyinchalik ma'lum bo'lishicha, ko'pgina amaldor shaxslar, jumladan, voqealar o't-olovdek chaqnab ketgan Toshloq rayonidagi ana shunday shaxslar qonun-qoidalarni buzishgan, poraxo'rlik qilishgan. Ular, avvalo, o'zlari va qarindosh-urug'lariga yakka tartibda uylar qurish uchun yer uchastkalari ajratib berishgan, ssudalar olishgan, holbuki, yer va qarz olishga muhtoj bo'lgan 400 nafar oddiy mehnatkashga rad javobi berilgan edi.

Sotish uchun 319 ta avtomashina ajratilganida, shulardan 236 tasi rayonda yashamaydigan, jumladan, boshqa respublikalarda istiqomat qiladigan kishilarga g'ayriqonuniy tarzda taqsimlangan, uy-joy taqsimlash tartibi qo'pol tarzda buzilgan, gazlashtirish, suv ta'minoti, ishga joylashtirish masalalari necha yillar mobaynida hal bo'lmay qolavergan.

Holbuki, ana shu masalalar hal etilmasdan turib, odam ko'ngildagiday yashay olmaydi-ku. Ahvol shunday ekan, partiya, sovet organlarining obro'si, ularning ommaga ta'siri haqida gapirishning hojati ham bo'lmasa kerak.

Huquqni muhofaza etish organlari o'z noqobilliklarini ko'rsatdi. Ular ommaviy tartibsizliklarning oldini olish u yoqda tursin, ko'pincha shu tartibsizliklarga o'zlari yo'l ochib berdilar. Keyinchalik esa, yana vaziyat barqarorlashib, tergov boshlangach, ular ishni yuzaki yuritishni afzal ko'rdilar. Oqibatda fojining bosh tashkilotchilari va asosiy sababchilari panada qolib ketdi.

Odamlar o'z tirikchiligidan norozi bo'lib turgan bir vaqtda ayrim poraxo'r, noinsof unsurlar vaziyatdan foydalanishga urindi va aksar hollarda bunga muvaffaq bo'ldilar. Ushbu unsurlar uchun shaxsiy manfaat, shaxsiy nafsoniyat odamlarning, xalqning manfaatla-

ridan ustundir. Biz buni ilg'ab olishimiz kerak. Tartibsizliklarning qatnashchilari har xil ijozat berilmagan mitinglar, yig'ilishlar va yurishlarning tashkilotchilari, ma'buotda noxolis maqolalar bilan chiqayotgan, mish-mishlar, varaqalar tarqatayotgan, radikal talablar bayon etilgan xatlarni uyushtirayotgan kishilarning ta'sirida bo'lganligi ayon-ku!

Asosiy yakun shundan iboratki, Farg'onadagi yong'inlar alangasida bizning qarorlarning sehrli kuchi to'g'risidagi ko'pgina tasavvurimiz yonib ketdi. Ilgari-gi Farg'ona oblast partiya komiteti to'rt tomonga jar solib partiya tashkilotlarining jangovarligi ko'rigini o'tkazayapmiz, deb yurar edi. Ana shunday rasmiy tadbirlar ham bamisoli tumandek tarqab ketdi.

Ochiq-oydin aytib qo'ya qolaylik: agar respublika rahbariyati ana shunday sharoitda mavhum pand-nasihatlarni davom ettiraveradigan bo'lsa va ba'zi puch va'dalar beraversa, halokat miqyoslarini tasavvur etish qiyin emas. Yangi rahbariyat oldida eskilikni bartaraf etish, vaziyatni yumshatish, portlash bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun zarur imkoniyatlar qidirib topish va samarali, ta'sirchan choralar ko'rishdek og'ir vazifa turar edi.

Shunday tadbirlar ko'rildi ham. Paxta yakkahokimligiga barham berish, paxta tayyorlashni barqarorlashtirish, paxta va boshqa mahsulotlarni yig'ishtirib olish uchun to'langan qo'shimcha haq shular jumlasidandir. O'tgan yili qariyb 400 million so'mlik qo'shimcha haq to'landi, bu yil esa haq ikki barobar ko'payadi. Paxta va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari narxini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi masala ham qisman hal qilina boshlandi. Daromadi kam bo'lgan aholiga yordam berilyapti, boshlang'ich sinflarda o'qiyotgan

o'quvchilarga, xasta, homilador ayollarga bepul nonushta beriladigan bo'ldi. Veteranlarning pensiyalari va imtiyozlari ko'paydi. Talabalar qo'shimcha pul olayaptilar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu tadbirlarning hammasi respublika aholisiga, eng avvalo, qishloq ahliga juda ma'qul bo'ldi. Darhaqiqat, shaxsiy yordamchi xo'jaliklar uchun va yakka tartibdagi uy-joy qurish uchun berilayotgan yerning ko'paytirilishi, shu maqsadlar uchun ssudalarning va qurilish materiallarini sotishning ko'payishi shu tadbirlar sirasiga kiradi.

Ko'p bolali onalar, Ulug' Vatan urushi nogironlari va qatnashchilariga yordamni ko'paytirish to'g'risida Prezident qabul qilgan farmonlar ham shular jumlasidandir. Shaxsiy yordamchi xo'jalikni muqarrar tarzda yem-xashak bilan ta'minlash to'g'risidagi tadbirlarni ham tilga olish mumkin.

Odamsodning rizq-nasibasi faqat nongina emas. Respublika hududida o'zbek tiliga Davlat tili maqomini berish to'g'risidagi Qonunning qabul qilinishi, ilgari taqiqlab qo'yilgan urf-odatlar va an'analarning tiklanishi, xalq e'zozlagan Navro'z bayramining qayta tug'ilishi va shu kunning dam olish kuni deb e'lon qilingani, O'zbekistondan xizmatga chaqirilayotgan yigitlar qurilish qismlaridagi harbiy xizmat tartibining o'zgartirilgani va boshqa ko'p tadbirlar insonga g'amxo'rlik, xalqqa izzat-ikromning mujassam bo'lishidir.

Bularning hammasi, birovlar behuda uqtirishga urinayotganidek, xalqqa xushomad emas, balki bizning prinsipial yo'limizdir, biz bu yo'lni kelajakda ham izchillik bilan amalga oshiraveramiz...

Xalqqa bergan va'damizni bajarish, amaliy ishlar bilan uning ishonchini oqlash — bizning burchimizdir.

So'nggi vaqtda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1984-yil XVI plenumi qarorlarini qayta ko'rib chiqish va bekor qilish zarurligi to'g'risida takliflar aytilmoqda. Bir qancha oblast partiya konferensiyalarida, partiya organlariga kelayotgan maktublarda ham shu gap ko'tarilmoqda.

Darhaqiqat, bugun biz O'zbekiston Kompartiyasining ana shu va keyingi plenumlaridagi, O'zbekiston Kompartiyasi XXI syezdidagi tahlil va xulosalarni bir xil qabul qila olmaymiz.

Avvalo, paxta hajmi ketidan quvish, paxta yakka-hokimligi «mahalliychilik» manfaatlariga mos edi, respublika shuning evaziga «boylik orttirdi», degan xulosaga sira qo'shilib bo'lmaydi. Biz mamlakatning paxta mustaqilligini ta'minlash uchun o'z baynalmilal burchimizni ado eta borib, ko'ra-bila turib, respublika manfaatlariga va ilmiy agrotexnika talablariga putur yetkazib, meva va sabzavot, yem-xashak tayyorlashni cheklab qo'yishga, demakki, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni cheklab qo'yishga majbur bo'ldik.

Oqibatda, mamlakatda oziq-ovqat iste'moli, umuman, turmush darajasi bo'yicha oxirgi o'rinlardan biriga tushib qoldik. Paxtamiz uchun munosib haq to'lash o'rniga, bizga, boqimanda bo'lib qoldingiz, deb ta'na qilishdi. Xalqni bu tarzda behayolik bilan oyoqosti qilishni biz qat'iy rad etamiz.

Almisoqdan qolgan turmush tartibiga moyillik xususidagi ta'nalarni ham, xalq an'analariga, diniy e'tiqodga o'zboshimchalik bilan baho berishni ham, xalq xotirasidan o'tmishni o'chirib yuborishga urinishlarni ham qabul qila olmaymiz.

Bularning hammasini biz qat'iy rad etamiz va asossiz tarzda repressiyalarga duchor bo'lgan kishilar-

ning or-nomusi, qadr-qimmatini, pokiza nomini tiklashni, ularga yetkazilgan ma'naviy va moddiy ziyon o'rnini qoplashni o'zimizning birinchi galdagi burchimiz deb bilamiz.

... Bu adolatsizliklar XVI plenum qabul qilgan yo'ldagi nojo'yaliklar va aynishlar, shu yo'lni amalga oshirishdagi o'zboshimchalik bilan izohlanadi. Respublika boshiga tushgan kulfatdan foydalanib, amal pillapoyalaridan ko'tarilib borgan kishilar nojo'yaliklar va aynishlarga yo'l ochib berishdi.

Partiya, sovet va xo'jalik rahbarlarining bir qismi poraxo'r bo'lib chiqqani, oshna-og'aynigarchilik va tanish-bilishchilik keng tarqalib, ijtimoiy adolat prinsiplari qo'pol tarzda buzilganligi faktini e'tirof etmasdan ilojimiz yo'q.

Ayrim kishilar so'nggi vaqtdagi xunuk holatlarga baho berishar ekan, tezroq o'tmishdagi salbiy hollarni o'chirib tashlashni, bunday hollarni yo'q edi deb e'lon qilishni yoki juda bo'lmaganda, ular batamom bartaraf etildi, deb e'lon qilishni istaydilar.

Ammo yer uchastkalari ajratib berilayotganida, yakka tartibda uy-joy qurish uchun ssudalar berilayotganida, qurilish materiallari bilan ta'minlash chog'ida tamagirlik va poraxo'rlik qilinayotgani haqida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetiga, respublikaning boshqa organlariga anchagina tashvishli xabarlar kelib turibdi.

Oliy o'quv yurtlaridagi poraxo'rlik, kasalxonalarda davolash chog'idagi tamagirlik hali ham uchrab turibdi. Kamyob mollar, mashinalar bilan chayqovchilik qilish jamiyat boshiga bitgan balo bo'ldi. Uy-joyni taqsimlashda ham hali zarur tartib o'rnatilgani yo'q.

Kooperativlar faoliyatini mablag' bilan ta'minlash, valuta operatsiyalarini ro'yobga chiqarish chog'ida qonun-qoidalarining qo'pol tarzda buzilishi aniqlanmoqda.

Biz xufiyona iqtisodiyotning ta'siri ortib borayotganiga ham beparvo qaray olmaymiz, talay joylarda ana shu «nomatlub iqtisodiyot» ayrim huquqni muhofaza etish organlari bilan til biriktirib olmoqda. Xo'sh, bundan kim ozor chekyapti? Birinchi navbatda xalq, ishchilar, dehqonlar, oddiy odamlar buning jabrini tortishmoqda, albatta.

Shuni ham unutmaslik kerakki, bozor iqtisodiyotiga o'tilishi munosabati bilan martabali shaxslarning o'z mansablarini suiiste'mol qilishi ehtimoli ko'p marta ortadi. Biz fuqarolarni har xil jinoyatlardan, shu jumladan, mansabdor shaxslarning jinoyatlaridan ijtimoiy muhofaza etish dasturini kuchaytirishimiz lozim bo'ladi.

Rahbarlarning intizomi va mas'uliyatini mustahkamlash, tanqid va o'z-o'zini tanqidni kuchaytirish to'g'risidagi qoidalar o'z dolzarbligini yo'qotmasdan, aksincha, muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'z-o'zimizga va boshqalarga nisbatan qattiqqo'llik bilan talabchan bo'lish — bu mavsumiy yumush bo'lmasdan, balki bizning prinsipial yo'limizdir va biz bu yo'lni kelajakda ham izchillik bilan amalga oshiraveramiz.

Hamisha tarixning har qanday burilish pallalarida ham bosiq-vazminlik, xolislik va mas'uliyat zarur. **60-80-yillarda sodir bo'lgan barcha voqealarni ayrim shaxslarning aybi bilan bo'lgan edi, deb o'chirib tashlash va xuddi shu asosda o'sha davrda, hamma narsa bir xil noxush bo'lgan edi, deb chaplab tashlash mumkin emas.**

Sharof Rashidov faoliyatiga baho berishda xuddi ana shu pozitsiyalardan yondashish lozim bo'ladi. U biz endilikda turg'unlik yillari deb atayotgan davrda, qariyb chorak asr mobaynida respublikaga rahbarlik qilib yashadi va ishladi.

Agar oliy adolat mavjud bo'lsa, bizning e'tiqodimizga ko'ra, xalq fikri oliy haqiqatdir, xuddi ana shu adolat, xuddi ana shu haqiqat, o'sha kishining nomi bilan bog'liq bo'lgan, respublika hayotidagi o'zgarishlarda katta ahamiyatga ega bo'lgan ulkan o'zgarishlarni rad eta olmaydi. To'g'ri, o'sha davrda xo'jako'rsinchilik va raportbozlik, dabdaba va ko'zbo'yamachilik, oshnagog'aynigarchilik va fitna ham avj olgan edi.

Xo'sh, aynan Rashidov o'sha barcha voqealarning asoschisi bo'lgan edimi? Va bugun biz yakdillik bilan qoralayotgan illatlar faqat uning o'zigagina xos bo'lganmi? Axir, xuddi shunday hodisalar boshqa respublikalar va mintaqalarda ham ro'y bermaganmidi?

Brejnev va uning atrofidagi shaxslarning mas'uliyatini ham unutmashimiz kerak.

Biz Rashidov nomi bilan bog'liq bo'lgan barcha salbiy narsalarni qoralaymiz. Bu salbiy narsalar biz uchun maqbul emas. O'tmishning bu illatlaridan poklanishimiz kerak. Busiz olg'a qarab harakat qila olmaymiz.

Shu bilan bir qatorda, o'sha davrdagi qilmishlarni endilikda hayotdan ko'z yumgan bitta shaxsning o'zigagina bog'lab qo'ya olmaymiz. Boz ustiga Rashidovni bugun fosh etayotganlarning aksariyati o'sha vaqtlar ancha baland lavozimlarda u bilan birga ishlagan edi. Shunday ekan, hozir uning nomini sotishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Oddiygina diyonat, andisha tuyg'usi, o'tmish uchun shaxsiy mas'uliyat kabi tushunchalar to'g'risida gapirmaganimizda ham ana shunday subutsizlik usullarining xavfi shundaki, **hozir ham ayrim kimsalar o'z nafsoniyatini o'ylab, yangi gaplarni qidirmoqda, zir yugurib, o'zlarini saqlab qolishga va hatto, yangi to'liqinlarda yana balandroq «amal taxti»ga minishga urinmoqda.**

Ayni vaqtda asosiy narsa panada qolib ketmoqda. Buning mohiyati shundaki, har qanday davrda xalq buyuk mehnatkash bo'lib kelgan edi, hozir ham shunday va bundan buyon ham shunday bo'ladi, yer yuzidagi barcha qadriyatlar xuddi ana shu mehnatkash insonlarning qo'li bilan bunyodga kelgan.

Kimki xalqqa halollik bilan, mardlik bilan muttasil haq so'zni aytib kelgan bo'lsa, shu xalqning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi uchun butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olsa, el-yurtning izzat-hurmati va ishonchidan umidvor bo'lishi mumkin.

Barcha aybni o'zlarining o'tmishdoshlari zimmasiga yuklash noto'g'ridir...

So'nggi yilda qilingan barcha ishlar dastlabki qadamlardir, xolos, shu qadamlar respublikamizda tobora avj olib ketgan keskinlikni bartaraf etishga muayyan darajada yordam berdi.

Amaliy tadbirlar mamlakatdagi xalq xo'jalik ko'rsatkichlari tobora pastlab ketayotgan bir davrda asosiy ko'rsatkichlar darajasini saqlab qolishga va, hatto, bir qadar olg'a siljishga imkon berdi. Biz zo'riqmasdan va shahar ahlini safarbar qilmay, o'tgan yili paxtadan durust hosil ko'tardik. Sanoat ishlab chiqarishida ham, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham muayyan siljishlar bor.

Iste'mol buyumlari ishlab chiqarishning o'sishi ishlab chiqarish vositalari tayyorlashning o'sishidan ikki barobar ildamlashib ketdi. Gaz, neft qazib olish, sement, linoleum, mol yog'i, meva-sabzavot konservalari ishlab chiqarish yuzasidan topshiriqlar bajarildi. Kartoshka, sabzavot, go'sht, sut va boshqa mahsulotlarni xarid qilish ko'paydi.

To'rt yil mobaynida 2,3 million kvadrat metr uy-joy, 71 ming o'ringa mo'ljallangan umumta'lim maktablari, qariyb 3000 bemorga mo'ljallangan kasalxonalar, har smenada 8 ming betob kishini qabul qilishga mo'ljallangan poliklinikalar planga qo'shimcha tarzda foydalanishga topshirildi.

Shu bilan bir qatorda, hali respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ko'zga ko'rinarli jiddiy siljishlar sodir bo'lgani yo'q. Xo'jalik yuritishning eski usullari asorati batamom bartaraf etilgani yo'q.

To'rt yil mobaynida belgilangan topshiriqlar yuzasidan 10,5 milliard so'mlik yalpi ijtimoiy mahsulot kam ishlab chiqarildi, milliy daromad 6 milliard so'mlik kam bo'ldi. Ko'mir qazib olish, kimyoviy tolalar, gazlama, trikotaj buyumlari, poyafzal, mebel va boshqa buyumlar planlari bajarilmadi.

Sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilishda mehnat unumdorligini oshirishning belgilangan marralariga erishilmadi.

Kapital qurilishda, ayniqsa, og'ir ahvol vujudga keldi. Hozir chala qurilishlarning qiymati 5,7 milliard so'mga yetdi. Bu kapital mablag'larning yillik rejasidan ham ko'proqdir. Faqat o'tgan yilning o'zidagina 73 ta yirik obyekt va ishlab chiqarish quvvatlari bitkazilmay qoldi, bu esa 200 million so'mlik milliy daromad yo'qotildi, demakdir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalq iste'mol mollari ishlab chiqaradigan ko'pgina obyektlar qurilishi barbod etilgani, ana shunday mollarni ishlab chiqarish borasida sezilarli siljishlar bo'lmagani, savdo shoxobchasiga turli assortimentdagi mollar yetarlicha yetkazib berilmagani oqibatida inflatsiya kuchaymoqda, pul tobora qadrsizlanmoqda va pul muomalasi yomonlashmoqda.

Biz engil sanoatda siljishlar bo'lishini anchadan beri orziqib kutayotgan bo'lsak ham shunday bo'layotgani yo'q. 4 yil mobaynida belgilangan reja yuzasidan 195 million kvadrat metr ip-gazlama, 29 million dona trikotaj buyumlar kam tayyorlandi.

Respublika aholisi qariyb yarim milliard so'mlik xalq iste'moli mollarni kam oldi. Ministrlilik va unga qarashli korxonalarining rahbarlari mahsulot sifatini oshirish, yangi texnika va texnologiyani joriy etishda sezilarli natijalarga erisha olmadilar.

... Qurilish materiallari bilan ta'minlash juda o'tkir muammo bo'lib turganligi yaxshi ma'lum. Ixtiyorimizda mahalliy qurilish materiallarining cheklanmagan resurslari bor, ammo Mahalliy sanoat ministrligi ularni ishlab chiqarishni sust o'zlashtirmoqda. Boz ustiga, g'isht zavodlarini ishga solish muddatlari cho'zilib ketmoqda, oqibatda qanchalab g'isht kam tayyorlandi, holbuki, respublika ahli shu materialga juda mahall bo'lib turibdi.

Respublikadagi pudrat tashkilotlari to'rt yil mobaynida, planga nisbatan 320 million so'mlik kam ish ado etdilar. Demak, qariyb 200 ta eng muhim ishlab chiqarish qurilishlari bitmay chala qoldi, bir million kvadrat metrdan ko'proq uy-joy, 9 ming o'ringa mo'ljallangan maktabgacha tarbiya muassasasi foyda-

lanishga topshirilmadi. Buning sababi shundaki, Qurilish ministrligi, «Glavtashkentstroy», «O'zagrostroy» singari bizning yetakchi pudrat tashkilotlarimiz aslida shu yillar ichida bir joyda deysinib turdilar.

Yonilg'i-energetika kompleksidagi taqchillik xalq xo'jaligi va ijtimoiy sohada tobora yaqqolroq sezilmoqda. «Uzbekenergo» va «Uzbekgidroenergostroy» rahbarlarining mas'uliyatsizligi oqibatida Tallimarjon GRESining birinchi navbatini ishga tushirish ikki yilga surilib ketdi.

Xalq xo'jaligi rejalarining barbod etilgani uchun katta ayb mahalliy Sovetlar ijroiya komitetlarining zimmasiga tushadi. Andijon, Toshkent, Surxondaryo, Qashqadaryo oblastlarining ijroiya komitetlari, Qoraqalpog'iston ASSR Ministrlar Soveti va Toshkent shahar ijroiya komiteti sanoatni rivojlantirish besh yillik planlarini barbod etdi.

Uy-joy nihoyatda yetishmay turgan bir vaqtda Andijon, Samarqand, Jizzax va Sirdaryo oblastlari va Toshkent shahar ijroiya komiteti planda ko'zda tutilgan uy-joyning foydalanishga topshirilishini ta'minlamadi.

Qoraqalpog'iston ASSR Ministrlar Soveti va Xorazm oblast ijroiya komiteti respublika hukumatining «yordami» bilan eng yirik vodoprovodlar qurilishi rejalarini batamom barbod etdilar. Holbuki, shu mintaqa ahli suv kelishiga ko'z tikib turgan edi.

Ko'pgina maktab binolari «to'kilib turgan» va nobop binolarda ishlab turgan bir sharoitda mahalliy Sovetlar yo'li bilan o'tgan to'rt yil mobaynida 65 million so'mlik mablag' o'zlashtirilmay qoldi yoki 14 ming o'rinli maktablar foydalanishga topshirilmadi.

Andijon, Samarqand, Sirdaryo, Jizzax, Toshkent oblastlari va avtonom respublikaning, ayniqsa, qishloq

joylarida maktabgacha tarbiya muassasalarini qurishda jiddiy qoloqlikka yo'l qo'yildi.

◌ Samarqand oblast ijroiya komitetining kasalxona va poliklinikalar qurilishiga munosabatini odamlar sihat-salomatligi to'g'risidagi «g'amxo'rlik»ning yorqin misoli desa bo'ladi. Bu viloyat kasalxona va poliklinikalar bilan ta'minlanish bo'yicha eng so'nggi o'rinda turishiga qaramay, oblast rahbarlari ana shu maqsadlar uchun ajratilgan 10 million so'm pulning o'zlash-tirilishini barbod etishdi.

Holbuki, ana shu mablag'lar evaziga 900 bemorga mo'ljallangan kasalxona qurish mumkin bo'lar edi. Xuddi ana shu oblastda bolalar o'limi juda ko'p bo'lishiga qaramay, 1979-yildan buyon har xil dardga chalingan bolalar davolanadigan kasalxona qurilishi nihoyasiga yetmay turibdi.

Qoraqalpog'iston ASSR, Toshkent shahri, Toshkent, Sirdaryo oblastlari va boshqa oblastlardagi ish ham durust emas.

Boy berilgan imkoniyatlarni ko'rsatishni davom ettirish mumkin edi, lekin masalaning mohiyati bunda emas. Asosiy gap shundaki, konkret ish bilan mustahkamlanmagan, mag'zi puch plan va majburiyatlar allaqachon odamlarning joniga tegdi, kishilar gapning ijrosi ish bilan bo'lishini orziqib kutishmoqda.

Biz barcha rejalarimiz qanday bajarilayotganini sinchkovlik bilan tahlil qilishimiz, intizom past bo'lgani uchun ish barbod bo'layotganining subyektiv sabablarini aniqlab olishimiz, topshirilgan ish uchun rahbar kommunistlarning mas'uliyatini oshirishimiz kerak.

Vaziyatni muqarrar tarzda barqaror etish, ishonchni to'la-to'kis tiklash uchun hali ko'p ish qilishimiz kerak. Avvalo, respublika hayotida tub o'zgarishlar ta'minla-

nishi, xalq farovonligini oshirish, har bir oila va insonning turmushida konkret siljishlar bo'lishiga erishish lozim.

IV. Samarali mustaqil iqtisodiyot uchun

... Siyosat — iqtisodiyotning mujassam ifodasi ekanligi haqidagi qoida hozir har qachongidan ham dolzarb bo'lib qoldi. Shu ma'noda, respublikani iqtisodiy mustaqillik yo'liga olib chiqish, uni hamon davom etayotgan inqiroz girdobidan chiqarish uchun nima qilish kerak?

Bu vazifalarni hal etar ekanmiz, O'zbekiston resurs-lari va imkoniyatlariga baho berishga mutlaqo yangi-cha yondashmog'imiz zarur. Imkoniyatimizni uning Ittifoq va jahon bozori uchun qanchalik jozibali ekanligi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Respublikamiz ajoyib tabiiy iqlim sharoitiga egaki, to'g'risini aytganda, bu sharoitlardan mutlaqo yetarli foydalanilmayotir. O'zbekiston xalqini hamma vaqt uning tabiati, yeri va suvi boqib kelgan. Hozir ham bu omillar bizning eng bebaho boyligimiz bo'lib qolmoqda.

Bu zaminda hamma narsa o'sishi mumkin. Lekin eng foydali va daromadli ekinlarni aniqlab olish, biz nimalar hisobiga eng yuqori samara olishimiz mumkinligini belgilash kerak. Biz bozorning ra'yini hisobga olib, nimalar yetishtirishimiz kerakligini o'zimiz hal qilamiz. Foydali ekin bugun paxta, ertaga meva, sabzavot, ozuqa ekinlari yoki respublikaga, uning xalqiga daromad keltiradigan boshqa biror ekin bo'lishi mumkin.

Yangi yerlarni o'zlashtirish, yerning meliorativ holatini yaxshilash sohasida qilingan juda katta ishlarni

qoralayotgan, hatto, suv omborlarini portlatib, go'yo ekologik vaziyatni yaxshilash uchun yerlarni cho'lga aylantirishni taklif qilayotgan kishilarning fikriga biz mutlaqo qo'shilmaymiz.

Ular biz naqadar bebaho boyliklarga ega ekanligimizni anglab yetmayotirlar. O'zlashtirilgan yerlarda shaharlar, posyolkalar, qishloqlar qad ko'targani, ayni shu yerlar millionlarcha kishilarni ish bilan ta'minlab boqayotgani tamomila nazarga olinmayotir.

Sug'oriladigan yer parvarish talab etishini unutish yaramaydi. Keyingi yillarda yerlarning irrigatsiya, meliorativ holatini yaxshilash masalalariga e'tibor susaytirib yuborildi. O'zbekistonda esa 500 ming gektar juda sho'rxok va o'rtacha sho'rxok yerlar bor. Bu ishlarga mablag' qidirib topilishi kerak.

Biz yerlarimizni ardoqlasak, ulardan oqilona va samarali foydalansak, 20 million odamnigina emas, balki undan ham ancha ko'p odamni boqa olamiz.

O'zbekiston zamini ostida g'oyat katta boyliklar yashirinib yotibdi. Respublika hali juda ko'p yillar mobaynida gaz kondensanti, ko'mirga bo'lgan o'z talab-ehlijahini to'la-to'kis ta'minlay oladi. Yangidan ochilgan neft konlari yaqin vaqt ichidayoq neft qazib olishni 3-4 barobar ko'paytirish imkonini beradi.

Biz Qizilqumda fosforitlarning juda katta konini o'zlashtirishni mo'ljallayapmiz. Nihoyat, bizda rangli va qimmatbaho metallarning juda katta resurslari bor.

O'zbekiston «valuta oltini» deb ataladigan eng qimmatbaho oltinni yetkazib bermoqda, undan respublika manfaatlari yo'lida samarali foydalanish yuzasidan takliflar tayyorlanayotir. Ana shularning hammasini hamda qishloq xo'jalik va sanoat xomashyosini, tayyor mahsulotlarning necha o'nlab turlarini bozorda chek-

lanmagan miqdorda sotish imkoniyati bor va bu narsa respublika iqtisodiy quvvatini va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilishi kerak.

O'zbekiston ixtiyoridagi resurslar haqida gapirar ekanmiz, shuni ta'kidlash kerakki, respublikaning eng katta boyligi – uning odamlari, sharoit va imkoniyat yaratilsa, tog'ni tolqon qila oladigan mehnatsevar xalqidir.

Xalqimiz go'yoki sanoatning zamonaviy tarmoqlaridagi mehnatga qodir emasligi va shu munosabat bilan ko'p kishilar ishsiz yurgani haqida ayrim fikrlar quloqqa chalinmoqda. Bu gaplarni xalqni ham, haqiqiy ahvolni ham mutlaqo bilmaydigan kishilar aytmoqda. Respublikada millionga yaqin ishsiz bor ekan, buning boisi ularning ishlash ishtiyoqi yo'qligida emas.

Tan olish kerakki, biz rahbarlar – ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning bugungi mutasaddilari ularni ish joylari, turarjoy, bolalar bog'chalari, hunar-texnika bilim yurtlari bilan ta'minlash imkonini yarata olmadik. Xalqning kamtarligi va matonati, uning bizga hamon ishonayotganligi turmush og'irliklari va tashvishlariga bardosh berish imkonini yaratmoqda.

Xalqimizni munosib darajaga ko'tarish uchun ana shu juda katta resurs va boyliklardan qay tariqa foydalanish kerak? **Bu asosiy muammoni hal etishning bosh yo'li – xalq xo'jaligi strukturasi tubdan o'zgartirishdir. Xomashyo resurslarini asosan respublika hududida qayta ishlashga erishmoq kerak.**

Bunda eng muhim narsa birinchi navbatdagi vazifalarni belgilab olish va mana shu g'oyat muhim ishda vujudga kelayotgan tovar konyunkturasini izchillik bilan hisobga olishdan iboratdir. Bu tadbir milliy daromadni oshirish, budjetni barqaror qilish va o'stirish

hamda odamlar turmushining moddiy sharoitini yaxshilash uchun real shart-sharoit yaratadi. O'zimizda qazib olinadigan rangli metallar, nitron, kaprolaktam, binokorlik materiallari va hokazolardan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish lozim.

Ishlab chiqarish imkoniyatini, kerakli mollar ishlab chiqarishni tez ko'paytirish, aholini ish va ish haqi bilan ta'minlashning muhim yo'nalishi – **kichik korxonalar, filiallar va sexlarni rivojlantirib, ularni ish kuchi ortiqcha rayonlarga joylashtirishdir.** Kichik korxonalar, tayyorlanadigan mahsulotni tezda o'zlashtira oladigan sexlar bozor injiqliklariga tezroq moslashib, ko'payib borayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash imkonini beradi.

Mintaqalarning hozirgi holatini baravarlashtirish uchun qat'iy choralar ko'rish zarur. Qashqadaryo, Sirdaryo, Xorazm, Surxondaryo viloyatlarida sanoatning notekis rivojlanishi, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, Qoraqalpog'iston ASSRda katta quloqlikka yo'l qo'yildi, bu yerda aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish respublikadagi o'rtacha darajadan ikki barobar pastdir.

Biz O'zbekistonda va umuman, butun O'rta Osiyoda birdan bir avtonom respublika bo'lgan Qoraqalpog'istonga har tomonlama yordam ko'rsatishni o'z burchimiz, deb bilamiz. Bu — siyosiy masaladir.

Rayon markazlarida, kichik shahar va posyolkalarda ko'p tarmoqli sanoat kombinatlari qurish istiqbolli ishdir. Bu tadbir badiiy va xalq hunarmandchiligi singari unutilgan sohalarni qayta tiklash bilan bir vaqtda aholi uchun zarur mollar, mahalliy binokorlik materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini ham beradi.

Shu yil va kelgusi yildayoq 120–130 million so'mlik xalq iste'moli mollari ishlab chiqaradigan 150 dan ortiq ana shunday kombinat barpo etish mo'ljallanmoqda.

Bizda respublikamizning xalq iste'moli mollari jihatidan hozirgi qaramligini tugatish uchun barcha sharoitlar bor. Yengil va mahalliy sanoatni rivojlantirishning tashib kelish va chetga chiqarish balanslariga asoslangan konkret dasturlari zarur. Xo'sh, nima uchun iste'mol qilinayotgan kiyim-kechaklarning chorak qismini, trikotaj buyumlar va ip gazlamaning uchdan bir qismini, poyafzalning deyarli yarim qismini chetdan tashib keltirish kerak? Bularning hammasini o'z xomashyomizdan o'zimizda tayyorlash mumkin-ku, axir.

Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini egalash, ishlab chiqarishning fan yutuqlari va mehnat ko'p sarflanadigan tarmoqlarini jadal rivojlantirishga keskin burilish strukturaviy qayta qurishning tarkibiy qismi bo'lib qolishi kerak. Mashinasozlik, radioelektronika, asbobsozlik korxonalarini tubdan yangilash va yangilarini qurish hamda chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilash vazifasi kun tartibida turibdi.

Buning uchun bizda barcha zarur resurs va shart-sharoitlar, ilmiy texnikaviy va loyiha-konstruktorlik bazasi bor. Fan va texnika taraqqiyotining oldingi marrasiga chiqmasak, istiqbol porloq bo'lmaydi. Faqat shu asosdagina biz boshqa mintaqalar va chet ellar bilan teng huquqli sheriklar sifatida aloqa bog'lay olamiz.

Qishloq xo'jaligi qanday rivojlanishi kerak? **Respublika agrar sektori iqtisodiyotning shunday bo'g'ini, O'zbekistondagi muammolarning aksariyatini ana shu bo'g'inga tayanibgina hal eta olamiz.**

Biz paxta yakkahokimligiga qarshi izchillik bilan kurash olib boraveramiz. Bu narsa respublikaga markaz tomonidan zo'rlab qabul qildirilgan bo'lib, O'zbekistonga, uning aholisiga beqiyos zarar keltirdi.

Buning ustiga, o'z baynalmilal burchini bajargan va mamlakatning paxta mustaqilligini ta'minlagan dehqonlar gektar boshiga hammasi bo'lib 2200 so'm daromad olmoqdalar. Vaholanki, paxta oxirigacha qayta ishlansa, undan yuz xilga yaqin mahsulot va 18–20 ming so'm yoki o'n barobar ko'p daromad olish mumkin.

Bu haqda paxta o'ylab olish kerak.

Paxtamizdan qay tariqa eng samarali foydalanish mumkin? Undan nimalar ishlab chiqarish eng foydali bo'ladi? Bozorga qay tariqa faol ta'sir ko'rsatish kerak? Bularning hammasini o'rganib olishimiz lozim. Hatto, g'o'zapoya, shrot, lintdan to'g'ri foydalanilsa, biz hozir olayotganimizdan 3–5 barobar ko'p daromad olish mumkin.

Biz paxtachilikni almashlab ekishni joriy etishga asoslangan ilmiy yo'ldan borish sohasida jiddiy qadamlar qo'ydik. Biz 1991-yilda paxta tolasi yetishtirishni 100 ming tonna kamaytirish, davlat buyurtmasi darajasini esa yetishtirilgan mahsulotning yarmidan oshirmaslik vazifasini qo'ymoqdamiz. Paxtadan bo'shagan yerlardan esa odamlarning dolzarb ehtiyojlarini qondirish uchun, shu jumladan, chorvachilik mahsuloti yetishtirishni kengaytirish uchun foydalaniladi.

Bizning agrar siyosatimiz aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun oziq-ovqat kompleksini ustun darajada rivojlantirishga asoslanadi. 1995-yilgacha meva, sabzavot mahsulotlari yetishtirishni 2 barobardan ziyodroq ko'paytirishni ko'zda tutuvchi

asosli dastur ishlab chiqildi. Bu esa respublika aholisi ehtiyojlarini ta'minlaydi, shuningdek, ana shu mahsulotlarni o'zaro manfaatli shartlar asosida sotishni ko'paytirish imkonini yaratadi.

Biz qayta ishlash sanoati korxonalari qurilishini nihoyatda jadallashtirishimiz zarur. 1995-yili O'zbekistonda 300 ta mo'jaz sex qurish ko'zda tutiladi. Bu esa oziq-ovqat mollari resurslarini ancha ko'paytiradi hamda aholini bu mollar bilan ta'minlashni yaxshilaydi, ularni Ittifoq ichki bozorida va jahon bozorida foyda bilan sotish imkonini kengaytiradi.

Biz qishloqning ijtimoiy hayotini qayta qurishni o'zimizning bosh vazifamiz deb bilamiz. Agar dehqonning xonadoni va xo'jaligi obod bo'lsa, dehqon badavlat bo'ladi. Do'konlarda va bozorlarda oziq-ovqat mo'l bo'ladi. Dehqon xonadoni xarob va qashshoq bo'lsa, butun jamiyat och qoladi.

Shu boisdan hammamiz qishloqni qashshoqlikdan qutqarish, qishloq xonadonini badavlat qilish yo'lida ish olib borishimiz lozim. Qishloqning ijtimoiy yuksalishi uning o'z ishi degan fikrga mutlaqo qo'shilib bo'lmaydi.

Biz bugun barchamizning nomimizdan dehqonlarga: biz sizlarni yolg'iz qoldirmaymiz, deb aytamiz. Qishloq ijtimoiy turmushini qayta qurish, qishloqning suv, gaz ta'minotini yaxshilash, infrastrukturani yaxshilash uchun markazlashtirilgan kapital mablag'lar qidirib topamiz. Bu bizning vazifamiz, burchimizdir. Biz bu maqsadlarga erishish uchun izchillik va qat'iyat bilan kurashaveramiz.

Respublika iqtisodiyotidagi chuqur struktura o'zgarishlari **tashqi iqtisodiy imkoniyatlar** samaradorligini keskin oshirishga qaratilgandir. Hozircha bu yo'l nihoyatda sust amalga oshirilayotir. Faqat 160 ta kor-

xona o'z mahsulotini xorijga chiqaryapti. Asosan, xomashyo va materiallar eksport qilinmoqda. Chet el firmalari ishtirokida endigina 14 ta qo'shma korxonalar tashkil etildiki, bu mutlaqo yetarli emas.

Ko'pgina korxonalar chet el bozoriga chiqish sohasida berilgan imkoniyatdan to'g'ri foydalanmayotir. Masalan, o'tgan yili «Uzxlopkoprom» respublika birlashmasi 34 million chet el valutasini ishladi. Ammo birlashma va paxta zavodlarining rahbarlari mehnat kollektivlarining fikri bilan hisoblashmay, mablag'ning asosiy qismini yengil avtomobillar, mikroavtobuslar, videotexnika, magnitofon va shu kabi narsalarni sotib olishga sarfladi.

Keltirilgan texnika esa paxtani chetga sotishga bevosita daxldor bo'lmagan tashkilotlar o'rtasida taqsimlandi. Vaholanki, respublikada odamlarga tibbiy xizmat ko'rsatish, bolalikni muhofaza qilish, hayotiy zarur mollar ishlab chiqarish singari dolzarb masalalar hal etilmagan. Eng muhimi esa paxta — butun xalqning va avvalo, uni qahramonona mehnati bilan yetishtiruvchi paxtakorlarning mulkidir, zotan, bunda ularning manfaatlarini albatta, hisobga olish kerak. Buni hamma bilishi lozim.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni muvofiqlashtirishni kuchaytirish maqsadida respublika Tashqi iqtisodiy banki (Vneshekonombank) tuzildi. O'zbekiston SSR Tashqi savdo va chet ellar bilan aloqa davlat komiteti tashkil etilayotir. Minglab paxtakorlar, respublikamizning barcha mehnatkashlari mehnati evaziga qo'lga kiritilgan valuta ayrim yuqori lavozimli amaldorlarning ko'ngil ochishlariga emas, balki respublikamizning hayotiy muhim manfaatlariga, uning butun aholisiga xizmat qilishi kerak.

Respublika siyosiy va iqtisodiy erkinligi mustahkamlangan sari, chet ellar bilan aloqalar yangi mazmun kasb eta boradi. Tashqi siyosat sohasida buning ma'nosi — o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish sohasida chet ellar bilan bevosita aloqa bog'lashni bildiradi. Biz ilmiy-texnikaviy, savdo-iqtisodiy, madaniy hamkorlik masalalarini mustaqil hal etadigan bo'lamiz, respublika kadrlarini xalqaro tashkilotlar, sovet elchixonalari, bosh konsulxonalar, savdo vakilliklari ishiga planli asosda jalb etib boramiz. Chet ellarda respublika vakolatxonalarini ochish rejamiz ham yo'q emas.

Xullas, xalqaro munosabatlar sohasidagi konstitutsion huquqlarning to'la-to'kis amalga oshirilishi respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda hal qiluvchi mezon bo'lib qolishi lozim.

Bozor munosabatlariga o'tish masalasi. Ana shunday maqsad va vazifalardan kelib chiqib, respublikada o'tish davridagi resurslarimiz va imkoniyatlarimizdan samarali foydalanish, aholining ijtimoiy himoyasi, ayniqsa, kam ta'minlangan aholining ijtimoiy himoyasining ishonchli mexanizmi ishlab chiqilishi lozim.

Bunda eng asosiy masala — **mulkchilik muammosidir.** Mulkchilik haqidagi tushunchamizni belgilab olmay turib, ishlab chiqarish munosabatlariga yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyati bo'lmaydi, boshqacha qilib aytganda, respublikada *mulkchilikning* qanday shakllari bo'lishini aniqlab olish darkor.

Biz mulk shakllarining xilma-xilligini boshqariladigan bozorning hal qiluvchi omili, deb bilamiz. Davlat mulki bilan bir qatorda va u bilan teng huquqlik asosida kollektiv, aksionerlik, oila, shaxsiy mehnat, shaxsiy mulk ham keng yoyiladi.

O'z-o'zidan ma'lumki, ayrim ishlab chiqarish obyektlarining davlat obyektlaridan kooperativ, aksionerlik va boshqa obyektlarga aylantirilishi oqilona asosda amalga oshirilishi kerak. Konkret qaysi korxonalar va tashkilotlar ularda ishlovchi kollektivlar tomonidan sotib olinishi mumkinligini, qaysilarini aksionerlik jamiyatlariga, konsern va shu singarilarga aylantirish maqsadga muvofiqligini puxta o'ylab, belgilab olish kerak.

Hozir zarar keltirayotgan ba'zi ishlab chiqarish korxonalarini imtiyozli shartlar asosida sotilishi ham mumkin.

Xususiy mulkchilik vujudga kelishi imkoniyati munosabati bilan katta shubhalar bildirilmoqda.

O'zbekistonda xalq xo'jaligining jiddiy talablari, resurs va, imkoniyatlari hisobga olinadigan bo'lsa, kichkina yoki ochiq aytadigan bo'lsak, mayda xususiy korxonalar juda muvaffaqiyatli ishlaydi. Bular qanday korxonalar bo'lishi mumkin? Birinchi navbatda, ular iste'mol mollari, xalq hunarmandchiligi, xalq ijodiyoti mahsulotlari ishlab chiqaradigan, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat sohasidagi yoki yordamchi korxonalar, ikkilamchi resurslarni va ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlaydigan katta birlashmalarning ayrim buyurtmalarini bajaradigan korxonalar bo'lishi mumkin. Bunday ishlab chiqarish doirasi va korxonalarining hajmi, albatta, qonuniy tartibda aniq belgilab qo'yilishi lozim.

Mayda, kichik kompleks korxonalar qisqa muddat ichida qo'shimcha mol yetkazib berishi va xizmat ko'rsatishi mumkin. Buning ustiga, ularning tashkil etilishi hozir ish bilan band bo'lmagan mehnatga qobiliyatli aholining bir qismini ishlab chiqarishga jalb etish imkonini beradi.

Biz yirik ishlab chiqarish komplekslari, shu jumladan, mamlakatning boshqa mintaqalaridagi komplekslar tomonidan mayda va o'rtacha korxonalar, filiallar va sexlar tashkil etilishini istisno qilmaymiz, balki, aksincha, rag'batlantiramiz. O'z-o'zidan ma'lumki, bu jarayon hukumat va mahalliy organlarning nazorati ostida ro'yobga chiqariladi va respublika manfaatlariga mos yo'nalishda bo'ladi.

Yordamchi ishlab chiqarish bo'linmalari tuzilishida ularning kollektivlarini uy-joy va ijtimoiy, madaniy, maishiy obyektlar bilan to'la ta'minlash shart qilib qo'yiladi.

Respublikamizga chet el firmalari g'oyat zo'r qiziqish bilan qarayotganini hisobga olib, qo'shma korxonalar tashkil etish ishini faollashtirish kerak. Bunda bosh yo'nalish — chet ellik sheriklarni xalq iste'moli mollari va fan yutuqlaridan ko'plab foydalaniladigan mahsulot ishlab chiqarishga jalb etishdir. Bundan qanday naf ko'zda tutilmoqda?

Chet el investitsiyasi va ilg'or texnologiyasidan foydalanish imkoniyati bilan bir qatorda biz odamlarimizni ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy usullaridan, sifatning jahon standartlaridan bahramand qila olamiz, barqaror aloqalar o'rnatamiz va boshqa muhim ishlarni amalga oshiramiz.

Yerga egalik qilish masalasi alohida e'tiborga sazovordir. Bu masalani bir tomonlama hal etib bo'lmaydi. Birinchidan, bizda suvsiz dehqonchilik qilib bo'lmasligi sababli yer muammosini emas, balki yer-suv muammosini hal etish kerak. Sug'oriladigan yerlar qishloq xo'jalik mahsulotining 95 foizini beradi. Bizning sharoitimiz Rossiya sharoitidan mutlaqo farq qiladi, chunki Rossiya-da gap bo'sh yotgan katta yer maydonlari haqida boradi.

Ikkinchidan, yangi yerlarni o'zlashtirish amalda to'xtatilgandan keyin hozir vujudga kelgan jiddiy vaziyatni hisobga olish lozim. Bizda hozir qishloq xo'jaligida band bo'lgan har bir kishiga 1,2 gektardan 0,8 gektargacha, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 0,4, Farg'ona vodiysida esa 0,2 gektardan kam yer to'g'ri keladi. Istiqbolda manzara yanada jiddiylashadi.

Umuman olganda, bizda sug'oriladigan yer nihoyatda taqchil bo'lib, xususiy tarzda foydalanish uchun taqsimlanadigan yerning o'zi yo'q. Hoziroq yer va suv xususida juda ko'p nizolar kelib chiqmoqdaki, ularni hal etish juda qiyin bo'lyapti.

Suv ta'minoti masalasini olib ko'raylik. Bu masalani biz mintaqamizdagi fojia bilan, ya'ni Orol fojiasi bilan bevosita bog'lamoqdamizki, bu fojia Chernobil fojiasidan qolishmaydi. O'rta Osiyo mintaqasining demografik xususiyatlarini hisobga olganda uning aholisi 2005-yilga borib ikki barobar ko'payadi va 60 million kishidan oshib ketadi. Ularni qanday qilib ish bilan ta'minlash va turmush darajasini oshirish mumkin?

Aholining ana shu tariqa o'sishi munosabati bilan biz, avvalo, mintaqadagi imkoniyatlarni o'zlashtirishimiz kerak. O'zbekistonning o'zida sug'oriladigan yerlarni 4 million gektardan 10 million gektarga yetkazish mumkin.

Qozog'iston ham, Tojikiston ham, Turkmaniston ham, Qirg'iziston ham ana shunday imkoniyatlarga ega. Keyingi yillarda esa yerlarni o'zlashtirishdagi xatolar tanqid qilinib, ularni tuzatish o'rniga Sibir daryolari suvining bir qismini biz tomonga oqizish ishlarini to'xtatib qo'yish haqida qaror qabul qilindi.

Bu masala yuzasidan KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi qarorida SSSR Gosplaniga, Fanlar

Akademiyasiga va boshqa markaziy idoralarga O'rta Osiyo mintaqasini istiqbolli rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish topshirilgan edi. Bu topshiriqni hech kim bajarmayapti. Bizning fikrimizcha, bu masalaga qaytish kerak, chunki O'rta Osiyo respublikalari aholini zarur turmush sharoitlari bilan ta'minlashda hoziroq duch kelayotgan katta qiyinchiliklar ertaga yanada ortib, chuqurlashib boradi.

Hozir Orolni asrash, tabiiy resurslar va avvalo, suv resurslaridan tejab foydalanish sohasida qilinayotgan barcha ishlar davlat va milliy ko'lamda ahamiyatga ega bo'lib, hammaning e'tibor markazida bo'lishi lozim. Ammo bu masalaga istiqbol nuqtayi nazaridan va mazkur muammoni tubdan hal etish nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, aniq aytish mumkinki, biz o'z sharoitimizga mos keladigan yer va suv haqidagi o'z qonunimizni ishlab chiqishimiz hamda respublika Oliy Sovetining navbatdagi sessiyasida tasdiqlashimiz kerak...

Biz butun iqtisodiyotga ijtimoiy yo'nalish baxsh etishni, uni insonga, uning talab va ehtiyojlarini qondirishga qaratishni o'zimizning asosiy vazifamiz deb bilamiz. Kelgusi besh yillikda foydalaniladigan milliy daromadning katta qismi ijtimoiy muammolar kompleksini hal etishga sarflanadi.

E'tiborni ijtimoiy masalalarga qaratish haqida gapirar ekanmiz, **sog'liqni saqlashni** yaxshilash birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash zarur. Bu tarmoq moddiy bazasining nihoyatda qashshoq ekanligi ustiga, bizda bu soha yaxshi tashkil etilmagan va samarali foydalanilmayotir. Millatning zurriyot fondini, hech mu-bolag'asiz aytish mumkinki, halokatdan saqlab qolish uchun keng ko'lamdagi tadbirlarning katta kompleksini amalga oshirish kerak bo'ladi. Muammo allaqa-

chon viloyatlar doirasidan chiqib, umumdavlat vazifasi darajasiga ko'tarildi. Ammo bu sohadagi ko'pchilik rahbarlarning tashvishlanayotganliklari uncha sezilmayotir. Har holda, Sog'liqni saqlash ministrligidan ham, hukumatdan ham hozirgacha e'tiborga sazovor bo'lgan asosli takliflar tushayotgani yo'q.

Mahalliy va respublika darajasida tibbiy muassasalarni tashkil etishning puxta va to'laqonli sistemasini ishlab chiqish, sharoitimizni hisobga olgan holda, ilg'or chet el tajribasidan foydalanishimiz kerak.

Ixtisoslashgan yirik davolash markazlari qishloq va shahar kasalxonalari keng shoxobchalari bilan qo'shib, ana shunday sistemaning asosiy bo'g'iniga aylanishi kerak. Respublikada bunday sistemani vujudga keltirishga asos solindi. Yaqin yillarda kardiologiya markazini, ko'z mikroxirurgiyasi mintaqaviy markazini, onalik va bolalikni muhofaza qilish markazini, urologiya markazi va shu singarilarni yaratish mo'ljallangan.

Shu bilan bir qatorda rayonlar, shaharlar, yirik posyolkalarda keng sohali kasalxonalar, poliklinikalar, feldsherlik-akusherlik punktlari, tug'uruqxonalarning keng shoxobchalarini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, joylarda uchastka kasalxonalarini qayta tiklash kerak.

Biz sog'liqni saqlashga mablag' manbalarini izlab topishga yangicha yondashmog'imiz zarur. Sog'liqni saqlashni tashkil etishning sug'urta shakllari singari manbalari haqida ham jiddiy o'ylab ko'rish lozim. Bir narsa ravshanki, sog'liqni saqlash faqat budjet mablag'lari hisobiga rivojlana olmaydi. Sog'liqni saqlashni rivojlantirish fondini tashkil etish, unga katta foyda olayotgan korxonalar, xo'jaliklar, kooperativlar, jamoat tashkilotlaridan pul o'tkazish masalasini tezda hal etish g'oyat muhimdir.

Yana bir muhim masala. Oila vrachi vazifasini qayta tiklash kerak. Bu haqda ko'pdan beri gapirib kelinmoqda, lekin ko'zga ko'rinarli siljishlar yo'q. Bu masalani hal etish, bunday vrachlar tayyorlashni tashkil etish va ularga ish sharoitini yaratish payti keldi.

Xalq ta'limi, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sohasi tubdan yangi yondashuvlar talab qiladi. Bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalari bilan ta'minlashda keskin burilishga erishish zarur. Uylardagi bolalar bog'chalari shoxobchalarini, konsultatsiya punktlarini, qishloqdagi bolalar bog'chasi -- maktab komplekslari shoxobchalarini faollik bilan kengaytirish lozim.

Iste'dodli bolalar uchun maktab-internatlar tashkil qilish davom ettiriladi. Bolalar bog'chasi, maktab bilan bir qatorda bolalar poliklinikalarini, cho'milish havzasi bo'lgan sport maydonchalari, bolalar bilan maktabdan tashqari ish olib boruvchi muassasalarni o'z ichiga oladigan bolalar muassasalari territorial komplekslarini *barpo etish xususida chuqur o'ylab, bu ishni boshlab yuborish o'rinli bo'lur edi.*

Xotin-qizlar masalasiga munosabatimizni tubdan o'zgartirish tadbirlari haqida o'ylab ko'rishimiz kerak. Biz xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy huquqlarini, nufuzi va qadr-qimmatini himoya qilishning yetarli kafolati uchun, ularning ijtimoiy ishlab chiqarishda va boshqarishda ishtirok etishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratishimiz lozim. Onalar va bolalar sog'lig'ini, aholining bilim va madaniyat darajasini saqlash har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy jihatdan ta'minlanishi kerak.

Xalq xo'jaligidagi bunday katta vazifalarni hal etishning asosi -- respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga erishishdir. Bu ishning muhim yo'nalishlari

O'zbekiston xalq deputatlarining I sessiyasida muhokama qilindi va ma'qullandi.

Biz respublika hududidagi ishlab chiqarish, fan-texnika imkoniyatlari, yer, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy boyliklarni o'lkaning mulki deb hisoblaymiz. Respublika bulardan, avvalo, o'z xalqi manfaatlarini ko'zlab mustaqil foydalanadi. Mudofaa sanoatiga, chuqur texnikaviy rekonstruksiyanı talab qiladigan og'ir sanoatning ayrim tarmoqlariga taalluqli korxonalar, umumittifoq transport va axborot sistemalari, shuningdek, mintaqalararo komplekslar tarkibiga kiruvchi korxonalargina Ittifoq qaramog'ida qolishi lozim.

Masala ko'ndalang qilib qo'yilishi kerak — O'zbekistondagi barcha xomashyo va qayta ishlash tarmoqlari respublika ixtiyoriga o'tkazilishi lozim. **O'z xomashyomizni va mahsulotimizni O'zbekiston manfaatlarini ko'zlab sotadigan bo'lamiz...**

Markaz bilan, boshqa mintaqalar bilan barcha munosabatlar shartnoma asosida qurilishi lozim. Biz mustaqillikni mahdudlik deb emas, aksincha, integratsiya aloqalarini teng huquq, o'zaro manfaat asosida rivojlantirish deb tushunamiz. Bunda manfaatdorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Biz uzoq vaqt davomida bu so'zni ishlatishdan tortinib, uni qandaydir savdogarchilik, xudbinlikka yo'yib kelar edik. Aslida esa bu — normal iqtisodiy munosabatlarning eng muhim mezonidir.

Shu sababli masalani: «**Buning O'zbekistonga nafi bormi yoki nafi yo'qmi?**» degan taxlitda qo'yish xo'jalik hayotimizning normasi, yagona xalq xo'jalik kompleksining barcha bo'g'inlaridagi o'zaro munosabatlar normasi bo'lib qolishi lozim.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bu narsa, ayniqsa, muhim. Bizning burchimiz — xomxayollarga va og'machilikka yo'l qo'ymay, O'zbekiston sharoitida bozor mexanizmining mohiyati va mazmuniga sergaklik bilan va har tomonlama real baho berishimiz, uning joriy etilishida vujudga kelishi mumkin bo'lgan murakkabliklar va oqibatlarni ko'zda tutishimiz, o'tish davri keskinliklarini yumshatishga yordam beradigan zarur mexanizmlarni oldindan yaratib qo'yishimiz kerak.

Bizning nazarimizda, taqdim etilgan takliflarda mulkchilikning, mintaqa bilan markaz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning, mahsulotlarni boshma-bosh ayri-boshlash asoslarining ko'pgina prinsipial masalalari to'la-to'kis hal etilmagan. Bir qator qoidalarga esa biz, umuman qo'shila olmaymiz.

Biz shu yil 1-iyuldan oq nonning chakana narxi, boshqa narxlardan ayri holda bir tomonlama oshirilishiga qarshi qat'iy, e'tiroz bildiramiz. Bu g'alla bilan paxta, ulardan olinadigan mahsulotlar narxlarining ekvivalentligiga erishish yo'lidagi hozir qo'yilayotgan dastlabki qadamlarni tamomila yo'qqa chiqaradi.

Bunga yoqilg'i, metall va texnika narxlarini oshirish mo'ljallanayotganini qo'shsak, paxtaga haq to'lashni ko'paytirish tartiblari hech narsa bo'lmay qoldi. Vaholanki, bizning sharoitda ayni shu nisbat iqtisodiy teng huquqlilikning, umuman, respublika ijtimoiy rivojlanish darajasini, unda yashovchi aholi farovonligini oshirishning hal qiluvchi omilidir.

Boshlang'ich sharoitlarni hisobga olish va barobarlashtirish masalasi biz uchun katta ahamiyatga ega, bu haqda biz yuqori darajalarda bir necha bor kelihib olgan edik. Hukumat ma'ruzasida bu muammo

tilga olinadi. Lekin respublika hissasini, uning hozirgi ahvolini va ahvolni yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatishni hisobga olmagan holda, yuzaki tenglik nuqtayi nazaridan yengil-yelpi tarzda mavhum gaplarga aytib o'tilgan. Vaholanki, gap xayr-ehson haqida emas, balki respublikaning xalq xo'jalik kompleksiga qo'shayotgan haqiqiy hissasi o'rmini qonuniy asosda to'ldirish haqida bormoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasi haqidagi mamlakat hukumatining ma'ruzasida investitsiyalarni qisqartirish masalalari qo'yildi. Bizning fikrimizcha, bu xato yondashuvdir, chunki tovar bozori ta'minlanishining oldingi darajasida va eng muhimi, ishlab chiqarishning hozirgi texnikaviy va strukturaviy darajasida (bu jihatdan biz ilg'or mamlakatlar darajasidan 15–20 yil va undan ko'proq orqada qolayotirmiz) bunday siyosat battar qoloqlikka olib boradi.

Bunda qisqartirish haqida emas, balki maqsadli, strukturaviy siyosatni, kapital qurilishdagi ustun yo'nalishlarni, avvalo, tugallanmagan qurilishlarni keskin qisqartirish maqsadida tubdan qayta ko'rib chiqish haqida gap borishi kerak.

Respublika sharoitida xalq xo'jaligi strukturasi qayta qurish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni viloyatlar va mintaqalar bo'yicha mutanosib tarzda joylashtirish, sotsial sohani rivojlantirishni keskin jadallashtirish uchun zarur mablag' va resurslar ajratish alohida muhim ahamiyatga ega.

Eng asosiysi, aholi sotsial himoyasining aniq va ta'sirchan mexanizmlari zarur. Turli tajribalar xalq yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Aholining sotsial ahvolini yaxshilash — respublikaning bugungi sharoitida, ayniqsa, muhim. Bu

muammoni to'g'ri va izchillik bilan hal etish faoliyatimizning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Aholining kam ta'minlangan tabaqalariga oid muammolarga, ularni kechiktirmay hal etishga alohida e'tibor berish kerak. Pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali oilalarga bozor munosabatlarining shafqatsiz sharoitida yordam bermaslikka haqqimiz yo'q. Aholining bu toifalari uchun qanday qo'shimcha imtiyoz va nafaqalar tayinlanayotgani haqida yuqorida gapirib o'tildi. Yaqinda ular Prezidentning yangi farmonlari bilan to'ldirildi. Biz bu sohadagi kuch-g'ayratimizni bundan buyon ham oshiraveramiz.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida vaqtincha ishdan mahrum bo'lib qoladigan va ish bilan band bo'lmagan 1 million aholi qatoriga qo'shiladigan kishilarga alohida e'tibor berilishi lozim. Bu narsa respublikada katta muammoni vujudga keltirmoqda. Bunday odamlarni qo'llab-quvvatlash, ular ishsizlik yuzasidan yordam olishlari, malakalarini o'zgartirib yangi kasb egallash imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur.

Bu gaplarning hammasi bozor iqtisodiyotiga xalqning roziligisiz va umumxalq referendumisiz, Ittifoq respublikalari bilan kelishmasdan o'tish mumkin emasligi haqidagi fikrni yana bir bor tasdiqlaydi. Pirovard natijada bozorga o'tish haqidagi ana shu jiddiy qarorning hamma oqibatlari uchun xalqimiz oldida biz javob berishimizga to'g'ri keladi.

Uy-joy qurilishiga alohida e'tibor berilishi lozim. Yaqin besh yil ichida 67—68 million kvadrat metr uy-joyni foydalanishga topshirish, 6 milliondan ziyodroq kishining uy-joy sharoitini yaxshilash vazifasi qo'yildi, bu esa hozirgi besh yillikdagidan bir yarim barobar ko'pdir.

Aholiga kommunal xizmatni keskin yaxshilash vazifasi turibdi. Aholining markazlashtirilgan suv ta'minoti darajasini 52 foizdan 67 foizga yetkazish, Orolbo'yi zonasida esa 1995-yilgacha butun aholini markazlashtirilgan suv ta'minotiga o'tkazish ko'zda tutiladi. Qishloq aholi punktlarini gazlashtirish sur'atlari ikki barobar ortadi.

Respublikada ijtimoiy o'zgarishlarni faqat budjet mablag'lari hisobiga amalga oshirib bo'lmaydi. Bu vazifani hal etishga ministrlklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar o'z hissasini qo'shishlari kerak. Hozir 800 dan ortiq kolxoz, 50 ta sovxoz, 85 ta korxonalariga, veteranlarga, pensionerlarga qo'shimcha nafaqa tayinlanadi.

Ayni vaqtda sanoat korxonalari, boshqa tarmoqlar maxsus fondlari qoldig'ida 1,3 milliard so'm pul, shu jumladan, sotsial rivojlantirishga mo'ljallangan 242 million so'm pul harakatsiz bo'lib yotibdi. Biz mehnatkashlarga sotsial madad bo'yicha keng sistemani vujudga keltirishda mehnat kollektivlari, xalq deputatlari Sovetlarining ijroiya komitetlari ko'rsatadigan barcha tashabbuslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz.

Yangi sharoitda samarali ish olib borish uchun bozor munosabatlarini yaxshi biladigan, respublika siyosatini faol o'tkaza oladigan **yuqori malakali mutaxassislar** kerak.

Maktab kursisidan boshlab iste'dodli yoshlarni tanlash va rag'batlantirish darkor. Bu yo'nalishda dastlabki qadamlar qo'yilayotir, lekin bu jarayonni butun choralar bilan jadallashtirish kerak.

Bugungi kunda iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, tanlash va ularni mamlakatdagi va chet ellardagi

yetakchi ilmiy markazlarga o'qishga yuborish maqsadida maxsus respublika fondi tuzildi. Qishloq yoshlariga alohida e'tibor berish, ularning manfaatlarini kamситmaslik, balki, aksincha, ularning ma'naviy va moddiy o'sishi uchun butun sharoitlarni yaratish lozim.

Bu bizning g'oyat katta rezervimiz va aytish mumkinki, ko'pincha unutib qo'yayotgan burchimizdir. Dastlabki guruh – 100 dan ortiq ilmiy xodim markaziy oliy o'quv yurtlariga va ilmiy-tadqiqot muassasalariga yuborildi. Bu yil 52 nafar student hamda 51 nafar ilmiy xodim va mutaxassisni chet ellardagi o'quv yurtlariga va ilmiy markazlarga o'qish, malakasini takomillashtirish va ilmiy ish olib borish uchun yuborish ko'zda tutiladi.

Studentlar va ilmiy xodimlarga til o'rgatish respublika markazi tuzilmoqda. Unda ishlash uchun AQSH va Buyuk Britaniyadan mutaxassislar jalb qilish mo'ljal-lanmoqda. Respublika hukumati respublika yosh olimlarini eng yaxshi chet el dorilfununlariga stajirov-kaga yuborish masalasini ko'rib chiqmoqda.

Zamonaviy talablarni hisobga olgan holda, muta-xassislar tayyorlash uchun bo'lajak o'quv yilidan boshlaboq ayrim fakultet va bo'limlar yo'nalishini o'zgar-tirish hamda yangi fakultetlar va bo'limlar ochish xu-susida takliflar tayyorlash kerak.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun tayyorgarlik jara-yonida respublika oliy o'quv yurtlarida xalqaro iqtiso-diy munosabatlar bo'yicha, shu jumladan, xalqaro mar-keting, valuta munosabatlari, tashqi iqtisodiy faoliyat, boshqarish bo'yicha kadrlar tayyorlash tashkil etilishi lozim.

Ishchilarimizni kontrakt asosida chet elga stajirov-kaga yuborishdan bosh tortmaslik, balki buni rag'bat-

lantirish zarur. Chunki ular yaxshi ish haqi bilan bir qatorda, eng ilg'or texnika va texnologiyani, mehnatning ilg'or usullarini o'zlashtirish, professional saviyasini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa qilib shuni ta'kidlamoqchimanki, biz ijtimoiy-iqtisodiy siyosat sohasida xalq xo'jaligi strukturasiida tub o'zgarishlarni amalga oshirish, unga ko'proq sotsial yo'nalish baxsh etish, odamlarning ehtiyoj va talablari tomonga burilishni o'zimizning eng asosiy vazifamiz, deb hisoblaymiz...

V. O'zbekiston SSR ning siyosiy suvereniteti haqida

Respublika siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyoti hamda milliy munosabatlar muammolarining butun mazmunini hal etishda **O'zbekistonning milliy davlatchiligini mustahkamlashda uning haqiqiy siyosiy o'zligini ta'minlashni** eng muhim bo'g'in deb hisoblaymiz.

Sir emaski, turli norasmiy tashkilot va harakatlarning rahbarlari shu masalalar yuzasidan sirtdan qaraganda keskin va yaqqol ko'rinsa-da, biroq amalda qaltis tavakkalchilikdan iborat shiorlarni o'rtaga tashlamoqdalar. Masalan, respublikaning to'la davlat erkinligi va mustaqilligi haqidagi da'vatlar juda yaqqol va «inqilobiy» jaranglamoqda. Milliy mahdudlik va yakkalanish g'oyasi zo'r berib takrorlanmoqda. Biroq ayni vaqtda, o'sha mustaqillik uchun amalda qanday iqtisodiy imkoniyatlar borligi, unga qanday qilib erishilishi, bu narsa respublikani nimalarga olib borishi haqida hech narsa deyilmayapti...

Shu sababli, biz respublikaning siyosiy o'zligi va iqtisodiy mustaqilligi — ayirmachilikka, mahdudlikka

intilish emas, balki Ittifoq tarkibiga kiruvchi boshqa respublikalar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yanada takomillashtirish va kengaytirishdan ham iborat bo'lishini juda muhim, deb hisoblaymiz.

Biroq, bu o'rinda o'z mohiyati jihatidan unitar davlat bo'lgan eski Ittifoqni nazarda tutayotganimiz yo'q, balki siyosiy jihatdan erkin va iqtisodiy jihatdan mustaqil respublikalarning tubdan yangilangan Ittifoq Federatsiyasini ko'zda tutyapmiz...

Kadrlar siyosati masalalari ham biz uchun muhimdir. Kelinglar, aniq belgilab olaylik: «nomenklatura» so'zi va shu so'z bilan bog'liq kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishning buyruqbozlik-ma'muriyatchilik usullarining umri tugadi. Ammo biz shu bahonada, umuman kadrlarga oid masalalarni hal qilishga ta'sir o'tkazishdan voz kecha olamizmi?

Biz xodim haqida qog'ozga qarab fikr yuritishni, kadrlarni, avvalo, nomenklatura-anketa yondashuvi orqali tanlashni rad qilamiz. Chunki bu narsa ishni udalalay olmagan xodimni bir amallab qutqarib qoluvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Yo'l qo'ygan xatolari uchun ishdan haydalishi lozim bo'lgan xodimga nomenklatura yangi lavozim sovg'a qilib turadi. Xo'sh, adolat qani o'zi?

Bunday yondashuvga ko'p kishilar ko'nikib qolishgan. Ba'zi kishilar shunday bo'laverishi kerak, nomenklatura umrbod lavozimda ishlash huquqini ta'minlab beradi, deb hisoblaydi.

Hozir o'nlab sobiq rahbarlar Markaziy Komitetga murojaat etib «o'zlari uchun joy» berilishini qattiq turib talab qilmoqdalar. Ba'zilari biron-bir lavozimga minib, ishlamay yallo qilib yuradi, g'alati xomxayollar bilan yashaydi, tashkiliy-partiyaviy ish va kadrlar bilan

ishlash bo'limini xizmatga joylashtirish byurosi deb hisoblaydi.

Oddiy kishilar va avvalo, partiyasiz kishilar bularning hammasini ko'rib turib qoralamoqdalar. Ishni barbod qilgan har qanday kishining «issiq» joyga o'rnatib qolishiga partiya komitetlari yordam beradi, degan yaramas fikr butunlay va abadiy yo'q qilib yuborilishi kerak...

Jamoat tashkilotlari bilan munosabatlarda buyruq-bozlik, ikir-chikir ishlarga aralashib, behuda cheklashlardan voz kechish umumiy qoida bo'lib qolishi kerak.

Gap avvalo, **kasaba uyushmalari** haqida bormoqda. Partiyaning kasaba uyushmalariga buyruq berishdan iborat bo'lgan va necha yillar davomida shakllangan odati oqibatida bu uyushmalarning harakat doirasi torayib qolgan, ularning faoliyati qattiq cheklangan edi, natijada kasaba uyushmalari o'z huquq va imkoniyatlaridan to'la-to'kis foydalana olmadi, hayot jaryonlaridan ancha orqada qolib ketdi. Bugun mana shuni to'g'ridan to'g'ri tan olmoq kerak.

Kasaba uyushma tashkilotlari, komitet va kengashlari ko'pincha mehnatkashlarning iqtisodiy-ijtimoiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilish borasidagi juda muhim masalalarda kuzatuvchi bo'lib turibdi. Xo'sh, kimdan va nimadan himoya qilish kerak, degan savol tug'iladi.

Bu borada anchagina ish qilinishi kerak. Har yili O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetiga 20 mingdan ko'proq xat va og'zaki shikoyat tushmoqda. Ularning uchdan bir qismidan ko'prog'i mehnat kollektividagi janjallar, uy-joy va moddiy ne'matlarni taqsimlashda ijtimoiy adolat qoidalari buzilayotgani,

odamlarning uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirishdagi to'rachilik va sansalorlik ko'rinishlari haqidadir.

Ko'rinib turibdiki, bu shikoyat va arizalarda kasaba uyushma tashkilotlari qat'iylik ko'rsatishi, mehnatkashlarning huquqlarini izchillik bilan himoya qilishi lozim bo'lgan masalalar ko'tarilgan.

Hozir respublika kasaba uyushmalarida tashkiliy qoidalar va ularning tuzilish shakllari qayta ko'rib chiqilmoqda. Rasmiyatchilik va to'rachilikdan qutulishga harakat qilinmoqda.

Respublikadagi eng ommaviy jamoat tashkiloti o'z faoliyatida mustaqillik va qat'iylik, prinsipiiallik va ijodiy tashabbuskorlik ko'rsatib, qayta qurishni, hamma islohotlarni faol qo'llab-quvvatlashidan, mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini qattiq turib himoya qilishidan barchamiz manfaatdormiz.

Yoshlar bilan ishlashda ham yangi yondashuvlar kerak...

Ko'p yillar davomida jamiyat yoshlarning g'aroyibotlarga qiziqish, jasoratga intilish, qiyin sharoitlarda o'zini sinab ko'rishga tayyorlik kabi xususiyatlaridan foydalanib keldi-yu, ammo yoshlarning eng zarur hayotiy masalalarini hal etmadi. Natijada ko'pgina yoshlarda ijtimoiy himoyasizlik, hech kimga ishonmaslik, kelajakdan umidsizlik tuyg'usi o'rnashib qoldi, jinoyatchilik ko'paydi.

Yoshlarga faqat haqiqatni gapirish kerak. Quruq so'zlar, safsatalar ularning me'dasiga tekkan. Yoshlarning ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchini tiklash vazifasi biz uchun juda muhimdir.

Yoshlarning norasmiy rahbarlarini, shu jumladan, komsomoldan tashqaridagi rahbarlarini aniqlash, ularni siyosiy faoliyatga tortish, ulardan o'rinbosarlar

tayyorlash kerak. Eng muhimi esa, ko'ndalang turgan vazifalarni hal etishda yoshlarning mustaqilligini ta'minlash zarur...

Urush va mehnat veteranlari haqida alohida gapirmoqchiman.

Biz haqiqatan ham, ulardan qarzdormiz. Chunki ular bardosh bergan ko'pdan ko'p qiyinchiliklar ularga berilayotgan nafaqalar bilan qoplanmaydi. Biz buni tushunib turibmiz va respublikaning hozirgi imkoniyatlari darajasida qo'limizdan kelgan hamma ishni qildik. Bundan buyon ham ularga yordam berishga harakat qilaveramiz.

Hozir esa ularning sha'niga yaxshi so'zlar aytmoqchiman. Yoshlarni tarbiyalashdagi yordamingiz uchun, mahalla komitetlaridagi mehnatingiz uchun, janjallarni to'xtatish maqsadida aytayotgan so'zlaringiz uchun, sizlarning sabr-matoningiz va ishimizda berayotgan madadingiz uchun rahmat sizlarga! Sog'-salomat bo'linglar, umringiz uzoq bo'lsin!

Biz butun turmushimizni yanada demokratiyalashga intilar ekanmiz, **barcha jamoat tashkilotlari va harakatlariga, kelgusida esa partiyalarga ham yangicha** yondashmog'imiz kerak. Biz ijobiy pozitsiyada turgan mana shunday tashkilot va harakatlar bilan hamkorlik qilishga tayyormiz. Ular o'z mas'uliyatini anglab, tanglikdan qutulishning qiyin bo'lsa ham amaliy yo'llarini qidirib topmoqdalar. Bunday kishilar, hatto, ba'zan bo'yoqlarni quyuqlashtirib, so'l tarafga og'a boshlagan paytda ham ularni tushunishimiz va qo'llab-quvvatlashimiz kerak. Ular bilan jar ustidagi tor ko'prikda tortishmay, balki hayotning katta ko'prigidan birgalikda olg'a bormoq kerak.

Ba'zilar borki, mavjud qiyinchiliklardan, yetishmovchilik va kulfatlardan safsatabozlik, siyosiy chayqovchilik, yovuzlarcha xursand bo'lish, o'z g'arazli manfaatlarini qondirib olish uchun bahona sifatida foydalanmoqchi bo'ladilar. Bunday kuchlar ahvol qanchalik yomonlashsa, shuncha yaxshi, deb hisoblaydi.

O'tmishda ancha yuqori lavozimlarni egallab turgan kimsalar ham ularga qo'shib ketmoqda. Biroq vaziyat o'zgarishi bilanoq, yangi yo'nalish g'alaba qilib, mashaqqatli kurashda o'zining haqligini isbotlashi bilanoq, o'tmishga qarshi kurashadigan «qahramonlar» juda ko'payib ketdi. Ular yangi to'lqinning o'rkachiga chiqib olishga intilmoqdalar. Bunday arboblarning haqiqiy basharasini ochib, odamlarga yaqqol ko'rsatib berish zarur.

Nihoyat, juda oz sonli bo'lsa-da, shunday bir guruh ham borki, bu guruh har qanday yangilikni, yaxshilik sari har qanday o'zgarishni to'sib qo'yishga intiladigan, keskinlikni kuchaytirishga urinadigan, ochiqdan ochiq jamiyatga qarshi bo'lgan kuchlardan iborat. Ular vaziyatni izdan chiqarib, mojarolarni kuchaytirib, shu tariqa tartibsizlik va boshboshdoqlik jazavasida hokimiyatga intilib, xo'jayinlik lavozimlarini egallab olishga harakat qilyapti. Bu xavfga yetarli baho bermaslikka haqqimiz yo'q.

Mazkur kuchlar millatlararo muammolardan foydalanib qolishga alohida umid bog'lamoqda. O'tmishda yo'l qo'yilgan buzilish va soxtakorliklardan, hozirgi xatlardan foydalanib, milliy adovat va muxoliflik tuyg'ularini kuchaytirishga intilmoqda. Mana shunday vaziyatda aholining osoyishtaligi va xavfsizligini himoya qilish uchun qonun kuchini ishga solish kerak.

VI. Jamiyatning ma'naviy va axloqiy sog'lomligi uchun javobgarmiz

Oshkoralik — qayta qurishning katta yutug'i, buni hammamiz sezib turibmiz. Lekin tayyorgarlik bo'lmagan zaminda demokratiya nihollarigina emas, balki safsatabozlik va ekstremizmning yovvoyi o'tlari ham o'sib chiqishi mumkin.

Shuni e'tirof etish kerakki, qayta qurish boshlanganiga 5 yil bo'ldi, biroq hali ham **mafkuraviy faoliyatning** bus-butun va mukammal konsepsiyasiga ega emasmiz. Partiya rahbarlari mafkura masalalari xususida ko'p gapirmoqdalar. Lekin gap ko'p-u, ko'mir oz deganlaricha bor.

Hozirgi konkret vaziyatda **millatlararo munosabatlar** bilan bog'liq bo'lgan muammolarga alohida e'tibor berish zarur... Shaxsga sig'inish va turg'unlik yillaridagi aynishlar, to'g'ri yo'ldan toyishlar millatlararo munosabatlarga salbiy ta'sir o'tkazdi.

So'nggi vaqtlarda biz mehnatkashlarning **baynalmilal tarbiyasi** to'g'risida uyalibroq gapiradigan bo'lib qoldik. Holbuki, bunday tarbiya hozir ishimizning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'libgina qolmasdan, bizning ko'p millatli respublikamiz uchun juda dolzarb muammodir. Bu masalani hal qilmaslik yana mojaro, yana nifoq, yangi qurbonlar, yangi qochoqlar va ur-yiqitlarni kutish demakdir.

Baynalmilal tarbiya prinsipial yangi mazmun kasb etishi kerak. Nazarimizda, bunday tarbiya leksiya yoki suhbatlardangina iborat emas, biroq aql-idrok va halollik bilan o'tkaziladigan ana shunday leksiya va suhbatlar ham zarur, albatta. Butun kuch-g'ayrat, asosan, ijtimoiy va millatlararo keskinlikning sababla-

rini aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etishga qaratilmog'i lozim.

Qurolli kuchlarga munosabat vatanparvarlik, baynalmilallik va grajdanlik burchini nechog'liq chuqur uqib olganligimizni namoyon etuvchi tamal toshidir...

Biz, armiya xizmatiga salbiy munosabatni keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etish uchun omilkorlik bilan harakat qilishimiz shart. **Bu o'rinda gap ayrim harbiy qismlarda intizomning bo'shashib ketgani, Ustavga xilof munosabatlar mavjudligi, yigitlarning mayiblanib qaytishi va halok bo'lishiga yo'l qo'ymaslik haqida bormoqda. Biz ro'yirost aytishimiz kerakki, bunga aslo yo'l qo'ya olmaymiz. O'z farzandlarimizni ularga nisbatan noxush xatti-harakatlardan va belgilangan qonunlarning buzilishidan muhofaza qilish uchun barcha ishlarni qilamiz.**

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining tashabbusi bilan O'zbekiston SSR Oliy Soveti Ittifoq organlariga yigitlarimizning xizmatni o'tash tartibini o'zgartirish to'g'risida bir qancha takliflar kiritdi. Bu masalalar hozir hal etilmoqda. Chunonchi, qurilish qismlariga chaqirilgan yigitlar Turkiston harbiy okrugi hududida xizmatni o'tashlari to'g'risidagi masala hal etildi.

Chaqiruv komissiyalariga Oliy Sovet va mahalliy Sovetlarning deputatlari jalb etiladigan bo'ldi. O'zbekistondan chaqirilgan yigitlarning barcha jangovar qismlarda harbiy xizmatni o'tash shart-sharoitlari respublika jamoatchiligi tomonidan qat'iy nazorat ostiga olinmoqda.

Jinoyatchilik tahlikali tarzda o'sib borayotir, bu ma'naviy-siyosiy vaziyatga beqaror qiluvchi ta'sir o'tkazmoqda. 1985-yilga nisbatan jinoyatchilik qariyb

20 foiz, og'ir jinoyatlar esa bundan ham ko'proq o'sdi. Huquqni muhofaza etish organlari tomonidan mansabdor shaxslarning qonun-qoidani buzish hollariga e'tibor kuchaytirilgani tufayli bu muhofaza organlari sobiq rahbarlarining soxta obro'si ko'tarilib ketdi. Lekin ayni bu hol uzoq vaqt davomida boshqa jinoyatlarining panada qolib ketishiga olib keldi.

Biz jinoyatchilikka qarshi kurashish yuzasidan favqulodda choralar ko'rar ekanmiz, salbiy hodisalarni vujudga keltirayotgan, odamlarni, ayniqsa, yoshlarni huquqqa xilof xatti-harakatlar ko'chasiga kirishga majbur etayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-siyosiy sabablarni, ildizlarni topish, ularni bartaraf etish lozim, deb hisoblaymiz.

Gap shu haqda borar ekan, **«ommaviy madaniyat»** muammolariga ham alohida e'tibor berishimiz lozim. Ayrim kishilarda yallo qilib yashash, zo'ravonlik, harom-xarishlik ruhi hukmrondir. Ba'zan odobsizlik, behayolik, ko'ngilni aynitar darajadagi namoyishlardan odamlarning fig'oni oshmoqda. Ular asriy an'analari-miz, diyonat, vijdon, odob borasidagi xalq udumlari oyoqosti qilinayotganini aytib, bizni muhofaza eting, demoqdalar. Biz bu bilan hisoblashmog'imiz kerak.

Ajoyib madaniy an'analar sohibi bo'lgan xalqimizni ma'naviy aynish va qo'pol pastkashlikdan himoya qilish uchun qonun chiqarib bo'lsa ham qat'iy choralar ko'rish kerak.

Madaniyatning moddiy bazasiga nazar solsak, uyaliy yerga kirib ketgudek bo'lamiz. Hamonki, jamiyat madaniyatga hayotning boshqa sohalariga nisbatan sariq chaqa sarflayotgan ekan, vujudidan yuksak ichki madaniyat nurdek taralib turgan odamni tarbiyalashi mumkinmi?..

Bugun bosib o'tgan yo'limizga o'z-o'zini tanqid ruhida nazar tashlab, shuni ro'yirost tan olishimiz kerakki, biz madaniyat muammolariga kechirib bo'lmaydigan tarzda kam e'tibor bergan ekanmiz. Nutqlar va ma'ruzalarda jamiyatning ma'naviy taraqqiyotida madaniyatning tutgan o'rni haqida juda balandparvoz gaplarni ko'p aytdik.

Lekin amalda, ya'ni teatr va kinoteatrlar qurish yuzasidan aniq vazifalarni hal etishda, ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan noyob me'moriy obidalarni ta'mir etishda, kitob nashr etishni yaxshilashda, xalq san'atini rivojlantirishda, taassufki, biz o'zimizning jarangdor chaqiriqlarimiz va shiorlarimizni amalga oshirish yuzasidan oz ish qildik.

Nimaga mo'ljallangani notayin bo'lgan inshootlar va ma'muriy binolar qurilishiga million-milion so'm mablag'larni sarflab yuboraverib, xalqning ma'naviy va jismoniy kamoloti uchun juda zarur bo'lgan klublar, kutubxonalar, sport inshootlari qurilishiga mablag'ni ayadik.

Hayotimizda san'atning o'rni to'g'risidagi Jdanov va Suslovning «nazariya» — qoidalari oqibatida adabiyotimiz katta talafot ko'rdi.

Bizning «nazariyotchilarimiz» adabiyotning partiya-viyiligi to'g'risidagi lenincha ta'limotning birinchi qismini hadeb takrorlayverib, uning ikkinchi qismini, ya'ni «adabiyot — nozik ishdir, u ma'muriyatchilik va buyruqbozlikka moyil emas», degan qismini ko'pincha unutilib qo'ydilar. Natijada bu «nazariy» aqidalar achchiq samara berdi: O'zbekistonda ham dushmanlarni qidirishga kirishdilar. Madaniyatimizning mashhur arboblari Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir va Turob To'la badnom etildi, ularning ayrimlari, chunonchi

Shayxzoda, Mirzakalon Ismoilii, Said Ahmad, Shuhrat, Shukrullo singari ko'p adiblar o'z hayotlarining ma'lum yillarini qamoqlarda kechirdi. O'zbek xalqining atoqli farzandlari — Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Elbek, Botu kabi adabiyotimiz namoyandalari boshiga og'ir musibat tushdi.

Hozirgi oshkoralik va qayta qurish davrida yana shuni e'tirof etishimiz kerakki, biz ba'zan o'z tariximizga juda biryoqlama qarab, uzoq o'tmishdagi mashhur olimlar va shoirlarning ijodiy faoliyatiga shu arboblarning yashagan va ishlagan davr muhitini hisobga olmasdan, zamonning soxta talqiniga suyanib baho berdik.

Yaqindagina o'zbek adabiyotining klassigi Boburni baholashda tor sinfiy yondashuv ro'y berdi. Adib ijodining milliy va umuminsoniy ahamiyati kamsitildi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1986-yilda bo'lgan uchinchi plenumida Bobur shaxsi tahqirlanib, u «ma'rifatli zolim» deb tilga olindi.

Xalqimiz respublika hukumatining Navoiy, Ulug'bek, Bobur, Mashrab, Furqat, Qodiriy va xalqimizning boshqa buyuk farzandlari yubileylarini o'tkazish to'g'risidagi qarorini juda ruhlanib kutib olgani bejiz emas, deb o'ylaymiz. Ularning merosi O'zbekiston xalqlari umuminsoniy qadriyatlarining ravnaqi va boyishiga xizmat qilib kelgan edi va bundan buyon ham xizmat qiladi. **Biz ularning bebaho merosini xalqqa, avvalo yoshlarga yetkazish uchun barcha ishlarni qilamiz.**

Hozir yurtimizda madaniyat va san'at arboblarning halol, haqqoniy so'ziga yuksak baho berilmoqda. Ammo ana shu so'z odamlarning aql-idroki va ko'ngliga yetib borishi uchun hali ko'p ish qilish kerak.

Biz bolalar va o'smirlar uchun kitob nashr etishda oxirgi o'rinlardan birini egallab turibmiz. Chunki, poligrafiya sanoatimiz qoloq. Nashriyotlar ishida kamchiliklar va poligrafiya bazasining zaifligi haqida biz o'n yillardan buyon gapirib kelmoqdamiz. Ahvol esa o'zgarayotgani yo'q. Davlat plan komiteti va Matbuot davlat komiteti bu ish bilan puxtaroq shug'ullanishlari lozim. Millatning ma'naviy taraqqiyoti shu ishning hal etilishiga ham aloqador. Kinematografchilarimiz ishida siljishlar bo'lishini kutib turibmiz. Badiiy jihatdan to'laqonli, tomoshabinlar iliq kutib olgan yaxshi kartinalar hozircha barmoq bilan sanarli.

Respublikamiz katta ziyoli kuchlarga ega, respublikamiz aholisining uchdan birini tashkil etgan farzandlarimiz taqdiri ana shu ustozlar, ya'ni o'qituvchilar qo'lidadir, zotan muallimlarning ahvolini yaxshilash barchamizning burchimizdir.

Kutubxona, klub, muzey xodimlarining ahvoli ham durust emas.

Urushdan ilgari yillarda biz respublika budjetining yarmiga qadar mablag'ni maorif ishlariga sarflar edik, hozir u vaqtdagidan badavlatroq bo'lib qolganimizda esa, shu ehtiyojlarga ancha kam mablag' xarjlamoqdamiz.

Odamlar, yosh avlod ko'z o'ngida **tarix va madaniyatimizning ajoyib obidalar**i tuproqqa qorishib ketayotgani o'rmini qoplab bo'lmaydigan siyosiy, ma'naviy talafotdir.

Endilikda **milliy madaniyatni**, uning ruhiy va ma'naviy qadriyatlarini tiklash bizning eng asosiy mafkuraviy vazifalarimizdan biri sifatida oldingi o'ringa chiqishi kerak.

Davlat tili sifatida **o'zbek tilining** qo'llanish sohasini kengaytirish yuzasidan ko'p ish qilinishi lozim. Bu o'rinda hali hal bo'lmagan ko'pgina masalalar bor. Belgilangan rejalar sust amalga oshirilmoqda. Bu kamchiliklarni bartaraf etishda bosiq-vazminlik, andisha bilan ish tutishimiz zarur. Ayni vaqtda O'zbekistonda yashayotgan barcha millatlar va elatlarning til sohasidagi va boshqa madaniy-milliy ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratilishi kerak.

Sira mubolag'asiz aytish mumkinki, xalqni ma'naviy jihatdan sog'lomlashtirish sohasidagi ana shu katta ishda ziyolilarimiz asosiy, hal etuvchi o'rinni egalashlari darkor. Ziyolilarning so'zi odamlarning ong-shuuri va qalbida hamisha aks-sado beradi.

Bugungi murakkab, ziddiyatli, turli larzalar chiqib turgan va mojarolar bo'lib turgan vaziyatda ziyolilarimizning oqilona so'zlari, xayrli ishlari odamlar va xalqlar o'rtasida insonparvarlik va ma'naviy normalarni saqlab qolishda eng muhim shartdir.

Respublika Fanlar akademiyasi olimlaridan umidimiz katta. Buning boisi bor, albatta. Respublikamizni inqirozdan chiqarishning, yagona demaganda ham, asosiy yo'li ilm-fanning madadiga tayanishdadir. Fan-texnika taraqqiyotiga, yangi g'oyalar va kashfiyotlarga suyanishdadir.

Olimlarimizni tanqid qilish ham mumkin edi, bunday tanqid, hatto, an'anaga ham aylanib ketgan edi. Lekin men ularni qo'llab-quvvatlamoqchiman. Chunki, shunga imonim komilki, respublikamizda anchagina yetuk olimlar bor, konkret ishlar ham qilingan, olimlarimiz xalq oldidagi mas'uliyatini ham tushunib turibdilar. Yaqinda bo'lib o'tgan uchrashuvlar chog'ida ham bunga ishonch hosil qildim.

G'ayrat-shijoat va ijodkorlik ko'proq bo'lsa dey-miz. Yosh olimlarga yordam beraylik. Shunday qilsak, durust natijalarga erishamiz. Biz bu borada yordamni bundan buyon ham hech ayamaymiz.

Biz ijtimoiy taraqqiyot muammolarini o'rta-ga qo'yishdagi tashabbuskorlik va dadillikni har tomon-lama qo'llab-quvvatlab, jurnalistlarning mas'uliyatini oshirish tarafdorimiz, shu bilan birga, bir tomonlama g'arazli yondashuvlarga qarshi, soxtachilikka qarshi, axloq-odobni oyoqosti qilishga qaratilgan urinishlar-ga, haqiqatni faqat men aytaman deb da'vo qilishlarga qarshi ekanimizni ham ochiq aytamiz.

Markaziy matbuot bilan o'zaro munosabatlarimiz to'g'risida alohida gapirib o'tmoqchiman. Bu muno-sabatlar bir tekis emas. Biz ilgari ham qator maqola-larda ashyoviy dalillarning «qulog'idan tortilgani», bu shundoqqina ko'rinib turgan g'irromlik ekani haqida gapirgan edik.

Vijdon amriga quloq solib oqni — oq, qorani — qora deyish kerak. Bizning yuzimizga loy chaplasha-yotganida, bunga oshkoralik va demokratiyaning namoyon bo'lishi deb baho bermoqdalar. Buni qarang-ki, biz O'zbekiston hayotining muhim muammolari bir yoqlama yoritilyapti, deb norozi bo'lsak, bu oshkora-lik prinsiplariga tajovuz deb qaralmoqda.

Biz jurnalistlarni cheklab qo'ymoqchi emasmiz. Mayli, yozaverishsin, mayli, tanqid qilaverishsin. Ammo xolislik va andisha unutilmasligi kerak, ikkala tomon-ning ovozi eshitilgandagina haqiqiy oshkoralik qaror topishi mumkinligini yodda tutish kerak. Hamonki, faqat bir tomongina Ittifoqdagi million-million odamlarni chalg'itib, afsona ketidan afsona to'qiyot-gan ekan, bu hol fikrlar xilma-xilligidan juda yiroqdir.

Biz davriy nashrlarning strukturasiya yana ham sinchkovlik bilan nazar solishimiz, shu strukturani demokratiyalashimiz, bir qancha yangi gazeta va jurnallarni nashr etishimiz kerak. Markazdagi ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro munosabatlar tartibiga yangicha baho berib, ana shu vositalar muxbirlarining respublikadagi vakilligi shartlarini tayyorlashimiz zarur.

Biz jamiyatshunoslikning roliga yangicha nazar solishimiz zarur. Uzoq vaqtdan buyon jamiyatshunoslik fani sotsializm to'g'risidagi dogmatik tasavvurlar xizmatida bo'ldi, siyosat va mafkuraning izidan bordi. Mamlakat va respublikamizda sodir bo'layotgan jarayonlarni teran ilmiy idrok etish zarur.

Biz ko'ppartiyaviylik sharoitidagi ijtimoiy hayot qonuniyatlari tahlili dasturiga ega emasmiz. Jamiyatshunoslar ko'p ukladlik mavjud bo'lgan sharoitda, boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi iqtisodiy va ijtimoiy ziddiyatlar to'g'risidagi tasavvurlarni bayon etib berishgani yo'q.

Millatlar va millatlararo munosabatlar ravnaqi, respublikalarning siyosiy suvereniteti va iqtisodiy mustaqilligi, ishchilar sinfining milliy otryadi shakllanishi muammolari va boshqa ko'p muammolar chuqur tahlil etilishi kerak.

Afsuski, Markaziy Komitet huzuridagi Partiya tarixi instituti so'nggi yillarda yangi g'oyalar, konsepsiyalar bilan bizni bahramand etayotgani yo'q. O'ylaymizki, bu dargohni tubdan qayta tuzish, ehtimolki, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar institutini ochish vaqti yetildi.

Toshkentdagi Oliy partiya maktabida olib borilayotgan ilmiy va o'quv ishlarini har jihatdan yangi darajaga ko'tarish lozim. Bu yerda ham tub o'zgarishlar qilish payti allaqachon yetildi.

Vijdon erkinligi masalalariga ham biz yangicha pozitsiyalardan yondashishimiz lozim. Biz dinga qarshi

zo'ravonlik bilan kurashish usullari va o'zboshimchalikdan voz kechib, davlat bilan din o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda qonuniy prinsiplarni to'la tiklash tarafdorimiz.

Biz ateistlar va dindorlar o'rtasidagi, hokimiyat organlari bilan diniy birlashmalar o'rtasidagi hamkorlikni bundan buyon ham rivojlantirish tarafdorimiz.

Bundan ko'zda tutilgan muddao insonlarning farovonligidir, ijtimoiy murossasizlik, milliy nifoqqa, fuqarolarning manfaatlariga putur yetkazilishiga chek qo'yishdir.

Xullas, barcha sog'lom kuchlar el-yurt manfaatlariga, har bir insonning manfaatlariga, jamiyatimiz hayotining insonparvarlik, demokratik negizlariga xizmat qilishi kerak...

Delegat o'rtoqlar!

Mening ma'ruzam nihoyasiga yaqinlashib qoldi. Zimmamizda turgan vazifalar yengil vazifalar emasligiga ishonchingiz komil bo'ldi, deb o'ylayman. Yo'limizda bugun *jiddiy qiyinchiliklar bor, ular kelajakda ham bo'ladi...*

Hozir oldimizda turgan maqsadlarga erishishning birdan bir to'g'ri yo'li — mehnat va yana bir bor mehnatdir, ilhom va mahorat bilan tashkil etiladigan mehnatdir.

«Inson — jamiyatga, jamiyat — insonga hamnafas», degan shior turmushimizning qonuni bo'lib qolishi, respublikamizdagi har bir kishining turmush farovonligini oshirishda eng muhim shartga aylanishi kerak...

Yana bir muhim gapni aytib o'tmoqchiman. Biz shuni qat'iy tushunib olishimiz zarur: biz, millatimiz va elatimizdan qat'i nazar, respublikaning barcha mehnatkashlari O'zbekiston muammolarini ahillik va jips-

lik bilan bir oilaning farzandlari kabi hal qilganimizdagina har qanday qiyin vazifalarni ham bimalol uddalay olamiz.

O'zbekiston — ko'p millatli respublika. Bu yerda qadim zamonlardan beri necha o'nlab millat farzandlari yonma-yon yashab, mehnat qilib kelmoqdalar...

O'zbek xalqi hamisha — kulfatda ham, quvonchda ham boshqa millat va elatlarga alohida hurmat bilan qarab kelgan, mamlakat xalqlarining qardoshligi va do'stligini muqaddas bilib ardoqlab kelgan. Bu narsa butun dunyoga ma'lum. Bu — biz bebaho boylik deb asraydigan hayotiy qadriyatdir.

Biz barcha millat va elatlarning birligini bundan buyon ham mustahkamlash uchun ahillik bilan yaxshi ishlashga imkon beradigan ma'naviy, siyosiy muhitni yaratishni o'z burchimiz deb bilamiz. Odamlar o'rtasidagi mana shunday muhit doimo beg'ubor va musaffo bo'lsin, bu muhitga chang va gard yuqmasin...

*O'zbekiston Kompartiyasining
XXII syezdidagi so'zlangan ma'ruzadan*

*«Sovet O'zbekistoni» gazetasi,
1990-yil 5-iyun*

MUSTAQILLIK DEKLARATSIYASI

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Soveti:

o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari,

har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad haqi,

har bir kishining farovon hayot kechirishini ta'minlashni oliy maqsad deb bilgan holda,

O'zbekiston xalqlarining kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda,

xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib,

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qiladi.

1. O'zbekiston SSR ning demokratik davlat mustaqilligi Respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir.

2. O'zbekiston SSR ning davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo'yilmay turib, o'zgartirilishi mumkin emas.

3. O'zbekiston SSR da davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari ustidan amalga oshiriladi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqlidir.

4. SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlanganidan keyingina O'zbekiston SSR hududida kuchga ega bo'ladi.

5. O'zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O'zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi.

6. O'zbekiston SSR xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi va hurmat qiladi.

7. O'zbekiston SSR ittifoqdosh respublikalar va boshqa davlatlar bilan o'zining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa munosabatlarini shartnomalar asosida belgilaydi va amalga oshiradi.

8. O'zbekiston SSR o'zining taraqqiyot yo'lini, o'z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o'zi ta'sis etadi.

9. Qoraqalpog'iston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi mustaqilligini Muxtor Respublika Konstitutsiyasi ta'min etadi. O'zbekiston SSR uning Asosiy Qonuni va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi asosida Qoraqalpog'iston MSSR manfaatlarini himoya qiladi.

10. O'zbekiston SSR ning qonun chiqaruvchi hokimiyati O'zbekiston SSR davlat mustaqilligini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonunlarni ishlab chiqardi, O'zbekiston SSR ning siyosiy va iqtisodiy sistemalari tarkibini va qurilishini belgilaydi.

11. O'zbekiston SSR Oliy Soveti umumxalq muhokamasi asosida demokratik huquqiy davlat tuzishga qaror qilganini bildiradi, O'zbekiston SSRda yashayotgan barcha millat va elatlarning qonuniy, siyosiy,

iqtisodiy, etnik, madaniy huquqlariga hamda ona til-lari rivojlantirilishiga kafillik beradi.

12. Ushbu Deklaratsiya O'zbekiston SSR ning yangi Konstitutsiyasini hamda yangi ittifoq shartnomasini ishlab chiqish uchun asosdir.

*O'zbekiston SSR Oliy Sovetining
ikkinchi sessiyasida qabul qilingan*

1990-yil 20-iyun

O'ZBEKISTONNING IQTISODIY MUSTAQILLIGI XUSUSIDA

1990-yil 16-iyun kuni O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetida respublikaning iqtisodiy mustaqillikka va bozor iqtisodiyotiga o'tishi masalalari xususida kengash bo'lgani ilgari xabar qilingan edi.

Kengashda O'zbekiston SSR Prezidenti Islom Karimov nutq so'zladi.

Mamlakatda yuzaga kelgan murakkab vaziyatda real hayotga tayanish, umumiy, mavhum hamda balandparvoz so'zlarga asoslanib emas, balki konkret sharoit, real imkoniyatlarga amal qilish eng muhim ishdir. Asosiysi esa oyoqda mahkam turishimiz, xalq bilan doimiy ravishda maslahatlashishimiz, uning hayotini yaxshilash uchun aniq-ravshan yo'llarni izlashimiz va topishimiz kerak, deb ta'kidladi Islom Karimov.

Bugungi kunda, eng avvalo, bir daqiqani ham boy bermasdan iqtisodiy masalalarni hal etish kerak.

Biz uchun asosiy yo'nalish, barcha vazifalarni hal etish kaliti – O'zbekistonning real siyosiy suveriteti va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashdir.

Mustaqillik respublikaga o'z xalqining farovonligini yaxshilashdek hayotiy muhim masalalarni hal etish, vujudga keltirilgan imkoniyatlar va resurslarni to'la-ligicha mustaqil ravishda rejalashtirish va ulardan

foydalanish hamda o'z xalqining farovonligi yo'lida va o'zaro foydali negizda markaz bilan, boshqa respublikalar va xorijiy mamlakatlar bilan o'z munosabatlarini mustaqil o'rnatish imkonini beradi.

Xo'sh, bu vazifani aniq bajarish mumkinmi? Ha, aniq bajarish mumkin, bundan boshqa yo'l yo'q. Agar biz avval bo'lganidek, respublikamizdan arzimagan narxda iloji bo'lgan barcha narsalarning tashib ketilishi bilan murosa qilishni xohlamasak, Markazda bizga nima lozim va yetarli deb hisoblashlari bilan murosa qilishni xohlamasak, shunday yo'l tutishimiz zarur. Boshqa ilojimiz yo'q.

Aniq iqtisodiy hisob-kitoblar siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka o'tish ushbu vazifaning butun murakkabligi va nihoyatda qaltisligini hisobga olganda, ayni vaqtda bozor iqtisodiyoti joriy etilishi bilan oson kechishi mumkin emasligini ko'rsatmoqda. Lekin faqat ana shu mustaqillik bugungi jamiyatimizda yo'q bo'lgan narsalarni — haqiqiy mehnat qilishga intilishni, samarali ish uchun moddiy omillarni berishga qodir. Bunda — o'tmishda ham, hozir ham, kelajakda ham — butun muammoning mohiyati yashiringan. Ko'p yillik achchiq tajriba, qanday tayoq ostida ishlamaylik — xoh u plan bo'lsin, xoh davlat buyurtmasi yoki davlat yo'li bilan mahsulot yetkazib berish bo'lsin — faqat arzimagan samara keltirishini ko'rsatib turibdi. Chunki bunday sistema insonning ijodiy tashabbusini falaj qiladi, undagi egalik hissini yo'qotadi. O'z ishidan norozilik keltirib chiqaradi.

Xalqning eng yaxshi fazilatlarini namoyon bo'lishi uchun yo'l ochish kerak — bu o'z kuchiga ishonch, haqiqiy mehnatdan manfaatdorlik, o'zi uchun mas'uliyat hissi bo'lib, bu mas'uliyatni boshqa hech kim-

ning zimmasiga yuklash mumkin emas. O'n yillar mobaynida odamlarda inqirozga yuz tutgan ana shu his-tuyg'ularni uyg'otish siz bilan bizning vazifamizdir, deb ta'kidladi Islom Karimov.

Buni qanday qilish kerak, har bir ishchi, dehqon va xizmatchiga ro'y berayotgan jarayonlarning mohiyatini qanday yetkazish va tushuntirish kerak?

Bizga mustaqillik kerak. Binobarin, har doim, hamma davrda va barcha tuzumlarda mulk huquqi ham iqtisodiy, ham siyosiy mustaqillikning hal qiluvchi sharti bo'lgan. Bu nima degani? Agar men nimagadir ega bo'lsam, ana shu mulkdan o'z manfaatlarim yo'lida foydalanaman va uni tasarruf etaman, demak, men mulk egasiman. Xuddi shu yerda mening shaxsiy erkinligim, mustaqilligim va ayni vaqtda jamiyatdagi boshqa odamlar orasidagi o'zaro aloqalarimning asosi bor. Ayni paytda egalik huquqi faqat moddiy boyliklargagina taalluqli emas. Bu aqliy qobiliyatga ham taalluqlidir. Mustaqil shaxslarning uyg'unligi esa butun jamiyat mustaqilligining asosidir.

Respublikada mulk bilan bog'liq ishlarning ahvoli qanday? Sizlarning hammangiz respublika idoralari o'z hududidagi barcha ishlar uchun javob berishi xususida ming martalab eshitgansiz va o'qigansiz. Lekin ishlarning ahvoli aslida qanday, deya fikrini davom ettirdi Prezident.

Agar iqtisodiy quvvatimizni tashkil etadigan barcha asosiy fondlar bugungi kunda 100 milliard so'm hisoblansa, hozir amal qilayotgan tartibga ko'ra, qariyb 30 milliard so'm pul Ittifoq tobeligidadir. Ishlab chiqarishning asosiy fondlarida esa bu mutanosiblik yanada yomon. Bu sohada mablag'larning beshdan ikki qismi Ittifoq tobeligida, shu jumladan sanoatda ana

shu mablag'larning deyarli 70 foizi, transportda hamda moddiy-texnika ta'minotida, ilm-fanda 30 foizga yaqini Ittifoqqa tegishli.

Zotan, Konstitutsiyaga ko'ra barcha davlat mulki (bu hamma asosiy fondlarning deyarli 90 foizini tashkil etadi) «Butun sovet xalqiga» tegishlidir — Qonunda xuddi shunday deb yozib qo'yilgan. Modomiki, respublikamiz o'z boyliklarini o'zi tasarruf eta olmas ekan, uning qanday mas'uliyati haqida, respublika xalqining qanday mulki haqida gap borishi mumkin?

Hozir respublika Oliy Sovetining doimiy komissiyalarida butun tariximiz davomida birinchi marta O'zbekiston SSRning Mulkchilik to'g'risidagi qonuni tayyorlanib bo'linmoqda. Bu chinakam mustaqillik sari tashlangan dastlabki qadam, iqtisodiy o'zaro munosabatlarga mutlaqo yangi yondashuv bo'ladi.

Bunda eng muhim narsa nima?

Birinchi: respublika mulki mustaqil va u federatsiyadan ajratilgan.

Ikkinchi: o'lkamiz zamini, yer osti boyliklari, korxonalari va tashkilotlari O'zbekiston SSRning mutlaqo o'z mulki hisoblanadi. Ana shu boyliklarimiz mustaqilligimizni, respublikamizning madaniy va tarixiy qadriyatlarini ta'minlaydi.

Uchinchisi, O'zbekistonda mulkchilikning xilma-xil shakllarini rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Bu shakllar teng huquqli bo'lishi kerak.

Bu — mazkur muammoga juda umumiy yondashuvning, uní hal etishning asosi ekanini tushunib turib-sizlar. Bu masalaning hal etilishini orqaga surib bo'lmaydi, ammo shu bilan birga, u har tomonlama puxta, chamalab o'ylab ko'rilishi kerak.

Sanoat, qurilish, dehqonchilik sanoati majmuyi, ashyoviy mollar ishlab chiqarish sohalarining yetakchi tarmoqlaridagi korxonalar respublikaning mulki bo'lishi kerak. Shu bilan birga, bu korxonalarni bizga amaliy ravishda topshirish navbati va tartibini aniq belgilash zarur.

Respublikaning tabiiy boyliklaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan barcha xomashyo tarmoqlari ham respublikaning mulki bo'lishi kerakligi shubhasiz. Binobarin, bu boyliklarni O'zbekistonning o'zi tasarruf qiladi. Albatta, ittifoq ministrliklari, idoralari bilan o'zaro aloqa bog'lab, tasarruf qiladi, chunki ayrim ishlab chiqarishlarni biz o'zimiz mutlaqo yuksaltira olmaymiz. Ammo bu ish o'zaro manfaatli asosda bo'lishi kerak. Shu bilan birga respublika xomashyo boyliklarining xo'jayini, mulkdor bo'lishi, ittifoq idorasi esa taklif etilgan sherik bo'lishi lozim. Bu sohada respublika hal qiluvchi rol o'ynaydigan bo'ladi.

Xo'sh, hozir ishlarning ahvoli qanday? Kimyo mahsulotidan tortib, bizning asosiy boyligimiz bo'lgan paxta tolasigacha 90–100 foizi xomashyo sifatida qayta ishlash uchun boshqa mintaqalarga va chet ellarga jo'natilmoqda. Respublikada qazib olinayotgan mis, qo'rg'oshin, rux va boshqa rangli metallarning yarmisi olib ketilmoqda. Oltinga kelganda, uning hammasi mamlakatning valuta fondiga borib tushmoqda.

Mulkchilik huquqiga yondashuvning tubdan o'zgartirilishi bizning ittifoqdosh respublikalar va markaz bilan o'zaro munosabatlarimiz mazmuni hamda xarakterini tubdan qayta ko'rib chiqishni mantiqan talab qiladi, zero busiz siyosiy va iqtisodiy mustaqillik haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Bir tomondan bizni O'zbekiston suveren davlat, deb ishontirib keldilar va hozir ham ishontirmoqdalar. Bu gap hatto SSSR va O'zbekiston SSR Konstitutsiyalari-ga yozib qo'yilgan. Biroq, ikkinchi tomondan, Ittifoq idoralarining son-sanoqsiz nizomlari va yo'l-yo'riqlari respublikaning qo'l va oyog'ini bog'lab qo'yganligi har bir kishiga ayon. Biz hatto bir yoki ikki ming tonna paxta tolasini bir necha Ittifoq idoralarining ijazatisiz o'z bilganimizcha sota olmaymiz.

Hayot bir joyda turmaydi, u kun sayin, soat sayin minglab yangi savollarga aniq javob kutadi. Xo'sh, mana shunday sharoitda biz qanday ish tutishimiz kerak? Umri tugagan huquqiy qoidalar va nizomlar-ning harfiga ko'r-ko'rona itoat qilib, shu tariqa yangi ijtimoiy mojarolarni keltirib chiqaraylikmi yoki hozirgi kun talablari va voqeliklarini e'tiborga olib, qarorlar qabul qilaylikmi? Biz harakat qilishimiz zarur deb hisoblaymiz va hozirning o'zidayoq dastlabki qadam-larni qo'ydik. Chunonchi, yaqinda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzurida xomashyo va yengil sanoat mahsulotlari ta'minoti hamda ularni sotish bosh bosh-qarmasi — «Uzglavlegsnaabsbit»ni hamda Tashqi sav-do va xorijiy mamlakatlar bilan aloqa davlat komite-tini tashkil etish to'g'risida Prezidentning Farmonlari e'lon qilindi.

Bu choralar ko'rilishini nimalar taqozo etdi? O't-mishda Ittifoq idoralaridagi haddan tashqari markaz-lashuv oqibatida qanday tartibsizlik vujudga kelga-niga bir nazar tashlang. Xomashyo boyliklarini hisob-ga olish va taqsimlashning barcha masalalarini mahalliylashtirishga oid tadbirlar ham yordam ber-madi. Aslida oltita Ittifoq va respublika tashkiloti mav-jud bo'lishiga qaramay, yengil sanoat xomashyosini

taqsimlash va realizatsiya qilishni muvofiqlashtirishga erishilmadi. Respublikaning manfaatlari haqida hech kim o'ylamadi, qimmatbaho xomashyo qayoqqa ketayotganini hech kim nazorat qilmadi. Mana shuning oqibatida paxta tolasi va qorako'lining 90 foizi, tabiiy junning 71 foizi, sintetik tolaning 93 foizi, pilla va charmning anchagina qismi arziyas baho bilan respublikadan olib ketilaverdi. Ichki bozorda ham, jahon bozorida ham ko'plab talab qilinayotgan mana shu g'oyat qimmatli xomashyoning ko'pchilik qismi Sharqiy Yevropa mamlakatlariga eksport qilinmoqda, ular esa bu mahsulotlarni jahon narxlarida kapitalistik firmalarga sotmoqda.

Holbuki, o'zimizdagi ko'pgina korxonalariga xomashyo yetishmayapti, bizdan olib ketilgan resurslardan tayyorlangan mollarni esa respublika boshqa mintaqalardan va chet ellardan uch hissa ortiq narx bilan sotib olmoqda.

Bizning o'z boyliklarimizga bunday munosabat, yumshoq qilib aytganda, naqadar bema'niliklarga olib borishi mumkinligini shunday bir misoldan bilsa bo'ladi. Respublika har yili Markazning topshirig'ini bajarib, Sharqiy Yevropa mamlakatlariga 400–430 ming tonna miqdorda paxta tolasi jo'natmoqda. Bizning korxonalarimiz bu mahsulot uchun valuta ajratmalarini 1987-yildagina, shunda ham oz miqdorda ola boshladi. Chunonchi, 1988-yilda Ittifoq bizga xorijiy valutada 78 million so'm pul to'ladi. Bu yetkazib berilgan tola qiymatining beshdan bir qismiga ham yetmaydi. 1989-yilda 130 million so'm to'ladi. Shu yilning birinchi kvartalida eksport qiluvchi korxonalar 77 million so'm pul oldi. **Olingan pulning 70–80 foizini «beshinchi kategoriya» deb atalgan**

va aslida hech narsa sotib olib bo'lmaydigan valuta tashkil etganligi sir emas. Biroq haqiqatda bizning korxonalarimiz shu puldan ham mahrum etildi, chunki Ittifoq tashkilotlari bu valutani o'z maqsadlari uchun to'la-to'kis ishlatib yubordi. Butun mana shu davr mobaynida respublika mazkur mablag'dan atigi 50 million so'mni ishlatishga muvaffaq bo'ldi, hozirgacha yana imzolangan 32 million so'mlik shartnoma bor, paxta tozalash tarmog'ininggina korxonalari hisobida qolgan pul esa 180 million so'mdan oshadi. Bu yil hammasi bo'lib, rostini aytganda, taxminan yarim milliard so'mlik mana shunday valuta tushishi kutilmoqda. Bizga ma'lum bo'lmagan qandaydir mulohazalar bilan Ittifoq idoralari bizning bu yilgi deyarli hamma paxtamizni beshinchi kategoriya valutaga sotib yuborgan.

Endi bo'lsa, o'sha tashkilotlarning o'zi 1-iyuldan boshlab korxonalarimizning hisob varaqlarini harakatsiz qilib qo'yishni va so'ngra butunlay yo'qqa chiqarishni mo'ljallamoqda, bunga aslo qo'shilib bo'lmaydi. Binobarin, yangi tuzilgan komitet Tashqi iqtisodiy bank Davlat plan komiteti, Qishloq xo'jaligi davlat kooperativ komiteti va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda zudlik bilan qat'iy harakat qilib, hisob varaqlarda mavjud bo'lgan mablag'dan 25–27-iyungacha foydalanish imkoniyatini topishlari kerak.

Ayni paytda, tashkil etilgan «Uzglavlegsnaabsbit» ikkinchi yarim yillikda beshinchi kategoriya valuta uchun mahsulot yetkazib berilishi ko'zda tutilgan shartnomalarni puxta taftish qilishi lozim. **Buning ma'nosi shuki, Ittifoq tashqi savdo xodimlari biz yetkazib beradigan mahsulotlarga quruq qog'oz bilan haq to'la-**

moqchi bo'lsa, unda respublikamiz o'zining choralarini ko'radi: paxtamiz va boshqa xil mollarimizni haqiqiy, qat'iy valutaga sotib olishni istayotgan xaridorlar keragidan ko'p va biz ular bilan o'zimiz shartnoma tuzamiz. Biz chet elga 120—130 ming tonna tola yetkazib berishimiz kerak. Bu esa hozirgi og'ir sharoitda respublikaga juda zarur bo'lgan 150—200 million dollar demakdir. «Uzglavlegsnaabsbit» tashkilotiga ikkinchi yarim yillikda mamlakatning boshqa regionlariga paxta tolasi yetkazib berish uchun tuzilgan bitimlarni puxta ko'rib chiqish vazifasi ham topshiriladi. Masala quyidagicha o'rtaga qo'yilgan: biz sheriklarimiz o'z majburiyatlarini qat'iy bajargan hamda bu munosabatlar foydali va teng huquqli bo'lgan taqdirdagina ularning iltimosini qondiramiz.

Keyinchalik biz barcha resurslarimiz sarflanadigan ustun jihatlarni puxta aniqlab olishimiz zarur. Bunda birinchi galda neft va neft mahsulotlari, don va un, go'sht, sut, qand-shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, yog'och-taxta, metall, asbob-uskunalar va texnika xarid qilishimiz zarurligiga asoslanshimiz lozim. Bizga ishlab chiqarishning ilmiy-texnikaviy darajasini oshirish, odamlarni ish bilan ta'minlash uchun zamonaviy ixcham texnologiyalar zarur.

Respublika manfaatlarini ko'zlab, yagona tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirish Tashqi savdo va xorijiy mamlakatlar bilan aloqa davlat komitetining vazifasiga kiradi. Mazkur tashkilot iqtisodiy, savdo-sotiq, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarni samarali rivojlantirish uchun butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Ayni paytda komitet ministrlklar va idoralarda, mahalliy Sovetlarning ijroiya komitetlarida chet mam-

lakatlar bilan aloqalarni rivojlantirishga oid ishlar darajasini qat'iy nazorat qilib turishi lozim.

I.A. Karimov iqtisodiy suverenitetga erishishning amaliy masalalariga batafsil to'xtaldi. Iqtisodiyotimizning hayotiy qobiliyatini ta'minlab turgan Ittifoq qaramog'idagi barcha korxonalar va tashkilotlarni respublika tasarrufiga o'tkazmay turib, respublikaning xo'jalik mustaqilligini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Eng avvalo, bular bizning xomashyomizni ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan band bo'lgan korxonalaridir. So'ngra respublikamiz iqtisodiyotining asosini tashkil etgan qayta ishlash sanoati korxonalari to'g'risida gapirmoqchimiz. Bunda Ittifoq ministrlari bizga meros qilib qoldiradigan jihatlarni puxta tahlil etishimiz va ayniqsa, ishlab chiqariladigan mahsulotning texnikaviy darajasiga, raqobatbardoshligiga, turdosh korxonalar bilan munosabatlariga, ishlab chiqarishni tayyorlash xizmati darajasiga sergaklik bilan baho berishimiz zarur. Biz o'zimiz ta'minlab turgan Ittifoq ministrlari va idoralari ular respublikaga o'tkazilishidan oldin o'lda-jo'lda qoldirgan barcha ishlarni tartibga keltirishga majbur etishimiz kerak.

Hozirgi bosqichda Ittifoq qaramog'ida qoldirish maqsadga muvofiq bo'lgan tarmoqlar va korxonalar, jumladan, yopiq turdagi korxonalar to'g'risidagi masalani alohida hal etish kerak bo'ladi. Ammo bunda ana shu korxonalarining respublikamiz bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlarini tubdan o'zgartirish lozim.

Biz oltin qazib olish sanoati singari tarmoqlar hamda zaminimizdan qazib olinadigan xomashyo, foydalaniladigan yer, suv, ishchi kuchi uchun respublikaga muayyan miqdorda pul to'lanadigan, shuning-

dek, mahsulotning ma'lum qismi respublika korxonalariga topshiriladigan va foydaning ma'lum qismi respublika budjetiga o'tkaziladigan shartnoma munosabatlari o'rnatishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Hozir respublika hukumati konversiyalanadigan valutada yetkazib beriladigan oltinning uchdan bir qismi qiymatini O'zbekistonga qaytarish to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqmoqda.

Xalq iste'moli mollari ishlab chiqaradigan deyarli barcha korxonalar, jumladan, «Uzbitxim» tashkilotiga qarashli korxonalar, Toshkent zargarlik buyumlari zavodi, mashinasozlik, elektrotexnika, ximiya korxonalarining ancha qismi, so'zsiz, respublika qaramog'iga o'tkazilishi kerak. Gaz kompleksining yirik bo'linmalarini respublika ixtiyoriga o'tkazish sohasida hozirdayoq dastlabki qadamlar qo'yildi, deb ta'kidladi Prezident.

Kichik-kichik korxonalar va tashkilotlarni, ayniqsa, aholiga xizmat ko'rsatish, odamlarning kundalik ehtiyojlarini ta'minlash bilan bog'liq shunday korxonalar va tashkilotlarni kollektivlarga va xususiy kishilarga topshirishga (tabiiyki, ular uchun davlatga haq to'lanadi) oid tadbirlarni o'tkazish respublika boshqaruv idoralari uchun navbatdagi katta vazifadir. Birinchi galda maishiy xizmat, umumiy ovqatlanish, savdo-sotiq, mahsulotni qayta ishlovchi kichik-kichik korxonalarini sotish nazarda tutilmoqda.

Nima uchun bunday tadbiri ko'rish mumkin va zarur deb hisoblaymiz? Birinchidan, shu korxonalarining ko'pchiligi bugungi kunda kam rentabelli yoki zarar ko'radigan korxonalaridir. Ular shusiz ham og'ir ahvolda qolgan budjetning yelkasida og'ir toshdek bosib yotibdi. Ularni

xususiy kishilarga sotish ana shu sarf-xarajatlardan xalos bo'lishga va boz ustiga, daromadlarga barakali qo'shimcha qo'shilishiga imkon beradi. Ikkinchidan, ana shu mayda shoxobchalar hozir ham aslida yarim xususiy mulk ekanligi sir emas. Ministrlklar, idoralar va ijroiya komitetlarda ular bilan hech kim chinakamiga shug'ullanmayapti. Axir, maishiy xizmat ko'rsatish ministrligi sistemasida qariyb 7 mingta sataroshxona, 2,5 mingta poyabzal ustaxonasi, xuddi shuncha yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi kiyim-kechak ustaxonalari, ro'zg'or texnikasini remont qiluvchi 3,5 mingta ustaxona va shunga o'xshash korxonalar ishlab turibdi.

Yoki matlubot kooperatsiyasi sistemasini olaylik. Bu sohada 12 mingtadan ko'proq umumiy ovqatlanish korxonasi bor, ayni vaqtda ularning 10 mingtasining har birida ko'pi bilan 5 nafar odam ishlaydi. Respublika Savdo ministrligida 5 mingga yaqin umumiy ovqatlanish korxonasi mavjud, ana shulardan besh kishi ishlaydiganlari qariyb ikki mingta, 6–10 kishi ishlaydiganlari ham qariyb shunchani tashkil etadi. Sanoatda deyarli 300 ta korxonaga bo'lib, ularning har birida nari borsa 100 kishi ishlaydi. Ayni vaqtda, hozir ishlab chiqarish hajmlari nisbatan kam bo'lgan va moddiy bazasi hissasi kam bo'lgan ushbu korxonalarda juda katta rezervlar bor, ularni davlat vasiyligidan xalos etib, harakatga keltirish mumkin va lozim.

Uchinchidan, biz qandaydir mavhum mulohazalar sababli emas, balki ishlab chiqarishni jonlantirish, raqobat uchun shart-sharoit yaratish, xo'jalik yuritishning yanada samaraliroq shakllarini tanlab olish maqsadida mulkchilikning barcha shakllari teng huquqligini e'lon qilayotganligimizni unutmaslik kerak. Davlat mulki bo'lib

qoladigan korxonalar ham raqobat sharoitida boshqacha ishlaydi, deb umid qilishga hamma asos bor.

Binobarin, bir muammoni hal eta borib, o'nlab yangilari paydo bo'lishiga yo'l qo'yish mumkin emas. Men ham xususiy, ham davlat, kollektiv, tijorat, kooperativ, ijara va boshqa tashkilotlar hamda xo'jaliklar ishi ustidan har tomonlama nazorat o'rnatish kerakligini nazarda tutyapman, dedi Islom Karimov. Faqat buni mayda-chuyda ishlarga aralashaverish va tashabbusni bo'g'ish deb tushunish kerak emas. Nazorat faqat belgilangan qonunlar, normalar va qoidalarga qat'iy rioya etilishini ta'minlashi va moliyaviy, soliq tusiga, xullas, iqtisodiy tusga ega bo'lishi kerak.

Shu munosabat bilan Moliya ministrligi, Mehnat va ijtimoiy masalalar davlat komiteti, Adliya ministrligi boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda korxonalarni xususiy mulkka o'tkazish bilan bog'liq quyidagi masalalarni izchil ishlab chiqishlari kerak.

Birinchi — ushbu korxonada ishlovchilar va shu korxonaga egalarning maqomi (mehnat daftarchasi, ish staji, pensiya ta'minoti, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy himoyaning boshqa shakllari).

Ikkinchi — mehnatga haq to'lashning, shu jumladan, yollanma ishchilar uchun eng kam ish haqi belgilashning shakllari va shartlari.

Uchinchi — xususiy mulkka o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lgan tarmoqlar doirasi va korxonalar miqdori.

Aniq javob berish kerak bo'lgan boshqa masalalar ham paydo bo'lishi shubhasizdir. Bu ishlarning hammasini iloji boricha tezlashtirish kerak.

To'g'ri, bo'lajak jarayonlar biz uchun yangi bo'ladi, eski yondashuvlar ham, avvalgi qoliqlar ham bunday

sharoitda ish bermaydi. Biz faqat o'zimizning sog'lom fikrimizga, qattiq mehnatimiz va yo'l-yo'lakay ish o'rganish uquvimizgagina umid qilishimiz mumkin.

Agar boshqa mintaqalar va boshqa mintaqalarning vakillari hamda xorijiy sheriklar bilan teppa-teng ishlash va raqobat qilishga layoqatli, a'lo darajali mutaxassislarni tayyorlash va saralab olishning o'ylab tuzilgan sistemasini harakatga keltirmasak, unda istiqbolimizga umid qilmasa ham bo'ladi. Bizni jahon iqtisodiy taraqqiyoti yo'lining chekkasiga uloqtirib tashlashadi.

Mana shuning uchun ham yoshlarimizni o'qitish va ularga ta'lim berish uchun har qanday yordamni ikkilanmay va tortinmay qabul qilishimiz hamda undan iloji boricha ko'proq foydalanishimiz zarur. Bu boshqaruv xodimlariga, ilm-fan hamda texnika ziyolilariga, ishlab chiqarish sohasidagi xizmatchilarga va albatta, ishchilarga taalluqlidir.

Tashqi savdo va xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar komiteti, Mehnat va ijtimoiy masalalar davlat komiteti, Oliy ta'lim ministrligi, Fanlar akademiyasi, ministrlklar va idoralar istiqbolli mutaxassislar va ishchilarni boshqa respublikalarga hamda xorijiy mamlakatlarga, ilg'or korxonalar va birlashmalarga, ilmiy tashkilotlarga ta'lim olishga yuborish uchun imkoniyatlarni qidirib topish va uni ro'yobga chiqarishga doir ishlarni avj oldirishlari kerak. Bunga hech qanday mablag'ni, jumladan, valutani ham ayamalik darkor. Bu respublikani ijtimoiy va milliy jihatdan rivojlantirish borasidagi masalalarning masalasidir.

Vaqtimiz juda ziq. Biz ba'zi narsalarni yo'l-yo'lakay tuzatib boramiz, ba'zi narsalarda juz'iy choratadbirlar bilan cheklanamiz, lekin tarmoq va hudud boshqaruv organlarimiz, ishlab chiqarish bo'linmalari-

miz hali ham ko'p jihatdan eskichasiga ishlashmoqda. Harakat jarayonida respublikamizning juda katta iqtisodiyotini, boz ustiga, Ittifoq kompleksi bilan qattiq bog'langan iqtisodiyotimizni quloqch yoydirishimiz jo'n ish emas. Lekin bizda boshqa yo'l yo'q...

Majlis so'ngida I.A. Karimov yig'ilganlarning savollariga javob berdi.

(O'zTAG)

*«Sovet O'zbekistoni» gazetasi,
1990-yil 21-iyun*

**ABU ISO MUHAMMAD IBN ISO
AT-TERMIZIY TAVALLUDINING
1200 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN XALQARO
ILMIY ANJUMAN ISHTIROKCHILARIGA**

Muhtaram janoblar, yurtimiz mehmonlari, aziz vatandoshlar!

Ulug' alloma, hadis ilmining mo'tabar namoyandalaridan biri, vatandoshimiz Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy tavalludining 1200 yilligi munosabati bilan O'zbekistonga tashrif buyurganingiz, anjumanda qatnashayotganingiz uchun respublikamiz ahli nomidan samimiy qutlayman.

Sho'ro jamiyati o'z tarixiga qayta nazar tashlab, barcha jabhalarda yangilanish zarurligini anglab yetgan vaziyatlarda o'tkazilayotgan bu tadbir ham yangicha qutlug' mezonlarning amal topayotganidan dalolatdir.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etmoq kerakki, bugungi kunga kelib, davlat bilan diniy tashkilotlarning o'zaro munosabatlari ancha yaxshilandi. O'zbekiston hukumati mo'minlarning istaklarini inobatga olib, musulmon dunyosining eng muqaddas yodgorliklaridan biri — xalifa Usmon «Mushafi»ni ular ixtiyoriga qaytib berdi. Qator tarixiy obidalar diniy tashkilotlar ixtiyoriga o'tkazildi. Yangi masjidlar ochilmoqda. Davlat diniy asarlarni chop etishda yordam beryapti. Makka va Madinani ziyorat etishga borayotgan musulmonlar ko'paydi. Din peshvolari matbuot, radio va televideniye orqali o'z qarashlarini emin-erkin bayon etmoqdalar.

Taqdirga shoyon tahsinlarkim, hozirgi davrga kelib xalqaro siyosatda mafkuraviy iqlimlar yumshadi, siyosiy johillik, yalpi shuhratparastlik ortga chekinib, o'zaro do'stlik, ishonch va birodarlikka keng yo'l ochilmoqda. Biz butun mamlakatimiz qatori xorij ahli bilan, tariximiz o'zaro uzviy bog'langan qo'shni davlatlarning xalqlari bilan, dunyodagi barcha tinchliksevar ellar bilan ilm, madaniyatning hamjihatlik sohalaridagi munosabatlarimizni yanada yaxshilash tarafdorimiz.

Davr shu kunning zarur muammolarini hal etishga intilish barobarida ona tarixning ilg'or an'alaridan saboq olishni ham taqozo etadi.

Qadimiy Movarounnahr va Xuroson farzandlarining jahon ilm-u ziyosi tarixiga zarvaraqlar ila bitilgan asarlari oz emas. Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Rudakiy, Ulug'bek, Jomiy, Navoiy, Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa yuzlab zotlarni jahon yaxshi biladi. Bu zakiylar silsilasida Imom at-Termiziyning aziz nomlari ham yorug' yulduzday charaqlab turibdi.

Bugungi kunda Termiziyning ma'naviy meroslari nafaqat ahli din orasida, balki dunyoviy ilm sohiblari, keng miqyosdagi ahli jamoa orasida ham o'z qadrini topayotir. U kishining shoh asarlaridan «Kitob al-jome' as-Sahih» hozirga qadar hadis ilmining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Allomaning asrlar davomida fozil-u fuzalolarga dastur bo'lib kelgan aql-u odob, insof-u diyonat, adolat-u insonparvarlikni targ'ib etguvchi g'oyalari serdolg'a davrimizning murakkab va ziddiyatli axloqiy-ma'naviy masalalarini hal etishda zamonaviy ahamiyat kasb etadi.

Qadimdan Sharq xalqlarining ilmiy-madaniy aloqalari kuchli edi. Bu hamkorlik yanada rivojlanib,

xalqaro do'stlikni mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonchimiz komil.

Termiziy Vataniga kelgan barcha mehmonlarni yana bir bor muborakbod etaman. Mo'tabar anjuman ishtirokchilarining insoniy qadriyatlarni ulug'lash yo'lidagi faoliyatlariga baraka tilayman.

*O'zbekiston Sovet Sotsialistik
Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV*

*«Sovet O'zbekistoni» gazetasi,
1990-yil 14-sentabr*

«BOBURNOMA»NING 460 YILLIGI BAYRAMIGA TASHRIF BUYURGAN MEHMONLAR QABUL QILINGANI TO'G'RISIDA AXBOROT

Respublika Prezidenti, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi kotibi I.A. Karimov Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asari yaratilganligining 460 yilligi bayramiga tashrif buyurgan mehmonlarni qabul qildi.

— Avvalo, ulug' vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari bo'lmish «Boburnoma» yozilganligining 460 yilligini keng nishonlayotganimizdan xursandmiz, — dedi Prezident. — Bu bayram ayni paytda Sharq xalqlari tarixi va adabiyotiga beqiyos hurmat va muhabbatni ifoda etadi.

Buyuk olim, shoir va davlat arbobi Bobur o'z ijodi bilan ko'plab xalqlarni birlashtirib turadi. Shunday ekan, mana shunday adabiyot bayramlarini tez-tez o'tkazib turishni yo'lga qo'yish kerak. Shu ma'noda olganda, Boburning 500 yilligi respublikamizda nishonlanmagani g'oyat afsuslanarlidir. Tarixda shunday insonlar bo'ladi, ularning qadr-qimmatini umuminsoniy qadriyatlar bilan o'lchanadi. Buyuk ajdodimiz Bobur aynan shunday zotlar sirasiga kiradi. Shu bois biz Bobur ijodini ko'pgina mamlakatlar olimlari, adiblari bilan hamkorlikda o'rganishimiz kerak.

Uchrashuvda Afg'oniston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Asadulla Habib, Pokiston Islom Respublikasining SSSRdagi elchisining muovini Farruh,

Tojikiston SSR Fanlar akademiyasining akademigi Ahror Muxtorov, qozog'istonlik tarjimon, «Boburnoma»ni qozoq tiliga o'g'irgan Boyzoq Xo'jabekov, O'zbekiston xalq yozuvchilari Odil Yoqubov, Pirmqul Qodirov «Boburnoma»ning ilmiy va tarixiy ahamiyati, bu nodir asar yaratilganining 460 yillik sanasi respublikamizda katta tantanaga aylangani haqida so'zladilar.

Prezident Islom Karimov uchrashuv qatnashchilari-ning savollariga javob berdi.

Shundan so'ng mehmonlar Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan zalidagi eksponatlar bilan tanishdilar.

Kechqurun Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik opera va balet katta teatrida «Boburnoma» ning 460 yilligiga bag'ishlangan tantanali kecha bo'lib o'tdi.

*«Sovet O'zbekistoni» gazetasi,
1990-yil 26-oktabr*

HAMMASIGA O'ZIMIZ ERISHMOG'IMIZ ZARUR

«Izvestiya» gazetasi muxbirining savollariga javoblar

– Islom Abdug'aniyevich, bugungi kunda hozircha hal etib bo'lmayotgan masalalarning eng asosiylaridan biri – Markaz va respublikalarning o'zaro munosabatlari prinsiplari bo'lib qolmoqda. Siz yirik respublikalardan birining Prezidenti sifatida mana shu prinsiplarni ishlab chiqishda eng muhim masalalar nimalardan iborat deb hisoblaysiz?

– Eng avvalo shuni aytishim kerakki, biz barcha huquqlarga ega bo'lgan, ammo shu huquqlardan bir qismini Markazga beradigan teng huquqli respublikalar yoki davlatlar ittifoqiga a'zo bo'lib kirishimiz mumkin. Ko'pgina masalalarni faqat bitta respublika doirasida hal etib bo'lmasligini tushunib olishimiz uchun o'zimiz pishib yetilishimiz lozim. Bular, masalan, kommunikatsiyaning yagona sistemasi, energiya ta'minotidir..

Barcha uchun umumiy bo'lgan muammolardan tashqari, mintaqalarga xos muammolar ham mavjudki, ularni yakka-yakka tartibda hal etib bo'lmaydi. Misol uchun, bizning mintaqani olaylik. Men bu o'rinda O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikistonni va Qozog'iston janubini nazarda tutmoqdaman. Bu

yerda yuz minglab o'zbeklar istiqomat qiladi. Shu bois bir qator masalalar majmuyi ko'ndalang bo'lib turibdi. Bu masalalar, eng avvalo, oradan o'n besh yil o'tgach, mintaqa aholisining ikki barobar ko'payishi, ya'ni 60 million kishiga yetishi bilan bog'liq. Shuncha aholini ish, uy-joy, suv bilan qanday qilib ta'minlash mumkin? Ma'lumki, bu paytgacha kelib sug'orish u yoqda tursin, hatto, maishiy-ro'zg'or ehtiyojlariga ham suv yetmay qolishi ehtimoli yo'q emas.

Aynan teng huquqli davlatlar ittifoqi mintaqa respublikalari kuch-g'ayratini mazkur uzoq muddatli va nihoyatda qiyin masalalarni hal etishga safarbar qilishi va ushbu xatti-harakatlarni muvofiqlashtirib turishi mumkin. Hozirga qadar ushbu masalalar kompleks holda ko'rib chiqilgan emas. Har bir respublika o'z hududida nimalardir qilyapti. Lekin muammolar umumiy bo'lganidan ularni yakka tartibda hal etib bo'lmaydi. Shu paytgacha biz bu yo'nalishda jiddiy fundamental tadqiqotlarga ega emasmiz.

Yana bir karra qayd etib o'tamanki, u yoki bu vazifa va huquqni Markazga berish zarur ekanini o'zimiz tushunib yetishimiz kerak. Aks holda, biz vakolatlar va vazifalarni bir-biridan ajratish to'g'risidagi bahslar iskanjasidan hech qachon qutula olmaymiz.

– Shu munosabat bilan siz Ittifoq shartnomasini imzolash imkoniyatlarini qanday baholaysiz?

– Mening fikrim shunday: agar Markazda amalda shartnomani avval-boshdanoq imzolashni istaganlarida edi, u imzolangan bo'lardi. Axir, mamlakat rahbariyati salkam bir yil oldin yangi Ittifoq shartnomasini imzolash g'oyasiga salbiy munosabatda bo'lgan ediku. O'sha paytda avvalgi, 1922-yilda imzolangan shartnoma turganda biz uchun yangi shartnomaning nima

keragi bor, eski shartnoma hammani qoniqtiradi, faqat uni yangilash kerak deb, necha martalab ta'kidlangan edi.

– Keyin esa yangi shartnoma loyihasi paydo bo'ldi. U maslahatlashuvlar paytida kelishib olish jarayonidan o'tdi.

– Men, ushbu maslahatlashuvlar nima berdi, umuman, ular nima uchun kerak edi, deb so'ramoqchi-man. Gap shundaki, Markazda rasmiy jihatdan gaplarimizga quloq solishgan bo'lsa-da, keyin, hech nima bo'lmagandek, shartnomaning o'zlari yaratgan variantini tiqishtirishdi. Unda biz taklif etgan narsalarning biron-tasi ham hisobga olinmagan.

Bu tadbir go'yoki karlarning muloqotini eslatadi. «Kelishib olish»ning bunday jarayoni cheksiz-chegasiz davom etishi mumkin.

Xullas, men, shartnomani imzolashga tayyormiz, deb aytish uchun hozircha asos yo'q, deb hisoblayman.

– Siz o'z nutqlaringizdan birida Markazda nomalilikni saqlab qolishdan manfaatdor kishilar bor, deb aytdingiz. Xo'sh, ular kimlar ekanini aniqlash mumkinmi?

– Eng avvalo, bular unitar davlat qoldiqlarini zo'r berib saqlab qolishni istovchi kishilardir. Ular bizlarga o'zlarining Ittifoq to'g'risidagi qarashlarini zo'r berib tiqishtirishmoqda.

Bizdagi mavjud tartib uzoq yillar mobaynida alohida sinfni – nomenklatura sinfini shakllantirdi. Bu sinfning moddiy oqimlarni tartibga solish, resurslarni qayta taqsimlash huquqi faqat ulargagina tegishli ekaniga ishonchi komildir. Bunday shaxslar qo'lga kiritgan hokimiyatni o'z ixtiyori bilan hech qachon berib qo'ymaydi.

Men shunday fikrdaman: agar biz haqiqatdan ham bozor munosabatlariga o'tishni istar ekanmiz, ma'muriy sistemaning eng asosiy vositasi va tayanchi bo'lgan Davlat reja qo'mitasini tubdan isloh qilishdan tashqari, ayni paytda ko'pgina Ittifoq tarmoq vazirliklarini tugatishimiz lozim. Chunki bu vazirliklarning faoliyatini amalda respublikalarda ham takrorlashyapti. Biz shunday qilsak, ishoningki, hech qanday falokat yuz bermaydi.

– Bir paytlar respublika Moliya vazirligiga, so'ngra esa Davlat reja qo'mitasiga rahbarlik qilgan kishining bunday taklifi ishonchli ko'rinadi.

Islom Abdug'aniyevich, Ittifoq shartnomasi mavzusiga qaytar ekanmiz, yana bir narsani so'rashni xohlardim: yangi shartnoma tayyorlanayotganda aynan qaysi takliflar hisobga olinmagan?

– O'zbekiston o'z hududidagi barcha tabiiy boyliklarga hamda respublikada ishlab chiqariladigan mahsulotlarga egalik qilishi kerak. Bu – asosiy talabdir. Ammo gap bu talablarning qabul qilinishi yoki qabul qilinmasligida ham emas. Shu paytgacha Ittifoq qanday bo'ladi-yu, uning «muassis»lari qancha bo'lishi kerak, degan masalada ham kelishib olingani yo'q. O'zini ittifoqdosh respublika deb hisoblayotgan yoki shunday bo'lishni istovchilar ko'payib boryapti. Avvalgi avtonom tuzilmalarning bu intilishini SSSR Oliy Kengashi rahbariyati faollik bilan qo'llab-quvvatlamogda. Ehtimol, bu to'g'ridir. Ammo federatsiya subyektlari miqdori muntazam ravishda kengayib boradigan bo'lsa, u holda bizda qachondir o'zaro kelishib olish imkoniyati umuman bo'ladimi, yo'qmi?

Ayni paytda o'tgan syezdda va sessiyada bizlarni ko'ndirish uchun ko'p urinishdi. Ittifoq shartnomasi

hamma narsani ko'zda tutgan, tezroq uni imzolanglar, deb hol-i jonimizga qo'yishmadi. Boz ustiga, biz, respublikalarning rahbarlariga qarama-qarshi qilib Ittifoq parlamentini qo'yishga harakat qilishdi. Ehtimol, chetdan qaraganda, bu sezilmagan bo'lishi mumkin. Ammo men shaxsan buni yaxshigina his etdim. Shartnoma barcha uchun zarur, ular, ya'ni, bizlar esa, uni ushlab turgan emishmiz, qandaydir shartlar qo'yib imzolamayotgan emishmiz, degan tezis hamma vaqt ko'ndalang bo'laverdi.

Masalan, «Soyuz» guruhi vakillaridan biri minbarga chiqib olib, he yo'q-be yo'q, mustaqillik haqidagi gap-so'zlarni to'xtatinglar, deb cho'rt kesdi. Go'yoki mustaqillik xalqlarning qonuniy tarzda ifodalangan irodasi emas, balki ayrim sarkorlarning o'ylab topgan bo'lmag'ur narsasi emish.

O'zlarini sinf yoki ijtimoiy guruhlar bilan birgamiz, biz — ishchilarmiz, biz — harbiylarmiz, biz — haydovchilarmiz, deya ayyuhannos solgan ayrim deputatlarining nutqlarini eshitar ekanmiz, bizda safsatabozlik nega bunchalik avj olib boryapti, deb o'ylab qolasiz. Bular shunchaki safsata emas, balki nihoyatda agresiv, ijtimoiy jihatdan xavflidir. Ular yangi to'qnashuvlarga olib borishdan boshqa ishga yaramaydi.

— **Boshi berk ko'chadan chiqishning yo'li bormi?**

— Mening fikrimcha, Shatalin dasturida, shubhasiz, mantiqli jihat bor. U — iqtisodiy bitimga kelish haqidagi g'oyadir. Biz bu g'oyani to'la-to'kis qo'llab-quvvatladik. Ammo ushbu dasturdagi «shok terapiyasi»ga qo'shilmadik. Men shunga aminmanki, bunday «terapiya» O'rta Osiyo sharoitiga to'g'ri kelmaydi. Nisbatan yaqindagina iqtisodiy bitimlarni imzolash uchun real sharoitlar bor edi. Bu shartnoma-

ga hatto, Boltiqbo'yi respublikalari ham qo'shilishi mumkin edi. Endilikda esa — ayniqsa, Boltiqbo'yidagi so'nggi voqealardan so'ng — bu imkoniyatlar boy berildi.

— Siz, umuman olganda, Litva va Latviyada ro'y bergan voqealarni qanday baholaysiz?

— Biz bu masalani o'zimizda, Oliy Kengashda muhokama qildik. Shaxsan men mustaqillik u yoki bu kishilarning huquqlarini kamsitish, «begona» yoki «boshqa» xalqlarni qisib chiqarish asosida qo'lga kiritiladigan bo'lsa, bunday mustaqillik tarafdori emasman. Lekin, bir tomondan — konstitutsion normalar, inson huquqlari buziladigan bo'lsa, boshqa tomondan — murosasizlik, toqatsizlik yuz bersa, bunday mustaqillik to'g'risidagi qoidaga ham qo'shila olmayman. Ayrim siyosiy va jamoat tashkilotlarining toqatsizlik qilib, Markazni arznomalar va qat'iy talablarga ko'mib tashlashlarini, ayniqsa, qo'llab-quvvatlamayman.

Agar jamiyatdagi partiya yoki jamoat tashkiloti armiyaga murojaat qilib, o'z manfaatlarini himoya etish uchun kuch ishlatadigan bo'lsa, bunday jamiyatning holiga voy. Bunday jamiyatda adolatni qaror toptirib bo'lmaydi. Unda diktaturaga yo'l ochiladi. Biz ana shunday xatti-harakatlar bilan diktaturaga yo'l ochib bergan bo'lamiz.

— Islom Abdug'aniyevich, O'rta Osiyo respublikalari, shu jumladan, O'zbekistonni konservatorlar respublikasi deb atashayotganlarini aytsam, siz uchun hech qanday yangilik bo'lmasligi mumkin. Respublika Oliy Kengashining yaqinda bo'lib o'tgan sessiyasida bozor munosabatlariga o'tishning tasdiqlangan dasturi mana shunday baho uchun asos beradi. Bozorga bosqichma-bosqich o'tishni ko'zda tutadigan mazkur

dasturni tub o'zgarishlar yasaydigan hujjat deb bo'lmaydi. Mening bilishimcha, sizning o'zingiz bozorga o'tishni jadallashtirishga qarshi bir necha marta fikr bildirgansiz.

– Qiziq, nima uchun hozir hech kim biz «o'ta il-g'or» bo'lgan paytlarni eslamaydi? Albatta, biz o'z xohishimizga zid ravishda feodal tuzumdan kapitalizmni chetlab o'tib, birato'lasli sotsializmga, yana nima deng, rivojlangan sotsializmga o'tgan edik. Bizning misolimizda butun boshli tarixiy bosqichlarni qanday qilib tezlikda hatlab o'tish mumkinligini ko'rsatish uchun uchinchi dunyo mamlakatlaridan delegatsiyalarni respublikamizga beto'xtov olib kelishardi. Biroq, tarixni aldab bo'lmaydi. Kallaga aqlli fikr keldi, darrov jamiyat taraqqiyotida yangi daraja boshlandi, deb e'lon qilish bilan ish bitmaydi. Konservatizmdan xalos bo'lish uchun kapitalizmning «azob-uqubatli» bosqichini o'tish kerak. Kapitalizm esa o'ziga xos bo'lgan barcha nuqsonlari bilan birga iqtisodiyotni qayta o'zgartiradi, eng muhimi esa, tafakkurni o'zgartiradi.

«Sakrab o'tish» g'oyasi esa (bu g'oya yuzasidan necha o'nlab dissertatsiyalar yoqlangan) respublika uchun og'ir, halokatli oqibatlariga sabab bo'ldi. Respublika iqtisodiyotida biryoqlama paxta yakkahokimligi qaror topdi. Bu holat turmushning deyarli barcha sohalarida boshqa xato va nuqsonlarni keltirib chiqardi.

Lekin, boshqa tomondan esa, hozircha xususiylashtirish to'g'risida gap sotilayotganda, aynan bizda, «konservatorlar respublikasi»da dastlabki xususiy korxonalar paydo bo'ldi. Biz do'konlarni va maishiy xizmat ko'rsatish sohasini xususiylashtirishni boshlab yubordik. Faqat o'tgan yilning o'zida 170 ming gektar yerni oilalarga meros qoldirish huquqi bilan ijaraga berdik.

Biz bu raqamni yarim million gektargacha yetkazmoqchimiz. So'nggi paytlargacha yerlarning bor-yo'g'i 4,5 foizida dehqonchilik qilgan shaxsiy xo'jaliklar respublikadagi oziq-ovqat resurslarining 40 foiziga qadar berganini hisobga oladigan bo'lsak, yerlarning umumiy salmog'ida bunday uchastkalar hajmi ikki barobardan ziyod oshganda oziq-ovqat mahsulotlari yana qanchagacha ko'payishini tasavvur qiling.

Umuman, faqat xususiy mulk egasi yoki shunday mulkka ega bo'lish uchun barcha imkoniyati bor odamgina mehnatni sevadi. Hech nima – na xususiy uy, na o'ziga munosib daromad kerak bo'lmagan odam esa ijtimoiy jihatdan xiyla xavfli bo'ladi. Bunga imonim komil.

Biz o'tgan yilning aprelidan boshlab davlat-koooperativ korxonasi maqomiga ega bo'lgan 170 ta rayon maishiy kombinati tashkil etdik. Ularga bemaolol erkin harakat qilishlari uchun sharoit yaratildi. Bu kombinatlar amalda barcha ishlarni bajaradi. Ular mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini ko'paytirish, xalq hunarmandligini rivojlantirish bilan birga, biz uchun nihoyatda muhim bo'lgan ish bilan ta'minlash muammosini ham hal etadi.

– Har holda, iqtisodiyotni tubdan emas, balki asta-sekinlik bilan isloh qilish negizida chuqur illat bor. Avval bitta-yarimtaga, keyin boshqalarga, so'ngra esa uchinchi odamlarga bozor erkinligini berar ekansiz, siz bozorga o'tayotgan jamiyatning o'sha qismini kamsitgan bo'lasiz. Bunday kamsitish esa ijtimoiy keskinlikning deyarli kafolatlangan manbayidir.

– Nazariy jihatdan men siz bilan hamfikrman. Barcha narxlarni yoki ko'pgina narxlarni birato'lasini oshirish yaxshi bo'lishi to'g'risidagi fikrga ham qo'shilishim

mumkin. Keyinchalik bu narxlar bozor raqobati ta'sirida tusha boshlaydi. Biroq nazariy asoslar naqadar to'g'ri bo'lmasin, bizning tuzumimiz ko'plab boqimandalarni tarbiyalab yetishtirganini unutmash kerak. Bu boqimandalar turli kafolat va qonunlarning yo'l qo'yib berishi tufayli yuzaga kelgan, endi ular bozor raqobati sharoitida yaxshi hayot uchun kurashishni umuman istamaydi. Ular keskin o'zgarishlarga tayyor emas, aksincha, o'zgarishlarga yetarli darajada samarali qarshilik ko'rsatadi, deb o'ylayman.

Bundan tashqari, bozorga o'tish yo'llarini tanlaganda o'zimizga xos xususiyatlarni ham hisobga olmaslik mumkin emas edi. Men o'z ish joyimda har bir kunni iqtisodiyotdan yoki siyosatdan emas, balki respublika Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlaridan boshlayman. Eng avvalo, u yoq-bu yoqda to'qnashuvlar, mushtlashuvlar bo'lgan-bo'lmagani, odamlar jabr ko'rishganmi-yo'qmi, eng muhimi, mojaroda qaysi millatga mansub kishilar qatnashgani bilan qiziqaman. Bizning sharoitda osoyishtalikka osonlikcha erishib bo'lmaydi. Arzimagan, agar shunday tushuncha umuman o'rinli bo'lsa, ozgina qon to'kilgan taqdirda ham uning oqibati xunuk bo'ladi. Agar odamlarni g'azab va nafrat, o'ch olish ishtiyoqi qamrab olsa, har qanday rejalar, har qanday oliyjanob niyatlar, barcha islohotlar sariq chaqaga ham arzimaydi. O'rta Osiyoda faqat barqarorlik sharoitidagina olg'a qarab harakat qilish mumkin.

— **Respublika duch kelayotgan ko'pgina muam-molarni u yoki bu darajada Rashidov nomi bilan bog'lashadi. Boshqa tomondan esa, aytishlaricha, O'zbekistonda rahbarlik qilib turgan paytidagi uning roli qayta ko'rib chiqilmoqda, uning obro'-e'tiborini tiklashga intilmoqdalar.**

– Rashidovga nisbatan munosabat O'zbekiston Kompartiyasi XXII syezdida, respublika Oliy Kengashining uchinchi sessiyasida belgilab berilgan. Men bu baholarga qo'shilaman. Bu baholarning mohiyati shundan iboratki, Rashidov shaxsiyatini u yashagan va ishlagan davrdan ayri holda ko'rib chiqish mumkin emas.

Men shuni aytishim kerakki, bizga zarba bo'lib tushgan eng og'ir tanglik iqtisodiy emas, balki ma'naviy tanglikdir. Asrlar mobaynida qaror topgan axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni g'oyaviy qarashlarga qurbon qilish oqibatlarini bartaraf etish iqtisodiyotni tartibga keltirishdan ko'ra ancha mashaqqatli bo'ladi. Axir, yaqindagina emasmidi, kommunist, ayniqsa, u yuqoriroq lavozimda bo'lsa, o'z yaqin kishilari bilan oxirgi marta vidolashish uchun qabristonga ham borolmasdi. Dafn marosimida ishtirok etish eng katta ayb sanalib, bunday odamni partiyadan o'chirib, ishdan bo'shatishardi. Vijdon azobidan sal bo'lsa-da, qutulish, ayni paytda yillar bo'yi mehnat qilib erishgan imtiyozlardan mahrum bo'lmaslik uchun odamlar qarindoshurug'lari, hatto, ota-onasi vafot etganda kasalxonaga yotib olishar yoki «shoshilinch komandirovka»ga ketib qolishar edi. Ana shundan keyin ham biz, odamlar hech nimaga ishonmay qo'yishgan, ularda hech qanday muqaddas narsa yo'q, deb aytishga qanday tilimiz borar edi?

Binobarin, dinga nisbatan ikkiyuzlamachilik juda yomon tus oldi. Respublikamizning qo'shni Afg'oniston teleko'rsatuvlarini tomosha qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bir yarim million aholisi u yerda Sovet Armiyasi masjidlar qurayotganini yoki qayta tiklayotganini o'z ko'zi bilan ko'rib turishdi. Bu paytda esa bizda mas-

jidlar buzib tashlandi. Bunday holat 1988-yilgacha davom etdi.

– **Men sizning fikringizga qo'shilaman. Lekin buning Rashidov muammosiga qanday aloqasi bor?**

– Judayam bevosita aloqasi bor. Paxta bilan bog'liq 24 mingta jinoyiy ish qo'zg'atilganda, haqiqiy jinoyatchilar bilan birga ularning qurbonlari ham baravariga qamoqqa olindi. Bizning rahbarlarimiz esa, Moskvaga paxta plani bajarilishi qanday borayotgani to'g'risida hisob bergandek, shuncha ming kishi hibsga olindi, shuncha-shunchasi partiyadan o'chirildi mazmunida muntazam ravishda axborot berib turishdi.

– **Shunday bo'lsa-da, jazolanganlarning hammasi ham nohaq qamalmagan-ku?**

– To'g'ri. Biroq bu narsa aybsiz kishilarni ta'qib etishni oqlay olmaydi. Aybsiz ta'qib etilganlar esa yuzlab va minglab kishilardir. Biz faqat keyingi paytning o'zida aybsiz hukm qilinganlarga, hozir esa qamoqdan ozod etilganlarga, oqlanganlarga bir yarim million so'm tovon puli to'lashga majbur bo'ldik.

– **Nima desak, deyaylik-ku, turg'unlik davri yoki boshqa yillarda ro'y bergan voqea-hodisalarni kechirish yoki unutish – bosib o'tilgan yo'llarni qaytarish imkoniyati uchun zamin tayyorlash bo'ladi.**

– To'g'ri, lekin nima uchundir Brejnev komandasidan aynan Rashidovni boshqalarga qaraganda ko'proq esga olishmoqda. Uning ko'zga ko'ringan boshqa safdoshlari hozir yo jamoatchilik diqqat-e'tiboridan chetda bemalol yashamoqda yoki, hatto, faol siyosiy hayotga qaytdi. Bizdagilar bunday «nomutanosiblik»da adolatsizlikni ko'rmoqda.

– **Agar savolim sizga qo'polroq tuyulsa, meni kechiring. Biroq ba'zi muxoliflaringiz Rashidovga nis-**

batan sizdagi ma'lum vazminlikni o'z qo'lingizda juda ko'plab rahbarlik lavozimlarini jamlaganingiz bilan bog'lashmoqda. Siz ham Prezident, ham respublika Vazirlar Mahkamasining boshlig'i, ham O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining birinchi kotibisiz.

– Mening fikrimcha, o'tish davri hamda mamlakatda va respublikamizning o'zida qaror topgan xavfli vaziyat shunday qilishni taqozo etdi. Uning eng asosiy sababi shunda.

Men shu ma'noda Ittifoq darajasida boshqaruv strukturasi qayta tashkil etishni qo'llab-quvvatlayman. Shunday qilinsa, u yuzaga kelgan vaziyatga eng ko'p darajada javob bergan bo'ladi.

– Siz shu boradagi barcha chora-tadbirlarni ma'qullaysizmi?

– Hammasini emas. Masalan, SSSR Prezidenti huzuridagi Nazorat palatasi, uning joylardagi muxtor vakillari vazifalarini to'la-to'kis tushunib yetganim yo'q. Bu nima, ular «oqposhsho» yoki general-gubernator vakillariga o'xshash kishilarmi?

Yangilangan negizdagi bu birlashma tezroq va hech kimga og'ir tushmagan shaklda vujudga kelishi uchun bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan sheriklik munosabatlari zarur. Bunday munosabat ham gorizontal, ham vertikal shaklda bo'lishi kerak.

*«Izvestiya» gazetasi,
1991-yil 29-yanvar*

IQTISODIY OMILLAR AMAL QILSA, «TEMIR QO'LGA» HOJAT QOLMAYDI

Umid uchqunlari hali so'nmagan ko'rinadi: o'tgan yili O'zbekistonda sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi. Aynan ana shu omil respublika Prezidenti Islom Karimov bilan suhbatimizga sabab bo'ldi.

– Islom Abdug'aniyevich, respublikada xo'jalikni barqaror yuritishga qanday qilib erishilmoqda? Axir, noxush jarayonlar O'zbekistonni ham chetlab o'tgani yo'q-ku?

– Butun mamlakat uchun «temir qo'l»ni qidirmasdan, balki o'ylab qo'yilgan rejalarni qat'iyat va izchillik bilan ado etish kerak. Bizda sovetlarga saylovlarda kompartiyaning eng yaxshi vakillari o'zlarini munosib tarzda ko'rsatishdi. Hozirgi paytda saylab qo'yiladigan organlarda rahbarlik tajribasiga ega bo'lgan kishilar oz emas. Respublikamizdagi sovetlar faqat gap bilan shug'ullanishmaydi, amaliy harakat qilishni ham bilishadi. Biz yangi uy qurmoqdamiz, eskisini darhol buzib tashlayotganimiz yo'q. Shuning uchun ham odatda quruq so'z bilan to'ldiriladigan hokimiyat bo'shlig'i paydo bo'lmayapti.

– Buni dalillar bilan izohlab berish mumkinmi?

– Baho ko'rsatkichlari bo'yicha respublika o'z majburiyatlarini 98,5 foiz ado etdi. Ittifoq esa O'zbekis-

tonga nisbatan majburiyatlarini 57–58 foiz bajardi, xolos. Bizda hosil nobudgarchiligiga yo'l qo'yilmadi, uni eng qulay muddatlarda yig'ishtirib oldik. Buning uchun barcha zarur omillar vujudga keltirildi. Qo'lda terilgan har kilogramm paxta uchun 25 tiyindan haq to'landi, vaholanki yaqin-yaqinlarda ham bor-yo'g'i 5 tiyin berilardi. Mashina terimi uchun to'lanadigan haq ham oshirildi. Texnikani ta'mirlash muammosi yengillashdi – mexanizatorlar uni doimiy shay holatda saqlashdan manfaatdor bo'lib qolishdi. Birinchi marotaba dala ishlariga o'n minglab talaba va maktab o'quvchilarini jalb etishga ehtiyoj yo'qoldi. Buning ustiga, respublika fondidan 8 mingta yengil mashinani mavsumda 150 tonna va undan ortiq paxta tergan mexanizatorlarga sotishga qaror qilindi. Ammo natijalar shunday yuqori bo'ldiki, marrani 250 tonna darajasiga ko'tarishga to'g'ri keldi. Shuning o'ziyoq «beqadr» pullarning bir qismini harakatga keltirish imkonini berdi. Qandaydir «temir qo'l» emas, balki haqiqiy iqtisodiy omil amal qildi. Binobarin, biz paxta maydonini qisqartirgan holda avvalgi yillar darajasida hosil yig'ishtirib oldik.

– **Bu bilan nimalarga ega bo'lindi?**

– Necha o'n minglab gektar yerni tomorqa sifatida aholiga taqsimlab berdik. Bu yakka tartibda qurilish olib borishga rag'bat uyg'otdi. Natijada foydalanishga topshirilgan turarjoy yigirma foiz ko'p bo'ldi. Odamlarda bunyodkorlikka ishtiyoq hali so'nmagan ekan, minglab ishsizlarni ish bilan ta'minladik. Shuni ham aytish kerakki, tomorqa maydonlari, respublikada ekinzorlarning bir necha foizinigina egallagani holda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 40 foizga yaqinini bermoqda. Kuzda bozorlardagi narx-navo qanday

bo'lganini bilasizmi? Bir kilogramm pomidor — 25 tiyin. Uzum — 60—70 tiyin. Qovun — 30, tarvuz — 25 tiyin va hokazo.

Aholining qo'shimcha daromad olish imkoniyatlariga ham yetarli baho bermaslik mumkin emas. Axir, O'zbekistonda jon boshiga iste'mol qilish mamlakatdagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki barobardan ziyodroq kamdir. Binobarin, ko'p bolali oilalarga tomorqa maydonlari, ayniqsa, zarur. Ayollar, uy-ro'zg'ordan ajralmagan holda, tomorqada ishlashi mumkin. Biz o'z tomorqasida band bo'lganlarga mehnat daftarchasi beramiz. Ishsizlar soni 250—300 ming nafar kamaydi. Aytgancha, bekor qolgan aholi har bir qishloqda qat'iy ro'yxatga olinmoqda.

— Islom Abdug'aniyevich, nazarimizda, beg'ubor manzara namoyon bo'layotgandek...

— Unday emas, muammolar oshib-toshib yotibdi, albatta. Masalan, Ittifoq hukumatining chorva mollarining xarid narxini oshirish haqidagi qarorini olib ko'raylik. Bizga paxta yakkahokimligi zo'r berib tiqishtirilganining oqibati nima bo'ldi? Endilikda biz iste'mol qilinayotgan go'shtning yarmini respublika tashqarisidan tashib kelishga majburmiz. Demak, yana 2 milliard 300 million so'm kerak bo'ladi. Shuncha pulni qayerdan olamiz? O'zbekistonning budjetidagi taqchillik kelasi yili 10 milliard so'mni tashkil etadi. Odamlarni go'sht bilan qanday qilib ta'minlaymiz? U hozirgi paytda aholi jon boshiga respublikada yiliga 30 kilogrammdan to'g'ri keladi, ya'ni mamlakatdagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki barobardan ziyodroq kam.

Bunday qarorlarni kelishib turib qabul qilish kerak. Yangi Ittifoq shartnomasi tuzilayotganda Markaz va respublikalarning vakolatlarini aniqlab qo'yish juda

katta ahamiyatga ega. Biz mutlaqo yangi Ittifoqda o'z vazifamiz boshqacha tarzda taqsimlanishiga aslo rozi bo'lmaymiz. Yuqoridan turib paxta tayyorlash rejalarini belgilab berishning achchiq sabog'i ko'zimizni ochishi kerak-ku, axir.

– **Darhaqiqat, o'ttizinchi yillarda o'rtaga tashlangan SSSR ning «paxta mustaqilligi» shiori O'zbekistonning go'sht va unga qaramligini vujudga keltirdi. Respublika hozirgi paytda kundalik ehtiyoj tovarlarining yarmini tashqaridan olib kelishga majbur bo'lmoqda...**

– Odamlarning manfaatlariga zid harakat qiladigan iqtisodiyotni tushunish qiyin. Paxta yakkahokimligi almashlab ekishni buzib yuboradi, ko'pdan ko'p zaharli dorilar qo'llashni talab etadi. Bizda bolalar o'limi, ayollarning kasalga chalinishi nihoyatda yuqori darajaga yetgani bejiz emas.

«Respublika – Markaz» muammosiga qaytar ekanman, shunday demoqchiman: menda joylardagi siyosiy haroratni Moskvada hamisha ham his etishayotgani yo'q, degan taassurot paydo bo'lmoqda. Bir qator respublikalarning rahbarlari tomonidan ahvolni barqarorlashtirish yuzasidan sarf qilinayotgan kuch-g'ayratlarga yetarli baho berilmayapti.

– **O'zbekistonda mana shu yo'nalishda yana qanday choralar ko'rildi?**

– Chorvachilikni rivojlantirish uchun aholiga yemxashak ajratmoqdamiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bepul nonushta, pensionerlar, urush qatnashchilari, maktab o'qituvchilari, talabalar, ko'p bolali onalarga imtiyozlar va yordam berilmoqdaki, bularning hammasini sanab chiqish qiyin.

Biroq moddiy manfaatning o'zigina muhim emas. Ma'naviy va axloqiy-ruhiy ko'tarilish bo'lgan vaziyat-

dagina olg'a tomon siljish mumkin. Masalan, o'tgan yili biz birinchi marotaba Navro'zni milliy bayram deb e'lon qildik. Ilgari esa uni o'tmish sarqiti sifatida taqiqlab qo'yishgandi. Agar shu jihatdan qaracak, aytish kerakki, aslo unday emas. Navro'z quyosh kalendari bo'yicha Yangi yil bayrami hisoblanadi, u ko'klamgi kun bilan tunning teng kelgan pallasidir. Navro'z qadim-qadim zamonlardan buyon bayram qilib kelingan. U hamisha bahorda nishonlangan. Og'ir sharoitda, kambag'alchilikda yashagan odamlar shuni yaxshi bilishganki, agar yerda yangi o't, maysa paydo bo'lsa, uyog'iga yashab ketishadi, yomon kunlar ortda qoladi. Navro'zda har kim topganini bayram dasturxoniga qo'ygan. O'tgan yilning mart oyida xalqimiz Navro'zni naqadar ko'tarinki ruhda nishonlaganini ko'rsangiz edi.

– **Ishonchimiz komilki, bular respublika uchun ramziy ma'noga ega, uning yaxshi kunlari hali oldinda. O'zbekiston Prezidenti sifatida Sizga, Islom Abdug'aniyevich, shuni istaymiz.**

– Davlatimiz kemasi hozirgi paytda kuchli dovulga duch keldi. U qanday qilib bunga bardosh berishi, ishonchli yo'ldan chetga chiqmasligi mumkin? Buning uchun faqat oltin, mis va paxtaning o'zi kifoya qilmaydi, boshqa salmoqliroq narsalar ham kerak. Nimaning nazarda tutmoqdamiz? Ko'p millionli mehnatsevar xalqlarni. Ularning milliy tabiatida hokimiyat muassasasiga moyillik bor. Biroq bu gap qonunchilik va tartibni ta'min eta oladigan hokimiyatgagina ta'alluqli.

SSSR xalq deputatlarining IV syezdida Islom Karimov bunday dedi: «Bizning ishonchimiz komilki, siyosiy-iqtisodiy sohalardagi islohotlarni ro'yobga chiqarishda intizom va tartib birlamchi hisoblanadi. Bu yo'lni biz

hayotda qat'iy amalga oshirmoqdamiz, boshqaruv «jilovi»ni qo'ldan chiqarayotganimiz yo'q, chiqarmoqchi ham emasmiz, chunki shuni yaxshi bilamiz – keyin uni qo'lga qaytarib olish qiyin yoki mutlaqo mumkin bo'lmay qoladi».

*«Pravitelstvenniy vestnik»
haftanomasi muxbiri savollariga javoblar*

*«Xalq so'zi» gazetasi,
1991-yil 2-fevral*

O'ZBEKISTON SOVET SOTSIALISTIK RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

RESPUBLIKADA NAVRO'Z UMUMXALQ BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA O'TKAZISH HAQIDA

Respublikada insoniy qadriyatlarni yanada kamol toptirish, o'z-o'ziga ishonch ruhi va milliy g'ururni mustahkamlash, do'stlik, birodarlik, hamjihatlik, mehr-shafqatni ulug'lash, madaniy va tarixiy an'analarni davom ettirish hamda rivojlantirish, asrlar davomida shakllangan urf-odatlar va udumlarni e'zozlash maqsadida Navro'z bayramini keng nishonlash yuzasidan quyidagilar amalga oshirilsin:

1. Dam olish kuni sifatida belgilangan 21-martda o'tkaziladigan Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ishlari boshlab yuborilsin. Bu bayramni o'tkazishda 1990-yilda to'plangan ijobiy tajribalarni davom ettirgan holda, to'la foydalanilmagan imkoniyatlar ham ishga solinsin. Bayramga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish tadbirlarida respublikaning har bir fuqarosi yakdillik va hamjihatlik bilan faoliyat ko'rsatsin.

2. Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish respublika tashkiliy qo'mitasi tasdiqlansin.

3. Har bir tashkilot, vazirlikdan tortib, sovetlar va mahalla qo'mitalarigacha — hamma joyda bayramni o'tkazish ishlariga javobgarlik aniq belgilab qo'yilsin. Respublika hududidagi korxonalar, muassasalar, jamoa va davlat xo'jaliklari, shirkatlar, jamoat tashkilotlari

o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, bayram tadbirlarini tegishli transport vositalari, oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat mollari, to'y-hasham ashyolari bilan ta'minlasinlar hamda sarf-xarajatlarni o'z zimmalariga olsinlar. Umumxalq xayriya harakatlarida faol ishtirok etsinlar. Fuqarolarning, jamoalarning Navro'z umumxalq bayramini o'tkazishdagi tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlasinlar.

Bayram aholining barcha tabaqalari istak va xohishlariga, har bir joyning o'z sharoitlariga qarab o'tkazilsin.

4. Navro'z umumxalq bayrami an'alariga binoan, har bir fuqaroga izzat-ikrom ko'rsatilsin. Qariyalar, bolalar, bemorlar, nogironlar holidan xabar olish, beva-bechora va boquvchisidan ajralganlarga mehr-shafqat ko'rsatishga alohida e'tibor berilsin.

O'zbekiston Televideniye va radioeshittirish davlat qo'mitasi bilan jamoat tashkilotlari, badiiy jamoalar o'tkazadigan xayriya uzluksiz ko'rsatuvi — telemarafon har tomonlama qo'llab-quvvatlansin.

5. Navro'z bayramini o'tkazish borasida qo'shni respublikalar bilan do'stlik, hamkorlik va madaniy aloqalar yanada kuchaytirilsin. O'zaro vakillar yuborish, mehmon qabul qilish tadbirlari ishlab chiqilsin.

6. Ommaviy axborot vositalari bayramni o'tkazish jarayonlarini keng yoritсин. Bu ishda jurnalistlarning mas'uliyati oshirilsin.

Qaysi yo'nalishdagi axborot vositasida bo'lishidan qat'i nazar, Navro'z umumxalq bayramini yoritish yagona g'oya — insonni ulug'lash, milliy g'ururni ko'tarish, hamjihatlik, birodarlik, mehr-shafqat, tinch-totuvlik maqsadlari va g'oyalari bilan yo'g'rilsin.

7. Bayramga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish respublika tashkiliy qo'mitasiga bayram tadbirlarida ta-shabbuskor bo'lgan, faollik ko'rsatgan, fidokorona mehnat va ijod qilgan kishilarni aniqlash hamda rag'batlantirish va taqdirlashga tavsiya etish topshirilsin.

*O'zbekiston Sovet Sotsialistik
Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV*

*Toshkent shahri,
1991-yil 12-fevral*

MURAKKAB VAZIYATDA OQILONA SIYOSAT YURITAYLIK

Hurmatli deputat o'rtog'lar!

Sessiya kun tartibidagi masalalarni qarab chiqishga o'tishdan avval mamlakatimizda, respublikamizda ro'y bergan vaziyat, umuman, hammamizga, butun xalqimizga taalluqli ba'zi masala va muammolar to'g'risida qisqacha fikr almashib olsak, kerakli xulosalar chiqarsak, umumiy maqsadga, bugungi talabga javob beradigan katta bir ish qilgan bo'lardik.

Bugungi zamon, hozirgi hayotimiz shunday tez o'zgarib bormoqdaki, har kuni shu qadar ulkan, olamshumul voqealar yuz bermoqdaki, bu vaziyatni tushunish va undan to'g'ri, jamiki xalqimizga ma'qul siyosat yo'lini tanlab olish, uni ro'yobga chiqarish, ya'ni hayotga tatbiq qilish juda ham murakkab ish bo'lib qolmoqda.

Mamlakatda ahvol kundan kunga og'irlashib ketayotgani, turmush darajasi pasayib, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vaziyat, respublikalararo, millatlararo munosabatlar keskinlashib, ba'zi mintaqalarda to'qnashuvlar bo'lib va qon to'kilib turgan bir paytda saylovchilarimiz, xalqimiz ostonasiga qadam qo'yib ketayotgan mushkul, og'ir kunlardan, oddiy til bilan aytganda, balo-qazodan saqlanishda biz, rahbarlardan, deputatlardan, joylardagi yetakchilardan najot kutishga haqlidir.

O'zimizning oldimizda turgan jumboq va muammolarimizni faqat o'zimiz bosh qotirib yechishimiz mumkin, ularni biz uchun hech kim, hech qayoqdan kelib hal qilib bermaydi. Buni yaxshi bilasizlar.

Garchand O'zbekistonimiz, el-yurtimizning hozirgi siyosiy-ijtimoiy hamda iqtisodiy ahvoli, ta'minot darajasida boshqa respublika va mintaqalarga nisbatan ijobiy farq mavjud ekan, bularning hammasiga, avvalambor, xalqimizning qahramonona, shijoatli mehnati tufayli erishilyapti, bular joylardagi ko'pgina rahbarlar, viloyat, rayon, qishloq kengashlari, davlat mahkamalari va jamoat tashkilotlarining rahbarlari olib borayotgan siyosatning, zo'r berib ishlashning, tartib-intizomni joyiga qo'yib amalga oshirilayotgan faoliyatning natijasidir. Buni har birimiz to'g'ri tushunib, to'g'ri baholashimiz lozim.

Biz hammamiz haqiqatning ko'ziga tik qarashimiz kerak. Chunki kundan kunga og'irlashib ketayotgan katta-katta sinovlar oldida turibmiz. Ana shu sinovlardan xalqimizni, bizlarga ishonqan fuqarolarning bur-nini qonatmasdan, yo'qotishlarga yo'l qo'ymasdan, kelajakdagi porloq hayot uchun zamin tayyorlab o'tsak, bu sinovlar qancha davom etishini hozir aniq aytish qiyin, shundagina zimmamizdagi burchni bajargan, odamlarning ishonchini oqlagan bo'lur edik.

Hozirgi og'ir, mavhum, ahvol tobora chalkashib borayotgan bir paytda, murakkab vaziyatda butun Ittifoq oldida turgan muammolarni, bugungi va ertangi siyosatni chuqur, atroflicha tahlil qilib, o'zimizning aniq-ravshan yo'limizni belgilab olish, O'zbekiston xalqining kelajagi, taqdiri haqidagi haqiqatni hech narsani yashirmasdan, o'yin qilmasdan, aniq aytish kerak. Birinchi navbatda, O'zbekiston manfaatini ko'zlagan

holda, mehnat ahliga maqbul keladigan munosib siyosatni ishlab chiqishimiz va uni izchil olib borishimiz, amalda tatbiq qilishda qattiq turishimiz zarur.

Aziz do'stlar, bu o'rinda qanday muammo va sinovlar to'g'risida so'z ketyapti? Keling, shu masalalar yuzasidan atroflicha gaplashib olaylik.

Birinchidan, Ittifoq shartnomasiga munosabat. Oxirgi ikki yilda ana shu shartnoma xususida bildirilayotgan har xil fikr va qarashlardan ro'znomalar, televideniye, radio orqali xabardormiz. Butun mamlakatda, jumladan, O'zbekistonimizda ham bunga qanday munosabat bildirilayotgani sizlarga ma'lum. Lekin mana shu minbardan turib, hozirgi eng dolzarb, aytaylik, istiqbolda siyosatimiz aniqlanayotgan paytda shu masalada sizlar bilan ochiq-oydin fikr almashib, o'z yo'limizni qat'iy belgilab olishimiz kerak. Chunki kelajak taqdirimizni hal qiladigan bu masala talabdan boshlab mehnat veteranigacha, ishchidan tortib ziyoligacha — hammamizni qiziqtiradi, o'ylantiradi.

Dastavval shuni aytishim kerakki, yangi Ittifoq shartnomasini tuzishda ancha kechikdik. Ikki yil oldin bu masalani ko'targan Boltiqbo'yi respublikalari ovozigacha hech kim quloq solmadi. Markazda o'tirganlar ularning takliflarini qabul qilishmadi, ishni paysalga solishdi.

Ba'zi rahbarlar eski, ya'ni 1922-yilgi, hozirgi mavjud Ittifoq shartnomasini yana oldinga surib, bizlarga hech qanaqa yangilik kerak emas, deganlaricha oyoqni tirab o'tiraverishdi. Bunaqa yondashish o'zining salbiy natijasini va achchiq mevasini, mana, endi beryapti.

Agar o'sha paytda, kelajakni oldindan o'ylab, unitar davlat siyosatidan, buyruqbozlik tartiboti va uslublaridan bosh tortib, respublikalarga, xalqlarga,

joylardagi hokimiyatga ularning qonuniy huquqlari, mustaqillik berilgan taqdirda hozirgi og'ir ahvol sodir bo'lmasdi. Ishlamaydigan, zamindan uzilgan qonunlar vujudga kelmasdi. Markaz chiqargan qonunlar bilan respublikalar qabul qilgan qonunlar o'rtasida ziddiyat paydo bo'lmasdi, aksincha, ular bir-birini to'ldirardi. Ittifoq shartnomasi o'z vaqtida tuzilganida, hokimiyatda parokandalik, xalq xo'jaligida, ishlab chiqarishda uzilishlar bo'lmasdi, yuqori va quyi tashkilotlar orasida biri ikkinchisini mensimaslik vujudga kelmasdi, hech bo'lmaganda mamlakat bu qadar og'ir ahvolni boshidan kechirmasdi, millatlararo aloqa va munosabatlar bunchalik keskinlashmasdi.

Xo'sh, O'zbekistonning yangi Ittifoq shartnomasiga munosabati qanday? Bu borada o'rta qo'yadigan shartlarimiz, talablarimiz, o'z qarashlarimiz nimalardan iborat?

Avvalambor, yangi Ittifoq shartnomasiga nisbatan O'zbekistonning munosabatini belgilashda quyidagilarni e'tiborga olish zarur. Respublikamizning iqtisodiy ahvoli ancha og'ir, yechilmay yotgan muammolar behad ko'p, xalqning turmush darajasi past, ichimlik suvi tanqis, ekologiya, Orol fojiasi qalblarni o'rta- moqda, sug'oriladigan yer yetishmaydi, anchagina oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari tashqaridan olib kelinmoqda, chetga esa asosan xomashyo chiqarilmoqda, ishsiz yurgan odamlarimizning soni ko'p, ahvoli tang.

Ishlab chiqarish kuchlari, sanoat korxonolari, ishlatiladigan texnika uskunalari, texnologiya xarob ahvolda. Bularni boshqatdan qurib chiqish, zamonaviy talabga javob beradigan darajada qurib olish uchun katta mablag' kerak.

Yana bir muhim masalani hisobga olishimiz lozim. Bugungi xalq xo'jaligimiz ming-ming yo'llar orqali butun Ittifoqdagi korxonalar bilan ipsiz bog'langan. Bunaqa aloqalarni birdan uzib tashlash oqilona ish bo'lmaydi.

Hozirgi vaziyatni va yuzaga kelgan ahvolni hisobga olganda bu muammolarni O'zbekistonning bitta o'zi yechishi ancha qiyin. Shuni nazarda tutib, Markazdan beriladigan yordamni e'tiborga olib, o'zimizni Ittifoq tarkibida ko'rib siyosat yuritishimiz, ya'ni kelajagimizni belgilashimiz lozim, deb o'ylayman. Lekin biz eskicha, markazlashtirilgan, buyruqbozlikka asoslangan, eskirgan qoidalar bo'yicha ish yuritadigan Ittifoq tarkibiga kirishga rozi bo'lmaganmiz va mutlaqo rozi bo'lmaymiz ham.

Ittifoq tarkibiga kiradigan taqdirda faqat o'z mustaqilligiga ega bo'lgan davlat sifatida shartnomaga imzo chekishimiz mumkin. Bu — aniq gap, o'rtoqlar!

Bizning asosiy talabimiz mulkchilik to'g'risida. O'zini mustaqil deb bilgan davlat o'z hududida bo'lgan barcha yer osti-yu yer usti boyliklariga, ishlab chiqaruvchi kuchlarga hech so'zsiz faqat o'zi egalik qil-mog'i kerak.

Shu bilan birga, O'zbekiston o'z boyliklaridan va ishlab chiqariladigan mahsulotdan foydalanish masalasida ham erkin bo'lishi zarur. Jumladan, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy aloqalar bog'lashda — barcha sohalarda Markaz bilan strategik yo'l tutishimiz, uzoq muddatga belgilanayotgan maqsadlar bo'yicha avvaldan kelishib olishimiz va o'z siyosatimizni o'zimiz yurgizishimiz zarur. Umuman, Markaz bilan munosabatimizni aniqlashda, unga beriladigan huquqlar, uning zimmasidagi vazifalarni

belgilashda o'z ixtiyorimizni qo'ldan chiqarmasligimiz shart. Mudofaa masalalari, kosmos, yadro sohalari, aloqa vositalari, temiryo'l, havo floti va hokazolar uning tasarrufida bo'ladi. Ana shu masalalarni birgalikda hal etishni Ittifoq uchun ham, uni ta'sis etuvchi respublikalar uchun ham eng maqbul yo'l deb hisoblayman.

Yana bir muhim masala — O'rta Osiyo va Qozog'istonda suv ta'minotini olaylik. Bu muammoni qo'shni besh respublika birgalikda, o'zaro kelishuvga asosan, maqbul tarzda yechishi mumkin, xolos. Orolni bir yoqadan bosh chiqaribgina qutqarib qola olamiz...

Yoki bo'lmasa, dolzarb masalalardan yana biri — energetika ta'minotini olib ko'raylik. Suv mo'l-ko'ligida Qirg'iziston va Tojikistonda elektr quvvati ko'p bo'lib, biz u yerdan gidroenergiya olamiz. Mabodo suv ozaysa, O'zbekistonning gazi bilan ishlovchi issiqlik elektr stansiyalari yaratgan nurdan Qirg'iziston va Tojikiston ham bahramand bo'ladi.

Ta'kidlash kerakki, shartnomani bugungi kunda to'la holda va bir yo'la tasdiqlash asosiy maqsad emas. Hozirgi vaziyatda talab shuki, shartnomaning ayrim qismlarini alohida-alohida ko'rib chiqish va tasdiqlab borish zarur. Shu kunlarda Markazda respublikalarning vakillari Ittifoq shartnomasi doirasida ko'rib chiqayotgan masalalardan biri Ittifoq bilan respublikalar o'rtasidagi vazifalar taqsimotini belgilab, huquqlarini chegaralab, oydinlashtirib olishdan iborat bo'lmoqda.

Ittifoq shartnomasi to'g'risida gap ketar ekan, uning ustida olib borilayotgan ishlarni oxirigacha aniqlashdan oldin bir savolga javob berishimiz lozim va shundan keyin bu ishning davomini ko'rishimiz mumkin: shartnoma uyoqda tursin, Ittifoqning o'zi bizga, xal-

qimizga kerakmi yo yo'qmi? Mabodo kerak bo'lsa, qanaqa Ittifoq kerak?

Shu maqsadda 17-mart kuni Butunittifoq referendumi, ya'ni ovoz berish o'tkaziladi. O'zbekistonda yashayotgan xalq ko'pchilik qatori ana shu savolga javob berishi zarur, deb o'ylayman.

Yana bir gapni aytishim lozim: referendum kerak emas, deb ovoza tarqatib yurgan kimsalar oddiy kishilarning fuqarolik huquqlarini mensimayapti. Referendumda qatnashish, kimligidan — savodsiz yoki savodliligidan, qayoqda bo'lishi va turishidan qat'i nazar, har bir fuqaroning konstitutsion huquqi. Hech kim, hech qachon biror odamni bunday huquqdan mahrum etishi mumkin emas, biz bunga yo'l ham qo'ymaymiz.

Bolتيqbo'yi respublikalarida sodir bo'layotgan fojiali voqealar xususida ikki og'iz so'z. Shu yilning boshida Vilnyus va Riga shaharlarida yuz bergan qonli hodisalar ko'pchilikni tashvishga solmoqda. Biz hammamiz qonun tarafdori bo'lishimiz zarur. Kim bo'lmasin, qonunga xilof harakatlar bilan o'z maqsadiga erishmoqni istasa, bunday harakat, albatta, salbiy oqibatga olib keladi. Inson qoni to'kilishiga sabab bo'lgan aybdor shaxslarga nisbatan keskin choralar ko'rilishi zarur, deb hisoblaymiz. Toki bunday salbiy va fojiali voqealar boshqa mintaqalarda takrorlanmasin.

Fors ko'rfazidagi qirg'inbarot urush hammani tashvishga solmoqda. SSSR Prezidentining kuni kecha matbuotda e'lon qilingan bayonotida bu hol ta'kidlab o'tildi. Faqat Fors ko'rfazidagi mamlakatlar emas, butun dunyo xavf ostida qolmoqda.

Hozirgi tang paytda Sovet Ittifoqi Prezidentining Iroq Prezidentiga ochiq murojaat qilishi, mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etishga chaqirishi, Prezident Saddam

Husayn bilan uchrashish uchun shaxsiy vakilini yuborishi ayni muddaodir.

O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi o'tgan oyda birgalikda qabul qilgan bayonotda ham xalqimizning bu boradagi fikri, azm-u irodasi ifodalangan edi.

Biz qurol ishlatishga hamisha qarshimiz. Jaholatni aql-zakovat bilan yengish tarafdorimiz. Aytib o'tilgan mana shu masalalar bo'yicha Oliy Kengash o'z fikrini bildirsa, maqsadga muvofiq bo'lur edi, deb o'ylayman.

Endi narx-navo siyosatiga qisqacha to'xtalib o'taman. Sodda va aniq qilib aytsam, narx-navo borasida bizning siyosatimiz quyidagicha.

Birinchidan, bizda narx-navo oshirilishi tufayli xalqimiz ko'radigan ziyonni qoplash mexanizmini topmasdan turib, bu tadbirga kirishilmaydi. Bundan maqsad — oddiy xalq ommasini, ayniqsa, kambag'al va muhtoj kishilarni iqtisodiy jihatdan himoya qilishdir. Mabodo narx-navo oshadigan bo'lsa, to ungacha mana shu tadbir natijasida xalqimiz gardaniga tushadigan zararni qaysi hisobdan, qanday qilib qoplash masalasini yechib olishimiz va Ittifoqdan yordam talab qilishimiz kerak.

Ikkinchidan, muhim nuqtalardan biri shuki, 1991-yilda O'zbekistonda non va un mahsulotlarining narxi oshmaydi. Bu xususda boshqa takliflar ham bor. Lekin mening shaxsiy fikrim — non va un mahsulotlari narxini oshirmaslik.

Uchinchidan, yana bir muhim yangilik shuki, narx-navo oshirilishi tufayli vujudga keladigan zararni qoplash mexanizmini joriy qilish orqali O'zbekistondagi oz maosh oladigan, moddiy jihatdan yetarli ta'min-

lanmagan, kamxarj kishilarning turmush darajasini o'rtacha darajaga yaqinlashtirish ko'zda tutilmoqda.

Xullas, narx-navoning oshishi aholini moddiy jihatdan qiyin ahvolga solib qo'yishiga yo'l bermasligimiz lozim.

Og'ir sinovlardan o'tish paytida, shubhasizki, mustahkam tartib-intizom bo'lishi zarur. Buni hammamiz anglab olaylik. Xo'sh, tartib-intizomni qanday tushunishimiz kerak?

Har bir inson — xoh u oddiy fuqaro, xoh u kattakon rahbar bo'lsin — bundan qat'i nazar, o'z xalqining, shu tuproqda istiqomat qilayotgan el-u elatlarning manfaatini ko'zlab, himoya qilib yashashi va ishlashi zarur. Umuman, katta tarixni olib ko'rsak, xalq qanchalik uyushgan bo'lsa, rahbariyat bilan bir jon-u bir tandeek harakat qilsa, ya'ni, hamjihatlik, ahillik qaror topsa, kamolot yuz beradi, davlat kuchli, yurt farovon bo'ladi.

Tariximizda shunday xunuk vaqtlar ham bo'lganki, ba'zi rahbarlar o'z xalqini badnom qilib ko'rsatdi. «Paxta ishi» deya butun dunyoga jar solib, buning ustiga, ana shu «ish»ni baholashga chetdan «qozi»larni olib kelib, o'z xalqiga azob berib, o'zi esa tomoshabin bo'lib turishi insonga, rahbarga yarashmaydigan qiliq deb bilaman. Bunday sharmandali ishlardan ham tegishli saboq chiqarishimiz zarur.

O'zbekistonning najoti faqat o'zimizda, shu zamin-da. Najot qidirishda boshqa yoqlarga murojaat qilish bilan ro'shnoqlikka chiqib bo'lmaydi, faqat begonalar oldida sharmandalari chiqib kulgi bo'lganlari qoladi, xolos.

Birlashgan — o'zar, deydi xalqimiz. Kelinglar, ahil bo'laylik, bir yoqadan bosh chiqarib, bu og'ir kunlardan ham omon-eson o'tib olaylik!

Do'stlikka, birodarlikka chorlar ekanman, shu o'ringda ulug' Alisher Navoiy bobomizning bir misrasini keltirib o'tmoqchiman. Bu yil yurtimizda Alisher Navoiy yili deb e'lon qilingan ekan, ulug' bobomizning ruhi bizning ezgu kurashlarimizda madadkor bo'lajak, deb umid qilaman.

«Jahon bo'lmasin do'st, gar bo'lmasa do'st», deydi Alisher Navoiy. Bu misraning mazmuni keng va chuqur. Alisher Navoiy yilida ulug' bobomiz aytgan nasihatlariga quloq solish, uning dono fikrlarini amalga oshirish biz uchun ham farz, ham qarzdir. Yer yuzining turli mintaqalarida, masalan, Fors ko'rfazida urush-janjallar, to's-to'polonlar bo'lib turgan bir paytda Navoiy bobomiz tarannum etgan tinchlikni, omonlikni astoydil himoya qilaylik. Chunki do'stlik bo'lsa, el-yurtimizda totuvlik, osoyishtalik hukm sursa, ezgu niyatlarimizga, albatta, yetamiz. Bunga ishonchim komil.

Hammangizga, aziz do'stlar, ana shu yo'lda, ana shu kurashda omad doimo yor bo'lsin!

*O'zbekiston SSR Oliy Kengashining
navbatdan tashqari
to'rtinchi sessiyasida so'zlangan nutq*

*«Xalq so'zi» gazetasi,
1991-yil 15-fevral*

BIZNI KAPITALIZMDAN SAKRAB OTISHGA O'RGATISHGAN

**«Komsomolskaya pravda» gazetasi muxbiri
savollariga javoblar**

– Islom Abdug'aniyevich, Sizing respublikangizni ba'zan «kommunistik qo'riqxona» deb atashadi. O'zbekistonga berilgan bunday baho qanchalik haqqoniy va unga Sizing munosabatingiz qanday?

– Biz go'yoki kommunistik dunyoqarashning tayanchi ekanimiz, fikrlashimizda konservatizm hukmronligi xususida juda ko'p gapirishyapti. Mintaqaning tarixini bilgandan keyingina vaziyatga to'g'ri baho berish mumkin. Sovet hokimiyatining hamma yillarida O'zbekiston mohiyat e'tibori bilan o'z davlatiga ega bo'lmagan. Biz kapitalizmning mashaqqatli bosqichini chetlab, sotsializmga o'tganimizni hamma joyda ro'kach qilib kelishdi. Aslini olganda, boshqalardagiga qaraganda yomon bo'lmagan haqiqiy sotsializm qurganimizga ishontirmoqchi bo'lishdi. Buning ustiga, taraqqiyotning nokapitalistik yo'lini tanlagan mamlakatlardan vakillar taklif etib, bizning tajribamiz misolida ularni ham kapitalizmdan sakrab o'tishga o'rgatish sa'y-harakatlari bo'ldi. **Endi qarasak, hammasi vahshiyona bir narsa ekan...**

Qachonlardir O'zbekiston mamlakatning paxta mustaqilligini ta'minlashi zarur, degan fikr ko'ndalang

bo'lib qoldi. «Oq oltin» nihoyatda shafqatsiz usullar bilan qo'lga kiritila boshladi. Bu yo'lga o'tmaganlarni vazifasidan chetlatishdi va yo'qotishdi, ularning o'rni-ga «Yetib olamiz va o'zib ketamiz», «Besh yillikni ikki yilda qoyillatamiz», deya itoatkorona qo'l qovushtirib turadiganlar tanlandi. **Faqat deraza tokchalariy-u tomlarga paxta ekilmadi, xolos. Biz paxta mustaqilli-gini ta'minladik. O'zimiz esa qaram iqtisodiyotga ega bo'lib qoldik.** Hamma narsa bir maqsadga: paxtaga xizmat ko'rsatish uchun yaratilaverdi. Mana endi bizda tovarlar yetishmayapti, ularning yarmidan ortiqrog'ini chetdan olib kelyapmiz.

«Tayanch» masalasiga to'xtaladigan bo'lsak... ham-masi bema'nilik. Bizning o'lkamiz juda qadimiy ma-daniyatga ega, u bashariyatga ulug' allomalar, muta-fakkir zotlar, faylasuflarni yetkazib bergan. Ana shun-day tarixga sohib bo'lgan mamlakat — aytgancha, bu tarixni bir vaqtlar butunlay yo'qqa chiqarmoqchi bo'lishgan — konservativ kuchlar markaziga aylanishi mumkin emas.

— Siz g'oyat noxush manzarani tasvirlab berdin-giz. Ana shunday vaziyatdan chiqish yo'li bormi? Sizningcha, bunday yo'l qanday bo'lishi mumkin?

— Haqqoniy tahlil etmasdan, ishlarning ahvolini to'g'ri belgilab olmasdan turib vaziyatdan chiqish-ning aniq yo'lini topib bo'lmaydi. Biz xuddi shu yo'ldan boryapmiz. Hozirgi kunda milliy daromad, aholining turmush darajasi bo'yicha O'zbekiston mam-lakatda eng past o'rinlardan birida, deb baralla aytmogdamiz. Ayni paytda O'zbekiston — juda boy respublika. Bizda hamma narsa bor. Bir tomondan, behisob resurslar, ya'ni Mendeleyev jadvalidagi jamiki elementlar, ikkinchi tomondan esa, ortiqcha mehnat

resurslari mavjud, 600 mingga yaqin kishi doimiy ishga ega emas.

Bunday holatni kim tuzatadi? Biz velosiped ixtiro qilmasligimiz, balki Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasidan foydalanishimiz lozim. Biz yana besh yil chidab turishga rozimiz, ammo chet el texnologiyasi, texnikasiga, odamlar yashaydigan joylarga yaqin korxonalarga ega bo'lishimiz zarur. Biz iloji boricha ko'proq yigit va qizlarimizni ilg'or mamlakatlarga yuborishimiz kerak, ular dunyoni o'z ko'zlari bilan ko'rsin, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirib olsin. Biroz chidashsin, o'sha yerlarda ishlab ko'rishsin, har qalay, butunlay boshqa odamlar bo'lib qaytib kelishadi...

– **Demak, ishchi kuchi eksport qilinar ekan-da?**

– Ha, shunday. Bu masalada hech qanday cheklashlar bo'lmasligi kerak. Har qanday mafkurani, har xil ko'rinishdagi texnika va texnologiyani o'rganish uchun boraverishsin. Bizga agar paxta, xomashyo sot-sak, besh yil bermalol ishlamasdan, shipga qarab yotishimiz mumkinligini aytishyapti. Men bunday fikrga mutlaqo qo'shilmayman, chunki **o'z avlodlari taqdiri haqida qayg'uradigan birorta mamlakat xomashyo resurslarini sotish hisobidan kun ko'rmasligi kerak.** Xorijiy mamlakatlar bizga yordamga kelishga tayyor turishibdi. Qariyb bir milliard dollar hajmidagi butun bir takliflarimiz majmuasi bor. Eng muhimi – qo'shma korxonalar, kelajakda butunlay yangi odamlarni tarbiyalaydigan zaminni barpo etishimiz lozim. O'shanda konservatizm, qoloqlik haqidagi hamma gap-so'zlar o'z-o'zidan barham topadi.

– **Shunisi ham borki, Sharqiy Osiyo mamlakatlari xomashyo va mehnat resurslaridan tashqari ish endi boshlanayotgan paytda boshqa bir juda muhim**

omil – bizdagidan farq qiladigan ishlab chiqarish munosabatlari ham bo'lgan-ku...

– Biz o'zimizning mulkchilik to'g'risidagi qonunimizda O'zbekistonda mulkchilikning barcha ko'rinishlari teng huquqlidir, deb e'lon qildik. Hozirning o'zi-dayoq yangicha sharoitda faoliyat yuritayotgan mustaqil korxonalar bor. Vazirliklarni konsernlarga aylantirish tadorigini ko'ryapmiz. Mulchilikning boshqa, ya'ni xususiy, aksiyadorlik shakllari ham mustasno etilmaydi. Biroq **men xususiylashtirishni bosqichma-bosqich o'tkazish tarafdoriman. Avval bir bosqichni nihoyasiga yetkazib, uning afzalligini ko'rsataylik-da, keyin boshqasiga o'taylik.**

– **Siz Prezident bo'lgandan buyon qanday aniq ishlar amalga oshirildi?**

– Men birinchi marotaba yuksak minbardan turib O'zbekistonda 9 milliondan ziyod kishi bechorahol kun ko'rayotganini, aholining 47 foizga yaqinini alohida shart-sharoitga muhtoj bolalar tashkil etishini, bizda o'lim ko'rsatkichi mamlakat bo'yicha juda yuqori darajada bo'lib qolayotganini aytganman. Biz haqiqatni gapirganimizdan keyin odamlar orqamizdan ergasha boshladi.

Ammo **so'z boshqa-yu, ish boshqa.** Yer haqidagi farmon juda katta vazifani bajardi. **Men uzil-kesil qilib: paxta yetishtirishni 700 ming tonna qisqartiramiz, dedim. Bu 250–300 ming gektar yer, degan gap. Ittifoq mahkamalarida, Davlat plan komitetida masalani siz nimani istasangiz, yozib qo'yaving, men baribir bajarmayman, degan qabilda o'rtaga qo'ydim. Biz so'nggi nuqtaga o'tganimizni tushunishganidan keyin bu masalalarni yechishga yordam berisha boshlashdi. 165 ming gektar maydon odamlarga bo'lib berildi, de-**

qonlarning tomorqalari qariyb ikki barobar ko'paydi. Odamlarda qiziqish paydo bo'ldi. O'z vaqtida dehqonlarni inqilobga qanday qilib jalb etishgan? «Yer — dehqonlarga!» shiori o'rtaqaga tashlangan. Hozir biz har bir xonadonda tirikchilik o'tishi uchun barcha shart-sharoitni yaratib berishga intilmoqdamiz. Shaxsiy yordamchi xo'jaliklar egalari, ya'ni bo'lajak fermerlar uyushmasini tuzdik. Bizda oziq-ovqatning 40 foizi shaxsiy sektorda yetishtirilyapti, uning ixtiyoridagi yer esa umumiy sug'oriladigan maydonning atigi 6 foizini tashkil etadi. Bu yil bozorlarimizda, har holda, u-bu narsa bo'ldi. 165 ming gektar yer asqotdi...

— Islom Abdug'aniyevich, o'z respublikangizdagi millatlararo munosabatlar holatiga qanday baho berasiz?

— Farg'ona voqealari, shuningdek, keyingi paytlarda ro'y bergan boshqa tartibsizliklar — bularning barchasi turli millat odamlarida bir-biriga ishonchsizlik paydo qildi. Shunday bo'lishiga kim sababchi? Men hozir aniq-ravshan qilib aytaman: **jamiki noma'qulchiliklar markazi respublikamiz chegarasidan tashqaridadir.**

Bozor munosabatlariga o'tish davrida ittifoqdosh respublikalarning qil ustida turishi kimgadir kerak bo'lib qolganga o'xshaydi... Ha, istalgan paytda aralashish va o'z bilganlaricha hal etish uchun qulay vaziyat.

— Keyingi paytlarda Turkiston ittifoqi haqida ko'p gapirishyapti. O'tgan yil yozda Olmaotada Turkiston respublikalari rahbarlarining uchrashuvi uyushtirilganidan keyin bu haqdagi ovozarlar, ayniqsa, kuchaydi...

— Men Olmaotadagi uchrashuvimiz mantiqiy va xolisona bo'ldi, deb hisoblayman. Biz bir-birimiz bilan

iqtisodiy jihatdan bog'lanmasdan turib yonma-yon yashay olmaymiz. Hozirgi paytda chap qo'limiz bilan o'ng qulog'imizni qashiyotganga o'xshaymiz. Bizning xomashyolarimiz evaziga Qozog'istondan olib kelish mumkin bo'lgan g'alla Ittifoqning besh nuqtasidan tashilyapti. Nima uchun?

Nega deganda, Davlat plan komitetiga kerak bu. Mahkamada o'tirishadi-da, ozginasini Ukrainadan, bunchasini Oltoydan, mana bu qismini Qozog'istondan olasan, deyishadi... Agar hamma narsa tabiiy qonunlar asosida ro'y beraversa, u holda Davlat plan komiteti-ning nima hojati bor? Ma'lum bo'lishicha, masalaning boshqa orqa tomoni mavjud ekan. Ulug' Turon davlatini barpo etish g'oyasini ilgari surayotgan odamlar topilib qoldi. Ular o'z navbatida bizning uchrashu- mizdan ana shunday kayfiyatni uyg'otish uchun foy- dalandi... Lekin ochiq aytish kerak, tarix g'ildiragi or- qaga qaytmaydi. Biz O'rta Osiyo va hamdo'stlik to'g'risida gapirishimiz mumkin. Bu mintaqada respub- likalar o'rtasidagi chegaralar — juda qaltis masala. Bir vaqtlar bunday chegara, aytish mumkinki, sun'iy ravishda o'tkazilgan edi...

– Respublikaning yangi parlamentida oppozitsiya paydo bo'ldi. Siz uni his etyapsizmi? Parlament ishiga buning yordami tegyaptimi?

– Agar u o'z fikri, tushunishi, istiqboliga ega sog'- lom oppozitsiya bo'lganida, men tabriklab, qo'llab- quvvatlardim. Biroq o'zim to'qnash kelgan, bahslashgan odamlar haqida gapiradigan bo'lsak, uzil-kesil xulosa chiqarish mumkin. Ularning aksariyati hokimiyatga in- tilyapti. Issiq joy bersangiz, tinchib qolishadi, xalq g'amini ham unutilib yuborishadi. Keyin hozirgidan bat- tar konservatorga aylanishadi. Ko'proq qitmirlik qila-

yotganlari bir paytlar tuzum tomonidan inkor etilgan, ular endilikda «demokratizm», «fikrlar xilma-xilligi» bahonasida yana bosh ko'tarmoqda. Bunday toifadagilar mazkur tuzum bilan kurashar ekan, agar imkon berilsa, bajon-u dil yana avvalgi holatiga qaytishga va hammasini unutib yuborishga tayyor.

Biroq, mening nazarimda, yana boshqa, oppozitsiya emas, balki guruh bor. Bular — yashashni, ishlashni, agar bilsangiz, ijod qilishni istayotgan yoshlardir. Ular qalbakilikka toqat qilisholmaydi, ular deputatlar orasida ikki marotaba qamoqda o'tirib chiqqanlarni, halol yashamayotganlarni, tili boshqa-yu, ishi boshqa kishilarni ko'rib turishibdi. Shunaqalarni hech hazm qilisholmayapti. Bunday yoshlarga qulay shart-sharoit yaratib berilsa, ular jamiyatimizdagi hal qiluvchi o'rinlarni egallab olgan bo'lardi.

Jahondagi birorta parlamentda xuddi bizdagidek bozor bo'lmaydi. Parlamentdagi o'rinlar uchun partiyalar kurash olib borsa, qandaydir tartib ko'zga tashlanadi. Bordi-yu, har bir deputat uni, ovozini kim sotib olishini kutayotgan bo'lsa, bu nihoyatda dahshatli. Ana shunday parlamentning qo'lidan har narsa kelishi mumkin. Shuning uchun ham men jamiki g'oyalar, ijtimoiy qatlam va manfaatlar mujassamlangan parlament tarafdoriman.

*«Komsomolskaya pravda» gazetasi,
1991-yil 7-mart*

O'ZBEKISTON FAQAT IQTISODIYOTDA EMAS, BOSHQA SOHALARDA HAM DADIL QADAMLAR QO'YMOQDA

«Di Sayt» nemis haftanomasi savollariga javoblar

— **Siz bundan bir necha hafta ilgari SSSR xalq deputatlarining to'rtinchi syezdida fuqarolar urushi va «qattiqqo'llik» xavfi borligini aytib, ogohlantirgan edingiz. Sizning bu ogohlantirishingiz to'g'ri bo'lib chiqdi. Bugun yuzaga kelgan ahvolni qanday baholaysiz?**

— Haqiqatan ham, men mamlakatimiz xavf-xatar ostonasida turganini, uning ortida esa boshboshdoqlik, inqiroz, millatlararo to'qnashuvlar, fuqarolar urushi belgilari yaqqol ko'rinayotganini va siyosatda «qattiqqo'llik» emas, balki mustahkam davlat tuzilmalari, qat'iy pozitsiya, sabot va matonat hamda o'ylangan ishlarni bajarishda izchillik kerakligini aytgan edim. Bugungi kunda shu qadar murakkab siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy ahvol yuzaga keldiki, bu xususda hech kimda mutlaqo hech qanday xomxayol qolmadi. Agar hamma narsa hozirgidek boradigan bo'lsa, biz, albatta, «qattiqqo'llik» deb atalmish yo'lga o'tishimiz kerak. Fuqarolar urushiga kelganda esa, u aslida bo'lmoqda, jumladan, Kavkazda ro'y bermoqda. Shu sababli «murovatlarni burash» zarurdek tuyulmoqda. Lekin boshqa, yanada oqilona yo'l bor: u mamlakat rahbari, birinchi navbatda M.S. Gorbachyovning uzoqni ko'ra bilishi va

donoligiga bog'liq. Markaz, nihoyat, respublikalarning vakillari bilan stol atrofida o'tirib, hech qanday shartlarsiz, cheklashlarsiz o'zaro munosabatlarimizni muhokama qilishga jazm etishi zarur. Biz o'zaro maqbul qarorga kela olishimizga aminman. Biz uchun bugungi kunda juda ko'p tilga olayotgan mustaqillikdan boshqa hech qanday yo'l yo'q, mustaqillik endilikda real voqelik bo'lib qoldi, ammo hozir Markazda mustaqillik haqida eslashni xohlamayotgan, uning bo'ynini qayirishga urinayotgan kuchlarning ta'siri hali kuchli. Dastlabki paytlarda bunga erishish mumkindir. Lekin keyinchalik shunday kuchli portlash ro'y beradiki, buning oqibatini tasavvur etishning o'zi dahshatli. Buni tushunmasak — jinoyat. Mustaqillikka, respublikalar allaqachon ishlab chiqqan takliflarga asoslanib, muzokaralar boshlashimiz, mamlakatimiz amalda teng huquqli mustaqil davlatlar ittifoqi bo'lishi xususida kelishib olishimiz kerak.

— **Siz Boltiqbo'yi respublikalari rahbarlarining siyosatini qanday baholaysiz?**

— Men barcha ittifoqdosh respublikalarning chinakam siyosiy va iqtisodiy-huquqiy mustaqillikka intilayotganini qo'llab-quvvatlayman. Ayni vaqtda mustaqillik huquqi kimlarningdir manfaatlarini kamsitmasdan, ya'ni demokratik jarayon, xalqaro norma va qoidalar, inson huquqlari doirasida amalga oshirilishi kerak, deb hisoblayman. Boltiqbo'yi respublikalarida ana shu norma va qoidalardan chekinish ma'lum darajada mojaroli vaziyatni yuzaga keltirdi. Biz odamlar qurbon bo'lishiga olib kelgan fojia ro'y berganidan chuqur afsuslanamiz. Biror kishi, kimligidan va qaysi millatga mansubligidan qat'i nazar, agar shu hududda yashayotgan bo'lsa, mintaqada unga nisbatan hurmat

bilan munosabatda bo'lish kerak... Faqat ana shunday demokratik yo'l mazkur mintaqada tinchlik va totuvlikka erishish imkoniyatini beradi, deb o'ylayman. Men ularning intilishlarini tushunaman, lekin niyatlariga erishish uchun qo'llayotgan usullari mutlaqo tushunarli emas...

– Siz armiya va «OMON» otryadlaridan (alohida vazifalarni bajaruvchi militsiya otryadlari) foydalanish to'g'risida nimalar deya olasiz? Milliy najot komitetlari paydo bo'lgani munosabati bilan nima deyish mumkin?

– Vaziyat qanday bo'lmasin, kuch ishlatish bilan millatlararo munosabatlarda, respublikalar mustaqilligiga daxldor masalalarni hal etishda birorta yaxshilikka erishish mumkin emasligiga ishonchim komil. Boz ustiga, agar armiya boshqaruv organlariga bo'ysunmasa, hech narsaga erishib bo'lmaydi. **Mustaqillik samarasini his etgan, mustaqillikka erishish xohishini ko'ngliga jo qilgan kishilarni hech qanday kuch, hatto, harbiy kuch bilan to'xtatib qolish mumkin emas.** Men shaxsan, u xoh «OMON», xoh maxsus vazifani bajaradigan tuzilma yoki armiya bo'linmasi shaklida bo'lsin, harbiy kuch ishlatilishini qabul qila olmayman. O'tgan yilning yanvar oyida Litvada bo'lgan edim. Men o'shanda mustaqillikka, ozodlikka intilish naqadar kuchli ekanini o'z ko'zim bilan ko'rdim, imonim komilki, bu odamlarni to'xtatib bo'lmaydi.

Keyingi yillarda voqealarning rivoji faqat siyosiy usullar bilan, Boltiqbo'yi aholisi xohish-irodasini hurmat qilish yo'li bilan biron-bir oqilona hamjihatlikka kelish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Endi milliy najot komitetlari to'g'risidagi fikrimni aytay: nimaiki Konstitutsiyaga xilof bo'lsa, demokratik

normalarga zid kelsa, ularning hammasini inkor qilaman. Ana shu milliy najot komiteti kimlarning nomidan ish yuritayotganini hali hech kim tuzukroq bilmaydi-ku, axir.

Men qonuniy hokimiyatni tan olaman. Lekin u fuqarolar tinchligini, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni, qattiq tartib va intizomni ta'minlashi, har bir kishi, millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, o'zi uchun, farzandlari va yaqinlari uchun xavotirlanmay, xavfsiz yashashi va mehnat qilishi uchun kafolat berishi kerak. Qandaydir mayda-chuyda ishlarda adolatsizlikka yo'l qo'yish, qonunni andak bo'lsa-da, buzish mumkinligi xususida fikrlash — bu hamma sohada tartib va intizomni buzish mumkin, degan fikrga yo'l qo'yish demakdir. Bu esa juda xavflidir. Yaqindagina bo'lgan voqeani, 1917-yilni, inqilobni, «maqsad vositalarni oqlaydi» degan so'zlar shior bo'lgan vaqtda boshqacha o'ylaydigan va fikrlaydigan kishilarni shafqatsiz jismoniy qirib yuborish boshlangan davrlarni eslaylik. Agar shu nuqtayi nazardan yondashsak, Konstitutsiyaga qarshi har qanday komitetlarni tuzish aslida tariximizni qaytarish bo'lur edi. Xatolarimizdan, ayniqsa siyosiy xatolarimizdan xulosa chiqarishni o'rganadigan vaqt keldi.

— Ayrim ittifoqdosh respublikalarda SSSR Prezidentining bevosita boshqaruvini joriy etish tang vaziyatdan chiqish yo'llarining qulay vositasi, deb hisoblaysizmi?

— Mening nazarimda, ayrim ittifoqdosh respublikalarda SSSR Prezidentining bevosita boshqaruvining joriy etilishi baribir diktatura degan gap. Chunki qonuniy yo'l bilan saylangan hukumatlar, demokratiya muassasalari yo'qotiladi, boshqacha aytganda,

xalqning xohish-irodasi butunlay inkor qilinadi. Shu sababli bunday boshqaruvni o'rnatishdan oldin obdan o'ylab ko'rish kerak. **Men yaqinda – 1983-yilda bo'lgan voqealarni – «paxta ishi» deb atalmish ishlar boshlangan davrni, O'zbekistonga yuzlab tergovchilar, «qonun xizmatkorlari» va korchalonlar kelib, ko'ngliga kelgan noma'qulchilikni qilgan vaqtlarni eslayman. O'shanda respublikamiz avvaliga karaxt bo'lib qoldi, hamma qo'rquvga tushdi, so'ngra biroz tinchlanish, aytish mumkinki, ro'y berayotgan voqealarga baho berish boshlandi, keyingi bosqichda odamlarning va umuman, ko'pchilikning g'azabi qo'zg'adi. Ro'y berayotgan voqealarni qabul qilmaslik, ularga faol qarshilik ko'rsatish jarayoni boshlandi.**

Agar o'shanda, 1989-yilda respublika rahbarlari bu ishlarga aralashmaganida, vaziyatni barqarorlashtiruvchi chora-tadbirlarni ko'rmaganida o'nglab bo'lmaydigan ahvol ro'y berishi mumkin edi. **Dinga aloqador masalalar ijobiy hal qilindi, yurtimizda asrlar mobaynida mavjud bo'lgan xalq rasm-rusumlarining milliy shakllari yana hayotga tatbiq etila boshlandi, aholiga yer ajratib berildi, odamlarning maoshi oshirildi, rivojlanish darajasi tenglashtirildi, ayniqsa, kambag'al-larga yordam ko'rsatildi – bir yarim millionga yaqin oila yer oldi, agar har bir xonadonda yetti kishi bo'lishini hisobga olsak, bizda ko'p bolali oilalar qancha ekanini osongina sanab chiqish mumkin. O'n millionga yaqin kishi o'zlariga g'amxo'rlik qilinayotganini sezdi. Men o'qituvchilarga berilgan imtiyozlar, maktablarda bepul nonushta qilayotgan bolalar, faxriylar va shu singari ezgu ishlar haqida gapirmay qo'yaqolay.**

O'shanda biz, fursatdan foydalanib, ma'murlarga qattiq qarshilik ko'rsatishni xohlagan kuchlar bilan

aloqa qilishga kirishdik. Biz ular bilan muloqot boshladik va men yuqorida aytgan amaliy ishlarimiz bilan tashabbusni qo'limizga olishga muvaffaq bo'ldik. Men harakat qarshi harakat keltirib chiqarishi mumkinligini yana bir marta takrorlash uchun bu haqda batafsil gapiryapman. Mojaroli, boz ustiga, o'ta xavfli vaziyatlar faqat tinch yo'l bilan, va'z aytish bilan emas, balki muloqot yo'li bilan hal qilinmog'i darkor...

– RSFSR, Ukraina, Belorussiya va Qozog'iston xafqaro huquq asosida boshqa manfaatdor har qanday ittifoqdosh respublika qo'shila oladigan o'zaro shartnoma tuzmoqchi bo'lishyapti. Bu shartnomaga O'zbekiston qo'shilishi mumkinmi?

– Bu bitimni qanchalik xaspo'shlashmasin, to'rt respublika o'rtasida tuziladigan bunday bitim kattaroq va imkoniyati ko'proq bo'lgan respublikalarning boshqa respublikalarga o'z shartlarini zo'rlik bilan o'tkazishga urinishidan boshqa narsa emas. Bunday shartnomani tuzish bizning manfaatlarimizni mensimaslik bo'lur edi, chunki bu respublikalar muzokara boshlash uchun stol atrofini egallar ekan, ular albatta, o'z manfaatlari to'g'risida gapirishadi. Shunday paytda Qozog'iston O'zbekistonning manfaatlari haqida o'ylarmikan? O'ylamasa kerak. Bu shartnomaga boshqa respublikalarning qo'shilishi to'g'risidagi taklif yoki aniqroq qilib aytganda, qo'shilish imkoniyatlari, menimcha, kuchli respublikalarning shunchaki bizga yaxshi istagi, xolos, xohlasa – imzolashsin, xohlamasa – imzolashmasin, degandek gap.

To'rt respublika o'rtasidagi ushbu ittifoqni nazorat qiladigan biror organ bo'lishi to'g'risida gapirayotganim yo'q. O'rta Osiyodagi boshqa respublikalar ham bu haqda O'zbekistonning fikriga qo'shilayotgani

menga ma'lum. Menimcha, bu masalada do'stim Nursulton Nazarboyev qizishib ketdi.

Birinchidan, respublikalarning mustaqilligi hali chinakam haqiqatga aylanmagan hozirgi paytda xalqaro huquq qoidalari asosida shartnoma tuzish to'g'risida gapirishga hali vaqt erta. **Federatsiya subyektlari hozircha mustaqil suveren davlat maqomini olgani yo'q.** Shu bilan bir vaqtda, O'zbekiston respublikalar o'rtasidagi aloqalarni o'zaro manfaatli shartlar asosida rivojlantirishni ma'qullaydi va shunga harakat qilmoqda. O'zbekiston bunday shartnoma va bitimlarni tuzishga tayyor. Ayni shunday shartnoma va bitimlar Ittifoq shartnomasi iqtisodiy qismining negizi bo'lishi mumkin.

– Do'stingiz – Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Ittifoq shartnomasini imzolashni xohlamayotgan respublikalarni ko'ndirish uchun nega yalinishimiz kerak, dedi. Siz bu fikrga qo'shila olasizmi?

– Rasmiy tomonini olganda, men Qozog'iston Prezidentining fikriga qo'shilaman. Hech kimni qulog'idan cho'zib, Ittifoqqa olib kirmaslik kerak. Basharti qo'shimcha ravishda ko'rib chiqishni talab qiladigan qandaydir masalalar bo'lsa, eng maqbul variantni topish uchun birgalashib o'tirib, ishlash kerak. Hozirgi paytda, turli sabablarga ko'ra, olti respublika Ittifoq shartnomasini imzolay olmasligi yoki imzolashni xohlamasligi ravshan bo'lib qoldi... Gap shundaki, bizga taqdim etilgan shartnoma loyihasida maqbul kelmaydigan masalalar bor. Bu loyiha shunday tuzilganki, unda ko'pgina noaniqliklar, ziddiyatlar mavjud, buning ustiga, respublikalarning manfaatlari hisobga olinmagan.

– So'nggi voqealar munosabati bilan Ittifoq shartnomasining taqdiri qanday?

– So'nggi marta bu muammoni muhokama qilayotganimizda, avvalo, hozir o'zaro munosabatlarimizga to'sqinlik qilayotgan narsalarni, xususan, mulkchilik masalasi, nimalarni Ittifoq mulkiga, qaysilarni respublika mulkiga kiritish kabi masalalarni muhokama qilish kerak, degan taklif kiritdik. M. Gorbachyov bu taklifni qabul qildi. Lekin Markaz hokimiyatini qo'ldan chiqarishni istamayotgan kishilar respublika mulkining o'zi yo'q, korxonalarining mulki bor, deb bizni ishontirishga urinishdi. Mulk egalari korxonalar ekan, bu mol-mulk O'zbekiston mulkiga kiradimi yoki yo'qmi – buni shu korxonalar hal qilar emish. Axir, har qanday mulk ma'lum hududda joylashgan bo'ladi va uni yo respublika, yo Ittifoqqa qarashli aniq tuzilma boshqarishi lozim. Men iqtisodchi sifatida buni yaxshi bilaman.

Mulkni taqsimlash masalasini hal qilmaslik ko'pgina muammolarga tayyor bo'lib turishni taqozo etishi muqarrar, chunki keyinchalik mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va bozor bilan bog'liq bo'lgan jaryon boshlanadi – Markaz va ittifoqdosh respublikalar huquqlarini chegaralab qo'yish, ya'ni biz ixtiyoriy ravishda Ittifoqqa beradigan vakolatlarni aniqlab olish to'g'risidagi masalani ham bir yo'la hal qilish zarur. Qolgan masalaning hammasi joylarda hal etilishi kerak. Shu masalalarni hal etgandan keyingina umuman Ittifoq shartnomasi tarkibiga kiradigan tuzilmalar, boshqa qandaydir ustqurmalar to'g'risida gapirish mumkin.

– SSSR xalq deputatlari to'rtinchi syezdida Siz Prezident Gorbachyovdan o'z komandasini almashtirishni talab qildingiz. Respublikangiz nuqtayi naza-

ridan qaraganda, hozirgacha amalga oshirilgan almashtirishlardan ko'nglingiz to'ldimi?

— ... «Gorbachyov komandasi» deb atalgan odamlarning ba'zilari o'z vazifasini bajarishga qodir emasligini bir necha bor ko'rsatishdi. Men ularni aqlli, mas'uliyatli odam emas, demoqchimasman. Bu yuk ularga haddan tashqari og'irlik qildi, binobarin, ular «ma'zur tutgaysiz» degan gap ham borligini eslab, o'zlarini boshqa biror sohada sinab ko'rishlari lozim edi. Sovet iqtisodiyotining tanglikka uchrashi natijasida xalq hukumatga ishonmay qo'ydi. Shuning uchun Gorbachyov atrofida odamlarni o'zgartiryapti. To'g'ri, hali komanda to'la to'plangani yo'q. Mening fikrim bunday: avvalo, vazifani o'rta qo'yish, so'ngra bu vazifani bajaradigan odamlarni tanlash kerak. Ayni shu nuqtayi nazardan M. Gorbachyov biz qayoqqa qarab ketayotganimizni, qanday bosqichlardan o'tishimizni aniq belgilab berishi kerak.

— 1989-yilda O'zbekistonda mesxeti turklari bilan millatlararo qonli to'qnashuv bo'ldi. Buning sabablari nimada? Keskinlikni qanday tugatish mumkin?

— Gapni savolingizning so'nggi qismidan boshlayman. Keskinlik tugatilgan, hozir bunday keskinlik yo'q. Farg'ona voqealariga, respublikaning boshqa joylarida, xususan, Toshkent viloyatida yuz bergan mojaro-larga kelganda esa bular o'nlab yillar davomida to'planib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar hal qilinmaganining oqibatidir, boshqa sabablar ham mavjud. Bu o'rinda 45 yildan ko'proq oldin, Stalin hukmronligi yillarida butun-butun xalqlarga, shu jumladan, mesxeti turklariga nisbatan yo'l qo'yilgan tarixiy adolatsizlik to'g'risida gapirmaslik noto'g'ri bo'lur edi.

O'zbekistonga badarg'a qilingan boshqa xalqlar — qrim tatarlari, chechenlar, ingushlar bilan birgalikda 150 mingga yaqin mesxeti turklarini olib kelishdi. Shu yillar davomida ular o'zbeklar va respublikamizdagi boshqa xalqlar bilan yonma-yon yashab kelishdi. Mamlakatda qayta qurish boshlandi, SSSR Oliy Kengashi yo'l qo'yilgan tarixiy adolatsizlikni qoraladi. Biroq bu ishni boshlaganimiz bilan oxiriga yetkazmadik — yuz bergan adolatsizlik to'g'risida butun dunyoga e'lon qildik, ammo adolatni tiklash yo'llarini taklif qilmadik.

Qrim tatarlar uyushqoqligi va aniq maqsadni ko'zlab ish olib borishgani tufayli o'z ajdodlarining yeriga qaytishga muvaffaq bo'lishdi. Mesxeti turklari harakatining shimoliy Kavkazdagi rahbarlari esa shuncha-ki miting va namoyishlar tashkil etibgina qolmay, vatandoshlarini mahalliy aholiga gij-gijlay boshladi, shu tariqa boshqarib bo'lmaydigan jarayonlarni vujudga keltirishdi. Men yuz bergan voqeaning asosiy sababi aynan shu narsa demoqchi emasman. Biz 45 yil birga yashadik, O'zbekistonda hech kim, kelgindilar bu yerdan chiqib ketsin, degan emas.

Mantiqqa zid tuyulsa ham, oshkoralik, demokratiya jarayonlari har qanday gapni gapirish, har qanday ishni qilish mumkin bo'lgan vaziyatni vujudga keltirdi. Demokratiyani hamma narsani qilish mumkin, deb tushunish boshlandi. Respublika rahbariyati voqealarning oldini olish uchun sezgirlik ko'rsata olmadi. Farg'ona fojiasidan oldin yuz bergan barcha jarayonlarga siyosiy baho berilmadi. O'zingiz xulosa chiqaravering, mahalliy ommaviy axborot vositalarida bu fojia to'g'risida faqat 10 kundan keyingina habar qilindi — zora tinch o'tib ketsa, deb kutib turishdi. Yana bu qarama-

qarshilikka jalb qilingan odamlarning umumiy madaniyat darajasini, ularning ongi saviyasini ham hisobga olish kerak, xalqlar uncha qiziqqon bo'lmagan shimolda bunday jarayonlar qon to'kilishiga olib kelmaydi.

– O'zbekiston hamisha Moskvadagi Markazning va buyruqbozlik asosidagi xo'jalik yuritish sistemasining mas'uliyatsizligi qurboni bo'lib kelgan. Paxta yakkahokimligining zo'r berib tiqishtirilishi atrof-muhitni hamda an'anaviy mehnat va turmush madaniyatini buzishning timsoli bo'lib qoldi. Hozirgi vaqtda respublikangizda vujudga kelgan vaziyat qanday, salbiy oqibatlarni tugatish uchun nimalar qilinmoqda?

– To'g'ri, paxta yakkahokimligi respublika iqtisodiyotining biryoqlama rivojlanib, Ittifoqning xomashyo bazasiga aylanib qolishiga olib keldi. Natijada O'zbekiston eng oddiy sanoat mahsulotlariga bo'lgan o'z ehtiyojining yarmini ham qondirishga qodir emas. Yetishtirilgan paxtaning atigi 9 foizi respublikada qayta ishlanadi. Bir qancha viloyat va rayonlarda ekin maydonlari nisbatida paxtazorlar 75–80 foizni tashkil qildi. Oqibatda asrlar davomida chetga don, meva va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chiqargan mintaqa bunday mahsulotlarning yirik iste'mol qiluvchisiga aylandi. Paxta yakkahokimligi atrof-muhitga ham, qishloq aholisiga ham qanday zarar keltirganini tasavvur etish qiyin emas, butifos va boshqa kimyoviy vositalar havoni va suvni tozalaydigan vositalar emas, desam, fikringa qo'shilsangiz kerak.

So'nggi yillarda ahvol asta-sekin o'nglanmoqda, paxta maydonlari qisqarmoqda (1987-yilda 2 million 108 ming gektar yerga chigit ekilgan bo'lsa, 1990-yilda 1 million 826 ming gektar yerda paxta yetish-

tirildi). Sug'oriladigan yerlarni paxtadan bo'shatib olish kolxozlar va sovxozlar hududlarida tomorqa uchastkalarini kengaytirish va yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer ajratib berish kabi katta ijtimoiy masalani qisman hal etish imkonini berdi.

Shunisi diqqatga sazovorki, paxta hosildorligining ortishi (gektar hisobiga 23,1 sentnerdan 27,7 sentnerga yetishi) tufayli yalpi paxta yetishtirish kamaygani yo'q. Paxtachilik bundan buyon ham qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lib qolaveradi. Lekin paxta yakka-hokimligiga qaytilmaydi. Juda boy mineral xomashyo resurslarimiz negizida aholining barcha ehtiyojlarini ta'minlay oladigan kompleksni allaqachon barpo etish mumkin edi, lekin eng yomoni shundaki, bizning milliy xususiyatlarimiz, an'analarimiz hisobga olinmadi. **Hozir bizning iqtisodiyotimiz butunlay buzilgan, bizning xomashyomizdan tayyor mahsulotni, afsuski, boshqa joylarda olishadi, bularning hammasi milliy daromad darajasiga, turmush darajasiga ta'sir qilmay qolmadi.** Bugungi kunda ham bizda «shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun» sharoit yaratadigan hamma narsa yo'q. Lekin nima uchun biz bunday ahvolga tushib qolganimizni aniq anglash harakatlarga, aniq maqsadlarga asos bo'ladi. Xalqimiz juda ajoyib, mehnat-sevar, farovonlik mehnat orqali kelishini yaxshi biladi. Mehnat resurslari sohasidagi imkoniyatlarimiz ham juda yaxshi — aholining 47 foizi yoki 8 million 600 ming kishi 16 yoshgacha bo'lgan bolalardir. Hozir respublikada xalq hunarmandchiligi faol tiklanmoqda. Xullas, biz kapitalizmni chetlab sotsializmga o'tdik, degan, sun'iy ravishda tiqishtirilgan nazariyaning, o'nlab yillar davomida vujudga kelgan vaziyatning oqibatlari tugatilmoqda. O'zbekiston faqat iqtisodiyotda emas,

balki boshqa sohalaridagi mavjud buzilishlarni ham to'g'rilash uchun dastlabki, lekin dadil qadamlar qo'yimoqda.

– **Ittifoqdosh respublikalar, jumladan, O'zbekiston ham chet mamlakatlar bilan ancha mustaqil aloqalarni rivojlantirishga harakat qilmoqda. Sizningcha, Germaniya bilan aloqalarni qanday qilib mustahkamlash mumkin? Masalan, shaharlar o'rtasida sheriklik munosabatlarini yoki GFRning ayrim federal o'lkalari bilan alohida aloqalarni o'rnatish uchun qanday imkoniyatlar bor?**

– Avvalo, O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasidagi o'zaro hamkorlik uchun mavjud imkoniyatlardan yaxshi foydalanilmayotganini ta'kidlab o'taman. Hozirning o'zida respublikaga kompleks texnologiya liniyalari, mashina-uskunalar va shu kabi zarur jihozlarni yetkazib berish uchun bir qancha bitimlar tuzildi. Biz esa bevosita aloqalar o'rnatish va muloqot qilishga, mavjud aloqalarni mustahkamlash va kengaytirishga tayyormiz. SSSR va Germaniyada yuz bergan o'zgarishlar ham hukumatlararo darajada, ham ayrim federal o'lkalar, shaharlar, hududiy-ma'muriy tuzilmalar o'rtasida, korxonalar va firmalar orasida bevosita o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish uchun sifat jihatdan yangi imkoniyatlar ochadi. O'zbekistonda korxonalar va ish-bilarmonlik faoliyati, soliqlar va boshqalar to'g'risida qabul qilinayotgan qonunlar buning uchun huquqiy negiz yaratadi, qo'shma korxonalarini rivojlantirish uchun, xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish va ularni himoya qilish uchun keng imtiyozlar sistemasini ko'zda tutadi. Biz mulkchilikning barcha shakllari teng huquqli bo'lishi tarafdorimiz, O'zbekistonda xususiy mulk bo'ladi, biz buni e'lon qilganmiz.

Takror bo'lsa ham, yana aytib o'taman: bizning mineral xomashyo resurslarimiz juda ko'p, o'lkamiz boy qishloq xo'jalik o'lkasidir — shu jihatdan u hamma uchun jozibali bo'lib ko'rinadi. **Men qo'shma korxonalar barpo etish tarafdoriman, bu yerda nafaqat o'zimizning yashashimiz, balki shu bilan birga, bizga yordam beruvchilarning hammasi ishlab pul topishi uchun imkoniyat beradigan bozorni barpo etish uchun xorijiy banklar tuzish tarafdoriman.**

Yaqinda, ozchilik bo'lsa-da, bir guruh mutaxassislarimiz «Simens» firmasida ochilgan kurslarda ta'lim olib, ish o'rganishdi. **Shuni aytish kerakki, 20–30-yillardayoq O'zbekistondan ko'p yoshlar o'qish uchun Germaniyaga borishar edi. To'g'ri, keyingi voqealar bu jarayonga to'sqinlik qildi.**

Respublikamizga qiziqish bilan qarayotgan nemis firmalari bilan aloqa o'rnatishni xohlaymiz, albatta. Men, hatto, shunday sxemani taklif qilaman: turli tarmoqlarning ekspertlar guruhini bizga yuborishsin, ular bu yerdagi vaziyatni o'rganib, o'z yurtiga qaytib borishgach, Germaniyada batafsil hisobot taqdim etishlari uchun barcha zarur sharoitni yaratib beramiz. Men respublikamizga qiziqish juda katta bo'lishini, salmoqli, mafkuradan xoli aloqalar bo'lishini istayman.

*«Xalq so'zi» gazetasi,
1991-yil 12-mart*

MUSTAQILLIK – ENG AVVALO XALQ BIRLIGI VA HAMJIHATLIGIDIR

Aziz o'rtoqlar!

Avvalambor, sizlar bilan diydor ko'rishganimdan g'oyat mamnun ekanimni izhor etishga, siz azizlarni, sizlar orqali butun O'zbekiston dehqonlarini ulug' ayyom – Navro'z bilan fabriklashga, oilalaringizga qut-baraka, ishlaringizga rivoj tilashga ruxsat bergaysiz. Navro'z bayrami dehqonchilik yili boshida xalqimizga shod-xurramlik baxsh etib, birodarlik, do'stlik bayramiga aylanib ketdi.

Hurmatli dehqonlar!

Qurultoyimiz butun mamlakat uchun murakkab va og'ir bo'lgan paytda o'tmoqda. Ulug' Vatan urushi davridan beri jamiyatimizda bunchalik og'ir sharoit bo'lmagan edi, desam, yanglishmasam kerak. Siyosiy tarafkashlik kuchaydi. Turli-tuman ijtimoiy guruhlarining o'zboshimchaligi, qarama-qarshilik, adovat urug'lari jamiyat barqarorligini larzaga solmoqda.

Respublikalar o'rtasidagi o'zaro xo'jalik aloqalari jar yoqasiga kelib qoldi, moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlash rejalari barbod bo'lmoqda. Puxta o'ylamasdan boshlab qo'yilgan qator ishlarga xarid bozorida qiyinchiliklar qo'shilib, hammayoq chalkashib bormoqda.

Sanoat va boshqa sohalardagi ishlab chiqarish mutasil pasaymoqda. Pulning qadri tushib ketyapti. Narx-

navo oshmoqda. Xalqning oziq-ovqat va moddiy ta'minoti yomonlashyapti, uning tinchligi buzilyapti. Natijada qayta qurishga bo'lgan ishonch susaymoqda.

Bolتيqbo'yi va Kavkazorti respublikalaridagi millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi ham barchamizni nihoyatda tashvishga solmoqda. Tog'li Qorabog', Janubiy Osetiyada bo'layotgan voqealar, hozirgi eng zamonaviy qurol-aslahalar qo'llanilishi bilan sodir bo'layotgan jiddiy to'qnashuvlar mamlakatimizni grajdanlar urushi yoqasiga olib kelib qo'ymoqda.

Ba'zan tamomila mantiqsiz, aqlga sig'maydigan voqealar sodir bo'lmoqda. O'tgan yili mamlakatimizda g'alla va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlaridan eng yuqori hosil olingan edi. Bunga xursand bo'lish kerak edi, lekin bu hosilning juda katta qismi dalada qolib ketdi. Davlat buyurtmalari bajarilmadi. Mamlakat esa yana chet eldan don sotib olishga majbur bo'ldi.

Shu birgina misolning o'ziyoq, mening nazarimda, davlat, uning kuch va imkoniyatlari uddalab bo'lmas darajada ishdan chiqayotganini ko'rsatib turibdi. Dehqonchilik sohasida ko'pdan ko'p masalalar bo'yicha tushunmovchilik mavjud. Bu sohani taraqqiy ettirish yo'llari haqida ham biror-bir oydinlik sezilayotgani yo'q. Umuman, mamlakatga kolxoz va sovxozlar kerakmi o'zi yo'qmi, degan bahslar davom etmoqda. Ayrim kishilar yerdan batamom xususiy mulk sifatida foydalanish vaqti keldi, deb yerni parcha-parcha qilib, foydalanish uchun topshirib yuborishni ham taklif qilyapti.

Mamlakatimizdagi hozirgi ahvol mana shunday. Buning sabablarini qayerdan qidirish kerak, nima uchun bugun vaziyat og'irlashib qoldi? Asosiy gap shundaki, bir vaqtlar qayta qurishni boshlaymiz, deb ishlab chi-

qarishni boshqarish sohasidagi talay kamchiliklarga ega bo'lgan eski sistemani deyarli yo'q qildik. Lekin yangisi bunyod etilmadi. Mamlakatga hozir nihoyatda zarur bo'lib turgan tartib-intizom yo'q hisobi. Aql-zakovat bilan to'plangan tajriba va an'analar ham barbod etilmoqda.

Men avval ham bu fikrni aytgan edim, hozir yana takrorlayman: **axir o'zingiz o'ylab ko'ring, o'rtoqlar! Yangisini yaratmay turib, avvalgisini barbod etib tashlash qaysi aqlga sig'adi! Yangi uyni – imoratni qurmasdan, eski uyni, o'zimiz istiqomat qilayotgan uyni yiqitish, vayron qilish – bu aqldan emas.** Butun mamlakatimizda yo'l qo'yilgan bunday xato o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda...

Mana shuning uchun biz bu masalada o'zimizning aniq yo'limizni, bizning sharoitga mos keluvchi usullarni, xullas, agrar siyosatimizning qanday bo'lishi kerakligini uzil-kesil belgilab olishimiz zarur.

Bu masala xususida men so'nggi vaqtlarda bir qator mashhur dehqonlar va olimlar bilan, kolxoz va sovxozlarning katta tajribaga ega bo'lgan rahbarlari bilan suhbatlashdim. Ularning fikrlari shundan iboratki, bu o'rinda respublikamizga xos bo'lgan shart-sharoitlarga albatta e'tibor bermoq zarur, ayni vaqtda erishilgan yutuqlarni, qo'lga kiritilgan ijobiy natijalarni ham inkor etmaslik kerak. Respublikamiz qishloq xo'jaligini taraqqiy ettirish hamda suvdan foydalanish masalalarida boy tajribaga, katta imkoniyatlarga ega ekanini kim inkor eta oladi? O'tmish hayotimizni faqat qora rangga bo'yash – bu qayta xatoga yo'l qo'yish demakdir. Tariximizni baholaganda, xalqimiz, jamiyatimiz uchun mehnati singgan insonlarga adolat, haqiqat ko'zi bilan qarashimiz kerak, albatta.

Yurtimizga har yili Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi-dagi mamlakatlardan o'nlab delegatsiyalar keladi. Ular bizning cho'l mintaqalarimizni o'zlashtirish, yerdan foydalanish xususida to'plagan tajribalarimizni o'rganadilar.

Bizning kolxozlarimiz, sovxozlarimiz va agrosanoat birlashmalarimiz yalpi mahsulotning deyarli 80 foizini yetishtiradi. Ko'pchilik xo'jaliklar paxta hosili bo'yicha, meva-sabzavot yetishtirish hamda chorvachilik bo'yicha yuksak darajada taraqqiy etgan kapitalistik mamlakatlarning ilg'or xo'jaliklari bilan bemaol tenglasha oladi. Bunday xo'jaliklarimizda nafaqat samarali ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan, ularda aholining ijtimoiy ta'minoti ham durust.

Shuning uchun ham qaysi yo'ldan borishimiz kerak, degan masalani hal qilar ekanmiz, nazarimda, respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini albatta e'tiborga olishimiz kerak. Ular nimalardan iborat?

Birinchidan, sug'orish zonalarida aholi zich joylashgan va bu joylarda yer tanqis. O'zingizga ma'lumki, respublikamizning aksariyat mintaqalarida har bir mehnatchiga 1–1,5 gektar va undan ham ozroq yer to'g'ri keladi. Bunday joylarga yerni xususiy mulk sifatida bo'lib berish katta fojiaga aylanib ketishi mumkin. Odamlar bir-biriga shu qadar yov bo'lib qolishi mumkinki, buning oqibati nimalarga olib borishini aytish qiyin.

Ikkinchidan, bizning dehqonchiligimiz — sug'oriladigan dehqonchilik. Katta-katta kanallar, sug'orish va drenaj tarmoqlari sug'oriladigan dalalar bilan bog'liq bo'lgan yaxlit yer-suv kompleksini yuzaga keltiradi.

O'ylab ko'ringlar, bu yaxlit kompleksdan yerni uzib olib, xususiy mulk sifatida foydalanishga topshirib

bo'ladimi? Agar shunday qilinadigan bo'lsa, sug'orish tarmoqlari-yu suvning o'zini ham bo'lib berish kerak bo'ladi. Axir, suvsiz yer kimga kerak? Uning qadri bormi o'zi?

Uchinchidan, o'lkamizda asosiy fondlar suv xo'jaligi vositalari, mashina-traktorlar, chorvachilik komplekslari, katta bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaliklar tarzida shakllandi. Bu keng ko'lamdagi asosiy ishlab chiqarish vositalarini yakka xo'jaliklarga qanday qilib bo'lib berish mumkin?

To'rtinchidan, paxta yetishtirishga ixtisoslashib qolganimizni ham nazardan qoldirib bo'lmaydi. Bu juda mehnattalab ekindir, biroq jamoa xo'jaliklari va davlat xo'jaliklari maydonlarining keng-keng bo'lishi, ya'ni bir ming gektardan boshlab to 6—8 ming gektargacha bo'lishi, sug'oriladigan paykallarning 4—12 gektar yerni egallashi, qudratli mashina-traktor parki tufayli mehnatning 80 foiziga qadar qismi mexanizmlar yordamida bajarilmoqda. Bu esa ishni osonlashtirib, mehnat unumdorligini ta'minlamoqda. Shuning hammasini hisobga olsak, ishonchimiz komilki, jamoa va davlat xo'jaliklarini tarqatib yuborishga bugun asos yo'q. Lekin sir emaski, kolxoz va sovxozlardagi ishlab chiqarish munosabatlari zamon talablariga javob bermay qolyapti.

Qishloq xo'jaligi sohasi, uning tarmoqlarini yangi ish uslubiga o'tkazayotgan islohotning asosiy maqsadi — avvalambor, dehqonlarimizning ishdan manfaatdorligini tubdan o'zgartirishdir, o'z mehnatining hosili, pirovard natijasini birinchi navbatda o'zlariga qaytarishdir, ularning turmush darajasini, saviyasini ko'tarishdir.

Demak, bizning hozirgi asosiy vazifamiz dehqonlarning o'z mehnati samarasidan to'la-to'kis foy-

dalana olishga bo'lgan ishonchini kuchaytirishimiz kerak. Bu esa dehqonlarga dehqon ishonchini qaytarishdir. Qishloqdagi islohotning asosiy mazmuni, menimcha, mana shundan iboratdir.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni qanday tashkil qilmaylik, qay tomonga burmaylik, bir narsani hech qachon unutmashimiz kerak. U ham bo'lsa shuki, **dehqon boy bo'lmasdan – ishchi ham, ziyoli ham to'q bo'lishi mumkin emas, xalqimizning, el-yurtimizning hayotini, kelajagini farovon qilib bo'lmaydi.** Bu aniq gap.

Shunga asoslanib, jamoa va davlat xo'jaliklarini tubdan o'zgartirishimiz kerak, shaxsiy, kooperativ va dehqon-fermer xo'jaliklariga keng ko'lamda yo'l ochib berishimiz lozim.

Kolxoz va sovxozlarga kelganda, avvalambor, ularning xo'jalik yuritish mexanizmini qayta qurish kerak.

Birinchidan, rahbarlikning ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan usullari iqtisodiy, bozor munosabatlariga asoslangan usullar bilan almashtirilmog'i kerak. Boshqaruvning butun mexanizmi shaxs va kollektivning moddiy manfaatdorligi qoidalariga asoslanishi lozim. Shunda kam sarf-xarajat bilan ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga erishish mumkin.

Ikkinchidan, hozirgi xo'jaliklarning ichki tuzilishi ijara-kooperativ usuliga almashtirilishi kerak. Barcha ishlab chiqarish vositalari va xizmat ko'rsatish sohalari mustaqil xo'jalik hisobidan ijara, kooperativ va aksiyadorlik kollektivlari bilan almashtirilishi lozim.

Respublikamizda yuqorida aytilgan uslubda, oila va ijara pudrati asosida ish ko'rayotgan ko'pgina xo'jaliklar mavjud. Ularning ish natijalari eski uslubda ishlayotgan xo'jaliklarning ish natijalariga nisbatan

ancha yuqori. Chunki ularning zamiridagi iqtisodiy omil mexanizmi oddiy ishchi manfaatini jamoat manfaatlari bilan chambarchas bog'lagan. Bunday usul mehnat haqini oshirish va moddiy farovonlikni yuksaltirishni ta'minlaydi. Bunday xo'jaliklarda boshqaruv apparati keskin qisqaradi. Masalan, Kim Pen Xva nomidagi kolxozning boshqaruv apparati 6 kishidan iborat.

Mana shunday yangi uslubda ishlaydigan davlat va jamoa xo'jaliklariga biz kengroq yo'l ochib berishimiz lozim. Ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashimiz kerak.

Biz mehnat jamoalarini ijara munosabatlariga jalb etish bo'yicha yanada faol ish olib borishimiz zarur.

Keyingi yillarda bizni tashvishga solayotgan katta bir muammo to'g'risida aytib o'tishim kerak. Ayrim kishilarning jamoa xo'jaliklarini bo'lib tashlash kerak, degan talablari juda ko'payib ketyapti. Buni qarangi, o'tgan yili, ekiladigan yer ko'paymasa ham, respublikamizning o'zida qo'shimcha 60 ga yaqin xo'jalik paydo bo'libdi.

Albatta, hayotning o'zi oldimizga qo'yayotgan masalalarni bir yoqadan bosh chiqarib, bahamjihat ko'rib chiqishimiz kerak. Lekin bu hol ko'p joylarda, ochig'ini aytganda, ayrim kishilarning o'zlari uchun rahbarlik lavozimlarini yaratish, mahalliy hokimiyat va mansab uchun kurashga aylanib ketayotganini yaqqol ko'rish mumkin.

Mana shu amalga intilayotgan kishilar ertaga bozor iqtisodiyotiga o'tganda, foyda bermayotgan, o'zini boqish qo'lidan kelmayotgan mayda xo'jaliklarning, shu xo'jaliklarda peshona teri to'kib mehnat qilayotgan dehqonlarning taqdirini o'ylaydimi yoki yo'qmi? Shunday xo'jaliklar borki, ular topgan daromadidan

taxminan yarmini amalda mansabdorlarga maosh to'lashga sarflaydi. Bu sizga ma'lum. Buni qanday baholasa bo'ladi?

Ijaradorlik va matlubotchilik bunday noxush ishlarni inkor etadi. Shu sababli ijaradorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan joylardan jamoa xo'jaliklarini bo'lish, ularni maydalashtirish haqidagi talablar ham tushmayapti.

Bu — tabiiy, qonuniy bir holdir. Bunday joylarda mehnatkashlar va rahbarlar ko'proq ishni yaxshi tashkil qilishni o'ylaydi. Boshqa ishlarga va harakatlarga ularning vaqti ham qolmaydi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tyapmiz. 650 ta xo'jalikning bankdagi hisobida bir tiyin ham yo'q. Ertaga ular o'z a'zolarini nima hisobidan boqadi? Nahotki davlat boqadi deb o'ylashsa? Ko'rpaga qarab oyoq uzatish lozimligini bugun ro'yirot aytishimiz kerak. Shunday ekan, rahbar kelajakni oldindan ko'ra bilishi lozim. Hayot maromini sezmaydigan rahbar — rahbar emas.

Xalqimizni oziq-ovqat bilan ta'minlashning birinchi yo'li — kolxoz-sovхозlarni yangicha asosda rivojlantirish bo'lsa, ikkinchisi — shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni kuchaytirishdir.

Ilgari har bir oilaga 12 sotix yer to'g'ri kelgan bo'lsa, 1991-yilning boshida bu raqam 17 sotixni tashkil etdi. Yil oxirida shaxsiy xo'jaliklarga ajratilgan yer 500 ming gektardan oshib ketadi, ya'ni 1988-yilga nisbatan 2,5 marta ko'payadi.

Tomorqalarni ko'paytirish va kengaytirish hisobidan 600 ming kishi mehnatga jalb etildi. Ko'plab odamlar ish bilan ta'minlandi, bu esa qishloqlardagi ijtimoiy keskinlikni muayyan darajada kamaytirdi.

Shaxsiy tomorqalarni ko'paytirishning yana bir afzallik tomoni shundan iboratki, bu tadbir qishloq

xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlari miqdorini oshirishga imkon beradi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatyaptiki, mavjud shaxsiy xo'jaliklardagi hosildorlik kolhoz, sovxozlardagiga nisbatan 2—3 barobar ko'pdir. Hozirning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotining 26 foizi, shu jumladan, go'shtning 49 foizi, sutning 65 foizi, junning 66 foizi va sabzavotning 43 foizi shaxsiy tomorqalarda yetishtirilyapti. O'tgan yilning o'zida yakka xo'jaliklarda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotining umumiy hajmi 300 million so'mlikdan oshdi.

Xalqimizning, dehqonlarimizning farovon yashashini ta'minlash, ularning daromadini ko'paytirish asosiy maqsadimiz ekan, bu maqsadni ro'yobga chiqarish yo'llarini izchillik bilan chuqur va puxta o'ylab topishimiz zarur. Iqtisodchilarning aytishiga qaraganda, dehqonning daromadini ko'paytirishning uchta asosiy manbayi bor. Ana shu masala xususida alohida to'xtalib o'tish kerak, deb o'ylayman.

Birinchi manba — qishloq ahlining ish haqini oshirish. Asosiy ma'ruzada jamoa xo'jaliklarida ishni tashkil etish, mehnat unumdorligini oshirish haqida ko'pgina to'g'ri gaplar aytili. Mahsulot tannarxini kamaytirish, paxta sifatini yaxshilash, xarid narxini, qo'l terimi va mashina terimi uchun to'lanadigan haqni oshirish hisobidan o'tgan yili xalqimiz ancha naf ko'rdi.

Ikkinchi manba shuki, uni to'la ochish uchun qishloqdagi ijtimoiy muammolarni zudlik bilan hal etish zarur; bolalar bog'chalari, shifoxonalar qurish, kommunal va maishiy xizmat tarmog'ini kengaytirish, na'faqa va boshqa pul yordamlari darajasini oshirish vazifalari shular jumlasiga kiradi. Hozircha qishloq ahli ijtimoiy fondlardan yetarlicha foydalanyotgani yo'q.

Aholi daromadi va turmush darajasini o'stirishning **uchinchi manbayi** — shaxsiy tomorqalarni kengaytirish. Tomorqa berishdan maqsad faqat qo'shimcha mahsulot olishga erishishdan iborat emas. Bu — uy-joy qurilishini rivojlantirish, odamlarni, ayniqsa ayollarimizni ish bilan ta'minlash, kichik korxonalar tashkil etish imkoniyatlarini ham yaratadi. Shuni aytish kerakki, yer ajratib berilayotganda ko'pgina xo'jalik rahbarlari xavotirda edi — ular jamoa xo'jaliklarida yetishtiriladigan mahsulot kamayib ketmasmikan, deb o'ylashgan edi. Bu xavotir o'rinsiz bo'lib chiqdi. 1990-yilda jamoa xo'jaliklari mahsuloti 1989-yildagiga nisbatan 103 foizni tashkil etdi. Shaxsiy xo'jaliklarning bergan mahsuloti hajmi 108 foizga o'sdi.

Ammo bu borada hali muammolar oz emas. Ba'zi kolxoz va sovxozlar bu muhim ishdan o'zini chetga olmoqda. Kezi kelganda shuni aytishim kerakki, yaqinda tashkil etilgan Shaxsiy xo'jaliklar uyushmasidan umidimiz katta.

Dehqonlarga ortiqcha mahsulotlarni sotish va qayta ishlashni tashkil qilish, uyushma a'zolarining manfaatlarini himoya etish, ularni qurilish materiallari, ko'chat, mevali daraxt va tok ko'chatlari bilan ta'minlash, ilmiy va amaliy yordam berish vazifalari ana shu tashkilotning zimmasidadir.

O'zlaringizga ma'lumki, bundan 4–5 kun avval O'zbekiston SSR Prezidentining «Shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining egalari bo'lmish dehqonlarga moliyaviy yordam berish va ularning uyushmasi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Bu hujjat bilan tanishganingizni hisobga olib, u haqda ikki og'iz gapiraman, xolos.

Ushbu farmonga binoan, dehqonlarga, shaxsiy yordamchi xo'jalik egalariga moliyaviy yordam tariqasida 1 milliard so'm ajratilishi ularning ijtimoiy ahvolini yaxshilashda katta omil bo'ladi. Qo'shimcha ajratilayotgan moliyaviy yordam, asosan, iqtisodiy jihatdan zaif xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlashga, ularning moddiy-texnik bazasini kengaytirish va mustahkamlashga, mahsulotni qayta ishlaydigan kichik korxonalar qurish, transport vositalari, kichik mexanizatsiya texnikasi va chorva mollarini sotib olishga sarflanadi. Shuni ochiq aytishimiz kerakki, dehqonlarimizdan qarzimiz juda ko'p. Shaxsiy xo'jaliklarga berilayotgan hozirgi yordam — birinchi qadam, xamir uchidan patir, desa bo'ladi. Qarzimizni uzishimiz uchun hali ko'p xizmat qilishimiz kerak. Aminmizki, bu xarajat 3—5 yildan keyin respublikamizga ikki-uch barobar ortig'i bilan qaytadi. Ishlab chiqarishning boshqa yangi usuli — dehqon-fermer xo'jaligi imkoniyatlarini ham hisobga olmaslik, bizning fikrimizcha, xatodir. Bular — qishloq xo'jaligini inqirozdan olib chiqadigan yo'ldir.

Dehqonchilik xo'jaligining asosiy xususiyati shundaki, uning ko'lami va imkoniyatlari keng, eng muhimi, u tovar ishlab chiqaradi. U doimiy foydalanishga berilgan shaxsiy tomorqa yerlarida rivojlanadi. Boshqacha qilib aytganda, dehqonlarimiz yerning haqiqiy egasi bo'lib qoladi, lekin uni sota olmaydi. Demak, dehqonlarimizning manfaatdorligi kuchayadi, ular o'z ixtiyori bilan, o'z oilasining ehtiyojlarini ko'zlab, unumli mehnat qilishga qodir bo'ladi.

Bu shakldagi xo'jalik yuritishni xohlovchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash barcha sovet va xo'jalik tashkilotlari, kolxoz va sovxoz rahbarlarining burchidir.

Dehqonchilik xo'jaliklarini qisqa vaqt ichida kerakli texnika vositalari bilan ta'minlash lozim.

Iqtisodiyotimizning muhim sohasi bo'lgan qishloq xo'jaligida faqat ketmon, belkurak va panshaxa bilangina cheklanib qolmay, zamonaviy mashinalarni keng joriy etish darkor.

Odamlar kichik traktorlarni, boshqa qulay va ixcham texnika vositalarini talab qilmoqda. Afsuski, sanoatimiz bu nihoyatda zarur ehtiyojlarni hanuz qondirmayapti.

Shu bois respublikamizda dehqon xo'jaliklari uchun kichik hajmdagi texnika vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish juda katta muammoga aylanib qoldi. Buni o'zimizda joylashgan sanoat korxonalari orqali hal qilishimiz zarur.

Dehqon xo'jaliklarini rivojlantirishning yana bir hal etilishi lozim bo'lgan masalasi bor. Bu — chorvachilik mahsuloti yetishtirishdir. Bunday xo'jaliklarning ko'pchiligi sut yetishtirishga ixtisoslashgan, ba'zilari esa bo'rdoqichilik bilan shug'ullanadi. Avvalambor, shu xo'jaliklarni yem-xashak bilan yetarli ta'minlash lozim. Mollarning zotini yaxshilash, ularning mahsuldorligini oshirish birinchi navbatdagi vazifalardandir.

Hozirgi kunda bu muammolarni, asosan, bartaraf qilish uchun joylarda katta ish olib borilyapti. Shaxsiy dehqonchilik bilan shug'ullanayotganlarga ham xo'jaliklar, ham davlat tomonidan yem-xashak ajratilmoqda.

Masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Bu — oilalarni sigir bilan ta'minlash muammosi. E'tiboringizga bir taklifni havola etmoqchiman:

Kelinglar, shu yilning o'zida qishloqda yashovchi barcha oilalarni sigir bilan ta'minlaylik. Bunga qanday

erishish mumkin? Buning bir necha yo'llari bor. Mol sotib olish uchun maxsus kredit berish mumkin. Yoki jamoa podalaridan har bir oilaga buzoq topshirish sharti bilan, imkoni bo'lsa, hatto shu shartsiz ham tekinga sigir berish mumkin.

Menimcha, har bir xo'jalikning sharoitini hisobga olgan holda bu masalaning har xil yechimlari topilishi mumkin. Agar bu ishga astoydil kirishsak, imonim komilki, natija albatta samarali bo'ladi. O'shanda bolalarimizni sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash ancha yo'lga qo'yilgan bo'lar edi.

Bu yerga yig'ilgan aksariyat kishilarning boshini qotirayotgan masalalardan biri — qishloqda yashaydigan odamlarni ish bilan ta'minlashdir, desam, yangilishmagan bo'laman.

Sanoat ishlab chiqarishining imkoniyatlari haqida ortiqcha gapirib o'tirishning hojati yo'q, deb hisoblayman. Har bir xo'jalikda bu muhim ishga jon kuydiradigan odamlar bo'lishi kerak. Bu o'rinda kadrlar hamma ishni hal qiladi, degan eski iborani eslatib o'tish joizdir. Faqat bor kuch-quvvatni, aql-idrokni, ishbi-larmonlikni to'liq ishga solgan mutaxassislar kolxoz va sovxozlarda kichik korxonalarni qurish masalasini joyidan siljitishi mumkin.

Agar mazkur xo'jaliklarni boshqarayotganlar xalq bilan birga bo'lsa, u bilan hamjihatlikda ishlasa, doimo omma bilan birga ishlay olsa, uning ishonchini qozonsa, o'sha joylarda albatta muvaffaqiyat bo'ladi. Ana shunday tashabbuskorlarni, jamoa, xo'jalik, tuman va viloyat rahbarlarini har doim rag'batlantirib, ularning belini baquvvat qilib mehnatiga yarasha izzat qilishimiz zarur.

Bu masalalarda biz Qishloq xo'jaligi vazirligidan, respublika Iqtisodiyot qo'mitasidan jiddiy yordam

kutamiz, talab qilamiz. Ular yordamchi sohalarni rivojlantirish uchun tegishli sharoit yaratib berishi kerak.

Ammo siz bilan biz viloyat ijroiya komitetlari, dehqonchilik sanoat tashkilotlarining jiddiy yordamisiz bu muhim ish hali-beri yo'lga tushmasligini qachon fahmlab yetamiz? Yordamchi xo'jaliklar, sohalar taraqqiy qilmasa, dehqonning ahvoli nima kechadi? Dalalarda yetishtirilgan noz-ne'matlar xalq dasturxoniga tortilmay qolib ketaveradi-ku. Ayni vaqtda bu qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib keladi.

Yana bir jiddiy masala bor, aziz do'stlar. Joylardagi mahsulot tayyorlash idoralari ko'ngildagidek ishlaymayapti. Aslida ular dehqon yetishtirgan mahsulotni iloji boricha chiqitsiz qabul qilib olishi lozim, toki dehqon bundan naf ko'rsin. Mahsulot tayyorlash idoralarida esa chayqovchilar ko'payib ketgan. Ular faqat o'z foydasini o'ylaydi, xolos.

Bu idoralarning ishini tubdan qayta ko'rib chiqishimiz lozim. Joylarda bu masalalarni hal eta oladigan ta'minot-sotuv kooperativlarini tuzish to'g'ri bo'lardi. Ular yetishtirilgan hosilni qayta ishlab, mahsulot tayyorlash va uni sotish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Zarur hollarda chet eldagi ilg'or mamlakatlar bilan shartnoma tuzib, ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanishimiz lozim.

Mana, bir misol. Fransiya va Shvetsiyaning qo'shma korxonasi paxtani qayta ishlashning yangi usulini topibdi. U besh bosqichdan iboratdir:

1. Chigitdan moy va kunjara olish.
2. Tolani qayta ishlab, sifatiga qarab ajratish.
3. Ip ishlab chiqarish.

4. To'qimachilik sanoati.

5. Tikuvchilik sanoati.

Xullas, korxonalar xomashyoni ishlatib, kiyim-kechak uchun mahsulot tayyorlaydi. O'sha chet ellarda bu ishlarni qilayotgan odamlar biz bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanini aytishmoqda.

Hozir qishloq joylarda odamlarni bezovta qilayotgan, hammani tashvishga solayotgan masala — aholini ssuda va qurilish materiallari bilan ta'minlashdir. Bu masalani hal qilishimiz kerak. Odamlar biz — rahbarlardan madad kutmoqda. Men buni to'g'ri tushunaman. Hozir mamlakatda moddiy-texnik ta'minoti, tartib-intizom izdan chiqqan bir paytda bu muammolarni yechish juda qiyin. Bu — nihoyatda murakkab masaladir. Lekin bunda dehqonlarimizning nima aybi bor? Biz ularga yer berdik, endi qurilish ishlarida yordam ko'rsatish — bizning vazifamizdir.

Yana bir muhim masala. Qishloq aholisini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash choralarini belgilangan respublika dasturi qanday bajarilyapti?

O'tgan 1990-yilda 2 ming 200 kilometrlik suv va 3 ming kilometr ga yaqin gaz tarmoqlari ishga tushdi. Bu esa yana 270 ming aholi ichimlik suvi bilan, 120 ming oila esa gaz bilan ta'minlandi, degan gap.

Buxoro, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent va Xorazm viloyatlari qishloqlarida gazlashtirilgan xonadonlar ancha ko'paydi. Lekin hali qiladigan ishlarimiz juda ko'p. 1991-yilda qishloqlarimizda 4 ming kilometrdan ko'proq gaz tarmoqlarini qurish kerak. Yana 200 ming xonadon gaz bilan ta'minlanadi. 5,5 ming kilometrlik ichimlik suvi quvurlari ishga tushadi. Xullas, qishloq joylarda mana shu va shunga o'xshash

obyektlar qurilishi uchun 1 milliard so'mdan ziyod kapital mablag' sarflanadi.

Bu sohadagi ishlarning muhim va dolzarbligi hisobga olinib, Vazirlar Mahkamasida maxsus komissiya tuzildi.

Qishloq aholisini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash respublika dasturini amalga oshirish uchun mablag' va moddiy resurslarni birinchi navbatda sarflash haqida hukumat qarori qabul qilindi.

Endi hamma gap mana shu ishlarning samarali bo'lishi uchun jon kuydirishimizda qolgan.

Qishloq qurilishi, aholini uy-joy, ichimlik suvi, tabiiy gaz bilan ta'minlash masalasi — muhim ijtimoiy masaladir. Uni faqat hammamiz bir bo'lib hal qilishimiz mumkin. Qishloq aholisi turmushini yaxshilashga qaratilgan Prezident farmonlari, hukumat qarorlari bajarilmasa, xalq nazarida hamma rahbarlarning obro'si tushadi, davlat intizomi susayib ketadi va rahbariyat xalq ishonchini yo'qotib, yolg'onchiga chiqadi.

Endi, o'rtoqlar, jamiyatimizning barcha tabaqalariga, butun aholiga taalluqli bo'lgan, ochig'ini aytsam, og'ir masalaga to'xtalmoqchiman. Men narx-navo va bozor munosabatlariga o'tishni nazarda tutyapman. Aholining, eng avvalo nochorlar, nogironlar, o'quvchi-studentlar, ko'p bolali oilalar va boshqa daromadi kam odamlarimizni ijtimoiy himoyalash uchun respublikamiz hukumati maxsus qaror qabul qildi.

Bu qarorda aholining narx-navo oshishi munosabati bilan ko'radigan zararini qoplash ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, milliy xususiyatlarimiz va mintaqamizning o'ziga xos shart-sharoitlari ham hisobga olingan.

Aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha barcha tad-birlarni amalga oshirish uchun 16 milliard so'mdan ko'proq mablag' ajratildi.

Ishlayotganlarga bir oyda 60 so'mdan, ishsiz nafaqa oladiganlarga 65 so'mdan pul to'lanadi. Bolali oilalar uchun mavjud nafaqalar miqdori salkam ikki barobar oshadi. Bundan tashqari, bola tug'ilganda bir marta beriladigan nafaqa 250 so'mga, ishlayotgan onalarga bolalariga qarash uchun beriladigan nafaqa hozirgi 70 so'mdan 110 so'mgacha ko'payadi.

Bolalarga mo'ljallangan tovarlarning narxi oshishi sababli balog'atga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga ham pul yordami nazarda tutilgan.

Oliy, o'rta maxsus hunar-texnika o'quv yurtlari talabalariga beriladigan o'quv stipendiyalari, ularning oilaviy ahvoli va darslarni o'zlashtirishiga qarab, 120 so'mdan 210 so'mgacha belgilangan.

Shunday qilib, o'rta hisobda uch kishidan iborat oila 250 so'm, olti kishilik oila — 400 so'm, to'qqiz kishilik oila esa 600 so'mdan ko'proq qo'shimcha mablag' oladi.

Un, non va makaron mahsulotlari narxi respublikamizda, avval aytilgan bo'lsa ham, yana ta'kidlab aytaman, oshmaydi.

Yana quyidagilarni ta'kidlab o'tmoqchiman. Aholining ayrim tabaqalari uchun shahar transportidan bepul foydalanish to'g'risidagi respublikamiz qarorlari o'z kuchida qoladi.

Hukumat tomonidan respublika miqyosida maxsus komissiya tuzildi. Qoplama mablag'lar va nafaqalarni aholining turli tabaqalari o'rtasida adolatli taqsimlash yo'l-yo'riqlari ishlab chiqilib, joylarga yuborildi.

Xalq deputatlari mahalliy sovetlar ijroiya qo'mitalari, vazirliklar va boshqa tashkilotlarga aholiga bu

mablag'larni o'z vaqtida kechiktirmay tarqatish haqida ko'rsatma berildi. Joylardagi davlat bank bo'linmalari zimmasiga bu jiddiy masalani to'xtovsiz va uzluksiz tashkil qilish yuklandi.

Hurmatli o'rtoqlar!

Shuni ochiq aytishim kerakki, keyingi yillarda qayta qurishni, oshkoralikni mamlakatimizning turli mintaqalarida har xil tushunishdi. Qayta qurishni — buzish, oshkoralikni esa faqat tanqid, bor narsani faqat rad etishdan nariga o'tmaydigan tanqid deb bilishdi.

Bu hol respublikamizga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, albatta. Hayotimizdagi mavjud qiyinchiliklarni ro'kach qilib, xalqni maydonga boshlab chiqib, to's-to'polonlar ko'tarib, milliy nizolar keltirib chiqarib, o'zlariga soxta obro' topish harakatida yurgan «dohiy»lar ham bizda oz emas.

Uzoqni o'ylamaydigan bunday kaltabin odamlardan xalqni asrash kerak.

Respublikamiz mustaqillik sari odim tashlagan ekan, mustaqillik, eng avvalo, xalq birligi, hamjihatligi ekanini unutmashligimiz kerak. Respublikamizda barcha millat vakillari bilan ahil-inoq, do'st-birodar bo'lib, bir-birimizning qadriyatimizni hurmat qilgan tarzda yashashimiz — el-yurtimizga tinchlik, osoyishtalik baxsh etadi.

Qadimdan o'zining mehmondo'stligi, ochiq ko'ngilligi, mehr-oqibati bilan tanilib kelgan xalqimizning madaniy-ma'naviy qadriyatlarini tiklash, ularni yanada ravnaq toptirish — bugungi kundagi eng asosiy vazifalarimizdir.

Dinga munosabatimizning o'zgargani, Navro'zning tiklangani, o'tmishdagi ulug' shoir, olim va boshqa mashhur ajdodlarimizning merosi xalq mulkiga aylal-

nayotgani, odamlar cho'chimasdan o'z e'tiqodiga binonan turli ma'raka va marosimlarni bermalol o'tkazayotgani va shu singarilar haqida ko'p gapirish mumkin.

Bularning hammasi xalqimizning o'z tarixiga, madaniyatiga, qadriyatlariga ishonchini tiklash, hurmatini oshirish uchun qilinyapti.

Lekin biz «xalq», «xalqimiz» deb og'iz to'ldirib gapirganimizda, har qanday xalqning alohida-alohida odamlardan, oilalardan iborat ekanini esdan chiqarmasligimiz kerak.

Har bir alohida odamga hurmatsizlik, uni mensimaslik, unga adolatsizlik qilish o'sha odam mansub bo'lgan xalqqa yetkaziladigan katta zarar deb bilaman.

G'ururi bor odamning qaddi rost, boshi baland bo'ladi.

Oldimizda turgan ulkan, juda og'ir vazifalarni bajarish, muammolarni yechish, katta sinovlardan o'tish – bularning hammasi xalqimizning ruhini, milliy g'ururini tiklash bilan bog'liqdir.

Adolatni, haqiqatni tiklash haqida gapirish oson. Lekin ularni amalga oshirish ham qiyin, ham juda murakkabdir. Buni hammangiz o'z tajribalaringizda ko'rgansiz, albatta.

Keyingi vaqtda bu borada ancha ishlar qilindi. Turli yillarda nohaq jabr ko'rgan, qamalgan kishilarni oqlash maqsadida 30 – 50-yillarda o'rinsiz ayblangan ko'plab odamlarning ishlari qayta ko'rib chiqildi. Stalin qatag'oniga uchragan kishilar oqlanyapti. Ularning soni hozirgi kungacha 3 ming 500 kishiga yetdi.

«Paxta ishi» deb nom olgan qismatimizga kelsak, oqlanganlar soni hozir 2 ming kishiga yetdi. Bunga chuqurroq nazar tashlansa, ana shu raqamlar zamirida

qanchadan qancha shikastlangan qismatlar, qanchadan qancha azob chekkan taqdirilar bor. Nohaqlik, adolatsizlik jabrdiydalarini hammamiz bir tasavvur qilib ko'raylik. Buni yana shuning uchun aytyapmanki, endi hech qachon bunday nohaqliklar, adolatsizliklar takrorlanmasin, buning uchun esa hammamiz kurashishimiz kerak.

O'zbekiston mustaqillik yo'liga o'tar ekan, avvalambor mana shunday masalalarni yechishda o'zini ko'rsatishi kerak. Chetdan kelib xalqimiz taqdirini hech kim hal qilmasin. O'zimizning Oliy Kengashimiz bor, o'zimizning Oliy sudimiz bor.

Sizga ma'lumki, Prezident farmoyishlari bilan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar bo'yicha maxsus komissiya tuzilgan edi. Navro'z bayrami arafasida bu komissiya ko'rib chiqqan ishlar bo'yicha 1000 kishi afv etildi.

Bunday xayrli, xalqimizning ruhini ko'taradigan ishlarni davom ettiramiz, albatta. Bunday savobli ishlarni respublikamiz rahbarlari uchun ham qarz, ham farz deb bilaman.

Ma'lumki, O'zbekistonda serfarzand oilalar ko'p. Shuni e'tiborga olib, ayollarimizning mehnatini, avlodlarimiz tarbiyasidagi ahamiyatini hech qachon unutmasligimiz kerak.

Agar qarz to'g'risida gap ketsa, avvalambor hammamizning ayollarimiz, onalarimiz, opalarimiz, singillarimiz oldida bo'lgan qarzimiz to'g'risida so'zlashimiz lozim. Lekin, ming afsuslar bo'lsinki, biz bu masalaga yetarli e'tibor bermayapmiz. Qishloq joylardan tortib to shaharlargacha uylarida o'tirgan ayollarni ish bilan ta'minlash, ularga mehnat daftarchalari ochish, nafaqa belgilash, yordam berish, kerakli imtiyoz va shart-sharoitlar yaratish zarur.

Xotin-qizlarni og'ir mehnatdan xoli qilish, ularga qisqartirilgan ish kuni belgilash, kundalik turmush uchun bekam-u ko'st madaniy-maishiy sharoitlar yaratib, bu boradagi kamchiliklarga tezroq barham berishimiz lozim.

Bu masala hammamizning birinchi galdagi vazifamiz bo'lishi kerak. Xuddi shu maqsadda yaqinda xotin-qizlar va oila masalalari bilan shug'ullanadigan respublika qo'mitasi tashkil qilindi. Bu tashkilotdan umidimiz katta. Lekin shuni ham aytib qo'yayki, bu qo'mitaga respublikamizdagi barcha tashkilotlar, xullas, hammamiz yordam berishimiz kerak.

Hurmatli qurultoy qatnashchilari!

Diqqatingizni yana bir marta inson omiliga qaratmoqchiman. Nimaiki ish qilayotgan bo'lsak, inson turmushini yaxshilash uchun qilinyapti. Odamlarimizning qorni to'q, usti but, kayfiyati yaxshi bo'lsa, ular boshini baland tutadi, qaddini rostlab yuradi. Katta-kichik barcha rahbarlar birinchi galda mana shu haqda bosh qotirishi kerak.

Respublikamizda kambag'al, nafaqa oluvchi va ko'p bolali oilalarning og'irini yengil qilish uchun talaygina ishlar amalga oshirilyapti.

Andijon viloyatida 8 ming kambag'al oila turli korxonalariga biriktirib qo'yilgan. Bu korxonalar doim ularning holidan xabar olib, yordam berib turadi. Namangan viloyatida esa beva-bechoralarga yordam berish fondi 600 ming so'mni tashkil qiladi. Bundan tashqari, har bir rayonning ham o'z fondi bor. Jizzax viloyatining Zomin rayonida xuddi shu maqsadda 50 ming so'm atrofida maxsus jamg'arma vujudga keltirilgan.

Biz mana shunday yangi insoniy tashabbuslarni, intilishlarni qo'llab-quvvatlaymiz, biz bu xayrli ishlarni keng yoyishimiz kerak.

Umuman olganda, islohotlarimizning negiziga chuqurroq nazar tashlasak, ular insonning turmush darajasini yaxshilashga, xalq farovonligini oshirishga yo'naltirilganini ko'ramiz. Ana shu oliy maqsadni ro'yobga chiqarish uchun ter to'kib ishlasak arziydi.

Inson – bizning eng katta boyligimizdir. Dehqon – yer yuzidagi barcha noz-ne'matlarni yaratuvchidir, tabiatga va zaminga go'zallik bag'ishlovchidir.

Zar qadrini zargar biladi, deganlaridek, yer qadrini dehqondan so'rang. Respublikamizda qadim zamonlarda ham dehqonchilik madaniyati g'oyat yuksak darajada bo'lgan. Yerning tilini biladigan, bir nazar tashlaganda uning holatini aytib beradigan mirishkor dehqonlarimiz bugungi kunda ham yuzlab, minglab topiladi.

Shu fursatdan foydalanib, men bugun ana shunday dehqonlarimizdan katta bir guruhini, halol mehnatlari uchun berilgan respublikamizning yuksak mukofotlari bilan chin ko'ngildan tabriklayman, ularga sihat-salomatlik tilayman.

Aziz dehqonlar!

Shunday qilib, dilimdagi hamma gaplarimni siz, aziz do'st-birodarlarga aytdim. So'zimning oxirida yana bir mulohazani sizlarga aytmoqchiman. U ham bo'lsa, do'st-birodar bo'lgan odamlardan judo bo'lib qolmaslikdir. El nazaridan, insonlar nazaridan qolmaslikdir.

Kimki hayotda qanday cho'qqiga chiqmasin, qaysi vazifani egallamasin, menimcha, eng katta sharaf va eng katta yutuq shu bilan o'lchanmaydi. Eng ulkan yutuq shundaki, bir paytlar kelib kishi hamma vazifa-

laridan ozod bo'lganida, keksayib qolganida, siz bilan uchrashgan, siz bilan yuzma-yuz ko'rishgan kishilar sizdan yuz o'girib ketmasin, balki sizga qo'l uzatib, hol-ahvol so'rasin. Mana shu boisdan xalqqa, el-yurtga har qancha xizmat qilsak, arziydi.

Aziz do'stlar!

Sizlarning chehrangizga qarab, mana shu katta minbardan turib minnatdorlik bildirishim, rahmat aytishim kerak. Sizlarning oliyjanobligingiz, chin inson bo'lganingiz, barakali mehnatingiz, sabr-bardoshingiz uchun, sizlarning O'zbekiston rahbariyatiga, shaxsan menga bildirgan ishonchingiz uchun tashakkur aytaman.

Ulug' ayyom — Navro'z bayramiga yetib kelganimiz, tabiat uyg'onayotgan ajoyib kunlarga sog'-salomat, tinch-xotirjamlik bilan yetishganimiz uchun shukronalar bildiraman.

Hammamiz ahil, bir jon-u bir tan bo'laylik! Hamkorlik, hamjihatlik, bir-birimizga mehr-muruvvat va mehr-oqibat oramizdan sira ko'tarilmasin.

Sizlarni ishontirib aytamanki, ulug' o'zbek xalqining qaddini albatta rostlab olamiz, ruhini ko'taramiz, g'ururini tiklab, oldimizga qo'yilgan maqsadga erishamiz, albatta.

Ana shu ezgu maqsad yo'lida aql-idrokimizni, butun kuch-quvvatimizni ayamaylik!

Har doim birga bo'laylik, aziz do'stlar!

*Respublika qishloq xo'jaligi xodimlari
qurultoyida so'zlangan nutq*

*«Xalq so'zi» gazetasi,
1991-yil 27-mart*

O'ZBEKISTON BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHIGA AMINMAN

Hurmatli deputat o'rtoqlar!

Keyingi sessiyadan buyon to'rt oy vaqt o'tdi. Bilasizki, biz juda tezkor va o'zgaruvchan zamonda yashayapmiz. Shuni hisobga olgan holda, men bugun mamlakatimiz, respublikamiz va har bir inson hayotida jiddiy rol o'ynagan eng so'nggi voqealarga o'z fikrim va munosabatimni bildirishim zarur, deb o'ylayman.

Menimcha, gapni xalqimizni tashvishga solayotgan, kundalik turmushimizda qiyinchilik tug'dirayotgan muammolardan boshlasak, ma'qul ish bo'ladi.

Bugungi ahvol hammangizga ayon. Men mavjud qiyinchiliklarni qisqacha sanab o'taman, xolos. Aholini zarur mollar bilan ta'minlash kundan kunga og'irlashib boryapti. Narx-navo ortgandan ortib, magazin peshtaxtalari bo'm-bo'shligicha qolmoqda. Millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi oqibatida janjallar kelib chiqmoqda. Xo'jalik aloqalari buzilgan. Jamoat tartibi izdan chiqqan. Buning natijasida oila va shaxs xavfsizligiga putur yetyapti.

Biz, rahbarlar va deputatlardan odamlar biz qayga borayotganimiz va qanday jamiyat qurayotganimiz haqidagi, oldinda yorug' kunlar bormi va agar bo'lsa, o'sha kunlar qachon kelishi to'g'risidagi savollarga javob berishimizni kutmoqda.

Bizni tashvishga solayotgan yana bir narsa — Ittifoq masalasi, ya'ni Ittifoq saqlanib qoladimi yoki tarqab ketadimi?

Biz O'zbekistonni mustaqil va suveren, deb e'lon qildik. Bu sohada qanday qadamlar qo'yilyapti?

Barcha savollarni bir joyga jamlasak, uni qisqa va lo'nda qilib quyidagicha ifoda etish mumkin: biz qachon bugungi xatarli va xarob turmushdan qutulamiz? Qachon tinch va osoyishta hayot kechira boshlaymiz?

Bu savollarga javob berishdan oldin bir narsani unutmashimiz kerak: xalqimizning bugungi siyosiy saviyasi, ongi va milliy g'ururi shunday ko'tarilganki, eski, quruq gaplar va tashviqotlar hozir hech qayerda o'tmaydi. Hayot o'rtaga qo'yayotgan hamma masalani shuni hisobga olib tahlil etish va ularga ana shu nuqtayi nazardan yondashishimiz kerak. Kim buni tushunmasa, xatoga yo'l qo'yadi.

Bugungi muammolarning barchasi va umumiy keskinlikning ortgani oxir-oqibatda narx-navoning ko'tarilishi masalasiga borib taqaladi.

Narx-navoning oshishi respublikaning tashabbusi bilan bo'lgani yo'q. Narx-navo faqat O'zbekistonda emas, balki butun mamlakat bo'ylab oshdi — shuni yaxshilab esda tutaylik.

Biz oldingi sessiyada bozor munosabatlariga o'tish uchun ovoz bergan edik. Narx-navoning oshishi — bozor munosabatiga o'tishdagi dastlabki qadamlardan biridir.

Mamlakat bozor iqtisodiyoti yo'lini tanladi. Biz o'tgan sessiyada bu yo'lga o'tishni muhokama etgan paytimizda bozor munosabatlari qiyinchiliklar keltirishini, shusiz ham kambag'al xalqimizni battar ezib qo'yishini aniq tasavvur etgan edik.

Ayni zamonda biz avvalgi sessiyada bozor iqtisodiyotiga o'tishga doir o'z shartlarimizni ham qo'ygan edik. O'zbekistonning o'ziga xos shart-sharoitlarini hisobga olishni talab qilgan edik.

Respublikamizning aholisi nochor kun kechiradi, uning naqd yarmi voyaga yetmagan va ota-onasining qo'liga qaragan norasida bolalardir. O'zbekistonda serfarzand oilalar juda ko'p va bizdagi oila daromadi Ittifoq darajasidan ikki marta kam, deb aytgan edik.

O'tgan sessiyada bizda aholi jon boshiga daromad eng past darajada deb, odamlarimiz go'sht, sut va hatto, ho'l mevani ham juda kam iste'mol qiladi deb, bizda kasalxonalar, maktablar yetishmaydi, bizning pensionerlarimiz oladigan nafaqa juda oz, bizda ishsiz yurgan odamlarning soni juda ko'p, deb ham aytgan edik.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida bularning hammasi hisobga olinishi kerak. Aks holda, narx-narvoning oshishi bizning nochor oilalarimizga kulfat keltiradi.

Masala Ittifoq miqyosida ko'rilgan paytda biz o'rtaga qo'ygan talablarning bir qismi inobatga olindi. Kompensatsiya miqdori oz bo'lsa-da, ortdi, bolalarga nafaqa to'lanadigan bo'ldi, kompensatsiya va nafaqa puli faqat ishlaydigan kishilarga emas, balki barcha aholiga to'lanmoqda.

Oxirgi gapga alohida e'tibor berishingizni so'rayman. Negaki, Ittifoq bo'yicha har bir ishlaydigan odamning qaramog'ida ikki kishi bo'lsa, O'zbekistonda har bir ishlovchiga 7 nafar boqimanda to'g'ri keladi.

Afsuski, bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari ishlab chiqilayotgan vaqtda bizning barcha istaklarimiz hisobga olinmadi.

Esingizda bo'lsa, bizga narx-navo ikki barobardan oshmaydi, deb va'da berishgan edi. Aslida-chi? Aslida, narx-navo 3—4 barobar oshib ketdi.

Mayli, yengil mashinalar, zeb-ziynat va oltin-kumushning bahosi oshsin — oddiy xalqqa buning ta'siri kam. Lekin bolalar kiyimi va oziq-ovqat mahsulotlari narxi keskin oshib ketdi. Bu esa birinchi navbatda yana ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga kuchli zarba bo'lib tushdi. Bunday oilalar esa O'zbekistonda, ayniqsa, ko'p.

O'zingizga ma'lumki, O'zbekiston xalq iste'moli mollari va oziq-ovqat mahsulotlarining yarmidan ko'pinin boshqa respublikalardan olib keladi. Mamlakatda bugun keng iste'mol mollarini, eng zarur ashyolarni ishlab chiqaradigan korxonalarining o'zi — xon, ko'lan-kasi — maydon. Ular bizga molini otasining narxini qo'yib sotishga harakat qilishadi.

Oldingi sessiyada o'tish davrining murakkabliklarini hisobga olib, non narxini oshirmaslikka qaror qilgan edik. Xalqimiz uchun, ayniqsa, qishloq ahli uchun bu chora ancha yengillik berdi. Lekin umumiy narxning oshib ketishini to'xtatish imkoni bo'lmadi.

Non narxini oshirmaganimiz to'g'ri bo'ldi, tanlagan yo'limiz, qabul qilgan qarorimiz to'g'ri ekanki, bizni O'rta Osiyo respublikalari qo'llab-quvvatladi.

Ikkinchi muhim bir masala — kompensatsiya to'lash masalasi. Ittifoq budjetidan uncha-muncha yordam talab qilib oldik. Bu yilgi yordam kamida 16 milliard so'mga yetadi. Lekin bu baribir kamlik qilyapti.

Narx-navoning keskin oshishiga qaraganda, avvalambor, qariyalar, bolalar, serfarzand oilalarning ahvolini hisobga olsak, mening fikrimcha, beriladigan kompensatsiya miqdorini ko'paytirish kerak. Ishchi-

larga, qariyalarga 60—65 so'm, bolalarga 40—80 so'm ozlik qiladi. Bu raqamlarni 1,5—2 marta ko'paytirsak, odamlarning talabini qondirishni oz bo'lsa-da, yaxshilashga yordam beradi.

Bu muammoni yechish uchun birinchi navbatda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kerak. Ammo korxonalarimizning, avvalo, qishloq xo'jaligi korxonalari, kolxoz-sovхозlarning ahvoli hozir moliyaviy jihatdan oqsab qolgan. Ular odamlarga kompensatsiya berish u yoqda tursin, yil oxirida o'z hisob-kitobini to'g'rilashi ham amrimahol. Shuning uchun biz ularning soliq va ajratmalar yukini yengillashtirishimiz kerak.

Odamlarimizga, ishchilarimizga munosib turmush sharoitini yaratib berish uchun har tomonlama imkoniyat va rezervlarni qidirish bilan birga ishlab chiqarishda tartib-intizom o'rnatishimiz, barcha ishga yaroqli kishilarni ish bilan ta'minlashimiz zarur.

Hozir odamlarimiz, siz rahbarlar bizga sharoit va imkon bering, peshana teti to'kib, unutilroq ishlab, ko'proq daromad topib, tirikchiligimizni o'tkazaylik, deb aytishyapti. Juda haqli talab.

Biz — rahbarlar, qayerda bo'lmaylik, ishchining, quruvchining, dehqonning ishini tegishli darajada tashkil qilib, moddiy-texnik ta'minotini yaxshilab, qulay vaziyat vujudga keltirib berishimiz kerak. Lekin shuni ochiq tan olaylik, bu talablarni to'liq bajarishga biz hali zaiflik qilyapmiz. Mamlakatda tartib-intizomning pasayib ketishi, boshqa regionlardagi tashkilotlarning aybi bilan bizdagi korxonalar faoliyatining izdan chiqishi, xo'jalik va iqtisodiy aloqalardagi tartibsizliklar — bularning hammasi ishni samarali tashkil qilishda katta to'siq bo'lib turibdi.

Yana bir masala shuki, hozir ishsiz yurganlarga beriladigan nafaqa ham yetarli emas. Buni ham biz yaxshi tushunamiz. Qariyalarimiz, bolalarimiz, nogironlarimizning ta'minoti, ularga zarur bo'lgan imtiyozlar haqida gap ketganda, tibbiy yordamning yaxshi emasligi, dori-darmonlarning tanqisligi bizni, ayniqsa, tashvishga solyapti.

Ko'pchilik qatori faqat oylikka qarab yashayotgan o'qituvchilar, vrachlar, davlat korxonalarida ishlayotganlarning ahvoli keskinlashayotgani tezlik bilan tegishli choralar ko'rishni talab qilyapti.

Oziq-ovqat mahsulotlarini aholiga o'z vaqtida va yetarli darajada yetkazib berish uchun talon sistemasini joriy qilishga majbur bo'ldik. Bundan asosiy maqsad — xalq ta'minotini uzluksiz va adolatli olib borish, ta'minotni respublika miqyosida nazorat qilib turishdir.

Savdo sohasidagi nopok kishilar to'g'risida alohida gap bo'lishi kerak. Ularning nayranglari haqida xalq g'azab bilan gapirmoqda. Kimda-kim xalq ta'minotida nopok yo'lga qadam qo'ysa, ularga shafqat yo'q. Shuni hamma joyda ochiq-oydin aytib qo'yaylik: xalq rizqiga ko'z olaytirib, boylik orttirish niyatida bo'lgan kishilarni ayab o'tirmaymiz.

Bu borada deputatlarimiz o'z nufuzidan foydalanib, adolat o'rnatishsa, ibratli ish bo'lardi.

O'zbekistonda boshqa regionlardagiga nisbatan kun kechirish biroz yengil ekani bizni xotirjamlikka solmasligi kerak.

Xalqimizga «butun mamlakatda ahvol shunday og'ir» deyishdan zarracha naf yo'q. O'z g'amimizni o'zimiz yemasak bo'lmaydi. Kelajagimiz yaxshi bo'lishi uchun yakdil bo'lib birgalikda ishlashimiz lozim. Bu kuch-g'ayratimizning qanday tez va qanchalik ijobiy

natija berishi – respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bog'liq.

Xo'sh, respublikada hozir ijtimoiy-siyosiy vaziyat qanday?

Mamlakat miqyosida bo'layotgan barcha hodisalar O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, albatta. Lekin, shunga qaramay, respublikamizda ahvol birmuncha osoyishta bo'lib turibdi. Shunisiga shukr qilishimiz kerak.

Biroq mamlakatdagi og'ir vaziyatni battar murakkablashtirib, oxir-oqibatda o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishmoqchi bo'lgan kuchlar bizda ham yo'q emas. Ular mavjud qiyinchiliklardan foydalanib, odamlarni qo'zg'atishga, millatlar va xalqlar orasiga nifoq solishga urinmoqda. Odamlarni qo'zg'atish uchun esa juda katta aql bo'lishi shart emas. Mamlakatdagi vaziyat juda jiddiy. Biror yovuz niyatli odam gugurt chaqsa, ho'l-u quruq barobar yonishi aniq. Biz ana shundan ehtiyot bo'lishimiz kerak.

Ur-yiqit, uy-joylarga o't qo'yish, kishilarni qo'poruvchilik ishlariga undash – g'alamislarning ishi. Vaziyat qanchalik keskinlashsa, ularga shunchalik ma'qul. Ularning maqsadi aniq – soxta dohiylik minbariga chiqish, go'yo xalq himoyachisi bo'lib ko'rinish. Ular tinch sharoitda o'zlarini ko'rsatolmaydi. Ularga, albatta, ur-yiqit, to's-to'polon kerak. Ana shunday odamlarga, shunday dohiylarga mana bunday savolimiz bor: xo'sh, odamlar qo'zg'alib ko'chaga chiqsa, tinchligini yo'qotsa, bir-biri bilan jiqqamusht bo'lsa, bundan xalqimiz nima yutadi va nimaga erishadi? Bu onalarimiz va ayollarimizga, keksalarimiz va bola-chaqalarimizga, hammaga aziyat va g'am-tashvishdan boshqa hech narsa keltirmaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda o'zlarini «xalq himoyachilari» deb e'lon qilgan bir toifa kimsalar kuni kechagina bizni bozor iqtisodiyotiga o'tishda boshqa regionlardan orqada qolyapsizlar, deb tanqid qilishgan edi. Ularning orasida «demokratiya O'zbekistonga kirolmay, ostonada qolib ketdi», deb noliganlari ham bor edi.

Biz, albatta, o'z imkoniyatimizni va o'z sharoitimizni hisobga olib, bozor iqtisodiyotiga o'tishga qaror qildik. Turgan gapki, bozor munosabatlariga o'tish turmush darajasining pasayishi va narx-navo oshishidan boshlanadi — busiz hozircha mumkin emas.

Mana endi narx-navo oshishi bilan «xalq himoyachilari» plastinkani darrov teskari ag'darib, «nega narx-navo oshadi, axir, xalq xonavayron bo'ladi-ku!» deb baqirishga o'tdi.

O'zbekistonda demokratiya yo'q, O'zbekiston — konservatorlar makoni, deb jar soluvchilarga bitta maslahatimiz bor. Sizlar ham sal-pal mard bo'lib, erkakchasiga bel bog'lab, hozirgi og'ir va keskin vaziyatda baqiriq-chaqiriq qilmay, odamlarning hayotini yengillashtirish, ularga amaliy yordam berishga bir harakat qilib ko'ring, baraka topkurlar! Chetdan turib hamma narsani qoralash — bu nomardning ishi.

Kelinglar, kalondimog'likni, tushunmovchiliklarni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, oramizdagi maydakashlikka chek qo'yaylik. Xalqimizning taqdirini o'ylab, hozir boshimizga tushgan katta savdolarni, tabiiy ofatlarni tez kunlarda bartaraf etish uchun yelkadosh bo'laylik. Bizga boshqa narsa kerak emas. Xalq bizdan shuni kutyapti.

Respublikamizda qanday qiyinchiliklar bo'lmasin, muammolarni yechish uchun ancha-muncha ishlar

qilinyapti. Shunga tan berib, to'g'ri baholash kerak. Shu jumladan: non narxini o'z holidi qoldirish; yosh oilalarga yordam puli berish; studentlar va o'quvchi yoshlarning ovqatini arzonlashtirish; maktab formasi va bolalar poyafzalini arzonlashtirish uchun respublika budjetidan mablag' izlab topildi. O'zbekistonda yashab turgan kishilar yana ko'pgina xayrli ishlar qilganini yaxshi bilishadi. Ular bu ishlarning samarasini kundalik turmushida yaqqol his etmoqda.

Ittifoqda chiqayotgan ba'zi bir gazetalar respublikada qilinayotgan ijobiy ishlarni ko'rolmasdan, har xil bo'hton gaplarni tarqatishga urinyapti.

Xo'sh, ularning da'volari nimalardan iborat?

Emishki, go'yo Prezident Karimov «paxta ishi» bo'yicha qamalgan kishilarni g'ayriqonuniy tarzda turmadan chiqarib yuborayotgan emish. Go'yo u nochor pensionerlarga to'layotgan yordam puli noqonuniy emish. Go'yo u noqonuniy tarzda tomorqa bergan emish, go'yo u odamlarning shaxsiy chorvasiga noqonuniy tarzda yem-xashak berayotgan emish. Umuman olganda, Prezident Karimov bu qoloq va kambag'al respublikada qayerdan pul topadi?

Bizning ularga beradigan javobimiz shu: O'zbekiston — mustaqil respublika, uning o'zi tanlagan yo'li bor. Biz kishilarimizning turmushini yengillatish uchun barcha choralarni ishga solamiz.

Tashabbus — bizdan chiqyapti, ishni xalqimiz qilyapti, o'rtoqlar. Xalqimiz o'z peshana teri bilan, o'z mehnatkash qo'li bilan qilyapti bu ishlarni. Bu ishlarni ko'rmaslik — ko'rlikdir.

Sabr-toqati, mardligi va matonati uchun xalqimizning qarshisida tiz cho'ksak arziydi. Xalqimizning sha'ni va or-nomusini himoya qilish uchun, uning shuhratini

tiklash uchun, uning an'analarini himoya etish uchun hech narsani ayamaymiz. Yo'limizdan qaytmaymiz. Chunki biz o'zining deputatlari etib saylab, bizga o'z vakolatini topshirgan xalqimizning irodasini bajarmoqdamiz.

Endi eng dolzarb iqtisodiy vazifalar haqida gaplashib olaylik. Biz bugungi og'ir ahvoldan qutulish uchun qanday ishlarni amalga oshirishimiz lozim?

Biz, avvalo, odamlarning normal turmushini tashkil etishimiz, ularning samarali ishlashi uchun sharoit yaratib berishimiz, ularning xavfsizligini ta'minlashimiz, ularning qadr-qimmatini himoya qilishimiz, har bir shahar, qishloq va har bir xonadonda osoyishtalikni qaror toptirishimiz zarur. Korxonalar va qurilishlarning moddiy-texnik ta'minotini normallashtirishimiz, ularning bir me'yorda ishlashi uchun zarur bo'lgan hamma choralarni ko'rishimiz lozim.

Shaxsiy tomorqadan unumli foydalanish kerak. Shundagina bozordagi narx-navo pastga tushadi. Ba'zi joylarda bir sotix yerdan 3 ming so'mgacha daromad olayotgan bo'lishsa, boshqa joylarda bunday daromad 300 so'mga ham yetmaydi. Ekinsiz qaqrab yotgan tomorqalarimiz ham bor. Bunga chek qo'yish kerak.

Jamoa xo'jaliklari eski, qotib qolgan ish uslubini tutib, faqat paxtadan daromad olish bilan cheklanib qolmasin. Daromadning boshqa manbalaridan ham unumli foydalanish darkor. Ayrim rahbarlar tadbirkorlik qilib, jamoa xo'jaliklarida kichik-kichik korxonalar ochishmoqda. Gilam to'qish, g'isht sexlarini tashkil qilishmoqda. *Shunday rahbarlarga ofarin deymiz. Hozir buyruq kutib o'tiradigan payt emas. Mustaqil harakat qilmoq kerak.*

Bu yil ko'klam fasli og'ir keldi. Respublikamiz tabiiy ofatdan katta zarar ko'rdi. Shuncha azobdan keyin dehqonlarimiz peshana teri bilan yetishtirayotgan hosilni sotishga befarq qaray olmaymiz. Ma'lumki, ilgari-lari mahsulotimizni SSSRning markaziy shaharlariga juda arzon, arzimagan bahoga sotardik. Endi bu tartibni qayta ko'rib chiqishimiz kerak.

Moskva va Leningrad bilan shartnoma imzoladik. Shunga ko'ra, mahsulotlarimiz evaziga ular bizga go'sht, texnika, asbob-uskunalar yetkazib beradi. Pul qadr-sizlangan hozirgi sharoitda bu juda oqilona yo'ldir. Biroq O'zbekistonni oziq-ovqat, go'sht va sut mahsulotlari va ayrim materiallar bilan ta'minlashda bundan boshqa real yo'limiz yo'q. Barcha jamoa xo'jaliklari yetishtirgan hosilning 60 foizini davlatga sotganidan keyin qolgan qismini o'zi sotishi lozim. Shaxsiy xo'jaliklar esa bundan butunlay erkin, 100 foiz mahsulotni o'z xohishiga ko'ra sotaveradi.

Yaqinda shaxsiy xo'jaliklar uyushmasi tuzildi, unga yordam tariqasida 1 milliard so'm pul ajratildi. Mahsulotni qayta ishlash tufayli dehqonlarga qo'shimcha daromadlar olish imkoniyati tug'iladi. Bizning tavsiyamiz shuki, pala-partish, arzon-garovga sotgandan ko'ra, shu uyushma orqali yaxshi baholarga sotish juda ma'qul.

Qishloqlardagi jamoa xo'jaliklarini ayrim soliqlardan ozod qilishimiz lozim. Bu — murakkab masala. Ammo bunga yo'l topishimiz kerak. Bu xo'jaliklarga qo'shimcha madad beradi.

Kelinglar, har bir mehnat jamoasida unumli ishlab, ishni yaxshi yo'lga qo'yib, daromadni ko'paytiraylik. Bu esa ishlayotganlarga to'lanayotgan kompensatsiyani oshirish, ya'ni to'lov pulini hozirgidek 60 so'm emas, balki 100 so'mga yetkazish imkonini beradi.

Tibbiyot xodimlari, o'qituvchilar, pensionyerlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi masala Prezidentning alohida nazoratida bo'lishi kerak, deb hisoblayman. Bizning sharoitda bu eng murakkab masalalardan biridir, chunki bu toifa faqat davlat budjetidan beriladigan ish haqi va to'lovlar hisobiga yashaydi. Shunga qaramasdan, ularni ijtimoiy jihatdan himoyalash zarur. Shuning uchun budjetdan topilgan har bir so'm pul ularga atalishi kerak.

Odamlarning qo'lida pul bo'lishi bilan birga, xarid qiladigan tovar ham bo'lishi kerak. Bu, avvalo, qishloq joylarda eng zarur. Bundan 10–15 turdagi tovarlar doimo sotuvda bo'lishi lozim.

Chet ellardan, ayniqsa, zarur oziq-ovqatlar, bolalar kiyim-kechaklarini sotib olishga alohida e'tibor berishimiz lozim. Bir necha kundan keyin Toshkent shahrida ishbilarmonlar uchrashuvi ish boshlaydi. Unga 50 ta mamlakatdan 500 nafardan ortiq ishtirokchi kelishi kutilmoqda. Bu tadbir chet el savdo-sanoat doiralari bilan hamkorlik borasida kelgusidagi katta ishlarimizning debochasi bo'lishini istardik.

Jinoyatchilikka qarshi kurashni yanada kuchaytirishimiz, tartib-intizomni hamma joyda tag'in ham mustahkamlashimiz kerak. Xalq boshiga tushgan bugungi qiyinchiliklardan o'ziga boylik qidiradigan nopok odamlarning tanobini tortib qo'yishimiz darkor.

Respublikamizda shu yil may-iyun oylarida bo'lib o'tgan tabiiy ofat oqibatlarini tugatish to'g'risida bir necha og'iz so'z. Yetkazilgan umumiy ziyon 500 million so'mdan ko'proq, deb hisoblanmoqda. Biroq boshpanasiz qolgan kishilarning ko'rgan talafotlari, chekkan azob-uqubatlarini, kunni tunga ulab, dalalardagi hosilni qutqargan, falokatdan jabrlanganlarga

yordam bergan kishilarning fidokorona mehnati va qahramonligini (bu yerda shu so'zlar juda o'rinli, deb o'ylayman) hech nima bilan o'lchab bo'lmaydi. Ushbu minbardan turib shuni aytish uchun to'la asos borki, zarar ko'rgan shaxsiy xo'jaliklarga va xususiy kishilarga kompensatsiya to'la-to'kis va kechiktirmay to'lanadi.

Eng dolzarb masalalardan yana biri — Ittifoq taqdiri masalasi. «Suveren davlatlar ittifoqi to'g'risida»gi shartnomaning loyihasi ham sessiya kun tartibida borligi bejiz emas, albatta. Bu masalani hal qilishda O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligi haqidagi o'zimiz yakdillik bilan qabul qilgan deklaratsiyamiz asos bo'lishi kerak. Mustaqillik haqida deklaratsiya qabul qilgan ekanmiz, unga to'la va og'ishmay amal qilishimiz shart.

Deputat o'rtoqlar!

Hammamiz haqiqatning ko'ziga tik qarashimiz kerak. Hali juda katta sinovlar oldimizda turibdi. Bu sinovlar qancha davom etishini hozir aniq aytish qiyin. Ana shu sinovlardan xalqimiz, bizlarga ishongan fuqarolarning burnini qonatmasdan, talafotlarga yo'l qo'ymasdan, kelajakdagi porloq hayot uchun zamin tayyorlab o'tsak, yaxshi bo'ladi. Shundagina zimmasidagi burchni bajargan, odamlarning ishonchini oqlagan bo'lur edik. Eski kayfiyatda yurganlar qarshilik ko'rsatib, osonlikcha yo'l bermaydi. Biroq tanlangan yo'l O'zbekistonni yangilangan Ittifoqda mustahkam siyosiy va iqtisodiy mavqega ega bo'lishiga olib kelishi lozim. **Respublikamizning hamma boyligi — yer ostidagisi ham, yer ustidagisi ham xalqimizning, O'zbekistonda yashayotgan barcha insonlarning farovonligiga xizmat qilishi kerak.**

Chet ellar bilan o'zimiz bevosita aloqada bo'lamiz, munosabatlar o'rnatamiz.

O'zbekiston kelajakda teng huquqli va suveren davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'ladigan kun kelishiga aminman. Bu – bizning qonuniy huquqimizdir, bu – xalqaro qonunlarga asoslangan davr talabidir, jafokash o'zbek xalqining, respublikamizda yashovchi barcha erksevar fuqarolarning istagidir.

O'zbekiston suveren davlatlar ittifoqiga teng huquqli davlat sifatida kirishi mumkin. Bundan boshqa yo'l yo'q. Bundan boshqa yo'lni xalqimiz rad etadi.

Hurmatli xalq deputatlari!

Oldimizda xalqimizning turmushini yengillash-tirishga, iqtisodiyotimizni og'ir tanglik holatidan olib chiqishga xizmat qiladigan muhim hujjat va qarorlarni ishlab chiqishdek katta mehnat talab qiladigan jiddiy ishlar turibdi. Biz amalga oshirmoqchi bo'layotgan barcha ishlarning muvaffaqiyati O'zbekistondagi siyosiy barqarorlikka, milliy va fuqarolararo totuvlikka, jamiyatdagi barcha sog'lom kuchlarning jipslashuviga bog'liq. Kelinglar, o'zaro gina-kuduratlardan, o'tkinchi ehtiroslar va siyosiy manmanlikdan voz kechib, bir yoqadan bosh chiqaraylik, ahillik bilan amaliy ishlarni bajarishga kirishaylik. Bu yo'lda bizga omad yor bo'lsin.

Hammingizga muvaffaqiyat tilayman!

*O'zbekiston SSR Oliy Kengashining
beshinchi sessiyasida so'zlangan nutq*

1991-yil 12-iyun

DEMOKRATIYA – QONUNGA VA SHAXSGA HURMAT DEMAKDIR

**«Rabochaya tribuna» gazetasi muxbiri
savollariga javoblar**

Islom Karimovning shaxsiyatiga nisbatan u o'tkazayotgan siyosatni butunlay qabul qilmaslikdan tortib, uning nomi bilan bevosita bog'liq yangiliklarni hayratlanib olqishlashgacha – g'oyat xilma-xil fikrlar bildirilmoqda. Ma'lumotiga ko'ra iqtisodchi, tarbiyasi jihatidan «zavodda suyagi qotgan», e'tiqodiga ko'ra, baynalmilalchi bo'lgan O'zbekiston SSR Prezidenti o'z safdoshlari bilan birgalikda respublika uchun Ittifoq doirasida u erishish mumkin deb bilayotgan farovonlik yo'lini barpo etmoqda.

Boshqalar asriy aloqalarni namoyishkorona va butunlay uzgan bir paytda Karimov birinchi bo'lib yangi Ittifoq shartnomasini tayyorlashda Markaz sustkashlikka yo'l qo'yayotganini baralla aytdi. U o'zi rahbar bo'lgunga qadar o't olgan Farg'ona mojarosiga barham berishga, O'sh fojiasida murosaga kelish yo'lini qidirib topishga, millatlararo boshqa mojarolar manbalarini cheklashga erishdi.

M.S. Gorbachyov bilan uchrashuvlardan tortib eng olis qishloqlardagi tez-tez bo'lib turadigan subhatlar-gacha – barcha darajalarda o'z mavqeyini qattiq turib himoya qiladigan insonning tabiati hammaga ham

ma'qul bo'lavermaydi. O'zbekiston Prezidentining odamlar va respublika manfaatini uzviy bog'lashga, umuman, jamiyatning ma'naviy negizlarini saqlab qolishga hamda iqtisodiyot va siyosatda boshboshdoqlikka yo'l qo'ymaslikka qaratilgan yo'lini tushunmaslik sababli yoki qasddan bu yo'lni totalitar tuzumni va bir partiyali hokimiyatni saqlab qolishga intilish, deb ko'rsatishga urinmoqdalar.

Bu ish dalil-isbotlarsiz, nihoyatda jo'n tarzda amalga oshirilmoqda. Oqni – qora, qorani – oq deyishgacha borilmoqda. Yaqinda «Megapolis-ekspres» haftanomasida «Islom Karimovning o'zbeklar ishi» deb atalgan ko'p ma'noli sarlavha ostida bosilgan maqola aslida ana shunday «siyosiy portret»ning qora bo'yoqdagi tasviri namunasidir. Maqolada O'zbekiston Prezidentining respublika aholisini, eng kambag'al tabaqalar va ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan farmonlari ham «hukmronlik tafakkuri»ning nishonalari deb ko'rsatiladi.

– Ushbu maqola e'lon qilinishining o'zi ana shunday fikrlash namunasi emasmi, axir, – deydi suhbatdoshim. – Xorijiy davlatlarning boshliqlari sha'niga biron nojoiz gap aytish mumkin bo'lmagan holda, nima uchundir ittifoqdosh respublikalarning rahbarlari sha'niga osongina tosh otishga yo'l qo'yilmoqda. Kimdir xohlasa, obro'yini to'kadi, xohlasa – yelkasiga qoqib qo'yadi.

– **Nima uchun siz tuhmatdan himoya qiladigan qonunga murojaat etmaysiz?**

– Qayda deysiz, mijg'ov gaplarga o'ralashishning nima keragi bor, ishimiz boshdan oshib yotibdi. Juda katta tabiiy boyliklar, bitmas-tuganmas mehnat resurslariga ega bo'lgan yurtimiz eng kambag'al respublikalar

qatorida turibdi. Respublikani mamlakatning «paxta sexi»ga, amalda esa xomashyo manbayiga aylantirish g'oyasi amalga oshirilishi natijasida og'ir ahvolga tushib qolganmiz. Endi bu ahvolni tuzatish kerak. Kichik-kichik va o'rtacha korxonalar, xorijiy texnologiyalar, barcha shakldagi mulkchilikning tengligi, imtiyozli tarzda soliq solinadigan qo'shma korxonalar, ilm-fan yutuqlarini talab etadigan ishlab chiqarish korxonalari, chet ellarda ko'plab kadrlar tayyorlash, xorijiy investitsiyalar uchun keng yo'l ochib berish, Ittifoq ichkarisidagi aloqalarni va umumiy iqtisodiy makonni saqlab qolish to'g'risida o'ylayapmiz, xullas, biz g'oyat tig'iz muddatga mo'ljalangan harakat dasturiga egamiz.

Biroq jamiyat duchor bo'lgan ma'naviy buhronni ham bartaraf etish, xalqning kayfiyatini, vatanparvarlik ruhini ko'tarish, uning o'z kuchiga bo'lgan ishonchini oshirishda yordam berish kerak. Busiz bizning barcha rejalarimiz barbod bo'ladi.

– Ammo siyosiy muxoliflaringiz sizga aksincha ta'na qilmoqda, sizni o'z xalqiga erkinlik berishni xohlamayotgan hukmdor sifatida ko'rsatishmoqda.

– Men faqat bir narsani – xalqlarning boshiga azob-uqubat keltiradigan va qon to'kilishiga sabab bo'ladigan boshboshdoqlik, hokimiyatsizlik va adovat bo'lishini istamayman. Demokratiyani hamma narsani qilish mumkin deb, o'zboshimchalik bilan talqin etish ana shunga olib keladi. Men demokratik jamiyatni, eng avvalo, qonunga quloq solish deb bilaman. Shaxsning haq-huquqlarining buzilishiga yo'l qo'yib bo'lmasligini belgilab beradigan yozilmagan qonunlar, ma'naviy qoidalar to'plami zarur. Ya'ni, odam jamiyatdagi mezonlar doirasida o'ziga erkinlik va cheklashlar darajasini belgilab oladi.

Bu — rivojlanib boruvchi uzluksiz jarayondir. Odam gap bilan demokrat bo'lib qolmaydi. Totalitar tarbiya bilan izdan chiqqan ongimiz u yoki bu tomonning haqligini isbotlash shakli sifatida kuch ishlatishni hali uzoq vaqt ma'qullab turadi. 1985-yilning aprelidan boshlab biz hammamiz demokratlar bo'lib qoldik, deb o'ylash soddadillikdir. Hokimiyat uchun kurash oshkora tus olgani ayon. Bu kurashda har bir kishi demokratiyani ham, uning pirovard maqsadlarini ham qanday tushunayotganini namoyon etadi. Men demokratiyani barcha sog'lom kuchlarning hamkorligiga tayanib, xalqni jipslashtirish, uning bunyodkorlik kuch-g'ayratini ro'yobga chiqarish, respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy tang ahvoldan olib chiqish, deb tushunaman.

— Lekin sizning muxoliflaringiz ham xuddi shunday maqsadlarni e'lon qilishmoqda-ku?

— Ana shu maqsadlarga erishish usullari va vositalari-chi? O'tmish ayovsiz tanqid qilinmoqda va ularning kelgusiga mo'ljallangan rejalari chalkashdir. *Ammo qachongacha salbiy munosabat bildirish, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni qidirish mumkin.* Bunday usul bilan bunyodkorlikni emas, balki vayrongarchilikni, hamkorlik yo'llarini izlashni emas, balki yaqin kishilarga nisbatan qahr-g'azab to'lqinini osongina yuzaga keltirish mumkin. To'g'ri, paxta yakkahokimligi qaror topdi, Orol quriy boshladi, atrof-muhit zaharlandi, xalq e'tiqodi va an'analari ta'qib etildi, feodalizmdan sotsializmga «sakrab» o'tilgani targ'ib etildi.

Biroq endi o'tmish xatolaridan to'g'ri xulosa chiqarib, ularni takrorlashdan ehtiyot bo'lib, ahvolni tuzatishga kirishaylik. Xalq ishonchining ham chegarasi bor, vaqtimiz g'oyat ziq. To'g'risini aytsam, mehnat jamoa-

larida va ko'chalarda odamlarga yaqin vaqt ichida ahvolning yaxshilanishini kutmaslik kerak, deb aytish men uchun juda og'irdir. Men arzon-garov shuhrat orttirmoqchi emasman. El ishonchiga tayanib, Prezident sifatida xalq bilan oshkora gaplashishim shart.

Vaziyat og'ir. Biroq agar biz paxta maydonlarini keskin qisqartirish hamda bo'shagan yuz minglab gektar yerlarni dehqonlarga va shaharliklarga foydalanish uchun bo'lib berish yo'lidan bormaganimizda, ahvol yanada qiyinroq bo'lur edi. Ehtimol, bugungi kunda biz boshqacharoq ochlikni va bir emas, bir necha Farg'ona fojialarini boshdan kechirgan bo'lur edik. Biz markaziy va mahalliy hokimiyat tuzilmalarining qarshiligini yengib o'tib, ana shunday ishlarni amalga oshirdik.

Turli partiya va harakatlarning vakillari bo'lgan va bizni tanqid qilayotganlarga bizga yordam bering, joylardagi rasmiyatchi to'ralar, poraxo'r va dangasalar ishni barbod etmasligi uchun chinakam xalq nazoratini yo'lga qo'ying, dedik.

– **Rozi bo'lishdimi?**

– Yo'q. Siz ishlayvering, biz esa sizning xatolaringizni ko'rsatib boramiz, deyishdi. Nahotki, demokratiya deganlari shu bo'lsa?!

Narx-navo misli ko'rilmagan darajada oshirilganidan keyin (Ittifoq hukumatining aybi bilan shu darajada oshirildi, deb hisoblayman), Toshkentdan yuzlab kilometr naridagi Yakkabog'da g'alayonlar bo'lib o'tdi. Yana muxoliflarimiz yordamida chet el «Ozodlik» radiostansiyasi orqali qishloq aholisidan olti kishining qoni to'kildi, u yerga alohida vazifalarni bajaruvchi militsiya otryadi qismlari olib kirildi, degan gaplar tarqatildi. Shunisi hayratlanarliki, bu xabar haqiqiy

voqealar boshlanishidan ikki kun oldin berildi. Efir orqali tarqalgan gaplar haqiqatga mos tushmas edi. Yakkabog'dek olis joyda nima uchundir Toshkentdan kelib qolgan «xalq himoyachilari»ning butun bir guruhi ish olib bordi. Ular nari borsa bozor rastalarini ostin-ustun qilgan mahalliy sayoqlar to'dasini ko'paytirishga muvaffaq bo'lishdi.

Bunday xatti-harakatlarni xalq irodasining ifodasi, ya'ni demokratiyaning namoyon bo'lishi deb hisoblash mumkinmi? Rasmiy ma'murlar nima qilishlari: ehtiroslar avj oldirilishiga yo'l qo'yib berishlari kerakmi yoki tartibsizlikning payini qirqishlari kerakmi? Agar jamiyatda intizom va huquq-tartibotni saqlash yakkahokimlik deb atalsa, nima ham derdik, men bu borada izchil «yakka hokim» bo'laman.

– Bir partiyali sistemaga sodiq bo'lganlar sizni respublikani boshqa partiyalar yashay olmaydigan «kommunistik qo'riqxonaga» aylantirishda ham ayb-lashmoqda.

– Bir partiyali sistema juda qaltis bo'lib, unda nazoratsiz hokimiyat nopok qo'llarga o'tib qolishi mumkin, holbuki, biz o'z tariximizda bunday hollarni bir necha bor boshdan kechirdik. Bunday sistema osongina totalitarizmga, xalqni va partiyaning oddiy a'zolarini laqillatishga olib keladi. Shuning uchun men mam-lakat Konstitutsiyasining 6 va 7-moddalari bekor qilini-shini to'la-to'kis qo'llab-quvvatlayman.

Lekin G'arbdagi rivojlangan demokratiyalarga bir nazar tashlang — har bir davlatda darg'alik qila oladigan qancha partiya bor? Barmoq bilan sanarli! Bu — to'g'ridir, chunki partiyalar muayyan sinf va tabaqalarning manfaatlarini ifoda etadi, ular orasidan yangi-yangi a'zolari safarbar qiladi.

O'zbekiston Kompartiyasi o'zining bultur bo'lib o'tgan XXII syezdida respublikani ijtimoiy-iqtisodiy yangilash, aholini bozor mushkulotlaridan himoya qilish, O'zbekistonda yashovchi xalqlarning do'stligini mustahkamlash dasturini olg'a surdi va u yakdillik bilan qo'llab-quvvatlandi.

Biz Respublika jamoat tashkilotlari to'g'risidagi qonunni qabul qildik. Shunga muvofiq, muayyan partiyaning ro'yxatga olinishi uchun bor-yo'g'i 3 ming a'zosi bo'lsa kifoya. Lekin negadir hozircha arizalar tushmayapti. Xalq kim bilan ekaniga endi o'zingiz baho bering. To'g'ri, Farg'ona voqealaridan keyin Kompartiyaning obro'-e'tibori juda tushib ketdi, chunki vaziyat shu qadar keskin ediki, respublikaning har qanday burchagida Farg'onadagidek alanga avj olib ketishi mumkin edi. O'zbekiston Kompartiyasining o'sha paytdagi rahbarlari esa bilmasdan ag'darib yuborilgan bir tog'orachadagi qulupnay to'g'risidagi safsata bilan xalqni tinchlantirmoqchi bo'lishdi.

Biz o'shanda kabinetlardan odamlar huzuriga chiqdik, ular bilan ichki qo'shinlarning, miltiqlar va qalqonlarning orqasida turib emas, balki bevosita so'zlashishni o'rgandik.

O'sha paytda ko'pchilik shiorlardagidek silliq emas, balki qiyinchiliklar bilan shuni anglab yetishdiki, agar sen partiya a'zosi bo'lsang, mushtarak manfaatlar bilan yasha, ishda boshqalarga qaraganda ko'proq g'ayrat ko'rsat. Qo'lingdan kelmaydimi, tinch bir joyni top, hisobchi bo'l, tong saharlari bemalol baliq tutib yuraver: faqat xalqning ishonchi bilan o'ynashma, uning his-tuyg'ulari bilan chayqovchilik qilma.

– **Darvoqe, his-tuyg'ular to'g'risida. Gap-so'zlariga, mish-mishlarga qaraganda, Siz Sh. Rashidovga nis-**

batan alohida ixlos bilan qarar emishsiz, uning rahbarlik uslubiga amal qilishga urinayotgan emishsiz. Hatto, «yangirashidovchilik» iborasi paydo bo'ldi.

– Bo'lmag'ur gaplar, mening nazaramda, bular siyosiy bahsda haqiqiy dalillarning yo'qligi tufayli paydo bo'ldi. Norasmiy harakatlardagi va boshqa ba'zi oqimlardagi muxoliflarimiz xalqni o'tmishga qaytish bilan cho'chitishni istardi. Ammo tarixan bu mumkin emas. *Rashidov — o'z davrining farzandi.*

Respublika Kompartiyasining XXII syezdida uning O'zbekiston tarixidagi roli va o'rni to'g'risida shunday qat'iy bir fikr bildirilgan: «Biz Rashidov nomi bilan bog'liq barcha salbiy ishlarni qoralaymiz. Bunday ishlar biz uchun nomaqbuldir. Biz o'tmish illatlaridan poklanishimiz kerak, shunday qilmasak, olg'a harakat qila olmaymiz. Shu bilan birga, biz o'sha davrda sodir bo'lgan hamma narsalarni hayotdan ko'z yumgan bitta shaxs bilan bog'lay olmaymiz».

Talabchanlik, qattiqqo'llik, ishni bajarish topshirilgan kishidan talab qilish esa har bir rahbarning eng asosiy fazilati, deb hisoblayman.

– Atrofdagilar bilan muloqotda haddan oshirib yuborish, o'zingizni tutolmay qoladigan hollar bo'ladimi? Umuman, o'z-o'zini tanqid sizning harakatlaringizda qanday o'rin tutadi? Xatolaringizni tan olib, keyinchalik ularni tuzatasizmi?

– O'zimni o'zim nazorat qilib, tashqaridan o'zimga nazar tashlash tuyg'usiga egaman va bu narsa o'ylamay-netmay, shoshma-shosharlik bilan qilinadigan harakatlardan saqlaydi. Qiziqqonlik qilib, o'zimni tuta olmay qolishim ham mumkin. Keyinchalik, ehtimol, bu haqda men keskin gapirib qo'ygan kishiga qaraganda ancha ko'proq afsuslanib yuraman. Har bir

kunning oxirida voqealar va xatti-harakatlarni xayoldan o'tkazaman. Nohaq bo'lsam, uzr so'rayman.

Har bir kishida bo'lgani kabi xatolar bo'lib turadi. Misolmi? Biz yangi narxlarga o'tish chog'ida respublikamizda un, makaron va non-bulka mahsulotlarining narxlarini avvalgidek qoldirdik. Ko'p bolali oilalarni qo'llab-quvvatlashni istadik. Respublikamizda bunday oilalar ko'p va shunday mahsulotlar ularning asosiy oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi. Muvozanatni saqlash uchun go'sht va yog' narxini Ittifoqdagidan yuqoriroq ko'tardik, ya'ni ularning tannarxi darajasiga yetkazib, har kilogramm go'shtni 10 so'm va sariyog'ning kilogrammini 16 so'm qilib belgiladik.

Iqtisodiy jihatdan bunday chora to'g'ri. Qolaversa, biz boshqa mahsulotlar, ayniqsa, sanoat mahsulotlarining qiymati shu qadar oshib ketadi, deb o'ylaganimiz ham yo'q edi. Xalq bizni qo'llab-quvvatlamadi va endilikda go'sht bilan sariyog' Ittifoq narxlarida sotilmoqda. Biz xatoni tuzatdik, ammo un va undan tayyorlangan mahsulotlar hali ham «islohotgacha bo'lgan» narxlarda sotilmoqda. Budjet uchun bunga bardosh berish oson emas, albatta, lekin shunday qilish kerak.

– **Boshqa chora-tadbirlar** – maktablarda bepul nushtalar, homilador ayollar va emizikli onalarga, yolg'iz pensionerlarga, urush va mehnat faxriylariga, talabalar va nogironlarga, o'qituvchilar va ko'p bolali onalarga yordam, kompensatsiya to'lovlari birga qo'shilganida, bu narsa budjetni «zo'riqishga» majbur qiladi. Respublika iqtisodiy «giyohvand», Markazning yordamisiz yashay olmaydi, degan gap-so'zlarning sababi shunda emasmikan? Sizning aholini ijtimoiy muhofaza qilish to'g'risidagi farmonlaringiz go'yo ikti-

sodiy jihatdan asossiz bo'lib, xalqqa tilyog'lamalik qilish dalili emish.

— Mana, siz istagan farmonni tanlab oling: ko'pdan ko'p birlamchi hujjatlar ustida ish olib borilgan 12 tagacha variant va pul bilan ta'minlashning aniq manbalari ko'rsatilgan. Farmonlar xalqqa yoqish istak-muddaosi bilan dunyoga kelmagan. Bunday istak-muddaolar kimda bo'lishidan qat'i nazar, men ularni qabul qila olmayman. Bu farmonlar turmush mantig'i, eng kambag'al tabaqalarning turmushini yengillashtirish xohish-istagi tufayli dunyoga kelib, aniq-ravshan hisob-kitoblar bilan mustahkamlanmoqda.

Iqtisodiy «giyohvandlik» xususida kim-kimdan qarz-dor ekan? Avvaliga bizni xo'b ishontirishdi: paxta bo'lsa bas, qolgan narsalarni respublikaga mamlakat yetkazib beradi. Paxta tolasi qayd etib qo'yilgan past narxlarda O'zbekistondan tashqariga jo'natildi va hamon jo'natilmoqda. Buning evaziga nima berilmoqda? Paxta yetishtirishda mehnatning 84 foizi bizning zimmamizga tushmoqda va uni dastlabki qayta ishlashdan tushadigan daromadning atigi 16 foizi bizga tegmoqda. Paxtani olayotgan boshqa respublikalarda nisbat aksincha bo'lmoqda: masalan, aytaylik, Rossiyada to'qilgan va tikilgan tayyor ko'ylak g'oyat katta foyda keltirmoqda. Mehnati — bizga, puli — boshqalarga. Mamlakatning «paxta sexi» bo'lish, mana, nimani anglatadi.

Biz o'zimizning qayta ishlovchi quvvatlarimizni rivojlantira borib, bu ishni to'g'ri yo'lga qo'yamiz. Lekin shungacha asosiy mehnat xarajatlarini o'z zimmasiga olgan, ishchilar sinfingizni xomashyo va ish bilan, aholini esa tayyor buyumlar bilan ta'minlagan kishilar bilan daromadlarni marhamat qilib baham ko'ring.

– **Modomiki biz respublikalarning o'zaro munosabatlari to'g'risida gap ochgan ekanmiz, Sizning nazaringizda, bunday munosabatlar yaqin kelajakda qanday bo'lishi kerak? Yangi Ittifoq shartnomasida Markazning yakkahokimligiga yo'l qo'ymasdan, lekin Ittifoqni ham barbod etmasdan, birlik va xilma-xillik muammosini qanday hal qilish lozim?**

– Men teng va xilma-xil respublikalar ittifoqi tarafdoriman. Eng asosiy, prinsipial deb hisoblayotganim: Ittifoqni tashkil qiluvchi respublikalarga mustaqillik va suverenitet berish kerak. Qanday masalalarni o'zlari hal qila olishini, qanday vakolatlarni Markazga topshirib, kuch-g'ayratni birlashtirgan holda, bahamjihat harakat qilish yoki Ittifoq tuzilmalari konkret hollarda respublika tuzilmalaridan yaxshiroq ishlaydigan bo'lsa, ular orqali harakat qilish kerakligini faqat respublikalarning o'zlari hal qiladi. Mana shularni qonunlar urushini to'xtatish kaliti deb bilaman. Ayni paytda, Oliy Kengashdan boshlab barcha Ittifoq tuzilmalari mutlaq o'zgartirilishi kerak.

Vijdonan aytaman: Markazni Ittifoq shartnomasi bilan bog'liq ishni tezlashtirishga chaqiraverib charchadim. Endi esa bu masalada o'zimni umidvor deb hisoblamayapman. Shartnoma hali uzoq vaqt imzolalanmay qolishi ham mumkin. O'zaro totuv bo'lishimiz uchun, bo'lajak Ittifoqda har bir respublika o'zini erkin, millatlar hamdo'stligi oldida o'z xatti-harakatlariga mas'ul bo'lgan mustaqil davlat deb his qilishi uchun bularni hammamiz anglab yetishimiz kerak.

– **Modomiki biz har xil ekanmiz, erkinlikni ham har xil anlaymiz-da, to'g'rimi?**

– To'g'ri. Shoshma-shosharlik bilan mustaqillikni e'lon qilish va armiyada xizmat qilishdan bosh tortish,

aslida esa yoshlarni Konstitutsiyani buzishga undash mumkin. Bu — amaliy ishlar bilan to'ldirilmagan qo'g'ozdagi erkinlikdir. Biz boshqa yo'ldan bordik: mamlakatda Qurolli Kuchlar Bosh shtabi bilan bitim tuzgan yakka-yu yagona respublika — bizmiz. Bu bitim yurtimizdan chaqiriluvchilarga va ularning oilalariga qonuniy manfaatlariga rioya etilishini va xizmatni o'tash chog'ida qulay sharoitni ta'minlaydi.

Mustaqillikni erkinlik to'g'risidagi shiorlar bilan emas, balki siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy mazmun bilan to'ldirish kerak. Vijdon, din, shaxs, tilni tanlash, madaniyat yutuqlaridan foydalanish erkinligi va hokazolar bo'lmasa, chinakam mustaqil davlat bo'lmaydi. Ilgari bizda e'tiqod uchun, ajdodlarning urf-odatlariga rioya etilgani uchun, ko'pincha xalq an'analari-ga hurmat ko'rsatilgani uchun partiyadan o'chirishar, lavozimdan bo'shatishar edi.

Biz qo'rquv devorini yemirib tashladik. Yangi masjidlar, diniy muassasa va inshootlar paydo bo'ldi. Navro'z, Ro'za hayiti, Qurbon hayiti kabi va boshqa umumxalq bayramlari tiklandi, salkam 50 ta milliy-madaniy markaz tashkil qilindi. SSSR xalqlarining ko'pgina tillaridagi yangi nashrlar va darsliklar bosib chiqarildi, hozir O'zbekiston maktablarida ta'lim 12 tilda olib borilmoqda. Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Sharqning nohaq qatag'on qilingan boshqa allomalarining merosi xalqqa qaytarildi, ularning nomlari tariximizga qaytdi. Ayolning obro'si va shaxsi ulug'lanmoqda, oilaning nufuzi mustahkamlanmoqda, ijodkor ziyolilar o'z fikrini erkin izhor qilish imkoniyatini oldilar.

Mana shular va sanab o'tish qiyin bo'lgan boshqa ko'pgina narsalar — jamiyatda demokratik ruhning

qaror topishi emasmi, axir? Xalqimizda mevali daraxtga tosh otishadi, degan naql bor. Yoppasiga quruq tanqid ham ayni o'sha toshning o'zidir.

Ba'zida hamma joyga «o'z kadrlari»ni joylashtir-moqda, deb aytilayotgan ayblarni ham bir yo'la chip-pakka chiqarib o'tmoqchiman. Agar shunday bo'lganida, gapimga ishonib, Vazirlar Mahkamasi Raisi-ning bo'sh turgan ikki o'rinbosari, Davlat reja komiteti raisi, bir qancha vazir lavozimlari va shu kabilar allaqachon egallab olingan bo'lur edi. Bu lavozimlar yarim yildan ko'proq vaqtdan buyon bo'sh turibdi; bilimdonlarni izlayapmiz. Yakka hokim bo'lganida allaqachon «yog'li» joylarga qarindosh-urug'larini, yurtdoshlarini o'tkazib qo'ygan bo'lardi, bu esa unga urug'-aymog'chilik madadini ta'minlar edi.

– **Sizning shunday madadingiz bormi?**

– Bor, — deydi tabassum bilan Islom Abdug'a-niyevich. — **Mening urug'-aymog'im — menga Prezi-dent bo'lishni ishonib topshirgan xalqdir.** Men xalq bilan maslahatlashaman va o'z xatti-harakatlarimni unga qarab to'g'rilab olaman. Xalq mendan hamma narsani talab qilishga haqli. Men esa unga faqat bitta iltimos bilan — tinchlik va totuvlikda yashaylik, degan iltimos bilan murojaat qilaman. O'zbekiston vatani bo'lgan har bir kishi bu yerda o'zini boy, erkin va kuchli respublikaning, ulug' ishlarga qodir bo'lgan buyuk xalq yashaydigan qadimiy ma'rifatli davlatning to'la huquqli fuqarosi, deb his qilsin.

*«Xalq so'zi» gazetasi,
1991-yil 4-iyul*

HINDISTONGA MEHR BILAN

«Tayms of India» gazetasi muxbiri savollariga javoblar

– Siz respublikadagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatni qanday tavsiflagan bo'lar edingiz?

– Hozirgi siyosiy va iqtisodiy vaziyatimiz to'g'risida gapirishdan oldin, affidan, bugungi kunga qanday yetib kelganimizni, nima sababdan respublikamiz iqtisodiy jihatdan juda og'ir ahvolga tushib qolganini yaxshiroq tasavvur etish uchun o'tmishga qisqacha nazar tashlash kerak. To'g'ri, Ittifoqimizdagi boshqa respublikalar ham qandaydir iqtisodiy yutuqlar bilan maqtana olmaydi. O'zbekiston esa, ayniqsa, og'ir ahvolga tushib qoldi. Gap shundaki, Sovet hokimiyati yillarida respublikamiz iqtisodiyoti to'la-to'kis, mukammal rivojlanmadi, u mamlakatimizning xomashyo yetkazib beradigan o'lkasi bo'lib qoldi, shu sababli hozirgi ahvolimizga respublika iqtisodiyotini shakllantirishning ana shu strategiyasi ko'zguvidan qarash kerak. Biz paxta, meva-sabzavot yetishtirishimiz, qorako'l, ipak berishimiz kerak edi, bilasizki, respublikamiz tabiiy xomashyo resurslariga juda boy. O'zbekiston tayyor mahsulot olishga yordam beradigan dastlabki ishlar bilangina shug'ullangan, tayyor mahsulot esa respublika tashqarisida ishlab chiqarilgan. Bizning bugungi iqtisodiy ko'rsatkichlarimiz, ochig'ini aytadigan bo'lsak, ana shundan kelib chiqadi. Aholi

jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad Ittifoqimizdagi o'rtacha darajadan ikki yarim barobar kamdir. Ijtimoiy yordamchi tarmoqlar yetarli darajada rivojlanmaganining sababi ham mana shunda — biz sog'liqni saqlash, madaniyat, xalq ta'limi inshootlarini, ya'ni odamlarning ko'ngildagidek yashashi uchun zarur bo'lgan infratuzilmalarni qurish uchun mablag' topa olmayapmiz. Respublikamizning demografik xususiyatlarini e'tiborga olsak, bizda aholi mamlakatimizdagi o'rtacha darajadan uch yarim barobar tezroq ko'paymoqda. Ijtimoiy-maishiy sohada erishilgan darajani saqlab qolishimiz uchun bizga uch yarim barobardan ko'proq sarmoya kerak. Budjetimiz ham juda qaram ahvolda. Daromad qismining uchdan biri Ittifoq dotatsiyasi hisobidan qoplanmoqda.

Qisqasini aytganda, iqtisodiyotimizning, ishlab chiqaruvchi kuchlarning biryoqlama rivojlanishi, eng avvalo, odamlar turmushi bilan bog'liq sohalarda qoloqlikka olib keldi. Inson ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan mollarning yarmidan ko'prog'ini respublika tashqarisidan tashib keltirayotganimizni hisobga olsak, yurtimiz Ittifoqning qolgan qismi iqtisodiyotiga qay darajada qaram bo'lib qolganini tasavvur etish qiyin bo'lmasa kerak, deb o'ylayman. Bularning hammasi, nazarimda, Markaz strategiyasida va umumittifoq mehnat taqsimotida bizga ajratilgan o'rin oldindan belgilab qo'yilgan edi.

Bugungi kunda iqtisodiy vaziyatni siyosiy vaziyatdan ajratish mumkin emasligiga, ularning dialektik uzviy bog'liqligini e'tirof qilmaslik mumkin emasligiga hech kimda shubha tug'ilmasa kerak. Siyosiy tuzilmalar, ularning obro'si xalq turmush darajasi bilan belgilanadi. Agar, butun mamlakatdagi singari, bizda

ham turmush darajasi yomonlashib borayotganini hisobga olsak, odamlarning, ayniqsa, kundalik ehtiyoj mollari, oilaga, har bir kishiga zarur bo'lgan barcha narsalarning narxi ko'tarilganidan keyingi kayfiyatini bilib olish mumkin.

Vujudga kelgan ahvolni o'nglash uchun O'zbekistonning barcha xomashyo resurslari, boyliklarini o'zimizda qayta ishlashimiz zarurligi mutlaqo ravshandir. Respublimizda esa Mendeleyev jadvalidagi barcha boyliklar bor.

Bizda buning uchun juda noyob mehnat resurslari mavjud — respublikamizda 16 yoshgacha bo'lganlar aholining 47 foizini tashkil etadi.

Biz respublika iqtisodiyotini xalqimizning talab va ehtiyojlariga bo'ysundirishni o'zimizning eng muhim vazifamiz, deb hisoblaymiz, chunki har bir oila, har bir kishi tinchlik va to'kinchilikda yashasagina, respublikamiz erkin va boy bo'lishiga, gullab-yashnashiga ishonamiz.

— **O'zbekistonning yangilangan Ittifoqda qatnashish rejaları qanday?**

— Mamlakatimizda Ittifoq shartnomasini imzolashga uzoq vaqtdan beri tayyorgarlik ko'rilmogda. Imzolash uchun hozirdayoq tayyor bo'lgan hujjatga, ya'ni Mustaqil sovet respublikalari shartnomasiga nisbatan bizning prinsipial yo'limiz bor. Bu yo'l respublika mustaqilligini amalda tan olishga asoslangan.

Respublikalar Ittifoqqa vakolatlar berishi bilan bir qatorda, bizga aniq kafolatlar ham beriladi: jumladan, xalqaro bozorga mustaqil chiqamiz, ruxsatnoma berish masalalarini va shu kabi boshqa masalalarni hal etamiz, biz bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor sheriklar bilan xalqaro aloqalar o'rnatamiz. Mazkur shartnomani

imzolagach, o'zimizning mo'ljallagan rejalarimizni amalga oshira borib, aholi turmush darajasini ko'tarishimiz mumkin. Ijobiy dastur asosida, jipslashgan holdagina tanglikdan chiqishimiz mumkin.

23-iyul kuni uzil-kesil ishlab chiqilgan Ittifoq shartnomasining so'nggi varianti uzoq va mashaqqatli mehnat, bahs-munozara hamda turli qarama-qarshi fikrlarni yaqinlashtirish tufayli erishilgan murosa natijasidir. Markazlashtirilgan rahbarlik tarafdorlari avvaliga respublikalarga qandaydir huquqlar, vakolatlar berishga intilishdi. Shuni aytish kerakki, yuqoridan zo'r minnat bilan berilgan bunday huquq va vakolatlarning keragi yo'q edi. Bizning nuqtayi nazarimiz shundan iborat ediki, biz o'z hududimizda barcha masalalarni to'la-to'kis hal etish huquqiga ega bo'lgan mutlaqo erkin, mustaqil davlatlar — respublikalar bo'lishimiz kerak. Biz — ittifoqdosh respublikalar ba'zi masalalar birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan hal etilishini, ularni yakka holda hal qilib bo'lmasligini tushunamiz. Men respublikalar Ittifoq tasarrufiga topshirgan masalalar haqida gapir-yapman. Bular — kosmos, mudofaa, aloqa va boshqa shu kabi ayrim respublikalar doirasida hal etish mumkin bo'lmagan masalalardir. Shartnomada soliqlar masalasi, Ittifoq va respublika budjetlarini shakllantirish bilan bog'liq masalalar hali oxirigacha hal qilinmagan, lekin buning oqilona asosi bor. 20-avgust kuni Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston birinchi bo'lib shartnomaga imzo chekadi. Bu bozor munosabatlariga o'tishdagi katta qadam bo'ladi, shartnoma Ittifoq va respublikalar darajasida qabul qilingan «qonunlar urushi»ga barham beradi. Ittifoq shartnomasi juda ko'p muammolar — mulkni cheklash, xususiylashtirish, mamlakat tashqi qarzigaga aloqador masalalarni hal qiladi.

– O'zbekistonning tashqi iqtisodiy va tashqi siyosiy aloqalarining istiqbollari haqida nima deya olasiz?

– Biz juda uzoq vaqt mobaynida mafkuraviy bid'at, yanglishishlar, aqidalar va hayotdan uzilib qolgan chaqiriq hamda shiorlar, ertangi yorqin hayot to'g'risidagi fikr-mulohazalar ostida qolib ketdik. Ittifoq shartnomasini tayyorlash chog'ida respublikaning tashqi bozorga mustaqil chiqish huquqini olishi biz qo'ygan shartlardan biri ekanini ta'kidlamoqchi edim. Busiz biz tanglikdan chiqish yo'lida rejalashtirilgan dasturni amalga oshira olmaymiz. Men O'zbekiston yaqin kelajakda biz bilan hamkorlik qilishga tayyor turgan ko'pgina mamlakatlarda o'z konsulxonalarini ochishiga ishonaman.

Mamlakatimizdagi, shu jumladan, respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot shu qadar murakkabligiga qaramasdan, aholining turli tabaqalarini ijtimoiy himoya qilish tizimini ishlab chiqdik va uni aniq mazmun bilan boyitdik. Darvoqe, bizda sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning avvalgi yillarda erishilgan darajasi saqlab qolindi, iqtisodiy va siyosiy o'zgartishlar uchun huquqiy zamin vujudga keltirildi. Jumladan, bizning parlamentimiz tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga keltiradigan va xorijiy sarmoyalarga kafolat beradigan bir qancha muhim qonunlarni qabul qildi. Hukumat ishbilarmonlikning iqtisodiy erkinligi, shuningdek, bizda qo'shma korxonalar ochish niyatida bo'lgan hamda sarmoya olish va vositachilik faoliyati bilan shug'ullanishni istaydiganlar uchun keng imtiyozlar ko'zda tutilgan butun bir me'yoriy hujjatlar majmuasini tasdiqladi. Bizda mulkchilikning barcha shakllari e'tirof qilinib, rivoj topayotganini ta'kidlamoq-

chiman. O'zbekistonda xususiy hamda aksiyadorlik mulkiga nisbatan hech qanday qarshilik yo'q.

– Agar iloji bo'lsa, O'zbekistonning Hindiston bilan munosabatlari to'g'risida ikki og'iz gapirib bersangiz.

– O'zbekiston Hindiston bilan an'anaviy tarixiy aloqalar orqali bog'langan. Ayni paytda mazkur mamlakat bilan munosabatlarda nimagaki ega bo'lsak, u bizdagi mavjud imkoniyatlar darajasida emashigini aytish joiz.

O'zbekiston delegatsiyasining Hindistonga qiladigan rasmiy tashrifi iqtisodiy va siyosiy hamkorligimizning jadal rivojlanishi uchun turtki berishiga umid qilaman.

Men keng iste'mol mollari ishlab chiqaradigan kichik va o'rtacha firmalar, kompaniyalar bilan ham hamkorlik qilishga katta umid bog'layapman. Biz o'zimizda xalq iste'moli mollari ishlab chiqaradigan ixcham, yo'nalishini tez o'zgartira oladigan qo'shma korxonalar qurilishini avj oldirishga tayyormiz. Hindiston bilan hamkorlikni keng yo'lga qo'yish davr taqozosidir.

O'zbekiston Osiyo respublikasi ekanini hisobga olib, Osiyo – Tinch okeani mintaqasidagi boshqa mamlakatlar bilan ham savdo va iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishni rejalashtiryapmiz. Biz o'zaro manfaatli asosda iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlikni yo'lga qo'yishga tayyormiz.

Suhbatimiz oxirida o'zbek xalqi Hindiston xalqiga katta hurmat bilan qarayotganini, bizning do'stligimiz va hamkorligimiz aniq-ravshan mazmun bilan boyib borishini xohlayotganini aytmoqchiman. Hindiston xalqi bilan rahbarlariga tinchlik va farovonlik tilayman.

*«Xalq so'zi» gazetasi,
1991-yil 16-avgust*

**O'zbekiston Sovet Sotsialistik
Respublikasining Prezidenti
Islom Karimovning respublika aholisiga
MUROJAATI**

Aziz do'stlar!

O'rtoqlar!

SSSR vitse-prezidenti G.I. Yanayevning farmoni, sovet rahbariyatining bayonoti va SSSR da Favqulodda holat davlat komitetining sovet xalqiga murojaati va qarorlari munosabati bilan respublikamizda istiqomat qiluvchi hamma fuqarolarni, katta-kichik barcha hamyurtlarimizni shu murakkab vaziyatda aql-idrok bilan ish tutishga, tinchlik-osoyishtalikni saqlashga, sabr-toqatli bo'lishga da'vat etaman.

Sodir bo'lgan vaziyatdan qanday xulosalar chiqarish mumkin?

Birinchidan, har birimiz og'ir va vazmin bo'lishimiz kerak. Boshimizga tushgan bu sinovlar, noaniq davr va sharoitdan, avvalambor aql va idrokimizni bir joyga yig'ib, insof va vijdonni yo'qotmasdan, sarosimaga tushmasdan chiqishimiz kerak.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi, uning rahbariyati qayta qurish davrida ham hech qachon birovning gapiga kirib ish tutgan emas. Markazdan, boshqa ba'zi bir respublikalardan qanday qarorlar chiqmasin, va'dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da'vatlar, yo'l-yo'riq ko'rsatishga harakatlar bo'lmasin, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadlarimizdan qaytganimiz yo'q.

Bu yo'l — bizning xalqimiz tarixiga, urf-odatlariga, tabiatimiz shart-sharoitlariga, xullas, xalqimiz manfaatlariga mos yo'ldir.

Bu yo'lni bir narsa bilan solishtirish mumkin. U ham bo'lsa o'tkir, qirrali tog' ustidan yo'l topib yurish bilan barobardir. Bu yo'lda qanchalik og'ir va murakkab sharoit bo'lmasin, na chapga, na o'ngga o'ylamasdan, aqlimizni ishlatmasdan biror qadam tashlab bo'lmaydi. Bu — nihoyatda xavflidir. Agar shunday qadam tashlamoqchi bo'lsak, biz o'z yo'limizni, xalqimiz qo'llab-quvvatlagan yo'limizni yo'qotib qo'yishimiz mumkin.

Uchinchidan, bizning tariximiz, xalqimiz boshidan kechirib o'tgan davrlar qanday bo'lmasin, bu — bizning tariximizdir.

Biz birovlarga o'xshab bu muqaddas tarixga tosh otganimiz va uni xo'rlaganimiz yo'q. Ya'ni, boshqacha qilib aytganda, hatto keyingi yillarning o'zini olganimizda ham, bu davrda mamlakatdagi turli kuchli oqimlar birinchi ko'rinishda qanchalik yoqimli bo'lmasin, bizlarni yo'ldan urmoqchi bo'lgan kuchlarning siyosati qanchalik kuchli bo'lmasin, Markazga yoqish-yoqmaslik masalasi qanchalik ko'ndalang bo'lib turishiga qaramasdan, biz o'z yo'limizdan qaytganimiz yo'q.

Oddiy til bilan aytganda, biz o'zligimizni yo'qotmasdan, o'z siyosatimizni olib boryapmiz va kelajakda ham shu siyosatga qodirmiz.

To'rtinchidan, bizlarga qanday kuchlar qarshi chiqmasin, bizning faoliyatimizni diktatura deb atamasin, biz har doim — buni hech kim rad eta olmaydi — mustahkam tartib-intizom tarafdori bo'lganmiz va o'z siyosatimizga tartib-intizomni poydevor qilib olgan-

miz. Yana bir marta qaytaraman: buni hech kim rad eta olmaydi.

Qayerga borishim, qayerda so'zga chiqishimdan qat'i nazar, men doim odamlarimizdan, xalqimizdan, rahbarlarimizdan intizomning jilovini qo'ldan bermaslik to'g'risida o'tinib so'raganman, talab qilganman.

Nega deganda, tariximiz, hayotimiz shuni ko'rsatib turibdiki, tartib-intizomni qo'ldan chiqargan rahbariyat uni hech qachon qaytarib ololmaydi va o'z xalqini, unga ishongan fuqarolarini himoya qilishga zaif bo'lib qoladi.

Tartib-intizomni bo'shashtirish siyosati oqibatini va ta'sirini mamlakatimizda yashab turgan har qaysi oila va har bir inson o'z hayotida yaqqol sezib turibdi. Bunday holatni, bunday vaziyatni avvalambor mamlakatimizdagi millatlararo va respublikalararo munosabatlarning keskinlashayotganida, xalqning turmush darajasi pasayib ketayotganida, odamlarning notinch va norozi bo'layotganida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Beshinchidan, shuni ham xalqimizga ochiqdan ochiq, ro'yirost aytishimiz kerakki, qayta qurish boshlanganiga olti yil bo'ldi. Quruq gaplar, dabdabali va'dalar odamlarimizning joniga tegdi. Bugun-erta hayotimiz yaxshi bo'ladi, degan, ozgina chidanglar, degan gaplarga va va'dalarga hech kimda ishonch qolmadi. Bu ham ahvolning keskinlashuviga, odamlarning g'azablanishiga asos bo'ldi.

Aziz do'stlar!

Bu gaplarni aytib, men sizlarga hech qanday yangilikni ochib berayotganim yo'q. Buning hammasi ko'pchilikka ma'lum va bu gaplar aksariyat xalqimiz orasida ko'pdan beri bo'lib kelyapti.

Xalqimiz amaliy samara va natijalarni kutyapti.

Ko'pchilik bilan gaplashsangiz, ular qaysi yoshda, qaysi ishda bo'lishidan qat'i nazar, boshimizga tushgan savdolar qachon tugaydi, yaxshi kunlar qaytarmikan, deb savol berishi hammamizga ma'lum. Bunday savollarga javobni xalqimiz ko'pdan beri kutyapti. Lekin bunday og'ir savollarga javob berishda SSSR rahbariyatining zaifligi ma'lum bo'lib qoldi.

Bugun mamlakatimizda bo'layotgan o'zgarishlar to'g'risida gap borar ekan, hammamiz ham amaliy ishlar bilan xalqimizga, O'zbekistonimizga qanday yengillik, farovonlik va taraqqiyot yo'lida qanday yaxshilik bo'ladi, degan savollar beryapmiz. Lekin hozircha mamlakatning hokimiyat doiralari qanday yo'l bilan, nimalar orqali bu maqsadlarga erishish mumkinligi haqida to'liq, batafsil ma'lumot berganicha yo'q.

Bu ma'lumotlar bilan chuqur tanishganimizdan keyingina bo'layotgan o'zgarishlarga o'zimizning munosabatimizni albatta bildiramiz.

Lekin, ishontirib aytamizki, biz o'z xalqimizning, O'zbekistonda yashayotgan barcha aholining tub manfaatlari, osoyishtaligi hisobga olingan holdagina yangi siyosatni qo'llashimiz mumkin.

Bizga tinchlik va osoyishtalik kerak. Biz har bir oilaning tinch-totuv yashashi tarafdorimiz va shunga intilayotgan, shuni ta'minlaydigan siyosatni qo'llab-quvvatlaymiz.

Aziz yurtdoshlar!

Yana bir bor sizlarga murojaat qilaman. Shunday og'ir sinovdan o'tayotgan bir paytda xalqimiz sabrtoqat va bardosh bilan, vazmin bo'lib, tinchlikni saqlash maqsadida jiplashishi kerak. Bir yoqadan bosh

chiqarib harakat qilish kerak. Tinchlikni buzayotgan, o'z manfaatini ko'zlayotgan har xil shaxslarga, muttahamlarga quloq solmasdan, xalqimiz o'zi tanlagan yo'ldan qolmasligi kerak.

Yurtimiz, xalqimiz tarixda juda ko'p sinovlardan yuzi yorug' bo'lib chiqqanmiz.

Ishonamanki, bu og'ir sinovlardan ham eson-omon o'tamiz.

1991-yil 20-avgust

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Prezidentining FARMONI

Mamlakatda vujudga kelgan ahvolni e'tiborga olib va respublika manfaatlarini himoya qilish maqsadida:

1. Respublika Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi komiteti O'zbekiston SSR ning qonuniy tasarrufiga olinsin.

2. Mazkur idoralarning rahbarlari ikki hafta muddat ichida Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi komiteti organlarining maqomi hamda Nizomini qaytadan ko'rib chiqib, birinchi navbatda respublika va uning fuqarolari xavfsizligini, manfaatlarini muhofaza qilishni nazarda tutsinlar.

3. Respublika hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston SSR Prezidentiga bo'ysundirilsin.

4. O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosatiga juda qisqa muddatda respublikaning Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Qonun loyihasini tayyorlash va uni O'zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etish taklif qilinsin.

5. O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizligi komiteti, prokuraturasi va adliya organlari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan xoli qilinsin.

Belgilab qo'yilsinki, bundan buyon yuqorida ko'rsatilgan organlar va muassasalarda siyosiy partiyalar va harakatlarning yangi tashkiliy tuzilmalarini vujudga keltirishga yo'l qo'yilmaydi.

6. Mazkur mahkamalarning rahbarlari davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralari bilan birgalikda ushbu Farmon munosabati bilan ishdan bo'shaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun barcha choralarni ko'rsinlar.

Ushbu Farmon imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi.

O'zbekiston Sovet Sotsialistik
Respublikasi Prezidenti

I. KARIMOV

*Toshkent shahri,
1991-yil 25-avgust*

XALQIMIZNING FIKRI – BIZ UCHUN OLIY MEZON

Hurmatli o'ртоqlar!

Shu kunlarda mamlakatimizda sodir bo'lgan va sodir bo'layotgan voqealarni mushkul voqealar deb atash uchun barcha asoslar bor. Mazkur voqealar mamlakatning barcha tuzilmalari uchun juda jiddiy oqibatlarini keltirib chiqardi. Favqulodda holat davlat komiteti, SSSRdagi oliy darajadagi amaldorlarning bir guruhi tomonidan 19 – 21-avgust kunlari amalga oshirilgan jinoyatkorona davlat to'ntarishining barbod bo'lishi mamlakatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy kuchlar nisbatining zudlik bilan o'zgarishiga olib keldi.

Qanday voqealar sodir bo'lgani va sodir bo'layotgani haqida axborot juda ko'p. Ularni takrorlab o'tirishga hojat bo'lmasa kerak, deb o'ylayman. Siz buni ommaviy axborot vositalarining xabarlaridan yaxshi bilasiz. Mamlakatda sodir bo'layotgan voqealar O'zbekistonga, o'lkamiz xalqining taqdiriga bevosita daxldor desam, siz mening bu fikrimga qo'shilasiz, deb o'ylayman.

Shularning hammasi va doimo o'zgarib turgan vaziyatlar bizni ushbu plenumni chaqirishga va siz bilan favqulodda muhim masala yuzasidan maslahatlashib olishga da'vat etdi. Bu – O'zbekiston Kompartiyasi-

ning taqdiriga bevosita daxldor masaladir. Qaror qabul qilishdan avval, xalq maqolida aytilganidek, yetti o'lchab bir kesishimiz kerak bo'ladi.

Mamlakat uchun tahlikali shu kunlarda Markaziy Komitet Byurosi, hukumat, Oliy Kengash va respublika Prezidenti sifatida men voqealardan hamisha boxabar bo'lib turdik, o'z ishimizni bir soatga ham to'xtatganimiz yo'q. Birinchi kundan, voqealar boshlangan daqiqalardan oq biz partiya komitetlari va tashkilotlarini, mahalliy sovetlarni sabr-bardoshli va vazmin bo'lishga, barqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyatni saqlab qolish uchun o'z obro'-e'tiboridan foydalanishga va o'z ta'sirini o'tkazishga, respublika hududida favqulodda holatning joriy etilishiga yo'l qo'ymaslikka, KPSS Markaziy Komiteti Kotibiyati nomidan tashkil etilgan davlat to'ntarishini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Konstitutsiyaga zid ig'vogarona chaqiriqlarga uchmaslikka da'vat etdik.

Faollar bilan uchrashuvlarda respublika Davlat mustaqilligi to'g'risidagi deklaratsiya qoidalariga, Konstitutsion tuzum qoidalariga qat'iy rioya etish to'g'risida jamoa bo'lib ishlab chiqilgan yo'lni izchil va qat'iyat bilan o'tkazdik.

Respublika Prezidenti, Markaziy Komitet birinchi kotibining xalqqa qilgan murojaatnomasida aytilganidek, Markazdan qanday ko'rsatmalar kelishiga, qanday va'dalar berilishiga, qanday chaqiriqlar yangrashiga qaramay, har qanday sharoitda ham biz o'z qadr-qimmatimiz va vijdonimizni yo'qotmadik, o'z siyosiy yo'limizni o'zgartirmadik. Bizning fikrimizcha, aksariyat aholining ehtiyoji va umidlariga hamohang bo'lgan qarorlarni o'zimiz mustaqil qabul qildik. Barqarorlik, tartib-intizom, fuqarolarning tinchligi va milliy totuvlikni saqlab qolishga yordam berdik, bularsiz

respublikaning hozirgi kuni va kelajagini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Turli ijtimoiy va siyosiy guruhlar o'rtasidagi ixtiloflarni tinch davrda hal etish uchun kuch ishlatish, avvalo, harbiy kuch ishlatishga qat'iy qarshiligimizni bildirdik. O'ziga «Favqulodda holat davlat komiteti» deb nom qo'yib olgan mash'um komitetning Konstitutsiyaga zid va g'ayriqonuniy farmonlari hamda qarorlari O'zbekiston hududida Prezident Farmoni bilan haqiqiy emas, deb e'lon qilindi.

Bizning pozitsiyamiz halol va ochiq-oydin bo'ldi. Biz hech narsani xalqdan yashirganimiz yo'q. Sharmandali siyosiy ig'vogarlikka uchmagani va respublikada osoyishtalik va aniq mehnat maromini saqlab qolish borasida hamma ishlarni qilgani uchun biz xalqimizdan benihoya minnatdormiz... Bugun biz sira uyalib qolganimiz yo'q. Faollarimiz, barcha sofdil kishilarning qo'llab-quvvatlashiga tayanib, xalqning turmush darajasini yaxshilashning dolzarb muammolarini ko'chalarga tanklar chiqarib ham, maydonlardagi balandparvoz da'vatlar bilan ham hal qilib bo'lmasligini obdan uqib olishdi. Respublika faollari xalq bilan birga bo'ldi va bugun xalqqa yorug' yuz bilan qarashi mumkin.

Shu kunlarda respublika partiya komitetlari, sovet va davlat idoralari, ommaviy axborot vositalariga mehnatkashlar, aholi turli tabaqalarining vakillaridan ko'plab maktublar kelmoqda, ularning aksariyati O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti Byurosi va Markaziy nazorat komissiyasi rayosatining 23-avgust kuni e'lon qilingan Bayonotida berilgan baholar va chiqarilgan xulosalarga qo'shilmogda. Bu maktublarda mehnatkashlarning respublika taqdiri uchun xavo-

tirlanayotgani bayon etilgan. KPSS Markaziy Komiteti rahbariyatining ortodoksal qismi qo'rqqoqligi, jinoyatkorona va beburd harakatlari oqibatida ming-minglab sofdil kishilar tushib qolgan vaziyatga hech kim befarq qarab turgani yo'q.

Biz prinsipial pozitsiyamizni astoydil qo'llab-quvvatlagan barcha kishilardan minnatdormiz. Bu madad ishonchimizga ishonch, kuchimizga kuch qo'shadi, mustaqil siyosiy yo'limizni izchil o'tkazishimiz uchun mustahkam zamin yaratadi.

Bugun ishontirib aytmoqchimanki, biz bundan buyon ham odamlar bilan maslahatlashmay, Markaziy Komitet plenumi a'zolarining fikrini inobatga olmay hech qanday keskin qarorlar qabul qilmaymiz...

O'tgan kuni Markaziy Komitet Byurosi va O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy nazorat komissiyasi rayosatining kengaytirilgan majlisi bo'ldi, bu majlisda viloyatlar, bir qancha shaharlar partiya va nazorat tashkilotlarining rahbarlari, respublikadagi yirik korxonalar partiya komitetlarining kotiblari ishtirok etdi. Biz jamoa bo'lib ishlab chiqilgan pozitsiyamiz haqida sizlarga so'zlab berishga qaror qildik.

Sizlarga, Markaziy Komitet va Markaziy nazorat komissiyasi a'zolariga, barcha faollarimizga murojaat etib, shuni ta'kidlashni istar edimki, so'nggi yillarda og'ishmay amalga oshirilayotgan yo'limiz, bizning siyosatimiz hech qachon pala-partish va manfaatparastlik tusida bo'lmagan. Partiyamiz qanday bo'lishi lozimligini, uning asosiy maqsadlari nimalardan iborat bo'lishi kerakligini va istiqbolni biz qanday tasavvur etayotganimizni, xalqimizni, respublikamizni qaysi yo'lga da'vat qilayotganimizni aniq-ravshan belgilab olganmiz.

Keling, XXII syezdga qilingan hisobot dokladiga, shu syezd qaroriga, Markaziy Komitetning so'nggi plenumlari qarorlariga, respublika rahbariyatining jamoatchilik oldidagi nutqlariga yana bir karra nazar tashlaylik. Nihoyat, KPSS XXVIII syezdida men so'zlagan nutq matniga nazar tashlaylik. Shunday qilib, pozitsiyamiz aniq-ravshanligiga to'la qanoat hosil qilish mumkin.

Biz, O'zbekiston Kompartiyasi o'zining butun tarixi mobaynida aslida partiyaning strategik yo'lini belgilashga yaqin yo'latilmagani, ko'p hollarda u KPSS markaziy organlarining qarorlariga qaram bo'lib qolganini ro'yirost aytgan edik. Xuddi shu boisdan biz partiyamizga haqiqatan ham mustaqillik berilishi lozimligini, teran siyosiy va iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan o'tkazishda respublika xalqining manfaatlariga mos bo'lib tushadigan o'z yo'limizni ishlab chiqish va amalga oshirish huquqi berilishini qat'iyat bilan talab qilgan edik.

Hozir butun mamlakatda bo'layotganidek, xalqimizni chalg'itishga, o'zining mutlaqo asossiz uydirmalari bilan odamlarni gij-gijlashga urinayotgan kimsalarga, hozirgi paytda ayrim mas'uliyatsiz arboblarga ergashib, bizning o'tmishimiz, bugungi kunimiz va maqsadlarimizni oyoqosti qilayotgan barcha kimsalarga men shuni qat'iyat bilan aytmoqchimanki, biz hamisha respublikamiz Kompartiyasiga to'la mustaqillik berilishini talab qilib keldik (amalda buni ro'yobga ham chiqardik), bundan kuzatilgan maqsad o'z hududida partiya barcha masalalarni mustaqil hal etishi, o'z strategiya va taktikasini aksariyat aholining fikriga tayanib, mustaqil belgilashi lozim edi. Bizning siyosatimizga ta'sir eta oladigan va uni belgilab beradigan oliy mezon bor — u ham bo'lsa xalqimizning fikridir.

Sizga ma'lumki, biz o'z pozitsiyamizni KPSS XXVIII syezdida prinsipiiallik bilan bayon etgan edik va himoya qildik. Ammo bizning fikrimizni to'la-to'kis tushunishmadi va qo'llab-quvvatlashmadi. Shunday qilib, biz ana shu barcha masalalar yuzasidan yo'limizni mustaqil belgilab olishni, buning uchun respublika kommunistlarining XXII syezdi ikkinchi bosqichini chaqirishni, ushbu anjumanda harakat dasturimizni va ustavimizni qabul qilishni o'z burchimiz, deb bildik. KPSS Markaziy Komiteti rahbariyatining konservativ qismi jiddiy tazyiq o'tkazganiga qaramay, biz qonunda ko'zda tutilganiga rioya etib, O'zbekiston Kompartiyasi Ustavini ro'yxatdan o'tkazdik, mustaqil siyosiy tashkilot huquqiy maqomini oldik.

Yana bir karra shuni ta'kidlamoqchimanki, XXII syezd ikkinchi bosqichining jami hujjatlarida xalqimizning tarixi, uning urf-odatlari va an'analari, mahalliy sharoitlar, xalqning tub manfaatlariga mos bo'lib tushadigan mustaqil siyosiy yo'limiz to'la-to'kis o'z ifodasini topdi. Bu, avvalo, O'zbekiston Kompartiyasi *Harakat dasturida*, uning *Ustavida aks etdi*, kezi kelganda aytish kerakki, ushbu hujjatlar KPSS XXVIII syezdida qabul qilingan ustav va dasturiy bayonotdan tubdan farq qiladi.

Jur'at bilan aytmoqchimanki, xalqimiz, aholining hamma tabaqalari tomonidan qabul qilingan va ma'qullangan dasturimizda quyidagilar bayon etildi: o'zbek xalqining farovonligi, millatidan, diniy e'tiqodidan va mavqeyidan qat'i nazar, respublika hududida yashayotgan barcha kishilarning farovonligi shunday oliy maqsaddirki, bu yo'lda biz har qancha jon kuydirishga tayyormiz. Bu maqsadga erishishning asosiy yo'li, bizning nazarimizda, fuqarolarning osoyishtaligi, milliy

totuvlik, tadbirkorlikning to'la iqtisodiy erkinligi sharoitida respublika hayotining barcha sohalarida qat'iy intizom va tartibdir.

Ana shu maqsadlar va usullar, ularga erishish yo'llari viloyat, shahar, rayon tashkilotlarida qabul qilingan jami hujjatlarda tasdiqlandi. Bugun ana shu oliyjanob maqsad partiyaning respublika aholisi qo'llab-quvvatlashini ta'minlaydigan bosh mafkurasi bo'lib qolishi kerak, deb aytish uchun bizda to'la asoslar bor.

Ishonchimiz hamisha shunga komil edi va hozir ham shu fikrda sobit turibmizki, ana shu maqsadga erishmoq uchun jami iqtisodiy aloqalarni, umuman, respublika iqtisodiyotini mafkuradan xoli qilish, har qanday «izm»lardan va boshqa hamisha oyoq-qo'limizni chandib tashlagan, umrini yashab bo'lgan safsatabozlikdan iborat mafkuralardan voz kechishimiz kerak.

Men bu xususda shuning uchun batafsil to'xtalib o'tmoqchimanki, zamirida jozibador bo'lib ko'ringan quruq bayonotlar, siyosiy tUSDagi shiorlardan boshqa na bir mustahkam zamini, na iqtisodiy dasturi bo'lgan partiya va harakatlar bor. Ana shu dalillar, bizning muxoliflarimiz bilan odamlarni hayajonga solib turgan masalalar xususida bo'lib o'tgan barcha uchrasuvlarimiz, barcha munozaralarimiz mazkur haqiqatni tasdiqlab turibdi.

Bizning fikrimizcha, har qanday partiya, har qanday ijtimoiy harakat yetakchilik roliga da'vo qilmog'i uchun u xalqni da'vat etayotgan siyosiy maqsadlar, shiorlar, xullas, bularning hammasi amaliy harakatlar, aniq-ravshan iqtisodiy dastur bilan tasdiqlanishi kerak.

Ana shunday favqulodda murakkab sharoitda, beso'naqay iqtisodiyot sharoitida, u faqat xomashyo

yetkazib berayotgan bir sharoitda, respublikamiz boshqa mintaqalar va Markazga to'la qaram bo'lib qolgan bir vaqtda hayotiy muammolarimizni qanday qilib va nimaning evaziga hal qilish lozim? Shu munosabat bilan men quyidagilarni aytmoqchiman: 1917-yil inqilobga qadar ham, undan keyin ham ana shunday hukmronlik strategiyasi yuqoridan O'zbekistonga yuborilayotgan barcha qonunlar, rejalar, ko'rsatmalarining negizini tashkil etgan edi. Gap shundaki, bizning jug'rofiy ahvolimiz, kommunikatsiyalarimiz, havo yo'llarimiz, temiryo'l transportimiz – bularning hammasi butunlay Markazdagilarning xohish-irodasi va qarorlariga bog'liqdir. Xo'sh, ana shunday murakkab sharoitda O'zbekistonda barqarorlik, osoyishtalik, tinchlik, millatlararo totuvlik va fuqarolarning ahilligini qanday saqlab qolish mumkin? Eng asosiysi – odamlarning qornini to'ydirish, ularni kiyintirish, eng kam miqdorda bo'lsa ham har bir oila, har bir kishining yashashi uchun zarur bo'lgan barcha narsalar bilan aholini uzluksiz ta'minlab turishdir.

Xuddi ana shu dolzarb masala xususida biz muxoliflar bilan va hozir xalqni boshqa yo'ldan boshlab borishga da'vogar bo'lgan barcha kishilar bilan har qanday munozarani boshlashimiz mumkin.

Yana qaytarib aytmoqchiman. Biz xalqning qismati, uning istiqboli to'g'risidagi fikr-mulohazalar orasidan xalq manfaatiga xizmat qiladigan barcha amaliy va ijobiy takliflarni qabul qilishga tayyormiz, ertaga har bir oilada, jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalikni buzishga, halokatga olib bormaydigan barcha fikr-mulohazalarni qabul qilishga tayyormiz.

Ittifoq shartnomasini tayyorlash va uni imzolashga bizning munosabatimiz avval-boshdanoq xuddi shu

fikrga asoslangan edi. Biz aniq hisob-kitob qilib chiqqan edik. Biz Novo-Ogaryovodagi va boshqa joylardagi barcha rasmiy uchrashuvlarimizda shu haqda gapirdik. Biz bu haqda odamlarimizni, xalqimizni oshkora xabardor etdik, biz dabdabali va quruq va tanparvarlik tarafdori emasmiz, biz kelajakni o'ylab ish yuritmoqdamiz, biz odamlarni zarur narsalar bilan ta'minlamoqchimiz, biz O'zbekistonda yashayotgan barcha kishilarning farovon yashashi va osoyishta bo'lishi uchun harakat qilmoqdamiz.

Agar Ittifoq shartnomasining matbuotda e'lon qilingan so'nggi variantini tanqidiy nuqtayi nazardan yana bir karra idrok etadigan bo'lsak, u bizning bosh maqsadimiz bo'lgan masalalarni, biz uzoq vaqtdan buyon o'ylab yurgan masalalarni, bizning siyosatimizga hamohang bo'lgan, odamlarimizning ehtiyoji va intilishlariga mos keladigan masalalarni hal etishning murosali, kelishib olingan yo'llarini ifoda etishini nazarda tutgan edik.

Gap nima haqda bormoqda?

Birinchidan. Biz bu shartnomani shunchaki Ittifoq shartnomasi deb emas, ayni vaqtda Suveren davlatlar shartnomasi, deb atadik, bunda har bir respublika, shu jumladan, suveren davlat hisoblangan O'zbekiston ham milliy davlat tuzilishi masalalarini o'z hududida siyosiy, iqtisodiy masalalarning hammasini mustaqil hal etib, o'z xohishiga, respublika xohishiga ko'ra yangitdan tuzilishi mo'ljallanayotgan, yangilangan Ittifoqda oqilona va maqsadga muvofiq tarzda hal etilishi lozim bo'lgan vakolatlarini ko'ngilli ravishda Ittifoqqa topshiradi.

Ochig'ini aytganda, har birimiz — ana shu barcha muzokaralar qatnashchilarining har biri, men o'zim

haqimda aytishim mumkin, mazkur shartnoma federatsiya emas, balki konfederatsiya tusida va maqsadida tuzilgani xususida anchadan beri o'ziga hisob berar va buni aniq ko'rib turar edi.

Ikkinchidan. Biz uchun Ittifoqni federatsiya yoki konfederatsiya deb atash asosiy masala emasdi, balki mazkur shartnoma oldimizda qanday istiqbollari ochildi, qanday mustaqillik beradi, qanday ozodlik keltiradi — ana shu narsa muhim edi. Bu — bizning iqtisodiy strategiyamizga javob berishi muhimdir. Shunday katta respublika, tabiiy, moddiy, xomashyoviy resurslarga boy, xalqi mehnatsevar respublika, 20 millionli emas, balki undan ikki barobar ko'p aholini boqadigan respublika — men bu haqda ko'p marta aytganman — o'z maqsadiga erishishi uchun tashqi aloqalardan to'la foydalanishi, jahon bozoriga mustaqil chiqishi, xorijiy sarmoyalarni jalb etishi, qo'shma korxonalar tuzishi, O'zbekiston zarur deb hisoblagan barcha mamlakatlar bilan konsullik va diplomatik munosabatlarni o'rnatishi va istiqbolda BMT ning to'la huquqli a'zosi bo'lishi zarur.

Biz uchun respublikaning ichki hayoti, eng avvalo, madaniyati va maorifining rivoji, an'analarimiz, ma'naviy hayotimiz barcha jihatlarining rivoji tashqaridan hech qanday zo'ravonliksiz va aralashuvsiz, faqat biz tomonimizdan hal qilinishi ham muhim edi.

Uchinchidan. Yana shu narsa ham muhimki, Ittifoqda davlat hokimiyatining yangi tuzilmalarida, eng avvalo, Oliy Kengashda Respublikalar Kengashi qat'iy va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu teng ovozga ega bo'lgan va mohiyati bilan yangilangan Ittifoqning juda muhim masalalarini hal etadigan, Ittifoqni tashkil qiladigan barcha respublikalarning vakilligidir.

Bugun men aytgan, Ittifoq shartnomasida ko'zda tutilgan ko'pgina masalalarni uning imzolanishini kutib o'tirmasdan amalga oshira boshlaganimizni ham ta'kidlash zarur.

Kelinglar, sizlar bilan birgalikda mustaqil siyosiy yo'limizni amalga oshirish borasida ko'rsatayotgan sa'y-harakatimiz hamda aniq bir maqsadga qaratilgan ishlarimizdan ayrim misollargagina to'xtab o'taylik. Bunday misollar yetarli bo'lib, masalalarning ko'pchiligi sizning bevosita ishtirokingizda hal qilinmoqda. Bularning hammasi bizniki, ularni bizdan hech kim tortib ololmaydi.

Odamlarning ijtimoiy himoyalaniish darajasini oshirishga aloqador ko'p vazifalar hal qilindi. Ularning anchasi qonun hujjatlari bilan mustahkamlandi. Prezident farmonlari hamda hukumat qarorlarida mujassamlandi. Bu o'rinda gap yer uchastkalari ajratish, odamlarni o'z yordamehi xo'jaliklari hamda yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun barcha zarur narsalar — urug'lik va ko'chatlar, buzoq va parranda, binokorlik materiallari bilan ta'minlash to'g'risida bormoqda. Odamlar o'z oilalarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash, xo'jaliklar bilan ortiqcha mahsulotlarni xarid qilish to'g'risida mehnat bitimlari tuzish imkoniyatiga ega bo'ldi.

O'qituvchilarning pensiyasi, maoshi, talabalarning stipendiyalari oshirildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul nonushtalar tashkil etildi, homilador, kamqonli ayollarning imtiyozli ovqatlanishi uchun imkoniyat yaratildi. Urush qatnashchilari, o'qituvchilar yashayotgan davlat va idoralarning uylari ularga shaxsiy mulk qilib berilishi to'g'risida qarorlar qabul qilindi.

Bozor infratuzilmasini shakllantirish yuzasidan tashlangan dastlabki qadamlar sezilarli bo'lmoqda. Respublika markaziy iqtisodiy idoralari isloh qilinish bosqichida turibdi. Ular o'z faoliyatida taqsimlash prinsipidan tobora ko'proq voz kechmoqda, Markazning buyrug'idan xalos bo'lmoqda va mulk shakli hamda kimga tobeligidan qat'i nazar, respublikada joylashgan barcha korxonalar va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirishga tobora ko'proq ahamiyat berishmoqda. Moliya-kredit sohasida chuqur o'zgarishlar ro'y berdi. Ishga joylashtirish xizmati mutlaqo yangi asosda qayta tashkil etilmoqda.

Kichik mulkni xususiyashtirish sohasida sezilarli siljishlar bo'ldi. Savdo, matlubot kooperatsiyasi, maishiy xizmat, mahalliy sanoat tizimida mulkchilikning boshqa shakllari bilan bir qatorda xususiy korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, kooperativlar va kichik korxonalar tarmog'i kengaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatimiz ancha rivojlandi. Toshkent ishbilarmonlar uchrashuvi tashqi bozordagi ishlarimizni jadallashtirishga, xorijiy kompaniyalar, firma va banklar bilan bevosita, o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatishga turtki bo'ldi. U xorijdagi ko'plab biznesmenlar uchun O'zbekiston misolida istiqbolli va ishonchli sherikni topib berdi. Uchrashuv chog'ida va undan keyin imzolangan bitim va shartnomalar respublikamizning tashqi iqtisodiy imkoniyati katta va xorijiy sheriklar bilan mustahkam aloqalar o'rnatishdan manfaatdor ekanidan dalolat beradi.

Biz bularning hammasini mustaqil ravishda, yetilgan masalalarni hal etishda Ittifoq idoralaridan ancha o'zgan holda qilyapmiz va Markazda hech kim bizni bu masala yuzasidan tabriklagani yo'q. Aksincha, bu-

larning hammasini Prezident Karimovning o'zbo-shimcha ish tutishidir, deb hisoblashdi. Bularning hammasi Ittifoq ko'rsatmalariga javob bermaydi yoki ularga ziddir, bularning hammasi vaqti kelib tugatiladi, deb aytishdi.

Buning ajablanadigan joyi yo'q. Markaz o'tkazayotgan siyosat chor Rossiyasi o'tkazgan siyosatdan kam farq qilardi, respublikamiz xomashyo bazasi bo'lib qolgan edi va bunday holga barcha tashkilotlar, eng avvalo, KPSS Markaziy Komiteti bilan Ittifoq rahbar organlari asosiy masala, deb qarar edi. Ular faqat bir narsani bilishardi — mazkur mintaqa paxta, xomashyo bilan ta'minlashi kerak, qolgani esa suvga cho'kayotganlarning o'z ixtiyoridadir, deb o'ylashardi. Bizga ko'p narsalar va'da qilindi. Respublikamiz mamlakat paxta mustaqilligi yo'lida ancha qurbonlar berdi. Biz, eng avvalo, aholini go'sht, sut, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan, xalq iste'moli mollari bilan ta'minlash masalalarida qaram bo'lib qoldik. Ekologiya to'la buzilgani to'g'risida gapirmay qo'yaqolaylik. Bu o'rinda kishilarning zaharlangani va ular umrining qisqarganini aytib o'tish kifoya. Bularning barchasi KPSS Markaziy Komitetining partiya shiori ostida olib borgan siyosati oqibati edi. Bularni to'g'ridan to'g'ri va oshkora aytish kerak, bu siyosat O'zbekistonni jar yoqasiga olib keldi, uni qashshoqlashtirib yubordi. Bizni, o'zingizni o'zingiz boqa olmaysiz va sizga berilayotgan har bir sadaqa uchun Markazga minnatdorlik bildirishingiz kerak, deb ishontirishardi.

Kelinglar, ochig'ini aytaylik. Syezd qarorlariga hech bo'lmasa birorta kerakli satr kiritish uchun qanchadan qancha qiyinchiliklarga duch kelinar, azob tortilar edi. XXVIII syezdni olib ko'raylik. Besh respublika vakil-

lari Orol fojiasiga doir rezolutsiya qabul qilinishi uchun qancha uringanini esga oling. Syezd juda ko'p qarorlar qabul qildi. Lekin bizning, aytish mumkinki, Orol bo'yidagi odamlar aslida o'lib ketayotgani, genofondimiz halokatga yo'liqayotgani to'g'risidagi qalb hayqirig'imizni hech kim eshitmadi, peshonamiz me-tindek qalin devorga borib urilaverdi.

KPSS Markaziy Komitetining mensimasligi va buyruqbozligi shu darajaga borib yetdiki, Markaziy Komitet kotibi yoki viloyat komitetining birinchi kotibi haqida gapirmay qo'yaqolaylik, hatto, obkom kotibini tavsiya etish uchun kelishib olishga yaqin-yaqingacha majbur bo'lib keldik. Kim bilan kelishardik deng? Qandaydir sektor mudiri yoki yo'riqchi bilan, uning xonasi oldida qabul qilishini kutib navbatda turardik. Barcha darajadagi partiya xodimlarining taqdiri shu kishilarga, KPSS Markaziy Komiteti apparatining oddiy amaldorlariga bog'liq bo'lib qolgandi.

Mogilnichenko, Bessarabov hamda ularning eng faoli Ponomaryovni bir eslang. Ularning bu yerga kelishi qanday ta'riflangan edi? Bu butun bir voqea bo'lgan edi. Lekin ular o'zlaridan yaxshi xotira qoldirishmadi. Ular birinchi kotib xonasi eshigini chap oyog'i bilan ochib kirishardi. O'shanda plenumlarda qilingan barcha ma'ruzalarni, men shuni ochiq aytishim kerakki, avvaliga Ponomaryov, Anishchev, Ogarok va ularning to'dasi tahrir qilardi, so'ng Usmonxo'jayev minbarga chiqib, ana shu tayyor narsalarni o'qishga tushardi. U ko'pincha ma'ruzada gap nima haqda borayotganini bilmagan holda o'qirdi.

Ana shu kishilarning xohish-irodasi bilan qanchadan qancha odamlarning, shu jumladan, kommunistlarning, qanchadan qancha rahbarlar va ularning oilalari taqdiri

buzildi. O'zbekistonni hech qachon bilmagan, uning tili, madaniyati, bugungi kuni va o'tmishini bilmagan, umrida O'zbekistonni ko'rmagan bu odamlar uning faqat qullarcha ta'zim qilishini xohlashardi. Shunday kishilar siyosat yurgizishardi. Yuqorida o'tirganlarning hammasi ularning amaldorlari tayyorlagan qarorlar-gagina imzo chekishardi.

Faqat 1989-yilda, O'zbekistonda Gdlyan va Ivanov «faoliyatiga» qarshi qattiq kurash avjiga chiqqan vaqt-dan boshlab hushimizga keldik. Xalq haqoratlangan edi, qadimiy sivilizatsiya, juda boy madaniyatga, buyuk me'morlar va mutafakkirlarga ega bo'lgan bu xalqni tiz cho'ktirishni xohlashardi. Ana o'shanda, xalqimiz uyg'ona boshlagan paytda to'g'onlar ochilib, jilla bo'lmasa haddidan oshgan prokuror va tergovchilarni tiyib qo'yishga harakat qilindi.

Men Gdlyan bilan Ivanovning zimmasiga keragi-dan ko'proq ayblarni yuklayotganimizga ishonaman. Ular oliy darajadagi rahbarlarning qo'llarida itoatkor qurol bo'lgan edi, xolos.

Bu ishning boshida turgan Ligachyov qayerda? U shu kungacha o'zini juda yaxshi his qilmoqda, esdaliklar yozmoqda, qolganlarning hammasi ham dam olib yurishibdi. O'zlariga yoqmaydigan barcha kishilardan ana shu bahonada o'ch olish imkoniyatini beradigan ro'yxatlarni Toshkentdan yuborib turgan va xushomadgo'ylarcha axborot bilan ta'minlagan yuvindixo'rlar qayerda qoldi? Bu kishilarga hech qanday rahm-shafqat bo'lishi va ularni kechirish mumkin emas.

Xo'sh, KPSS Markaziy Komitetida Gdlyan bilan Ivanovni to'xtatib qolishga kim urindi? Qanchadan qancha xatlar, adolat so'rab yozilgan iltimosnomalar...

Ularni to'xtatishga kim harakat qildi? Barcha qishloqlar, rayonlardan yuborilayotgan bu iltijolarda aks etgan xalq qayg'usi, uning nidolarini hech kim eshitmadi.

Bu — bizning kechagi kunimiz. Lekin, ochig'ini aytadigan bo'lsak, uning oqibatlari hozir ham sezilib turibdi. Biz bu masalalarni unuta olmaymiz. Xalq buni hech qachon unutmashligiga ishonchim komil. O'n yillar o'tadi, lekin xalq buni hech qachon esdan chiqarmaydi va kechirmaydi.

Agar oliy darajadagi adolat bo'lsa, bu odamlarning hammasi shu yerda, O'zbekistonda vijdon sudi oldida javob berishi kerak. Ushbu to'daning tashkilotchisi va ilhomchisi sifatida Ligachyov ham javob berishi zarur. G'ayriqonuniy qatag'onlarga qarshilik ko'rsatishi uchun irodasi ham, mardligi ham yetishmagan beqaror rahbarlar ham vijdon sudi oldida javobgardir.

Men shu kunga qadar ham imperiyachilik ruhiyati bartaraf etilmaganini qat'iy aytaman. Ittifoq shartnomasi ustida olib borilgan muzokaralar chog'ida sug'urta jamg'armasini tuzish to'g'risida muttasil bahs bo'lmoqda. Bu sug'urta jamg'armasi hammani va eng avvalo, O'rta Osiyodagi barcha respublikalarni teppateng boshlang'ich shart-sharoitga qo'yish uchun kerak. Hozir ham bu masala hal etilgani yo'q.

Axir, musbatli budjeti bo'lgan respublikalar ham biron narsada yon bosmoqchi emas. Ular hali ham cho'kayotganlar o'zlarini o'zlari qutqarishi kerak, degan eski ashulani takrorlashda davom etmoqda. Ya'ni, biz qandoq qashshoq kun kechirgan bo'lsak, shunday ahvolda qolaverishimiz kerak.

Besh respublika rahbarlari bilan uchrashuvimiz, eng avvalo, o'z oldiga qanday maqsadni qo'ygan edi? Chunki, olti vil mobavnida hech narsa qilinmadi va

biz xalqlarimiz yo'liqqan bunday ahvolga ortiqcha toqat qila olmaymiz. Biz o'z kuch-g'ayratimizni birlashtirishimiz kerak, shunday qilishga majburmiz. Kurashsiz, aniq va ravshan, mustaqil siyosatsiz hech narsaga erisha olmasligimizni takrorlamoqchiman.

Vaziyat juda tez o'zgarmoqda. Siyosiy hayot markazining «Markazdan» amalda Rossiyaga o'tganidan so'ng, Ukraina o'z mustaqilligini e'lon qilganidan so'ng, Boltiqbo'yi respublikalarining davlat mustaqilligini tan olish sari sezilarli siljish bo'lganidan so'ng biz respublika suvereniteti to'g'risidagi deklaratsiya prinsiplarini rivojlantirishda yangi qadamlar qo'ymasdan tura olmaymiz. O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi bilan respublika Davlat xavfsizligi komitetini O'zbekiston tasarrufiga o'tkazish, SSSR Ichki ishlar vazirligining respublikada joylashgan ichki qo'shinlarini O'zbekiston SSR Prezidentiga bo'ysundirish, huquqni muhofaza qilish organlarini, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarini va Turkiston harbiy okrugining O'zbekistonda joylashgan qismlari va muassasalarini partiyadan xoli qilish to'g'risidagi O'zbekiston SSR Prezidenti Farmoni ana shu tadbirlarning dastlabkisi bo'ldi. Mazkur Farmonga muvofiq, Oliy Kengash Rayosatiga O'zbekiston mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyihasini qisqa muddat ichida ishlab chiqish va yaqin orada bo'ladigan sessiyaga kiritish taklif etildi.

Bular juda zarur tadbirlardir. Bu tadbirlar to'g'ri tushunilishiga umid qilamiz. Bu tadbirlar odamlarning milliy mansubligiga qarab biron-bir kamsitilishiga hech qanday yo'l qo'ymasligi xususida Prezident sifatida sizlarni yana bir marta ishontirishni o'z burchim deb hisoblayman. Respublikada yashayotgan barcha millat va elatlar vakillarining konstitutsiyaviy huquqlarini

himoya qilish, ularning haqiqiy teng huquqiyligini ta'minlash, ular o'z ona tilida o'qishlari va muomala qilishlari uchun teng imkoniyat yaratish, milliy-madaniy an'analarni saqlash va rivojlantirish uchun hamma ishlar qilinadi. Bizning siyosatimiz fuqarolar tinchligi va milliy totuvlik siyosati bo'lgan va shunday bo'tib qoladi.

Bularning hammasini sizning e'tiboringizga havola qilinayotgan masalalarni muhokama qilish chog'ida hisobga olishingizni so'rayman.

Birinchi. Biz Markaziy Komitet Byurosi va Markaziy nazorat komissiyasi Rayosatining bayonotida davlat to'ntarishi sodir etishdek jinoyatkorona urinishga o'z bahomizni qat'iy bayon etganmiz. Favqulodda holat davlat komiteti deb atalmish komitet paydo bo'lgan dastlabki soatlardan o'q biz o'z siyosatimizga asoslandik va kimlarningdir qandaydir ko'rsatmalariga amal qilishga ehtiyoj sezmadik. Bularning hammasi qabul qilingan qarorlar, Hindistondan qaytib kelgach, ikki soat o'tgandan keyin Toshkent shahar faollari bilan uchrashgan dastlabki kunimdayoq bergan bayonotim bilan tasdiqlanadi. Keyin ham biz bu haqda aniq va ravshan aytdik.

Plenum biz tutgan yo'lni, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi va O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston, viloyatlar va Toshkent shahar rahbarlari ishtirokida 19–21-avgust kunlari yuzaga kelgan vaziyat yuzasidan o'tkazilgan qo'shma majlisining bayonotini qo'llab-quvvatlashiga ishonamiz.

Biz plenum nomidan bu vaziyatda gangib qolmagan kishilarga, sabr-toqat, oqillik, vazminlik ko'rsatgan va turli ig'volarga uchmagan kishilarga — bunday odamlar xalqimizning ko'pchiligini tashkil etadi — minnatdorlik bildirishimiz va rahmatlar aytishimiz kerak.

Ikkinchi. Bir xil fikrlaydigan va dogmatiklarning yo'lini quvvatlaydigan KPSS Markaziy Komiteti rahbarlarining ham o'tmishdagi, ham hozirgi vaqtdagi barcha yovuzliklari, barcha buzg'unchiliklari, barcha jinoyatkorona xatti-harakatlarining bahridan to'la o'tishimiz kerak. O'zbekiston hamma vaqt o'ziga xos madaniyatga, hamma vaqt sog'lom fikrlovchi kishilarga ega bo'lganini, eng og'ir vaziyatlarda hamma vaqt xalqimizning donoligiga, aql-zakovatiga, qalb saxovatiga tayangan holda kerakli va to'g'ri qarorlar topa olganini butun dunyoga aytish kerak.

Uchinchi. Biz plenumimizda O'zbekiston Kompartiyasi KPSS Markaziy Komiteti bilan har qanday aloqalarni to'la to'xtatayotganini, KPSS ning barcha tuzilmalaridan chiqib, uning markaziy organlaridan o'z vakillarini chaqirib olayotganini aytishimiz va buni navbatdan tashqari syezdda tasdiqlatib olishimiz kerak. Biz o'z partiya a'zolarini o'z qo'liga to'la olayotgan mustaqil siyosiy tashkilot sifatida tashkil topganimizni butun mas'uliyat bilan aytamiz.

To'rtinchi. Men partiyamizning navbatdan tashqari XXIII syezdiga tayyorgarlik ko'rish uchun Markaziy Komitet komissiyasi tuzilishi to'g'risidagi taklifni sizning muhokamangizga qo'yaman.

Biz bugungi kunda KPSS da vujudga kelgan vaziyat totalitar davlatning mafkuraviy asosini tashkil etgan butun bir aqidalar tizimi hamda turli xildagi «izmlar»ning barbod bo'lganini bildirishini va ular totalitar tuzumlar bilan birgalikda tarix bo'lib qolishi kerakligini anglab yetmog'imiz lozim. **KPSS ning jamiyatda ro'y berayotgan jarayonlardan shu qadar orqada qolishi, allaqachon yetilgan isloh qilish jarayonining konservativ kuchlar tomonidan to'xtatib**

qo'yilishi uning amalda parchalanib ketishiga olib keldi.

Bundan to'g'ri saboq chiqarib olish kerak. Mafkuramizni, dasturiy maqsadlarimizni, partiya tuzilmalarini, uning jamiyatdagi faoliyati shakllari va uslublarini tubdan qayta ko'rib chiqish, **Dasturimiz hamda ustavimizga tegishli o'zgartishlar kiritish, biz syezdda qabul qiladigan dasturiy hujjatlarga muvofiq partiya nomini o'zgartish to'g'risidagi masalani qo'yishimiz zarur. Agar buni qilmasak, KPSS ga o'xshab bir chekkaga chiqib qolamiz.**

Plenumimizdan so'ng bugun biz qabul qiladigan qarorlarga muvofiq ana shu va boshqa masalalar bo'yicha barcha faollar, respublika xalqi bilan yaxshi maslahatlashib olsak to'g'ri bo'ladi, deb o'ylayman.

Biz bir yoqadan bosh chiqargan holdagina to'g'ri siyosiy yo'lni ishlab chiqishimizga aminmiz. Bugungi kunda faollarimiz sarosimaga tushmay, ig'volarga uchmay, partiyamizni demokratik yo'l bilan chuqur isloh etish uchun barcha ishlarni qilishlari kerak, deb hisoblaymiz. Bizda mehnatkashlar va butun aholining keng hamda mustahkam qo'llab-quvvatlashiga, oliyjanob maqsadlariga erishish yo'lini — huquqlari, ijtimoiy holatni ta'minlash, respublikamizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning yashashi uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish, ularning ma'naviy insonparvarlik asosida axloqiy jihatdan yangilanishini ta'minlash va bundan keyin ham izchil og'ishmay amalga oshirish borasida barcha zarur shart-sharoitlar mavjud.

*O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti
bilan Markaziy nazorat komissiyasining qo'shma
plenumidagi ma'ruza*

1991-yil 28-avgust

O'ZBEKISTON SOVET SOTSIALISTIK RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

KPSS NING O'ZBEKISTON SSR HUDUDIDAGI MULKI TO'G'RISIDA

Respublika mehnatkashlarining ko'pdan ko'p istak va talablarini, jamiyatda sodir bo'layotgan yanada demokratiyalash jarayonlarini e'tiborga olib, O'zbekiston SSRning davlat mustaqilligi to'g'risidagi deklaratsiyaga va SSSR Prezidentining «Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasining mulki to'g'risida» 1991-yil 24-avgustdagi farmoniga amal qilib:

1. Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasining O'zbekiston SSR hududidagi butun mulkini respublika mulki, ya'ni umumxalq mulki deb e'lon qilaman.

2. O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi va joylardagi xalq deputatlari kengashlari ushbu farmonni ro'yobga chiqarish borasida zarur ishlarni amalga oshirib, respublika mulki deb e'lon qilingan partiya mulkining saqlanishini va bundan buyon shu mulkdan O'zbekiston SSR qonunlariga muvofiq foydalanishni ta'minlasin.

Mazkur farmon imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi.

O'zbekiston Sovet Sotsialistik
Respublikasi Prezidenti

I. KARIMOV

*Toshkent shahri,
1991-yil 29-avgust*

MUSTAQIL O'ZBEKISTONNING DAVLAT SIYOSATI INSONIYLIK VA EZGULIK QONUNLARIGA ASOSLANADI

Hurmatli o'rtoqlar! Yurtdoshlarim!

19—21-avgust kunlari ro'y bergan davlat to'ntarishi sababli mamlakat dahshatli halokat girdobiga g'arq bo'ladigan holatga kelib qoldi. O'zlarini SSSRda Favqulodda holat davlat komiteti deb e'lon qilgan bir guruh kimsalar millionlab odamlarning boshiga yangidan misli ko'rilmagan azob-uqubatlar solmoqchi bo'lishdi. Butun-butun xalqlarning ozodligini, respublikalar mustaqilligini yana kishanlamoqchi bo'lishdi. Ular Ittifoqdagi og'ir, murakkab vaziyatdan foydalanib, o'z nopok maqsadlariga erishmoqchi bo'lishdi.

Nega deganda, **Markazning boshqaruvi mutlaqo zaiflashib, parokandalik va sarosimada qoldi. Mamlakatni idora qilishga uning qurbi qolmadi.** Respublikalarning mustaqil davlat bo'lishga intilayotgani Markazda o'tirganlarni qo'rqitib yubordi. Hokimiyat qo'ldan ketsa, o'zlarining hech kimga kerak bo'lmay qolishini anglab qolishdi.

Xullas, ular unitar, o'zbekcha qilib aytsak, markazlashtirilgan butun hokimiyatni, hukmronlikning hammasini o'zining, ya'ni Markaz rahbarlarining qo'lida saqlab qolishga harakat qilishdi.

Bo'lib o'tgan bu voqealar xalq xo'jaligiga, odamlarimiz hayotiga katta zarba berdi. Shusiz ham jar yoqasi-

ga kelib qolgan mamlakat qanchalik alg'ov-dalg'ov bo'lib ketganiga Moskvada o'tayotgan sessiyalar, ulardagi tortishuv va mojarolar yaqqol misoldir.

Davlat to'ntarishi ustidan qozonilgan g'alaba ayrim guruhlarining boshini aylantirib qo'ydi. Ayni vaqtda aql-idrok poymol qilingan umidlarni tikladi. Lekin shu bilan birga, mulohaza, o'zaro hurmat o'rnini yana qonunsizlik, buyruqbozlik, boshqalarni mensimaslik, ba'zan esa ochiqdan ochiq fitna va qatag'on alomatlari egallayapti. Mamlakatda hamma hukmronlik, eng muhim davlat lavozimlarining faqatgina bitta, eng katta respublika qo'liga berilayotganining guvohi bo'lyapmiz.

Bunday harakatlar hech qachon yaxshilikka olib kelmagan va olib kelmaydi ham..

Mamlakatda yana qarama-qarshilik kuchayadi, tushunmovchiliklar, nizo ko'payadi. Oqibatda yana xalq azob chekadi, tinchligini yo'qotadi.

Har qanday og'ir sharoitdan faqat hamjihatlik, murosa, bir-biriga ishonch va bardosh bilan chiqib olish mumkin. Bu — mening qat'iy fikrim.

Mamlakatda bugun mavjud bo'lgan keskin qarama-qarshilik vaziyati bir kunda paydo bo'lgani yo'q.

Novo-Ogaryovoda Ittifoq shartnomasi ustida ish olib borilayotgan bir paytda SSSR Oliy Kengashi rahbarlarining pozitsiyasi ma'lum bo'ldi. Ular **har xil siyosiy niqoblar ostida davlatni, markaziy boshqaruvni eski holicha saqlab qolishga, Ittifoq shartnomasini tayyorlash va imzolashda esa, Ittifoq Oliy Kengashiga eng oliy, ya'ni hal qiluvchi huquqlar berilishiga harakat qilishdi.**

Biz esa Ittifoqni faqat uning tarkibiga kiruvchi davlatlarning to'liq mustaqilligi va teng huquqliligi bilan yangilash mumkin, degan fikrda qat'iy turdik. Asosiy kelishmovchilik mana shundan iborat edi.

Respublikalar o'zlari xohlagan vakolatlarni Ittifoqqa emas, balki Ittifoq xohlagan vakolatlarini respublikalarga berarmish.

Ittifoq organlarini yangilashning birmuncha qoniqarli yo'llarini taklif qilgan «9 plyus 1» murojaatiga bo'lgan hujumlarni eslang. Axir, o'sha paytda bu takliflar o'zaro kelishuvni ta'minlaydigan to'g'ri yo'l edi.

Menga Hindistonda, to'ntarishdan bir kun oldin, mamlakatingizda harbiy to'ntarish bo'lishi mumkinmi, deb savol berishdi. O'shanda men, bizda o'ngdan ham, so'ldan ham xavf va do'q-po'pisa bor, deb javob qaytardim. Bizni qutqaradigan yagona chora — tezroq mustaqil davlatlar shartnomasini imzolash, dedim.

Konservatorlar, eskicha fikrlovchi kishilar o'z maqsadlariga yetolmagach, davlat to'ntarishidek mudhish yo'lga o'tishdi. Bu qadam, avvalo, Ittifoq shartnomasi imzolanishini barbod qilishga qaratilgan edi. Bu — mamlakat xalqlarini yana siyosiy va ijtimoiy parokandalikka, to'qnashuvlarga ro'baro' qilish degan gap edi. Shuning uchun menga bu haqda Hindistonda xabar berishganida, xayolimga kelgan birinchi fikr bu to'ntarishning umri qisqa, u — qalloblik, avantyura, degan fikr bo'ldi.

To'ntarishning dastlabki soatlari va kunlaridan O'zbekiston va uning rahbariyati o'z munosabatini qat'iy ma'lum qildi: **bizning o'z maqsadimiz va o'z yo'limiz bor. Bu yo'l — xalqimizning manfaatiga mos yo'ldir va biz unga, nima bo'lmasin, qat'iy amal qilamiz.**

Shunga asoslanib, biz umumxalq muhokamasidan o'tgan respublikamiz Davlat mustaqilligi deklaratsiyasi hamda konstitutsiyaviy tuzum prinsiplarini chekinmay himoya etib kelyapmiz.

Respublika Prezidentining xalqqa murojaatida aytilganidek, Markazdan qanday ko'rsatmalar kelmasin, qanday va'dalar berilmasin, qanday chaqiriq va do'q-po'pisalar bo'lmasin, har qanday sharoitda ham biz o'zligimizni, vijdonimizni yo'qotmaymiz, belgilangan siyosiy yo'limizdan qaytmaymiz.

Biz har qanday siyosiy va ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf qilish uchun tinch vaqtda kuch ishlatishga va ayniqsa, harbiy kuch ishlatishga tamomila qarshi chiqdik.

Prezident farmoni bilan respublika hududida favqulodda holat komiteti deb atalgan soxta komitetning qonunga, Konstitutsiyaga xilof farmon va qarorlari bekor qilindi.

Bizning munosabatimiz halol va ochiq-oydin edi. Biz xalqdan hech narsani yashirganimiz yo'q.

Shu fursatdan foydalanib, ig'volarga uchmagani uchun, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlab qolgani uchun, bizni qo'llab-quvvatlagani uchun xalqimizga cheksiz minnatdorlik bildiramiz.

Yana bir masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. To'ntarish barbod bo'lgani ravshanlashgani sari dastlabki daqiqalardan boshlab ko'plar o'zlarini oqlashga, yana ko'kragiga urib, o'zining sadoqatli ekanini ko'rsatishga kirishdi va bu hol hozir ham davom etyapti.

Bizning esa siyosatimiz o'zgargani yo'q. Ishonchim komilki, bizning hech kim oldida yuzimiz qizarmaydi va hech kimga sadoqatimizni isbotlashga hojat yo'q.

Biz uchun eng muhimi — doimo xalq manfaatlariga xizmat qilish, diyorimizda yashayotgan barcha odamlarga yaxshi turmush sharoitlarini yaratishdir.

Yurtimiz — boy, imkoniyatlarimiz — katta. Xalqimiz mehnat qilishni yaxshi biladi, qadimiy an'analar

va boy madaniyatga ega. Bu o'lkada buyuk mutafakkirlar voyaga yetgan.

Mana shunday zamindagi xalq, har bir oila, har bir kishi, millatidan qat'i nazar, baxtli yashashga haqlidir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun biz hamma narsaga tayyormiz.

Bu maqsadga yetishning asosiy sharti — fuqarolar hamjihatligi, milliy totuvlik, hayotning barcha sohalarida iqtisodiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish bilan birga mustahkam tartib-intizom o'rnatishdir.

Oliy Kengashimizning o'z faoliyatining birinchi kunlaridanoq qabul qilgan barcha qonunlari, O'zbekiston SSR Prezidentining farmonlari va hukumatimiz qarorlari ana shu maqsadga, respublikaning iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqil rivojlanish yo'liga qaratilgan. Mana shu Oliy Kengash tarkibi qabul qilgan Respublikaning Davlat mustaqilligi deklaratsiyasi buning yaqqol dalilidir.

Biz yuqoridan beriladigan ko'rsatmalarni, suverenitetimiz va mustaqilligimiz yangi Ittifoq shartnomasi bilan qachon mustahkamlanishini kutib o'tirmasdan, darhol bu maqsadni amalda ro'yobga chiqara boshladik. Bu yutuqlarimizni bizdan hech kim tortib ololmaydi.

Odamlarning ijtimoiy himoyalanih darajasini oshirish bilan bog'liq ko'pgina vazifalar hal etildi. Ularning aksariyati tegishli qonunlar bilan mustahkamlandi. Prezidentning farmonlarida va hukumat qarorlarida o'z ifodasini topdi.

Gap yer uchastkalari ajratib berish, o'zining yordamchi xo'jaligini yuritish va yakka tartibda uy-joy qurish uchun odamlarni barcha zarur narsalar — urug'lik va ko'chat, chorva moli va parrandalar, qurilish materiallari bilan ta'minlash to'g'risida boryapti.

Pensiyalar, o'qituvchilarning ish haqi, talabalarning stipendiyalari oshirildi. Boshlang'ich sinflarning o'quvchilari uchun bepul nonushtalar, anemiya, ya'ni kamqonlik kasaliga muhtalo bo'lgan homilador ayollar uchun imtiyozli ovqatlanish joriy qilindi. Urush qatnashchilariga, o'qituvchilarga o'zlari yashab turgan, davlat va idoralarga qarashli kvartiralarini shaxsiy mulk qilib topshirish to'g'risida qarorlar qabul qilindi.

Bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismlarini shakllantirish yo'lida qo'yilgan dastlabki qadamlar amalda sezilarli bo'lib qoldi.

Respublikaning markaziy iqtisodiy idoralari isloh qilinish bosqichida turibdi. Bu idoralar o'z faoliyatida taqsimlash prinsiplaridan tobora voz kechmoqda, Markazning hukmidan xalos bo'lmoqda va mulkchilik shakllaridan, kimga bo'ysunishidan qat'i nazar, respublikada joylashgan barcha korxonalar va tashkilotlarning ishini muvofiqlashtirishga ko'proq e'tibor bermoqda.

Moliya-kredit sohasida chuqur o'zgarishlar ro'y berdi. Ish bilan ta'minlash muassasalari prinsipial yangicha asosda qayta tashkil etilmoqda. Kichik korxonalarini xususiylashtirish sohasida ham sezilarli siljishlar bo'ldi. Savdo, matlubot kooperatsiyasi, maishiy xizmat, mahalliy sanoat sohasida hozirdanoq boshqa mulkchilik shakllari bilan bab-barobar xususiy korxonalar ham ishlab turibdi. Kooperativlar hamda qo'shma korxonalar ko'paydi va kengaydi.

Bizning tashqi iqtisodiy faoliyatimiz sezilarli ravishda rivojlanyapti. Buning uchun qulay huquqiy negizni yaratadigan qonunlar qabul qilindi. Ishbilarmonlarning Toshkentdagi uchrashuvi tashqi bozordagi ishlarni kuchaytirishga, chet el kompaniyalari, firma va banklari

bilan to'g'ridan to'g'ri, o'zaro foydali aloqalarni o'rnatishga turtki bo'lib xizmat qildi.

Uchrashuvda chet ellardagi ko'pgina vatandoshlarimiz ham hozir bo'ldilar, ularning ko'pchiligi birinchi marta ona yurtiga kelishga muvaffaq bo'ldi. Ular bizni qo'llab-quvvatlash va har qanday yordam berishga tayyor ekanini bildirishdi. Toshkent uchrashuvi ko'pgina chet ellik sarmoyadorlar uchun O'zbekiston istiqbolli va ishonchli sherik ekanini namoyon qildi. Uchrashuv davomida va undan keyin imzolangan shartnoma va bitimlar respublikaning tashqi iqtisodiy imkoniyatlari kattaligini, chet ellik sheriklar bilan barqaror aloqalarni yo'lga qo'yishdan hammaning o'zaro manfaatdorligini ko'rsatdi.

O'zbekiston hukumat delegatsiyasining Hindistonga birinchi mustaqil, rasmiy tashrifi ham tanlagan yo'limiz to'g'ri ekanining yaqqol dalilidir.

Tashrif davomida bu buyuk qo'shni davlat rahbariyati bilan imzolangan hujjatlar asosida men shuni ishonch bilan ayta olamanki, bu tarixiy bitimlar biz uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Biz bularning hammasini mustaqil ravishda hal etib, yetilgan masalalarni yechishda Ittifoq idoralaridan sezilarli ravishda oldinda boryapmiz. Bu xususda Markazdagilarning birortasi ham bizni olqishlab qabul qilayotgani yo'q. Aksincha, go'yo bu — O'zbekiston Prezidentining o'zboshimchaligi deb hisoblashmoqda. Bularning hammasi Ittifoq ko'rsatmalariga muvofiq kelmas yoki ularga zid emish. Go'yo bularning hammasi vaqti kelib tugatilar emish.

Bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Markaz o'tkazib kelgan siyosat respublikaning rivojlanishiga, avvalo, uning mustaqilligiga, milliy tiklanishiga ziyon yetkazdi,

xolos. Bu siyosat respublikaga xomashyo bazasi rolini ajratib qo'ygan bo'lib, chor Rossiyasining siyosatidan deyarli farq qilmasdi.

Ittifoqning barcha boshqaruv idoralari mana shuni asosiy o'ringa qo'yishgan edi. Ular faqat bitta narsani bilishardi — bu mintaqa paxta, xomashyo bilan ta'minlashi lozim, qolgani esa nochor xalqning o'ziga havola edi. Bizga ko'p narsa va'da qilishgandi. Mamlakatning paxta mustaqilligi yo'lida respublika ko'p qurbonlar berdi. Xalqimiz taqdiri go'sht, sut va hayot uchun eng zarur bo'lgan boshqa mahsulotlarning faqat chetdan olib kelinishiga bog'liq qilib qo'yildi.

Mana shularni ochiq aytish payti keldi, aks holda biz xalqni ishontira olmaymiz. Shuni ro'yirot aytish kerakki, bunday siyosat O'zbekistonni halokat yoqasiga, qashshoq, nochor ahvolga olib keldi. Budjetda esa moliyaviy qaramlikka olib kelib qo'ydi.

Sarf-xarajatlarimizning yetishmayotgan qismini qoplash uchun Markaz biroz qo'shimcha pul — sadaqa beradi, degan umid bilan yashashga bizni majbur qilishdi, har bir arzimagan narsa uchun biz Markazga bo'yin egib borar edik.

Bu vaqt ichida bizga kim do'st-u kim dushman, kim bizga yaxshilik, tinchlik, xotirjamlik tilaydi-yu, kimning qo'ynida toshi borligini ham aniq bilib oldik.

Biz yurtimizni chin yurakdan sevib, unga ko'ngil qo'yganlarni ham va aksincha, bizning tariximizni, tilimizni, urf-odatlarimizni, ulug' madaniyatimizni hech qachon bilmagan va bilishni istamaydiganlarni ham tushunib yetdik.

Siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy erkinlikka erishish, respublikamizning ozodligi va mustaqilligi yo'lida gunohsiz jabr tortgan avlodlarimiz, odamlarimiz sha'-

nini, nomini, or-nomusini tiklash borasida so'nggi yillarda qilingan ishlarni xalqimiz qo'llab-quvvatladi. Aholining barcha tabaqalari vakillari bundan ruhlandi, xalqning siyosiy va ma'naviy ongi yuksaldi, xullas, odamlarning qaddi rostlandi.

Bularning hammasiga xalqimiz ne azoblar bilan, o'zining butun tarixi va misli ko'rilmagan mehnati bilan erishdi. Shuning uchun biz bu yo'ldan qaytmaymiz. Bu — bizning xalqimiz, uning kelajagi oldidagi burchimiz, javobgarligimizdir.

Bugun xalqimizga shu narsa aniqki, o'z oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarga erishishning yagona yo'li bor. U ham bo'lsa — respublikaning mustaqilligiga erishishdir.

Mamlakat katta falokat yoqasiga, jar yoqasiga kelib qolganini ko'rib turibmiz. Xalq o'zining ertangi kuniga ishonchini kundan kunga yo'qotyapti. Odamlar o'zining, oilasining, bola-chaqasining tinchligiga kafolat istaydi. To'kis xotirjam hayot talab qilyapti. Bu istaklar, bu talablar safsatabozlik va va'dabozliklar ostida ko'milib ketyapti.

Bizning xalqimiz sabr-bardosh, yaxshilik, osoyishtalik, boshqa xalqlarga nisbatan xayrixohlik ruhida tarbiyalangan. Bu xalq bugun bizdan himoya talab qilyapti, tinch-totuv hayot, og'ir mehnatiga yarasha turmush sharoitlari talab qilyapti. Bu — haqqoniy talabdir.

Xabaringiz bor, biz so'nggi paytda Ittifoq shartnomasini imzolashni tezlashtirish tarafdori bo'lib keldik. Agar bu Ittifoqning konfederatsiya asosida haqiqatan ham teng, Mustaqil davlatlar ittifoqi bo'lishiga ishonch bo'lganda, biz bugungi kunda ham bu fikrimizdan qaytmas edik.

Ammo yana qaytarib aytaman, vaziyat juda tez o'zgarib bormoqda.

Men bugun mazkur sessiya ishtirokchilarigagina emas, butun xalqimizga ham murojaat qilib aytmoqchiman: **O'zbekiston rahbariyati hech qachon, qanday ittifoq bo'lmasin, kim bilan ittifoq bo'lmasin, qanday sharoit bo'lmasin, ikkinchi darajali rolga rozi bo'lmaydi, bunga yo'l ham qo'ymaydi. Tenglar ichida teng bo'lish – xalqimizning asriy orzusidir.**

Shuning uchun biz o'z mustaqilligimizni yanada mustahkamlash yo'lida yangi qadamlar qo'yishimiz shart. O'zbekiston davlat mustaqilligi deklaratsiyasi qabul qilinishi qatorida O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizligi komitetining respublika qaramog'iga o'tishi, SSSR Ichki ishlar vazirligining yurtimizdagi qo'shinlari respublika Prezidentiga bo'ysundirilishi, huquq-tartibot organlarida, Ichki ishlar vazirligining hamda Turkiston harbiy okrugining O'zbekistonda joylashgan qo'shinlarida partiya tashkilotlarining tugatilishi ana shunday birinchi qadamlardir.

Biz bilan samimiy do'stlik aloqalarini, teng va o'zaro foydali hamkorlikni o'rnatmoqchi bo'lgan barcha kishilar bu tadbirlarimizni to'g'ri tushunishini xohlayman.

Bu mamlakatimizdagi boshqa xalqlar bilan aloqalarni mutlaqo uzish degan gap emas. Xususan, bir-biriga payvand bo'lib ketgan xalqlar yashaydigan O'rta Osiyo sharoitida buni tasavvur qilib ham bo'lmaydi. O'zbekistonning Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston xalqlari bilan ming yillik mushtarak tarixi va madaniyati, qavm-qarindoshligi, umumiy orzu-umidlari bor. Ularni hech qanday kuch bir-biridan ajratolmaydi.

Biz bu aloqalarni, bu hamkorlikni bundan keyin ham mustaqil davlatlar hamkorligi sifatida rivojlantirmoqchimiz. Besh respublika rahbarlarining Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvida qabul qilingan qarorlarini og'ishmay amalga oshiramiz. Mintaqada yashovchi barcha xalqlarning hayotiga va tinch-totuvligiga ta'sir qiluvchi murakkab ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy muammolarni faqat birgalikda hal eta olishimizga ishonchimiz komil...

Mana shu sharoitga, sabablarga asoslanib, xalqimiz xohish-irodasini *bajo* keltirib, Oliy Kengash diqqatiga faqat bir masalani qo'ymoqchiman: O'zbekistonning mustaqilligi haqidagi qonunni muhokama etish va uni qabul qilishni taklif etaman.

Bu qonunda qadimiy va yangilanayotgan diyorimizda istiqomat qilayotgan barcha kishilarning xohish-irodasi o'z ifodasini topgan. Xalqimizning bu ezgu xohish-irodasi biz uchun muqaddasdir.

So'zimning oxirida O'zbekistonning mustaqilligi e'lon qilinishi munosabati bilan uning hududida yashovchi biron-bir fuqaroning millatiga qarab kam-sitilishiga yo'l qo'yilmasligini yana bir karra ishontirib aytishni o'zimning Prezidentlik burchim deb bilaman.

Respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha millat vakillarining konstitutsiyaviy huquqlarini muhofaza etish, ularning madaniyati, milliy urf-odatlarini rivojlantirishiga, ona tilida so'zlashishi va o'qishiga barcha sharoitlarni yaratish uchun bor imkoniyatlar ishga solinadi.

Mustaqil O'zbekistonning siyosati — insoniylik, ezgulik qonunlariga asoslanadi hamda fuqarolar osoyishtaligi va milliy murosa siyosati bo'lib qoladi.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat tashkil etish huquqiga ega.

Suveren O'zbekiston Respublikasi hududida SSSR Qurolli Kuchlarini shakllantirish va ularga rahbarlik qilish masalalarida harbiy siyosatni amalga oshirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining moddiy asosi uning mulkidir.

Respublika hududidagi yer, yer osti boyliklari, suv va o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma'naviy boyliklari O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi.

8-modda. Davlat mulki obyektlari, shuningdek davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining, shu jumladan, Ittifoq qaramog'ida bo'lib kelgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mol-mulki, ularning asosiy ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va oborot yoki boshqa fondlari hamda o'zga mol-mulki, ichki kommunikatsiya, transport, aloqa va energetika tizimlari, respublika kartografiyasi va geodeziyasi O'zbekiston Respublikasining mulkidir.

9-modda. O'zbekiston Respublikasining mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish respublika qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi. Respublika hududida joylashgan, Ittifoq qaramog'ida bo'lib kelgan davlat korxonalarini aksiyali jamiyatlarga aylantirish, ularni mulkning boshqa shakllariga o'tkazish faqat O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan shartlar asosida va tartibda amalga oshiriladi.

10-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida oltin, boshqa qimmatbaho metallar va toshlarni qazib

chiqarish, qayta ishlash va saqlashni mustaqil amalga oshiradi hamda nazorat qiladi, o'z oltin zaxirasini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi SSSR ning oltin zaxirasida, olmos va valuta jamg'armalarida o'z ulushiga ega.

11-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z pul birligi — milliy valutasini joriy etishga, jami pul oboroti, pul va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari emissiyasi hajmlarini mustaqil belgilashga haqli.

12-modda. O'zbekiston Respublikasi mustaqil moliya va kredit siyosatini amalga oshiradi. Respublika hududida olinadigan soliqlar va yig'imlar O'zbekiston Respublikasining davlat budjetiga va mahalliy budjetlarga tushadi.

13-modda. O'zbekiston Respublikasi chet davlatlar bilan diplomatik, konsullik, savdo aloqalari va boshqa aloqalar o'rnatadi, ular bilan muxtor vakillar ayirboshlaydi, xalqaro shartnomalar tuzadi, xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lishi mumkin.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning subyekti bo'lib, chet el investitsiyalarini amalga oshirish shartlarini, investorlarning huquqlarini belgilaydi, o'zining konversiya qilinadigan valuta jamg'armasini yaratadi, oltin va boshqa zaxiralarni, ayirboshlanadigan valutani sotadi va sotib oladi.

15-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq holda Respublika fuqaroligi joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari, millatidan, elatidan, ijtimoiy kelib chiqishidan, qaysi dinga mansubligidan va e'tiqodidan qat'i nazar, bir xil fuqarolik huquqlariga egadirlar, respublika konstitutsiyasi hamda uning qonunlari himoyasida bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari respublikadan tashqarida ham O'zbekiston Respublikasining himoyasida bo'ladilar.

16-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini aniqlaydi, o'z davlat ramzlarini: gerbi, bayrog'i, madhiyasini ta'sis etadi, o'z davlat tilini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari muqaddasdir va ularni har qanday tahqirlash qonun bilan jazolanadi.

17-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy butunligini va mustaqilligini e'tirof etadi. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar teng huquqlilik asosida ular o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar vositasida quriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan tegishli qonunlar asosida erkin chiqish huquqini saqlab qoladi.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

I. KARIMOV

*Toshkent shahri,
1991-yil 31-avgust*

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Vazirlar Mahkamasining
QARORI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR
AKADEMIYASINING ADABIYOT ILMGOHIGA
ALISHER NAVOIY NOMINI BERISH
TO'G'RISIDA**

O'zbek adabiyotining asoschisi, buyuk olim, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan, respublika jamoatchiligi xohish-istaklarini inobatga olib Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining adabiyot ilmgohiga Alisher Navoiy nomi berilsin.

Vazirlar
Mahkamasining Raisi

I. KARIMOV

1991-yil 19-sentabr

NAVOIY RUHI MADADKOR BO'LG'AY!

Aziz yurtdoshlar!

Uzoq-yaqindan kelgan mehmonlar!

Hurmatli do'stlar!

Avvalambor, ulug' bobomiz, milliy g'ururimiz, buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiy kunlarida qatnashib, shodligimizni baham ko'rayotganingiz uchun samimiy minnatdorlik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Mana, salkam bir yildirki, O'zbekistonimizda, O'rta Osiyoda, barcha Sharq xalqlari tomonidan nishonlanayotgan Alisher Navoiyning umr va ijod to'ylari – qutlug' ma'raka davom etmoqda. Bu to'y millat bayramidir. Qadriyatimizni yana bir bor ulug'laydigan bayramdir.

Bu to'y xalqimiz, O'zbekistonimiz hayotiga alohida fayz, tarovat baxsh etdi.

Alisher Navoiy yili deb e'lon qilingan 1991-yil yurtimiz, elimiz tarixida qutlug' keldi, unutilmas sana bo'lib qoldi.

Bu yil xalqimizning asriy orzu-umidlari amalga oshdi. O'zbekistonimiz davlat mustaqilligini e'lon qildi va o'z taqdirini endi o'zi hal qiladigan bo'lib qoldi.

Sizlarni, O'zbekistonning barcha fuqarolarini, barcha vatandoshlarimizni ana shunday qo'shaloq bayram bilan respublikamiz rahbariyati nomidan, shaxsan o'z nomimdan chin yurakdan tabriklayman va yurtimizda

haqiqiy mustaqillik o'rnatish yo'lida hammangizga kuch-quvvat, mardlik, omonlik, ishlaringizda va hayotingizda omad tilayman!

Bizning tariximiz, bugungi hayotimiz shuni ko'rsatdiki, ozodlik yo'li, mustaqillik yo'li mashaqqatli va g'oyat og'ir bo'ladi. Hali ko'p sinovlardan o'tishga to'g'ri keladi.

Istiqlol yo'lida birinchi qadam qo'yganimizdan boshlab, O'zbekiston diyoriga, uning rahbariyati va siyosatiga malomat toshlarini otish va tutayotgan yo'limizni to'sish harakatlari kundan kunga kuchayib ket-yapti.

Albatta, bizlar yaxshi tushunamizki, hozirga qadar mustamlaka darajasida turgan, shunday boy va mehnatsevar xalqqa ega bo'lgan yurtni hech kim o'z xohishi bilan qo'ldan chiqarib yuborishni istamaydi, jonjahdi bilan, tish-tirnog'i bilan yopishib olib, uni qaramlik changalida saqlab qolishga intiladi.

Mustamlakachilik siyosati osonlik bilan jon bermaydi. Shuni hammamiz yaxshi esda tutishimiz kerak.

Shu sababdan butun xalqimizni doim birdamlikka, bir-biriga hamnafas va hamdard bo'lishga chaqirgan ulug' bobokalonimiz siymosi oldida, kelinglar, bir-birimizga so'z beraylik: ozodlik va Istiqlol yo'lida, bu ezgu niyatlarni hayotimizga amaliy tatbiq etishda bir jon, bir tan bo'laylik! Hech qachon tanlagan yo'limizdan qaytmaylik!

Agar xalqimiz jipslashsa, xohish-irodamiz bir bo'lsa, bizlarni hech qanday kuch yengolmaydi! Buni ham hammamiz yaxshi bilishimiz zarur.

Qadrli do'stlar!

Biz bugun unutilmas, tarixiy voqeaning guvohi bo'lib turibmiz.

Mustaqil O'zbekistonning poytaxti — aziz va jonajon Toshkentimiz bag'rida Nizomiddin Mir Alisher Navoiy haykali va ulkan xalq milliy bog'ining ochilishida qatnashmoqdamiz.

Mana shu fursatdan foydalanib, Alisher Navoiy haykalini yaratgan haykaltarosh, me'mor va quruvchilarimizni, bog'ni bezatuvchi qo'li oltin mehnatchilarimizni sizlarning, aziz do'stlar, nomingizdan qutlashga va minnatdorlik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Chindan ham, quruvchilar samarali mehnat qildilar, to'rt-besh oy mobaynida to'rt-besh yillik oliyjanob ishni ado etdilar.

Bunda men xalqimizning o'z ulug' farzandiga bo'lgan ulkan mehr-oqibatini ko'raman.

Alisher Navoiy yurtni, diyorni ko'rkam, hosildor bog'lar og'ushida ko'rishni orzu qilard edi:

*Kim bu bog' ichra xiromon erur,
Barchasi bir-biriga mehmon erur, —*

deb odamlarni bir-biriga mehribon-u shafiq bo'lishga, umr, hayot qadrini bilishga, do'st-birodarlikka chaqirgan edi.

Men ishonamanki, Navoiy haykali, Navoiy bog'i shahrimizning, diyorimizning eng go'zal va asosiy ziyoratgohi bo'lib qoladi.

Bu yer yillar, asrlar davomida katta xalq tantanalari, qariyalarimizga, yosh avlodimizga, xalqimizga malham, ruhiy madad beradigan sevimli va maroqli bir oromgohga aylanadi, degan katta umidim bor.

Bu bog' ijod ahli uchun ilhom va kamolot maskaniga aylanib ketsa, ajab emas.

Aziz do'stlar, vatandoshlar!

Yurtimizning aziz mehmonlari!

Alisher Navoiyning muhtaram ixlosmandlari!

Bugun biz bobomiz ruhi oldida chuqur ta'zim bajo keltirar ekanmiz, undan avval va undan keyin o'tgan ulug' zotlarning ruhlari ham shod bo'ladi, deb umid qilamiz.

O'z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi albatta porloq bo'ladi. Ishonamizki, O'zbekistonimiz tez orada dunyo hamdo'stligi o'rtasida o'ziga munosib o'rinni egallaydi, insho'ullo. Ana o'shanda ham Alisher Navoiyning qutlug' nomi bizga madadkor bo'ladi.

Bu ko'shk, bu haykal, bu so'lim bog' hammamizga muborak bo'lsin, aziz do'stlar!

O'zbek xalqimizning ulug' siymosi Alisher Navoiy nomidek abadulabad saqlansin, obod bo'lsin!

*O'zbekiston Milliy bog'ida buyuk shoir va mutafakkir
Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati
bilan barpo etilgan haykalning tantanali ochilish
marosimida so'zlangan nutq*

*«Xalq so'zi» gazetasi
1991-yil 1-oktabr*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTLIGIGA NOMZOD ISLOM KARIMOVNING O'ZBEKISTON FUQAROLARIGA MUROJAATI

Aziz aka-ukalar, opa-singillar!
Muhtaram birodarlar, o'rtoqlar!
Ardoqli do'stlarim, vatandoshlarim!

Bugun respublikamiz juda og'ir va murakkab, shu bilan birga, eng mas'uliyatli va sharafli davrni boshidan kechirmoqda.

Sharafli davr deganinning ma'nosi shuki, biz o'z Vatanimizni mustaqil deb e'lon qildik.

Mustaqillik degani biz uchun eng avvalo:

ona zaminga egalik, yer osti va yer usti boyliklarimizni o'zimiz, avvalambor, respublikamizda yashayotgan aholi uchun ishlatish, boshqacha aytganda, o'z taqdirimizni o'zimiz hal qilishimiz;

milliy demokratik davlat tuzumini xalqimizning mustaqil irodasi bilan tashkil etish. O'zbekiston turrog'ida yashaydigan har bir inson uchun, uning millati, dini va e'tiqodiga qaramasdan, munosib hayot yaratish, inson haq-huquqlarini himoya qilish;

xalqimizning, el-yurtimizning kelajagini mustaqil belgilash, bo'lg'usi avlodlarga to'kis taqdirlar yaratish va xorij bilan, u yoqdagi vatandoshlar bilan hech qanday vositachilarsiz munosabat o'rnatish demakdir.

Davrning murakkabligi esa ana shu ulug' maqsadlar — haqiqiy mustaqillik yo'lida turgan katta qi-

yinchiliklar bilan bog'liq. Bu yo'lda mushkul va mashaqqatli sinovlardan o'tish uchun katta mardlik va fidoyilik, sabr va qanoat kerak. **Hech kim, hech qachon o'z xohishi bilan birovga erkinlik bergan emas. Shu narsani hammamiz tushunib olsak, bir jon, bir tan bo'lib kurashsak, xalqimizning azaliy orzusini amalga oshirsak – marra bizniki.**

O'zbekistonning yeri, boyliklari nafaqat o'zimizni, zamondoshlarimizni, balki kelajak avlodlarni, nevarachevaralarimizni, bugungi O'zbekiston xalqining yagona baynalmilal oilasini tashkil etuvchi barcha insonlarni boqish va ularning baxtiyor hayotini ta'minlash uchun bemalol yetib ortadi.

Bu cheksiz imkoniyatlarni ishga solish uchun odamlarimizga – ishchilarga, dehqonlarga, xizmatchilarga, ziyolilarga, mehnat jamoalariga, xullas, har bir shaxsga shunday shart-sharoit va erkinliklar yaratib berish kerakki, ular avvalo, o'z manfaatlari yo'lida va ayni zamonda jamiyat ravnaqi, davlat barqarorligi yo'lida mehnat qilsinlar.

Demak, hayotning o'zi jamiyatimizni ozodlik, demokratiya va oshkoralik asosida boshqarishni taqozo etadi.

Ishni respublika ma'naviy boyligini tiklash va kamol toptirishdan boshlamog'imiz kerak.

Xalqimizning o'tmishini chin ma'noda eslash, qadrgimmatiga yetish, urf-odatlarini, udumlarini, o'tgan nene ulug' zotlarning muborak nomlarini tiklash va ularning izzat-hurmatini bajo keltirish – siz-u bizga nasib etganidan faxrlanishimiz kerak.

Bugun biz O'zbekistonning har bir fuqarosini buyuk xalqning munosib farzandi ekanini to'la-to'kis ang-

lashga va shu yuksak tuyg'uga yarasha amaliy harakat qilishga da'vat etamiz.

Boshqa millatlarning ezgu orzularini hurmat qilgan va tan olgan holda, o'z milliy g'ururimizni yuksak darajaga ko'tarib, oldimizda turgan oliyjanob niyatlari-mizga erishmog'imiz mumkin.

Maqsadimiz — odamlarning ko'nglini ko'tarib, ilm-u fanimizni, adabiyotimiz va san'atimizni umumbashariy maydonga qaytadan olib chiqishdir.

Xalqimizning haqiqiy ma'naviy boyliklari bo'lmish **imon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehmondo'stlik, yurtga va xalqqa sadoqat** kabi fazilatlarni asrab-avaylab, farzandlarimizning qon-qoniga singdiraylik, jamiyatimizning kundalik hayotida doimo ustuvor qilaylik.

Bu ajoyib fazilatlar to'g'risida so'z ketar ekan, avvalambor, dindorlar, din peshvolari bilan yaqindan hamkorlikda, hamjihatlikda ish olib borishimiz zarur. Inson ruhi poklanishida, axloqiy tarbiya, el-yurtimizda tinchlik, osoyishtalik va millatlar totuvligini saqlashda din ahli xizmatiga tan berishimiz lozim.

Bugungi O'zbekiston — suveren, o'z fuqarolarining haq-huquqini, tub manfaatlarini ta'minlaydigan, tashqi va ichki siyosatini mustaqil olib borayotgan davlatdir.

Bu — biz o'z qobig'imizga o'ralib qolamiz, degan gap emas. Tenglik va manfaatdorlik asosida boshqa suveren va mustaqil davlatlar bilan — Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston, O'rta Osiyo respublikalari va boshqa mintaqalar bilan aloqani mustahkam qilgan holda ish yuritishimiz kerak.

Mana shunda yagona iqtisodiy makon yuzaga keladi, mustaqil davlatlar o'rtasida halol munosabatlar o'rnatiladi.

Shu bilan bir qatorda biz xorijiy mamlakatlar bilan ham O'zbekistonning manfaatini ko'zlab, har tomonlama: siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamkorlikni rivojlantirish tarafdorimiz.

Endigi dolzarb vazifa — millatlar hamdo'stligiga teng huquqli a'zo bo'lib kirishdir.

Chet ellardagi siyosatchilar ham, iqtisodchilar ham O'zbekistonning qay darajada iqtisodiy va ma'naviy salmog'i borligini anglay boshladilar. Bizning mustaqil davlatimizni rasman tan olish va u bilan teng huquqli munosabatlar o'rnatish jarayoni boshlandi.

Hozirgi iqtisodiy vaziyat, qimmatchilik, taqchillik, narx-navo o'sib borayotgani, moddiy ta'minotning esa kun sayin pasayib ketayotgani, shu sababli chayqovchilik, qonunbuzarlik va jinoyatchilik ko'payayotgani xalqimizni tashvishga solmoqda. Bunday ahvol butun mamlakatda mavjud bo'lib, O'zbekistonni ham chetlab o'tgani yo'q. **Eski ma'muriy-buyruqbozlik hokimiyatining yemirilib ketishi, Markazning vaziyatni idora etolmay qolgani, boshqacha qilib aytganda, yangi imoratning poydevori qurilmasdan, eskisining butunlay qulatib yuborilgani — bunga asosiy sabablardan bo'ldi.**

Ahvolni keskinlashtirayotgan sabablardan yana biri — o'tmishda Ittifoqni boshqargan va undan oldin Rossiya imperiyasini boshqargan kimsalar olib borgan siyosat oqibatida bugun O'zbekiston arzon xomashyo manbayiga aylangani, o'z fuqarolarini tayyor mahsulot — birinchi navbatda, keng iste'mol mollari bilan ta'minlashda zaif bo'lib qolgani.

Faqat xomashyo chiqargan va xomashyo sotgari elning kosasi oqarmaydi. Bu – oddiy haqiqat. Mana shuning uchun ham bizning bugungi asosiy vazifamiz – qaddimizni rostlab, butun imkoniyatlarimiz va rezervlarimizni to'g'ri hisoblab chiqib, kelajak yo'llarimizni to'g'ri tushunib, o'zimizning mustaqil iqtisodiy siyosatimizni yuritishdir.

Birinchi navbatda, taraqqiyotning eng kerakli manbai bo'lmish mo'l-ko'l xomashyomizni va mintaqamizda mavjud ish kuchlarini **o'z tuprog'imizda, o'z el-yurtimizda tayyor mahsulot chiqarishga jalb etish lozim.**

Shu yo'lda ilg'or zamonaviy texnologiyalarni chet eldan olib kelib, qishloq joylarda va ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan rayonlarda ixcham korxonalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Chet el investitsiyalarini manfaatli tarzda respublikaga jalb etish, qo'shma korxonalar sonini ko'paytirish, yetishib chiqqan tadbirkor-ishbilarmonlarga keng imkoniyat yaratib berish, tashqi bozorga chiqish va ichki bozorni tovarlar bilan boyitish zarur.

Mulkchilikning barcha turlariga yo'l ochish, ayniqsa, xususiy mulkchilikni va kolxoz-kooperativ mulkchiligi shaklini zamon talablariga mos tarzda kuchaytirish kerak.

Bu siyosatni amalda tatbiq qilishda, avvalambor, qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq sohalarning rivojini eng muhimi, qishloq joylarda yashaydigan xalqimizning manfaatlari ustun bo'lishi lozim.

Nega deganda, yurtni boqadigan va xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini xomashyo bilan ta'minlaydigan – dehqon ahlidir. Boshqa xalq xo'jaligi tarmoqlari qatorida qishloq xo'jaligi sohasida ishlayotgan,

mehnat qilayotgan kishilarga ko'proq erkinlik va imtiyozlar berilishi shart.

Dehqon ahli bizni aslo dog'da qoldirmaydi. Birimizni, albatta, yuz qilib qaytaradi.

Bozor munosabatlariga o'tish o'z-o'zidan bo'lmaydi. O'tish davrining qiyinchiliklarini bugun hammamiz ko'rib turibmiz. Shunday bir og'ir sharoitda aholining iqtisodiy zaif tabaqalarini himoya qilish — davlat rahbarlari, xususan, respublika Prezidentining diqqat markazida bo'lmog'i kerak.

Kam daromadli kishilarni qiyinchiliklardan sog'omon olib o'tish, ularga yordam berish, imtiyozlar yaratish, turli nafaqa va boshqa iqtisodiy yengilliklar miqdorini oshirish — eng savobli maqsaddir.

Pul-kredit tizimini mustahkamlash, odamlarning oyligini oshirish, narx-navoni jilovlab turish — bizning birinchi galdagi vazifamiz bo'lmog'i shart.

Albatta, ishning ko'zini bilgan odamlar mehnatiga yarasha haq olishi zarur. Bunga hammamiz tan berishimiz kerak. Lekin ayni zamonda jamiyatimizni ikkita qarama-qarshi qismga — o'ta boylar va o'ta g'arib-kambag'allar toifasiga ajratib qo'ymaslik kerak. Hukumat va Prezident ko'radigan asosiy himoya choralari, eng avvalo, **nogironlar, yetim-yesirlar, qariyalar, ko'p farzandli onalar, talabalar va maktab o'quvchilari** manfaatlariga xizmat qiladi. Agar birovlarning cheksiz boyishiga yo'l ochib berib, boshqalarning gadolarcha hayot kechirishiga chidab qarab tursa, bunday davlatning ham, bunday saltanatning ham umuman hech kimga keragi yo'q.

O'zbekiston diyorida yashayotgan millionlab oilalar badavlat bo'lmasdan turib davlatimiz boy bo'lol-

maydi — bizning shiorimiz shu. Bunday siyosat jamiyatimizning yetakchi siyosati bo'lib qoladi.

Iqtisodiy mustaqillik dasturining yana bir muhim jihati borki, bu — yoshlarga e'tibor. Afsuski, yaqin-yaqin davrlargacha yoshlarga nisbatan ishonchsizlik mavjud edi. Biz bu illatni tugatishga kirishdik. Savdo-tijoratda, iqtisodiyot va gumanitar sohalarda orttirilgan bilim va tajribalarni o'rganish uchun yosh olim va mutaxassislarni chet ellarga yuborish keng ko'lamda joriy qilindi.

Bizga yuksak ma'rifatli, eng murakkab uskunalarni boshqara oladigan malakali, zamonaviy ishchilar ham suv bilan havodek zarur.

Inson tinch va bexavotir yashayotganida tinchlik-totuvlikning qadriga yetmasligi ham mumkin. Keyingi ikki-uch yillik hayotimiz shuni ko'rsatdiki, har bir tinch o'tgan kunimizning o'zi katta bir davlat ekan. Farq'ona va O'sh voqealarini eslab ko'raylik. O'sha fojiali va qayg'uli kunlarni yodga olsak, bugungi tinchligimizning har bir daqiqasi naqadar qadrli ekani ochiq-oydin namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda yashayotgan kimki bo'lmasin, har qaysi oilaning, har bir fuqaroning, mehribon onalarimiz va munis ayollarimizning, guldek bolalarimizning tinchligi, osoyishtaligi va totuvligi uchun butun borlig'imizni baxsh etsak ham arziydi.

Xalqimizning ajoyib gapi bor: bir kun janjal chiqqan uydan qirq kun baraka ketadi. «Baraka» degan so'zning ma'nosini, mohiyatini chuqurroq tushunishga harakat qilsak, savob bo'ladi.

Xalq xotirjamligi, el-yurt osoyishtaligi — siz-u bizning qo'limizda.

Agar ahil bo'lsak, xotirjam va hamjihat bo'lsak, oliyjanob intilishlarimiz yo'lida, xalq tili bilan aytganda, bir yoqadan bosh chiqarsak, turlicha qarashlarda bo'lishimiz mumkinligidan qat'i nazar, ulug' maqsadimiz — haqiqiy mustaqillikka erishmog'imiz muqarrar.

Yurtimizda tinchlik va ahillik barqaror bo'lsin.

Barcha ezgu niyatlarimiz ro'yobga chiqsin.

*«Xalq so'zi» gazetasi,
1991-yil 3-dekabr*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI IX SESSIYASI HAQIDA AXBOROT

1992-yil 4-yanvar kuni Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari to'qqizinchi sessiyasi ochildi.

Markaziy saylov komissiyasining raisi Q.A. Ahmedov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi va Respublika davlat mustaqilligi to'g'risidagi referendum yakunlari haqida axborot berdi.

So'ngra I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishish tantanali marosimi bo'ldi.

U O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishar ekan, O'zbekiston xalqlariga sadoqat bilan xizmat qilishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat'iy rioya etishga, zimmasiga yuklangan vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qildi.

I.A. Karimov Oliy Kengash sessiyasida nutq so'z-ladi.

Oliy Kengash Prezident I.A. Karimovning dasturiy nutqi xususida qaror qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tuzish to'g'risidagi bitim va protokol haqida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya Respublikasi o'rtasidagi aloqalarning asoslari va maqsadlari to'g'risidagi

shartnoma hamda iqtisodiyot sohasida ularning o'rtasida tuzilgan bitim to'g'risida ma'ruza qildi.

Oliy Kengash bu hujjatni tasdiqladi.

Respublika parlamenti Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston va Ukraina davlat mustaqilligini tan oldi.

Deputatlar O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini tanigan mamlakatlarning davlat boshliqlari va parlamentlariga Oliy Kengash murojaatnomasini qabul qildilar.

Sessiyada Respublika Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. Qabul qilingan qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi vitse-prezidenti lavozimi tugatiladi va Bosh vazir lavozimi joriy etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga qonun loyihalarini taqdim etish huquqi beriladi. Sessiyada respublika mahalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to'g'risidagi qonun qabul qilindi.

Oliy Kengash O'zbekiston Respublikasining 1992-yil birinchi choragi favqulodda budjeti to'g'risidagi qonunini qabul qildi.

Sessiyada Oliy Kengashning «O'zbekiston Respublikasidan SSSR Oliy Kengashi palatalari tarkibiga vakil qilib yuboriladigan SSSR xalq deputatlari va O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari nomzodlari to'g'risida»gi qarori bekor qilindi va O'zbekiston Respublikasidan saylangan SSSR xalq deputatlari vakolatlarini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilindi.

*«Xalq so'zi» gazetasi,
1992-yil 5-yanvar*

**MUSTAQIL O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASINING
BIRINCHI PREZIDENTI
ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOV
QASAMYODI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishar ekanman, respublikamiz xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qat'iy rioya etishga, zimmamga yuklangan yuksak vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qilaman.

O'ZBEKISTON DUNYO XARITASIDA O'ZIGA MUNOSIB JOY OLDI

Aziz do'stlar, birodarlar!

Avvalambor, siz azizlarga, sizlar orqali butun xalqimizga menga bildirgan ishonchingiz uchun samimiy rahmatlar aytaman.

Mana, 1992-yilga katta ishonch, umid bilan qadam qo'ydik. Ana shu umid va ishonchning zamini nima? Bu savolga javob berish uchun bosib o'tilgan yo'lga, kechagi kunimizga nazar solish kerak. Ayniqsa, 1991-yildagi siljishlar, tarixiy, unutilmas voqealar zamirida Oliy Kengash bilan birgalikda iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy sohalarda qilgan ayrim ishlarimizni eslatib o'tmoqchiman.

Birinchi. Ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi. Tarixni tikladik. Ona tilimizni angladik. Ulug' bobolarimiz ruhini shod etdik. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir singari xalq jigarbandlarining nomi, izzat-ikromi, hurmati o'z joyiga qo'yildi.

Udumlarimiz, qadriyatlarimizga qaytdik. Yurtimizga Navro'z kirib keldi. Ramazon, Qurbon hayitlariga yetdik.

Dinga munosabatimiz o'zgardi. O'rtadagi tushunmovchilik, qarama-qarshilik yo'qoldi. Buning o'rniga hamkorlik, hamjihatlikka o'tdik.

**MUSTAQIL O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASINING
BIRINCHI PREZIDENTI
ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOV
QASAMYODI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishar ekanman, respublikamiz xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qat'iy rioya etishga, zimmamga yuklangan yuksak vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qilaman.

O'ZBEKISTON DUNYO XARITASIDA O'ZIGA MUNOSIB JOY OLDI

Aziz do'stlar, birodarlar!

Avvalambor, siz azizlarga, sizlar orqali butun xalqimizga menga bildirgan ishonchingiz uchun samimiy rahmatlar aytaman.

Mana, 1992-yilga katta ishonch, umid bilan qadam qo'ydik. Ana shu umid va ishonchning zamini nima? Bu savolga javob berish uchun bosib o'tilgan yo'lga, kechagi kunimizga nazar solish kerak. Ayniqsa, 1991-yildagi siljishlar, tarixiy, unutilmas voqealar zamirida Oliy Kengash bilan birgalikda iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy sohalarda qilgan ayrim ishlarimizni eslatib o'tmoqchiman.

Birinchi. Ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi. Tarixni tikladik. Ona tilimizni angladik. Ulug' bobolarimiz ruhini shod etdik. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir singari xalq jigarbandlarining nomi, izzat-ikromi, hurmati o'z joyiga qo'yildi.

Udumlarimiz, qadriyatlarimizga qaytdik. Yurtimizga Navro'z kirib keldi. Ramazon, Qurbon hayitlariga yetdik.

Dinga munosabatimiz o'zgardi. O'rtadagi tushunmovchilik, qarama-qarshilik yo'qoldi. Buning o'rniga hamkorlik, hamjihatlikka o'tdik.

Oshkoralik, demokratiya yo'lida birinchi, lekin dadil qadamlar qo'ydik.

Bir so'z bilan aytganda, o'zligimizni angladik. Aniq-roq qilib aytsam, o'zligimizga qaytdik. Xalqimizda milliy g'urur uchun belni bog'lab, do'ppini dol qo'yib yurish uchun zamin yaratdik.

Ikkinchi. Siyosiy yo'lda burilish bo'ldi. Necha yillik orzu-umidlarimiz ro'yobga chiqdi. Mana shu yerda sizlar bilan Mustaqillik deklaratsiyasini qabul qildik. Keyin Mustaqillik qonunini e'lon etdik. O'shanda xalqimizning xohish-irodasi ifoda qilinganini 29-dekabrda o'tkazilgan referendum isbotlab berdi.

Mustaqillik bizga nima berishini bilardik. O'z taqdirimiz, farzandlarimiz kelajagini o'zimiz hal etish imkoniga ega bo'ldik. O'z yerimiz, boyliklarimizga sohiblik qila boshladik. Qisqa vaqt ichida mustaqillikning ne'matlarini tatib ko'rdik.

Mustaqillik tufayli dunyoga, jahonga chiqdik. Qariyb yuz yildan beri yopib qo'yilgan chegaralar ochildi, vatandoshlarimiz bilan yuz ko'rishdik.

Qisqa qilib aytganda, jahon jamoasi O'zbekistonni, bizning Vatanimizni quchoq ochib qabul qildi.

Dunyo xaritasida endi katta harflar bilan «O'ZBEKISTON» deb yozib qo'yiladigan bo'ldi.

Hozirgacha dunyoning o'ttiz mamlakati O'zbekiston Respublikasini tanidi, tan oldi. Turkiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, Eron, Pokiston, Hindiston, Xitoy singari yirik davlatlar ana shular jumlasidandir. Bu ishonch ruhimizni ko'tardi, kelajakka yo'limizni ochib berdi.

Sobiq Ittifoq doirasidagi mustaqil respublikalar bilan ham qayta qurish davrida uzilgan rishtalarni bog'ladik.

Yaxshi munosabatlar o'rnatdik. Rossiya, Ukraina, Belarus va boshqa davlatlar bilan do'stona aloqalarni mustahkamladik.

O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'iston — qon-dosh-qarindosh qo'shnilarimiz bilan yanada yaqinroq bo'ldik.

Bugun shuni komil ishonch bilan aytishim mumkinki, mustaqil davlatlar davrasida O'zbekiston o'zining o'rnini egalladi. **O'zbekiston tenglararo teng bo'ldi.** Ana shuning o'zi ham umid yulduzidir.

Uchinchi. Iqtisodiy sohada burilish boshlandi. Faqat 1991-yilning o'zida bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun bir qancha ish qildik.

Sizlarning ishtirokingizda mulkchilik, tadbirkorlik, chet el mamlakatlari bilan savdo-sotiq hamda investitsiyalar haqida va boshqa qanchadan qancha qonunlar qabul qildik. Iqtisodiy erkinlik, korxonalar, xo'jaliklarga erkinlik, fermerlarni qo'llab-quvvatlash, shaxsiy tomorqa egalariга yordam berish bo'yicha farmonlar chiqardik.

Qarang, shaxsiy mulk paydo bo'ldi. Tijorat rivojlanib boshladi. Xorijiy mamlakatlar ko'magida qo'shma korxonalar ko'paymoqda. Bank sistemasi bo'yicha ham jahonga chiqildi.

Dunyo ishbilarmonlari uchun yurtimizda sharoit yaratdik. O'zbekiston o'zining oltin xazinasiga ega bo'ldi. Xalqini o'zi boshqarish va boqish masalasini O'zbekiston o'zi hal qila boshladi. Oddiy fuqarolarga, har bir oilaga o'z rizq-ro'zini ta'minlashga ko'mak berishda birinchi qadamlarni qo'ydik. Bugun respublikamizda, shaharda ham, qishloqda ham dadil harakat yo'li ochildi. Ertangi kunga umid bor. Bu esa o'z samarasini albatta beradi.

To'rtinchi. Ijtimoiy adolat o'z joyiga tusha boshladi. Odamlarni mehnati natijasidan rozi qilish yo'li tutilmoqda. Muhtoj, ko'p bolali, qarovsiz qolgan oilalarga, qariyalar va yoshlarimizga yordam qo'li cho'zildi. Faqat kuni kecha qabul qilingan farmon bilan qancha talabalar, salomatlik posbonlari, zahmatkash muallimlarning tashvishlarini biroz bo'lsa-da, yengil qildik. Odamlar yer oldi. Qurilish uchun imkoniyat berildi. Bir yilda 700 ming yangi oila, xonadon paydo bo'ldi. Buni faxrlanmasdan aytish mumkin emas.

O'zini adolatli deb kelgan, lekin o'ta adolatsiz bo'lgan Markaz O'zbekistonga, o'zbek xalqiga qancha tang'a bosmadi, qancha malomat toshlari otilmadi. Lekin mahkam turib adolatga erishdik. O'zbek nomini badnom qilish harakatlariga zarba berdik. Bugun mana shu minbardan sizlarga yorug' yuz bilan aytamanki, «paxta ishi» bilan qamalganlarning hammasi afv etildi!

Menga ana shu xayrli, xosiyatli ishlar umid bag'ishlaydi.

Beshinchi. Xalqimizga ming rahmat aytmoqchiman: fuqarolar va millatlar o'rtasidagi totuvlik, tenglik, osoyishtalikni saqlab, mustahkamlab turibdi. Dini, e'tiqodi, millatiga qarab ajratish falokat ekanini, ofat ekanini, u hammani jarga qulatishini odamlar tushunib olishdi. Shuning uchun ham ularga yana bir karra rahmat deyman.

Aziz do'stlar, qilingan ishlar haqida siz — xalq vakillari, butun el-yurtimiz oldida hisob berar ekanman, boshlagan xayrli qadamlarimizga asoslanib, avvalambor, xalqimizni hozir boshidan kechirayotgan katta qiyinchiliklar, sinovlardan chiqaradigan yo'l to'g'risida, odamlarimizning umidini, ishonchini oqlaydigan

farovon va erkin hayotga erishish uchun eng muhim chora-tadbirlar haqida bugun gapirishimiz kerak.

Men mas'uliyatni his qilib, xalqim oldidagi, uning kelajagi oldidagi javobgarlikni anglab, o'z siyosatimni yana bir marta siz bilan kelishib olmoqchiman. Xo'sh, biz qaysi yo'ldan boramiz? Uning yo'nalishlari nimalardan iborat?

Birinchidan. Yuzaga kelgan vaziyatni, bugungi hayotni hisobga olib, xalqimiz iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash chorasini kutyapti. **Eski tuzum asorati, kasofati tufayli bugun xalqimiz og'ir ahvolga tushib qoldi. Uni yorug' hayotga yetkazish hozirgi kundagi eng asosiy va dolzarb vazifalarimizdan biridir.**

Adolat nuqtayi nazaridan qaraganda ham ko'p bolali oilalar, nogironlar, bozor iqtisodi zarbasi ostida qolganlar, o'zini o'nqlab ololmayotganlar, xullas — yordamga, madadga muhtojlarni Prezident o'z panohiga olishi shart, deb hisoblayman.

Xalqni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash choralari ko'riladi. Bu sohada talon tizimi saqlab turiladi. Unga rioya qilish ustidan qattiq nazorat o'rnatiladi.

Ichki bozorni himoya qilish maqsadida kupondan foydalanamiz. Sir emas, ayrim respublikalarda erkin narxlarga o'tilishi, chegaralar yo'qligi tufayli bizda ham narx-navo osmonga chiqib ketyapti. Shunga qaramasdan, biz kun kechirish uchun eng zarur mahsulotlardan 12 xilining narxini avvalgi holida ushlab turishga qaror qildik. Non, un, shakar, moy va hokazolar shular jumlasidandir.

Bolalarimiz uchun eng kerakli kiyim-kechaklardan yetti xilini esa talon tizimiga kiritdik va budjet hisobidan ko'mak beradigan bo'ldik. Albatta, bular —

birinchi qadamlar. Gap shundaki, ana shu tutumni yo'qotmaymiz va davomini ko'ramiz, davlat kafolatini beramiz. Lo'nda qilib aytganda, O'zbekiston bozor iqtisodiga o'tishda o'z yo'lini tanlab olgan va bu yo'ldan qaytmaydi.

Uning asosiy mazmuni va shiori: xalqimizni, birinchi navbatda kambag'al va muhtoj kishilarni, oilalarni himoya qilmasdan, bunga davlat kafolatini bermasdan bozor iqtisodiga o'ta olmaymiz!

Bir toifa odamlarning cheksiz boy bo'lib, yana bir toifadagilarning g'arib, gado, qashshoq bo'lishlariga yo'l qo'ymasligimiz kerak.

Narx-navo siyosatini oylik maosh bilan chambarchas bog'lab qo'yamiz. Maqsadimiz yaqin kunlarda o'rtacha oylik maoshni ming so'mga yetkazishdir. Shuning uchun hamma imkoniyatlarimizni ishga solishimiz zarur.

Ikkinchidan. Tinchlik, totuvlik, osoyishtalikni saqlash Prezidentning bosh vazifasidir. Prezident tinchlik, totuvlik qo'rg'onining me'mori bo'lishi kerak, deb hisoblayman.

Qayerdagi tinchlikka putur yetsa, xalq osoyishtaligi xavf ostida qolsa, o'sha joyda Prezident posbon bo'lishi darkor.

Hozirgi davrda xalqimizni katta tashvishga solayotgan narsa — bu jinoyatchilikning o'sishidir. Shu sababli bugun O'zbekistonning bu illatga qarshi kurash dasturi ustida ishlayapmiz. Odam o'ldirish, talon-torojlik, o'g'rilik, poraxo'rlik, chayqovchilikning har qanday ko'rinishiga barham berish choralarini ko'ramiz. Buning uchun qat'iy intizom talab etiladi.

Huquq-tartibot mahkamalarini mustahkamlash bilan birga, ularga ko'mak berish ham kerak. Ularning

mehnatini qadrlash yo'li bilan birga, obro'sini oshirish lozim. Xalq deputatlari, jamoatchilik, mahalla komitetlari ularga jinoyatchilik yo'lini to'sishlarida yordam berishlariga muhtojmiz.

Xalq ochlikka, nochorlikka, hamma narsaga chidashi mumkin, lekin bilib qo'yinglar, adolatsizlikka chidamaydi!

Uchinchidan. Fuqarolar va millatlararo tinchlikni saqlash.

Millati, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har bir kishining shaxs va vijdon erkinligi ta'minlanadi. Uning millatiga, tiliga va madaniyatiga hurmat ko'rsatiladi. Xudo ko'rsatmasin, bir yigit yiqilsa, ona yiqiladi, ota yiqiladi, oila motamga botadi, qishloq yig'laydi. O'n yigit yiqilsa-chi? Yuz yigit yiqilsa-chi? Axir, ba'zi mintaqalarda milliy nizolar tufayli kelinchaklar beva qolmoqda, onalar «bolam!» deb faryod chekyapti. Yo'q, bunga yo'l qo'yish mumkin emas va yo'l qo'ymaymiz ham!

Aziz do'stlar!

Nima kerak bo'lsa, ayting, hammasini qilib bera-miz. Lekin, aziz onalar, opa-singillar, otaxonlar, do'stlar, ukajonlar, men Prezident bo'lsam ham sizdan tiz cho'kib so'rayman, iltimos qilaman: shu masalada yordam qiling!

Axir, Qur'oni karim ham do'stlikka, birodarlikka chaqiradi, nizo chiqarishni qoralaydi.

Janjal chiqqan yurtdan xudo ham yuz o'girar ekan. Shu sabab baraka ham, rizq-ro'z ham nasiya bo'lib qolarkan.

Bu yo'lda tinchlik, totuvlik yo'lida bizni Alloh taoloning o'zi qo'llasin, madadkor bo'lsin!

To'rtinchidan. Oyoq-qo'li bog'langan kishi qanoti singan qushdir. Erkinlik esa taraqqiyotning yakka-yu

yagona yo'lidir. Shu sababdan mening yana bir muhim maqsadim — erkinlik berish va ana shu erkinlikni muhofaza qilishdir. Birinchi galda tadbirkorlikka, korxonalar va xo'jaliklarga erkinlik berishdir.

Ularni har qanday tazyiqdan qutqaramiz. Mulkchilikning barcha shakllariga teng sharoit va imkon yaratiladi. Xorijiy sheriklar bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatiladi. Qo'shma korxonalar ko'payadi. Yurtimizga chet el sarmoyasi jalb etiladi. Zamonaviy texnologiyani olib kirish yo'lidan boramiz.

Xalqimizni oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun, umuman, xalq xo'jaligimizni tanglikdan chiqarish siyosatini tatbiq qilishda, avvalambor, qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berishimiz zarur.

Pirovardida bular peshtaxtalarni to'ldiradi, das-turxonimiz to'kin bo'ladi.

Beshinchidan. Ma'naviy hayotimizda boshlangan ishlarni davom ettiramiz. Oshkoralik ta'minlanadi. Matbuot, radio, televideniye vositasida odamlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga erishish tadbirlarini ko'ramiz. Bu yo'ldagi hamma to'siqlar, tazyiqlar olib tashlanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida madaniyat, san'at, adabiyot og'ir ahvolga tushdi. Ularni iqtisodiy zarbadan asrab qolishni Prezident o'z bo'yniga olishi kerak, deb hisoblayman.

Tarixga, merosimizga munosabatni amaliy izga ko'chirish lozim. Ya'ni, darsliklardan tortib oddiy o'quv kitoblarigacha haqiqat yozilishi shart. Bu bizning otabobolarimiz ruhi oldidagi qarzimizdir.

Oltinchidan. Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz.

Ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi.

Shu boisdan tarbiyachilarga, o'qituvchilarimizga, o'quv yurtlari domlari, professorlariga moddiy va ma'naviy yordamimizni sira ayamashligimiz kerak.

Biz tarbiya haqida o'ylar ekanmiz, yoshlarning keksalarga hurmati yuksak bo'lishi taomilini yo'qotmaylik. Shu nuqtayi nazardan hukumat Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini qaramog'iga to'la olishi, himoya qilishi, ularning qadrini joyiga qo'yishi shart, deb hisoblayman.

Shu o'rinda sog'liqni saqlash masalasini ham aytib o'tmoqchiman. Davlat bu sohani o'z qaramog'ida saqlaydi, moddiy ta'minot bazasini mustahkamlaydi. Biz bu sohada bolalarimiz, ota-onalarimiz taqdiri uchun qayg'urayotgan fidoyi kishilarni hurmat qilishimiz, ularga ko'mak berishimiz zarur.

Yettinchidan. Jahonga, butun dunyoga olib chiqadigan yo'limizni kengaytiramiz. Sizlarga ma'lum, taraqqiy etgan mamlakatlar uchta muhim masalaga e'tibor berishmoqda: inson huquqlari, demokratiya va sarmoya uchun kafolat masalasi. Biz ana shu masalalarni e'tiborda tutib, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lish choralarini ko'ryapmiz.

Sizlarga ma'lumki, xorijda ko'p vatandoshlarimiz yashaydi. Ularning kelib-ketishlarini yengillatish zarur. Kerak bo'lsa, ularga erkin kelib-ketish huquqini beraylik. Ularga ko'p masalalarda suyanishimiz, xayrixohligi, bizga umid ko'zi bilan qarayotganini hisobga olib, ularning ko'magiga tayanishimiz kerak.

Dunyoga, jahonga chiqadigan yo'limiz qanchalik yaqin va keng bo'lsa, bugungi qiyinchiliklarimiz, tashvishlarimiz shu qadar tez yengiladi.

Sakkizinchidan. Biz ko'ppartiyaviylik tizimiga o'rganishimiz kerak. Bu — yuz, ikki yuzta partiya degani emas, albatta. Qolaversa, maqsad — partiya-partiya bo'lib xalqni parchalab yuborish emas. Aksincha, partiyalar to'rtta bo'lar, beshta bo'lar, lekin ular ko'cha va maydonlarda janjal qilmasdan, mana shu yerda, parlamentda bahslashib, tortishib, xalqqa foydali fikrni qo'llashga o'rganishi kerak.

Biz ongimizni ana shunga moslashtirishimiz darkor, bu yo'lda qanday to'siqlar bo'lsa, olib tashlaylik.

Bundan keyin ko'p saylovlar bo'ladi. Ammo bizda saylov paytida guruhlariga bo'linish, saylovdan keyin esa bir-biridan o'ch olishdek yaramas illat bor. Buning oxiri yaxshilikka olib bormaydi.

Aksincha bo'lishi kerak. Nima bo'lsa ham qiladigan barcha ishlarimiz xalqimizni birlashtirishga, bir yoqadan bosh chiqarishga, hamkorlik, hamjihatlikka olib kelishi kerak.

Biz endi o'zini o'zi boshqaruv usulini keng joriy qilamiz. Mahalla, qishloqqacha o'zini o'zi boshqarishi, mustaqil bo'lishi zarur. Faqat bu — beboshlik, bo'ysunmaslik degani emas. Har qanday rahbar, har qanday mustaqil kishi xalq oldida, yurt oldida hisobdor, javobgardir degan qoidadan kelib chiqish shart.

To'qqizinchidan. Eski tuzumlardan bizga nurab, vayron bo'lgan boshqaruv tizimi meros qoldi. Ana shu vayrona o'rnida o'zimizning binoni tezroq tiklashimiz zarur.

Bunda biz nimani ko'zda tutamiz? Maqsadimiz qanday bo'ladi? Xo'jalik, tashkilot, fuqarolarga erkinlik

berildi. Demak, ularni tepadan turib boshqarish ortiqcha. Xo'sh, boshqaruv hokimiyati endi nima qiladi? Xo'jalik ishlariga aralashmasdan, o'z ishini bajarishi kerak. Ya'ni, ishlab chiqarishda samarali sharoit yaratib berish, xalqni himoya qilish, adolat, haqiqat o'rnatish yo'lini, yetim-yesirlar, nogironlarning boshini silash, kelajak hayotimiz haqida bosh qotirishni o'zining asosiy vazifasi deb bilishi lozim.

Shu o'rinda yana bir muhim masalani o'rta tashlamoqchiman. Huquqiy davlatning quroli ham, himoyasi ham, ko'zi ham, so'zi ham qonundir.

Ming afsuski, bizda qonunlarni mensimaslikka, ularni buzishga o'rganib qolingan. Qonunni buzishga hech kimning haqqi yo'q. Chunki qonun — xalqning xohish-irodasi! Uni buzgan, mensimagan odam xalqning yuziga oyoq qo'ygan kishidir.

Biz qonunni hurmat qilish, unga bo'ysunish, rioya qilish yo'lidan borsak, istiqbolimiz porloq bo'ladi. Ana shunga erishish uchun Prezident qonunlarning eng asosiy posboni, himoyachisi bo'lishi kerak, deb hisoblayman.

O'ninchidan. Yuqorida aytilgan va saylov arafasida bayon qilingan masalalarni amalga oshirish uchun Sizlarga, xalq noiblari, millat vakillariga suyanaman. Xalqdan uzoqlashmay, uning orasida tez-tez bo'lib, dardini, tashvishini o'z yuragimdan o'tkazib turishim shart, deb bilaman.

Sizlar bilan birga bo'lish xalq bilan birga bo'lishdir.

Xalq bilan birga bo'lish esa uning hayoti, uning turmushi, uning dardi bilan birga bo'lishdir.

Xalqqa, yurtga xizmat qilish er kishi uchun, mard kishi uchun, o'g'lon uchun sharaflı ishdir.

Ana shu sharafga meni loyiq deb bilgan xalqimga qulluq qilaman va u bilan birgaman.

Katta, mas'uliyatli yo'lda Tangrimiz bizga madadkor bo'lsin!

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining
navbatdan tashqari IX sessiyasidagi ma'ruza*

1992-yil 4-yanvar

MUNDARIJA

So'zboshi o'rnida	3
BIZ BUNDAN BUYON ESKICHA YASHOLMAYMIZ VA BUNDAY YASHASHGA ZAMONNING O'ZI YO'L QO'YMAydi. <i>O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Farg'ona vodiysi oblastlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan Kengashida so'zlangan nutqdan. 1989-yil 24-iyun</i>	31
JAMIYATNI YANGILASH UCHUN KURASHAYOTGAN BARCHA SOG'LOM KUChLARNI BIRLASHTIRISH ZARUR. <i>O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XVI plenumida so'zlangan nutqdan. 1989-yil 19-avgust</i>	45
TIL ELNI BIRLASHTIRISHI LOZIM. <i>O'zbekiston SSR Oliy Sovetining o'n birinchi sessiyasida so'zlangan nutqdan. 1989-yil 25-oktabr</i>	64
ILM-FAN IMKONIYATLARIDAN TO'LAROQ FOYDALANAYLIK. <i>O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasida bo'lib o'tgan uchrashuvda so'zlangan nutqdan. 1989-yil 28-noyabr</i>	70
TOSHKENTNI YUKSAK TARAQQIYOT VA MADANIYAT SHAHRIGA AYLANTIRISHIMIZ KERAK. <i>Toshkent shahar faollari yig'ilishida so'zlangan nutqdan. 1990-yil 20-yanvar</i>	93
ODAMLAR BIZDAN AMALIY ISHLAR, ANIQ NATIJALARNI KUTMOQDA. <i>Toshkentda SSSR, O'zbekiston SSR, mahalliy sovetlarning xalq deputatlari va jamoatchilik vakillari ishtirokida bo'lib o'tgan kengashda so'zlangan ma'ruzadan. 1990-yil 24-fevral</i>	121
O'ZBEKISTONDA PREZIDENT INSTITUTNING JORIY ETILISHI TO'G'RISIDA. <i>KPSS Markaziy Komitetining 1990-yil fevral va mart plenumlarining yakunlari hamda KPSS XXVIII syezdiga va O'zbekiston Kompartiyasi XXII syezdiga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan respublika partiya tashkilotlarining vazifalari to'g'risidagi ma'ruzadan. 1990-yil 24-mart</i>	142

XALQ IRODASI BILAN TANLANGAN YO'L. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasida so'zlangan nutqdan. <i>1990-yil 24-mart</i>	144
O'TMISHDAN SABOQ CHIQARIB, KELAJAKKA ISHONCH BILAN. O'zbekiston Kompartiyasining XXII syezdida so'zlangan ma'ruzadan. <i>1990-yil 5-iyun</i>	158
MUSTAQILLIK DEKLARATSIYASI. O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qabul qilingan. <i>1990-yil 20-iyun</i>	224
O'ZBEKISTONNING IQTISODIY MUSTAQILLIGI XUSUSIDA. <i>1990-yil 21-iyun</i>	227
ABU ISO MUHAMMAD IBN ISO AT-TERMIZIY TAVALLUDINING 1200 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN XALQARO ILMIY ANJUMAN ISHTIROKCHILARIGA. <i>1990-yil 14-sentabr</i>	242
«BOBURNOMA»NING 460 YILLIGI BAYRAMIGA TASHRIF BUYURGAN MEHMONLAR QABUL QILINGANI TO'G'RISIDA AXBOROT. <i>1990-yil 26-oktabr</i>	245
HAMMASIGA O'ZIMIZ ERISHMOG'IMIZ ZARUR. «Izvestiya» gazetasi muxbirining savollariga javoblar. <i>1991-yil 29-yanvar</i>	247
IQTISODIY OMILLAR AMAL QILSA, «TEMIR QO'LGA» HOJAT QOLMAYDI. «Pravitelstvenniy vestnik» haftanomasi muxbiri savollariga javoblar. <i>1991-yil 2-fevral</i>	259
O'ZBEKISTON SOVET SOTSIALISTIK RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI. Respublikada Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish haqida. <i>1991-yil 12-fevral</i>	265
MURAKKAB VAZIYATDA OQILONA SIYOSAT YURITAYLIK. O'zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari to'rtinchi sessiyasida so'zlangan nutq. <i>1991-yil 15-fevral</i>	268

BIZNI KAPITALIZMDAN SAKRAB O'TISHGA O'RGATISHGAN.	
«Komsomolskaya pravda» gazetasi muxbiri savollariga javoblar. 1991-yil 7-mart.....	275
O'ZBEKISTON FAQAT IQTISODIYOTDA EMAS, BOSHQA SOHALARDA HAM DADIL QADAMLAR QO'YMOQDA.	
«Di Sayt» nemis haftanomasi savollariga javoblar. 1991-yil 12-mart.....	285
MUSTAQILLIK – ENG AVVALO XALQ BIRLIGI VA HAMJIHATLIGIDIR.	
Respublika qishloq xo'jaligi xodimlari qurultoyida so'zlangan nutq. 1991-yil 27-mart.....	299
O'ZBEKISTON BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHIGA AMINMAN.	
O'zbekiston SSR Oliy Kengashining beshinchi sessiyasida so'zlangan nutq. 1991-yil 12-iyun.....	322
DEMOKRATIYA – QONUNGA VA SHAXSGA HURMAT DEMAKDIR.	
«Rabochaya tribuna» gazetasi muxbiri savollariga javoblar. 1991-yil 4-iyul.....	336
HINDISTONGA MEHR BILAN.	
«Tayms of India» gazetasi muxbiri savollariga javoblar. 1991-yil 16-avgust.....	349
O'ZBEKISTON SOVET SOTSIALISTIK RESPUBLIKA- SINING PREZIDENTI ISLOM KARIMOVNING RESPUBLIKA AHOLISIGA MUROJAATI.	
1991-yil 20-avgust.....	355
O'ZBEKISTON SOVET SOTSIALISTIK RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI. 1991-yil 25-avgust.....	
	360
XALQIMIZNING FIKRI – BIZ UCHUN OLIY MEZON.	
O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti bilan Markaziy nazorat komissiyasining qo'shma plenumidagi ma'ruza. 1991-yil 28-avgust.....	362
O'ZBEKISTON SOVET SOTSIALISTIK RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI.	
KPSS ning O'zbekiston SSR hududidagi mulki to'g'risida. 1991-yil 29-avgust.....	382

MUSTAQIL O'ZBEKISTONNING DAVLAT SIYOSATI INSONIYLIK VA EZGULIK QONUNLARIGA ASOSLANADI. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida so'zlangan nutq. 1991-yil 31-avgust	383
O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MUSTAQILLIGI ASOSLARI TO'G'RISIDA. 1991-yil 31-avgust.....	395
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining qarori. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASINING ADABIYOT ILMGOHIGA ALISHER NAVOIY NOMINI BERISH TO'G'RISIDA. 1991-yil 19-sentyabr.....	399
NAVOIY RUHI MADADKOR BO'LG'AY! O'zbekiston Milliy borida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan barpo etilgan haykalning tantanali ochilish marosimida so'zlangan nutq. 1991-yil 1-oktabr	400
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTLIGIGA NOMZOD ISLOM KARIMOVNING O'ZBEKISTON FUQAROLARIGA MUROJAATI. 1991-yil 3-dekabr	404
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI IX SESSİYASI HAQIDA AXBOROT. 1992-yil 5-yanvar	412
MUSTAQIL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BIRINCHI PREZIDENTI ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOV QASAMYODI	414
O'ZBEKISTON DUNYO XARITASIDA O'ZIGA MUNOSIB JOY OLDI. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari IX sessiyasidagi ma'ruza. 1992-yil 4-yanvar	415

Rasmiy nashr

Islom Abdug'aniyevich Karimov

**O'ZBEKISTON MUSTAQILLIKKA
ERISHISH OSTONASIDA**

Nashrga tayyorlovchilar:

*X. Sultonov, M. Qarshiboyev,
Z. Mirzaqulov, J. Meliqulov, F. Karimov*

Muharrirlar:

A. Sa'dullayev, B. Xudoyorova

Badiiy muharrir *H. Qutluqov*

Texnik muharrir *U. Kim*

Musahhihlar: *G. Azizova, S. Salohutdinova*

Kompyuterda tayyorlovchi *L. Goldobina*

Bosishga ruxsat etildi 11.08.2011. Qog'oz formati 60 × 90¹⁶/₁₆.

«Baltika» garniturada ofset usulida bosildi. Shartli b.t. 27,0.

Nashr t. 18,73. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 11-197.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

ISBN 978-9943-01-728-3



9 789943 017283

Karimov, Islom Abdug'aniyevich.

K25 O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida
I.A. Karimov. — T.: «O'zbekiston», 2011. — 432 b.

ISBN 978-9943-01-728-3

УДК: 341.231(575.1)+ 94(575.1)
ББК 66.3(57)